Ona tili ta'limi bolalarning tafakkur qilish faoliyatini kengaytirishga, erkin fikrlay olishi, o'zgalar fikrini tinglashi, o'z fikrlarini og'zaki va yozma ravishda ravon bayon eta olishi, jamiyat a'zolari bilan erkin muloqotda bo'la oladigan ko'nikma va malakalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu o'rinda ona tili ta'limiga o'quv fani emas, balki butun ta'lim tizimini uyushtiruvchi ta'lim jarayoni sifatida qaraladi. Nutq–kishi faoliyatining turi, til vositalari (so'z, so'z birikmasi, gap) asosida tafakkurni ishga solishdir. Nutq o'zaro aloqa va xabar, o'z fikrini his-hayajon bilan ifodalash va boshqalarga ta'sir etish vazifasini bajaradi.

Yaxshi rivojlangan nutq jamiyatda kishi faoliyatining muhim vositalaridan biri sifatida xizmat qiladi. O'quvchi uchun esa nutq maktabda muvaffaqiyatli ta'lim olish qurolidir. Nutq o'stirish nima? Agar o'quvchi va uning tilidan bajargan ishlari ko'zda tutilsa, nutq o'stirish

deganda tilni har tomonlama faol amaliy o'zlashtirish tushuniladi. Agar o'qituvchi ko'zda tutilsa, nutq o'stirish deganda, o'quvchilarning tilning talaffuzi, lug'ati, sintaktik qurilishi va bog'lanishli nutqni faol egallashlariga yordam beradigan metod va usullarni qo'llash tushuniladi.

Nutq o'stirishda uch yo'nalish aniq ajratiladi:

- 1) so'z ustida ishlash;
- 2) so'z birikmasi va gap ustida ishlash;
- 3) bog'lanishli nutq ustida ishlash.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari nutqini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlaridan biri so'z ustida ishlash, ya'ni lug'at ishidir. Ona tili va o'qish darslarida bajariladigan lug'at so'zlari o'quvchining so'z boyligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. M. R. Lvovning ma'lumot berishicha, 4- sinfgacha boshlang'ich sinf o'quvchilari o'zlashtiradigan yangi so'zlarning yarmi o'quvchilar lug'atiga ana shu darslar orqali kiradi. Lug'at ishi bosqichlarini quyidagicha ifodalash mumkin: 1) so'z ma'nosini tushuntirish, 2) so'zni faollashtirish, 3) so'zni nutqda qo'llash. O'quvchilar lug'atini faollashtirish – ona tili va o'qish darslarida bajariladigan lug'at ishining eng muhim yo'nalishlaridan biridir. Shuning uchun o'qituvchining vazifasi – o'quvchi lug'atidagi nafaol so'zlarni faol lug'at zaxirasiga o'tkazish uchun o'quvchiga nafaol so'zlarning birikuvchanligi va qo'llanish sohasini o'zlashtirishga yordam berishdan iborat. O'quvchi biror so'zni o'z qayta hikoyalashi, hikoyasi, suhbat, xati, bayoni, inshosida atigi bir marta qo'llasa ham, bu so'z faollashgan hisoblanadi. So'zni o'zlashtirish uning ma'nosi, birikuvchaligi va qo'llanish doirasini bilishdan iborat. O'quvchiga yangi so'z ma'nosini tushuntirish, uning so'zni to'g'ri tushunishiga erishish zarur. Buning uchun esa o'qituvchi so'z ma'nosini tushuntirish usullarini bilishi va ulardan o'rinli foydalanishi lozim.

Har qanday fan o'zining ilmiy-tadqiqot metodlariga ega. Bu metodlari orqali u o'z mazmunini boyitib, yangilab boradi. Hayotda va obyektiv dunyoni bilish nazariyasida nimani o'rgatish va qanday o'rgatish kerak, kimni qanday tarbiyalash lozim degan masalalar mavjud bo'lib, ular o'zaro bog'liqdir. Nima qilish kerak va qanday amalga oshirish lozim – degan muammolar o'rtasida dialektik birlik mavjuddir.

Pedagogika o'z mazmunini boyitish va yangilash maqsadida mavjud pedagogik hodisa hamda jarayonlarni uning maqsadi va vazifalariga muvofiq keladigan metodlari bilan o'rganadi. Shu ma'noda pedagogikaning ilmiy-tadqiqot metodlari deganimizda yosh avlodni tarbiyalash, bilim berish va o'qitishning real jarayonlariga xos bo'lmagan ichki aloqa va munosabatlarni tekshirish, bilish metodlari, uslublari hamda vositalari majmuini tushunamiz.

Binobarin, pedagogik tadqiqot metodlariga obyektivlik o'qituvchilik pedagogik faoliyatini oshirishga qaratilgan tadqiqot vazifalarining aniqligi, o'quvchilarning yosh xususiyatlarini, bolalar psixologiyasi qonuniyatlarini hisobga olish kabi talablar qo'yiladi. Lekin, bolalarni o'qitish va tarbiyalash amaliyotining o'zi hamma vaqt pedagogik tadqiqotlarning manbai hisoblanadi. Faqat maktab tajribalarigina har bir ilmiy nazariyaning haqqoniyligi hisoblanadi. Tadqiqot metodlarining tanlash fanning o'zi uchun muhim ahamiyatga egadir, uning metodlari qanchalik mukammal bo'lsa, shu fan oldida turgan aktual vazifalar shunchalik muvaffaqiyatli hal etiladi. Hozirgi pedagogik tadqiqotlarning metodlar tizimini to'la hal etilgan deb bo'lmaydi. Ilmiy - pedagogik tadqiqotning asosiy metodlari kuzatish, suhbat, tekshirish, eksperiment metodlari singari faoliyat natijalarini o'rganishdan iborat.

Boshlang'ich sinf ona tili darslarida so'z ustida ishlashda quyidagi metodik usullardan foydalaniladi:

1. So'z ma'nolarini taqqoslash va ularni sharhlash. Bu usul ko'chma ma'noli so'z va iboralar, paronim so'zlar, shakli bir xil so'zlarning ma'nosi, imlosi, talaffuzini izohlashda qo'llaniladi: urish – urush: ikki kishining janjallashib qolishi – urish; ukki xalq, ikki davlat orasidagi jang – urush. Bu so'zlarning talaffuzi ham ikki xil.

2. So'zlarni kuzatish usuli orqali ularning imlosini, ma'nosini va talaffuzini o'rgatish. Bu usul o'zakdosh so'zlarni o'rganish jarayonida, ko'm-ko'k, oppoq, qip-qizil sifatlarining (qizil, oq, ko'k) ma'no nozikliklari, imlosi, talaffuzini o'rgatishda qo'llaniladi. Masalan: gul, guldon, gulchi, gulzor, gulli, gulsiz, gulla so'zlarining tarkibini kuzatadilar. Bu so'zlar ma'nosidagi farqni izohlaydilar va tilning yangi so'zlar hisobiga boyib borishini anglay boshlaydilar. Shunday o'rinda o'qituvchi so'zlarni o'z so'ziga aylantirish orqali aniq fikr yuritishga o'rganish o'quvchining burchi ekanini aytishi lozim. Kuzatish usuli shakllari o'zgarayotgan so'zlarning imlosini o'rgatishda ham qo'llaniladi: og'iz + im – og'zim, singil + im – singlim, u + ga – unga.

3. So'zlarni belgilariga ko'ra guruhlash usuli. Guruhlash – aqliy faoliyat usuli bo'lib, u ona tili mashg'ulotlarida o'quvchilarning so'z boyligini oshirishda muhimdir. Bu usul so'zlarni anglatayotgan ma'nosi, turkumi, yasalishi, imlosi, uyasi kabilarga ajratish imkonini beradi. Guruhlash, kuzatish va taqqoslash usuli bilan bog'liq. So'zlarni guruhlash uchun avvalo ular kuzatiladi, so'ng taqqoslanadi. Bu jarayonda ularning o'xshash va farqli tomonlari ajratiladi. Masalan, qavm-qarindoshlik bo'yicha guruhlash:

1. Ota urug'i: ota, amaki, amma, dada, bobo, buvi, buva.

2. Ona urug'i: ona, xola, tog'a, oyi, bobo, buva, buvi.

Sifatlarda: a) xususiyat bildiruvchi sifat: sho'x, og'ir, bosiq, aqli, aqlsiz, hayoli, hissiz, andishali, dangasa, tanbal, ishchan, mehnatsevar va hokazo; b) ta'm bildiruvchi sifat: shirin, achchiq, nordon, taxir, sho'r, mazali, bemaza, chuchmal va h.

Ona tili darslarida qo'llanilgan har bir metod o'quvchining ijodiy fikrlashini, nutqini o'stirishga xizmat qilishi kerak. Chunki mustaqil fikrlay oladigan o'z nutqini ravon bayon qila oladigan shaxs jamiyatimizning barkamol shaxsi bo'lib yetishishiga also shubha yo'q.

REFERENCES

1. Sh.Mirziyoyev: "O'zbek tili xalqimiz uchun milliy o'zligimiz"
2. Nutq turlari. O'qituvchi nutqiga qo'yiladigan talablar 16-dekabr. 2020yil
3. Ikromova R., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Shodmonqulova D. Ona tili. 4-sinf uchun darslik. – Toshkent: «O'qituvchi», 2015. – 192 b
4. 4. M.X.Tilavoldiyeva, K.G.Kamolova, A.A.Fozilova .
5. Ilmiy tadqiqot metodologiyasi fanidan o'quv-metodik majmua. Toshkent -2022
6. 5.X.G'ulomova ,T.G'affarova .Ona tili darslari 1-sinf o'qituvchilari uchun metodik qo'llanma.«Tafakkur» nashriyoti .Toshkent – 2012
7. 6.O'. O'tanov. " Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti ". Samarqand, 2016 12-13- bet.

Internet saytlari:

1. www.ziyonet.uz
2. www.referat.uz
3. www.hozir.org
4. www.wikipedia.uz

O'ZBEK XALQ CHOLG'USI DUTOR VA UNING TURLARI

Abruyeva Marxabo Abdunazarovna

Qarshi ixtisoslashtirilgan san'at maktabi xalq cholg'ulari o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7612940>

Annotatsiya. Mazkur maqolada dutorning yasaliishi, tuzilishi va sozlanishi, shuningdek dutor oilasi haqida ma'lumot berib o'tilgan bo'lib, maqola mazmunini ochib berish maqsadida turli rasmlardan foydalanilgan.

Kalit so'zlar: xalq jolg'usi, dutor, do'mbira, tut yog'ochi, dutor prima, dutor sekunda.

ДУТОР НА УЗБЕКСКОМ НАРОДНОМ ИНСТРУМЕНТЕ И ЕГО РАЗНОВИДНОСТИ

Аннотация. В данной статье представлена информация об изготовлении, устройстве и настройке дутора, а также о семействе дуторов, а для раскрытия содержания статьи использованы различные изображения.

Ключевые слова: народный бревно, дутор, домбира, тутовое дерево, дутор прима, дутор секунда.

UZBEK FOLK INSTRUMENT DUTOR AND ITS TYPES

Abstract. This article provides information about the making, structure and adjustment of the dutor, as well as the dutor family, and various pictures are used to reveal the content of the article.

Key words: folk log, dutor, dombira, mulberry tree, dutor prima, dutor secunda.

Dutor juda qadimiy musiqa asbobi, uning paydo bo'lish tarixiga kelsak, eramizdan avvalgi asrlarga borib taqaladi. Dutor tojikcha so'z bo'lib ikki tor degan ma'noni bildiradi.

Dutor asr-asrlardan o'zbek xalqiga madaniy xizmat qilib kelayotgan milliy musiqa cholg'ulardan biri hisoblanadi. Bu cholg'u faqat o'zbek xalqining cholg'usi bo'lmay, balki uni qardosh tojik, uyg'ur, qoraqalpoq, turkman xalqlari ham o'zlarining sevimli cholg'usi deb hisoblashadi.

Dutor kvarta, kvinta, oktava va unisonga ham sozlanadi. Bizda qo'llanilayotgan dutor-alt deb ataladi. Bu cholg'u kichik oktava lya va mi notalarga sozlanadi. Dutorga o'xshash cholg'uni, qozoqlarda «Do'mbira», qirg'izlarda «Qo'buz» deb atashadi.

Dutorlar asosan ikki xil turda yasaladi. Qadim o'tmishda sozandalarimizga xizmat qilib kelayotgan dutor dastasiga ichak yoki ipakdan eshilgan pardalar bog'langan diatonik tovushqatorda (mumtoz kuylar va maqom yo'llari ijro etilardi) bog'langan va bu dutorlarni xalq dutorlari deyilgan.

Dutor yasaliishi jihatdan ikki qismdan iborat (dasta va kosa) bo'lib, bularni birlashtiruvchi qismini «Bug'iz» deb ataladi. Dutorning kosasi o'yma va qovurg'achalarning birlashganidan yasaliishi mumkin. «O'yma dutor» Samarqand, Xorazm, Tojikiston va Turkmanistonda qo'llanilib, bir bo'lak tut yog'ochidan o'yib ishlanadi. Qobirg'ali dutor ham tut yog'ochidan ishlanib, 8-10 bo'lak yupqa taxtachani egib birlashtiriladi. Kosa ustiga yopishtiriladigan qopqoq ham tut yog'ochidan tayyorlanadi. Odatda dutor yasaladigan tut yog'ochi soyada quritiladi. Dutorning umumiy uzunligi 1200-1300 mm, ayrim joylarda esa 750-800 mm ni tashkil etadi.

1936-37 yillarda Toshkentda o'zbek musiqa cholg'ularini takomillashtirish ustaxonasi ochilib, boshqa sozlar qatori nota ilmiga moslashtirilgan yog'och pardali, kapron torli yangi

dutorlar ishlab chiqarila boshladi. Hozirgi kunda bu dutorda malakali o'qituvchilarimiz tomonidan yosh dutorchilarga ijrochilikdan saboq berilmoqda. Dutor haqida gap borganda, albatta, uning mohir ijrochilarini eslab o'tish joizdir.

Mashhur dutorchilar: H.A.Abdurasulov, Abdusoat Vahobov, Davlatoxun Qodirov, Yunus Rajabiylar dator cholganlarida kishilar og'ir sukunatga cho'mib, olam-olam ma'noli hissiyotlar ummoniga botar ekan. Ulardan keyin esa Shokir Sartarosh, Orif Qosimov, Zokirjon Obidov, To'xtamurod Rasulov va boshqalar.

Hozirda esa xizmat qilib kelayotgan dutorchilar G'ulom Qo'chqorov, Abdurahim Hamidov, Mirsodiq Ergashev, Ro'zibibi Hojiyeva, Malika Ziyayeva, Obidjon Odilov, Sulton Qosimov va boshqalar.



Dutor prima

Dutor prima dutorning kichraytirilgan turi. Buning qopqog'i tut o'rniga archa daraxtidan qilinadi. Ipak torlari o'rniga ichak tor tortilgan. Pardalar dastasini o'yib xromatik holda doimiy o'rnashtirilgan. Torlar kvarta bo'yicha birinchi oktavadagi mi va lya ga sozlanadi. Notalar skripka kalitida, eshitalishiga nisbatan oktava yuqorida yoziladi. Xajmi kichik oktavadagi mi-lya dan birinchi oktavadagi sol va ikkinchi oktavadagi do ga qadar. Dutorlar oilasiga mansub bu cholg'u asbobi eng baland tovushga ega bo'lib, skripka kalitida yoziladi. Ikki kapron ipak toridan iborat ushbu cholg'u asbobi kvarta oralig'ida sozlanadi. Applikatura jihatidan rubob prima g'ijjak asbobiga o'xshab ijro etiladi. Masalan: pissikato, bidratma, stakatto va hokazolar.

Dutor primani sozlanishi birinchi tor (pastki tor) mi va ikkinchi tor (yuqorigi tor) lya tovushlaridir. Dutor primaning umumiy ovoz hajmi birinchi oktavadagi mi tovushidan uchinchi oktava lya tovushiga qadar. Dutor prima orkestrda solo chalish va jo'rnavorlik vazifasini bajaradi.

Dutor sekunda

Yangi ishlangan datorlar oilasiga kiruvchi ushbu dator-sekunda cholg'usi, ovoz jihatidan o'rtacha registrda. Uning ham torlari ikki ipak tordan iborat bo'lib, kvarta oralig'ida sozlanadi. Tashqi ko'rinishi dator primadan bir oz kattaroq qilib ishlangan, ya'ni datorlarning kosasi bir xil

bo'lib, dastasinng uzunligi har xil bo'ladi. Dutor-bas va dator-kontrabas cholg'u asboblarini kosasi katta bo'ladi. Dutor sekunda cholg'usining birinchi tori kichik oktava Iya tovushiga, ikkinchi tori kichik oktava re tovushiga sozlanadi. Umumiy ovoz hajmi kichik oktavadagi Iya tovushidan ikkinchi oktavadagi re tovushigacha.

Dutor-bas

Dutor-bas maxsus sinfi Toshkent Davlat konservatoriyasida 1948 yil ochilgan bo'lib, A.Nazarov ushbu sinfni tugatib, hozirgi kunda 1960 yildan buyon ushbu sinfda dars berib kelmokda. Dutor-bas iqtisoslgi bo'yicha ijrochilarni tayyorlash va tarbiyalashda dosent A.K.Nazarovning xizmatlari kattadir. Dutor-bas asbobi o'zbek xalq cholg'u ansambli tarkibida bas tovushini mustahkamlash uchun xizmat qiladi. Ushbu asbobni sozanda o'tirgan holda ijro etadi. Dutor bas-dutorning katta qilib ishlangan turi. Dutor basning to'rtta tori bo'lib, bular kvinta bo'yicha sozlanadi. To'rtinchi tor katta oktavadagi do, uchinchi tor katta oktavadagi sol, ikkinchi tor kichik oktavadagi re va birinchi tor kichik oktavadagi Iya tovushlariga sozlanadi. Iya tori ichakdan qilingan bo'lib, qolganlari metaldandir. Notalar eshitilishi bo'yicha, bas kalitida yoziladi. Ovoz hajmi katta oktavadagi do dan birinchi oktavadagi sol ga qadar.

Dutor-kontrabas

Dutor kontrabasning kosasi katta-katta "Qobirg'alar" dan iborat bo'lib, dator basdan ancha kattaroq qilib ishlangan. Dastasi dator bas asbobidan uzunroq bo'ladi, quloqlari temir metaldan ishlangan bo'lib, qattiq, tortib turish vazifasini bajaradi. Dutor kontrabasning torlari juda qalin bo'lib, orkestrda o'zining yo'g'on bas tovushi bilan, pastki registr tembrini mustahkamlaydi. Dutor kontrabasning kosasiga maxsus tayyorlangan tayoqcha o'rnatilib, o'tirgan holda ijro etiladi.



Dutor uchun xalq orasida maxsus kuylar yaratilgan. Bular safiga „To'rg'ay“, „Farg'onacha“, „Tanovar“, „Munojot“, „Rohat“, „Jigarpora“, „Dilxiroj“, „Chertmak“, „Shafoat“, „Suvora“, „Qo'shtor“ kuylarini kiritish mumkin.

REFERENCES

1. Abdullayev K. «Nodir topilma» O'zbekiston madaniyati, 23 oktyabr 1973 y.
2. Abdullayeva S. «Zamonaviy Ozarbayjon musiqa cholg'ulari» Boku 1960 y.
3. Abdullayev S. «Qonun» darslik, A. Qodiriy nashriyoti, T., 2004 y.
4. Avedova N.A. «Iskusstvo oformleniya uzbekskix muzkalnix instrumentov» Toshkent «San'at» nashriyoti., 1959 y.
5. Akbarov Il. «Musiqqa lug'ati» Toshkent «San'at» nashriyoti., 1997 y.
6. Akbarov Ik. «Doira ohanglari» Toshkent, 1952 y.
7. Alimbayeva K. Axmedov M. «O'zbek xalq sozandalari» Toshkent. 1959 y.
8. Asqarov A. «O'zbekiston xalqlari tarixi» Toshkent. «Fan» 1992 y.
9. Bajenova «Pedagogik izlanish» Toshkent. «O'qituvchi» 1990 y.

BOSHLANG'ICH SINFLARDA FANLARNI O'QITISHDA QO'LLANILADIGAN USULLAR

Mo'minova Diloram Abdumanofovna

Andijon viloyati Shahrixon tumani 51 - maktab

Boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7612984>

Anatatsiya. Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining shakllanib borayotgan bilim, ko'nikma va malakalarini, shuningdek dars samaradorligini oshirishga xizmat qiladigan va fanlarni o'qitishda qo'llaniladigan metodlar haqida ma'lumotlar keltirildi.

Kalit so'zlar: Boshlang'ich ta'lim, metod, O'zingni sinovdan o'tkaz" metodi, "Buyuk siymolarga tavsif" metodi, "Kichik muhokamachi" metodi, "Xulosa qilishga tayyorman" metodi, "O'z xotirangni sinovdan o'tkaz", "Lug'at bilan ishla" metodi.

МЕТОДИКА ПРЕПОДАВАНИЯ ПРЕДМЕТОВ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ.

Аннотация. В данной статье представлена информация о методах, используемых при преподавании предметов, которые служат повышению знаний, умений и навыков учащихся начальных классов, а также эффективности урока.

Ключевые слова: начальное образование, методика, методика «Проверь себя», методика «Описание великих деятелей», методика «Небольшое обсуждение», методика «Готовься к выводу», методика «Проверь память», методика «Работа со словарем».

METHODS USED IN TEACHING SUBJECTS IN PRIMARY GRADES

Abstract. This article provides information about the methods used in the teaching of subjects, which serve to increase the knowledge, skills and abilities of primary school students, as well as the effectiveness of the lesson.

Key words: Primary education, method, "Test yourself" method, "Description to great figures" method, "Small discussion" method, "Ready to conclude" method, "Test your memory" pass", "Work with the dictionary" method.

Ma'lumki, o'quvchilarning asosiy vaqti maktablarda ta'lim-tarbiya olish bilan o'tadi. Kelajakka qadam ham aynan maktab davridan boshlanadi. Bir so'z bilan aytganda maktab o'quvchilarning shaxs sifatida barkamol kamol topishiga, o'sib kelayotgan avlodning ijodiy qobiliyatlarini aniqlash va rivojlantirishga, og'zaki va yozma nutqini o'stirishga, shuningdek, ularning bo'sh vaqtdan oqilona foydalanishga yo'naltirilgan. Chunki, maktab uzluksiz ta'lim tizimining tarkibiy qismi bo'lib, uning asosiy vazifasi o'quvchi yoshlarga ta'lim va tarbiya berish bilan birga ularning maktabdan va sinfdan tashqari bo'sh vaqtini sermazmun o'tkazish, yoshlarning ongiga milliy g'oya va vatanparvarlik tuyg'ularini singdirishdan iboratdir. Quyida ko'rsatilgan usullar boshlang'ich sinf o'quvchilarining shakllanib borayotgan bilim, ko'nikma va malakalarni, shuningdek dars samaradorligini oshirishga xizmat qiladi

O'zingni sinovdan o'tkaz" metodi

Har bir guruh ushbu fandan olgan taassurotlari, bilim va malakalarini sinovdan o'tkazish maqsadida "O'zingni sinovdan o'tkaz" toshirig'i asosida o'tilgan mavzularga aqliy hujum asosidagi tezkor savol-javoblarga javob berishlari aytiladi.

"Buyuk siymolarga tavsif" metodi

Bunda oldindan o'quvchilarga buyuk siymolar A.Temur, Jalolliddin Manguberdi (boshqa shoirlar, allomalar ham berilishi mumkin) hayoti, ijodi va faoliyati borasida chuqur izlanib, ularga tavsif berishlari lozim.

“Xulosa qilishga tayyorman” metodi

Bunda guruh o'quvchilariga o'tilgan mavzularda ular tanishgan asarlari (misollari, kasalliklarning oldini olish borasidagi qarashlari) ga katta e'tibor qaratiladi. Uning tarbiyaviy ahamiyati bugungi hayotimizda nechog'li ahamiyatga ega ekanligiligi so'raladi.

“Kichik muhokamachi” metodi

Ushbu topshiriq jarayonida o'quvchilarning o'tilgan darslar davomida erishgan yutuqlari va kamchiliklarini shaxsiy kuzatishlari asosida aytishlari, muhokama qilishlari lozim. Ushbu topshiriq turli fanlarda turlicha kechadi.

“O'z xotirangni sinovdan o'tkaz”

Bunda o'qituvchi o'z mavzularidan kelib chiqib, qog'ozga berilgan topshiriqni (shoirlar nomi yoki asarlarini, raqamlarning nomini, yoki kasalliklarning nomini) eslab qolish asosida to'g'ri va xatosiz yozishlari lozim.

“Lug'at bilan ishla” metodi.

Har bir guruhga o'tilgan mavzu boprasida lug'atning ma'nosini to'g'ri va aniq yozib berish topshiriladi (Xoh doskada, xoh og'zaki, xoh qog'ozda)

Darsni yakunlash:

Bugungi dars davomida berilgan topshiriqlar asosida guruhlarning qay darajada o'tilgan mavzuni egallaganliklari, bugungi mavzuning ular hayotidagi ahamiyatli tomonlari xulosa qilinadi. Guruhlarga berilgan rag'bat kartochakalari yordamida guruhda faol qatnashgan o'quvchilar va guruh rag'batlantiriladi.

Uyga vazifa: Har bir guruh o'zi ustida ishlab, kelasi darsda yangiliklar (xoh biror ijodkorning asarini o'qib tahlil qilishi, xoh she'r, hikoya, ertak yozib kelishi, xoh matematik misollardan qiyin misol yoki masala tuzishi yoki uni yechib kelishi, xoh biror kasallik borasida ma'lumotlar to'plab, uni chiqib ma'ruza shaklida o'qib berishi mumkin) topshiriladi.


Yana bir yangi usul:

Qo'llanilishi: O'tilgan mavzularni baholash, takrorlash, mustahkamlash, o'zaro bellashishga mo'ljallangan.

Usul maqsadi: dars jarayonida o'quvchilarni aniq tezlik bilan xatosiz javob berishga va aniq, to'g'ri qarorga kela olishga undashdan iborat.

Usul uchun kerakli jihozlar: Savollar blankasi, estafeta tayoqchasi, bayroqchadan foydalanish ham mumkin, o'quvchilarni guruhlarga ajratuvchi raqamli qog'oz.

Usulni o'tkazish qoidasi: Dastlab guruh o'quvchilari 2 guruhga ajratiladi. Ularning joylashishi va harakatlanishi quyidagidek amalga oshiriladi.



1-Guruh a'zolarining partalarda joylashishi va harakatlanish sxemasi. Usul parta oxiridan boshlanadi.

Qaysi guruh birinchi bo'lib boshlashi qura tashlash yo'li bilan aniqlanadi. O'qituvchi o'yinni birinchi bo'lib boshlaydigan jamoa ishtirokchisiga dastlabki

savolni beradi. Ishtirokchi berilgan savolga javob bersa qo'lidagi estafeta tayoqchani keyingi sherigiga uzatadi. Agar savolga javob qaytara olmasa qo'lidagi estafeta tayoqcha o'zida qoladi.

O'qituvchi keyin raqib jamoaning birinchi ishtirokchisiga savol beradi. Bu ishtirokchi ham berilgan savolga javob bersa qo'lidagi estafeta tayoqchani keyingi sherigiga uzatadi. Agar savolga javob qaytara olmasa qo'lidagi estafeta tayoqcha o'zida qoladi. Estafeta tayoqchasini qatnashchilar bir-birlariga navbat bilan uzatib borishadi.

Estafeta tayoqchasini faqat savolga javob bergandagina uzatishga ruxsat beriladi. Shu tariqa savol-javob qaysidir guruh qo'lidagi estafeta tayoqchasini o'qituvchiga birinchi bo'lib yetkazib borishga qadar davom etadi.

Estafeta tayoqchasini jamoa a'zolari qoidani buzmasdan, vazifani aniq va tezda bajarib, birinchi bo'lib o'qituvchiga yetkazib bersa o'sha jamoa g'olib deb topiladi. Jamoa a'zolarining o'yindagi ishtirokini o'qituvchi aniqlab boradi dars so'ngida ularni rag'batlantiradi. Bunda ishtirokchining o'ziga berilgan har bir savolga birinchi imkoniyatda javob qaytarib, estafeta tayoqchasini sherigiga vaqtida uzatib borishi hisobga olinadi.

"Tovushli diktant" usuli

O'tkazish tartibi. O'quvchilar daftarlariga so'zlarni yozib, yodlab olishlari kerak (*tovushlar orasidagi interval 1-2 soniya*)

(Z), (I), (N),(A) (Z), (A), (N), (J),(I),(R) (I), (Ch), (A), (M),(I),(Z).

(B), (A), (N), (A),(N) (B), (A), (L), (A),(N),(D) (Z), (A), (N), (J),(I),(R)

(Yo), (Z), (A), (M),(I),(Z)

"Axborot uzatish" usuli

O'yinlar o'quvchilarning xotira, nutq, hamkorlikda faoliyat ko'rsatish, o'zaro do'stona munosabatlar o'rnatish ko'nikmalarini rivojlantirish uchun eng qulay didaktik vosita hisoblanadi.

Masalan, bir o'quvchi muayyan bir buyumning nomini aytib, qo'lidagi koptokchani yonidagiga uzatadi. U esa qisqa muddat o'ylab, ikkinchi bir so'zni aytadi. Bu so'zlar tematik jihatdan bir guruhga mansub bo'lishi lozim. Koptokchani olgan navbatdagi o'quvchi ma'no jihatdan bir-biriga yaqin bo'lgan ikkita so'zni aytib, oldingilariga qo'shishi lozim.

1-o'quvchi: o'qituvchi; 2-o'quvchi: o'qituvchi, shifokor; 3-o'quvchi: o'qituvchi, shifokor, injener; 4-o'quvchi: o'qituvchi, shifokor, injener, binokor; 5-o'quvchi: o'qituvchi, shifokor, injener, binokor, tikuvchi; 6-o'quvchi: o'qituvchi, shifokor, injiner, binokor, tikuvchi; 7-o'quvchi: o'qituvchi, shifokor, injener, binokor, tikuvchi, haydovchi, sartarosh; 8-o'quvchi: o'qituvchi, shifokor, injener, binokor, tikuvchi, haydovchi, sartarosh, jurnalist;

Shu tariqa koptokcha kimning qo'liga kelsa o'sha o'quvchi oldingi o'quvchilar aytgan so'zni aytib qo'shimcha sifatida o'zidan so'z qoshib keying o'quvchiga uzatadi. O'yin shu tariqa davom etadi. O'yin kasblar, fanlar, mevalar, sabzavotlar, o'simliklar, gul turlari, hayvonlar, jihozlar, davlatlar, shoir va adiblar, kiyim turlari, pishiriqlar, san'at turlari asosida

tashkil qilinishi mumkin. Buni tanlash imkoniyati faqat o'yinni boshlab bergan o'quvchiga beriladi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, bugungi XXI asr ta'lim tizimida darslarni o'quvchilarga oddiy yo'sinda emas, balki interfaol usullardan keng foydalangan shaklda tushuntirsa, yosh avlodning nafaqat bilim ko'nikmasini, balki fikrlash salohiyatini ham yuksaltirgan bo'lamiz.

REFERENCES

1. Yo'ldoshev J. "Ta'limimiz istiqloli yo'lida" – Toshkent:Sharq.1996. 2. "Xalq so'zi" 2012-2019-yillar.
2. Sobirov B. "Ta'lim tizimi takomillashmoqda" // O'zbekiston iqtisodiy axborotnomasi. – Toshkent, 2008.N6son. –B.41-43.
3. www.uza.uz-O'zbekiston Respublikasi Axborot agentligi rasmiy sayti.

ИГРОВЫЕ ТЕХНОЛОГИИ НА УРОКАХ РУССКОГО ЯЗЫКА

Ташпулатова Мафтуна Зафарбековна

Учитель русского языка средней общеобразовательной
школы № 9 города Бекабад Ташкентской области

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7612996>

Аннотация. В данной статье представлена информация о значении использования игр в улучшении знаний учащихся на уроках русского языка.

Ключевые слова: Игра, детей, учитель, “тайну”, метод, “игровое поле”, “жюри”, “зрители”.

GAME TECHNOLOGIES IN RUSSIAN LANGUAGE LESSONS

Annotation. This article provides information on the importance of using games in improving students' knowledge in Russian language lessons.

Key words: Game, children, teacher, “mystery”, method, “playing field”, “jury”, “spectators”.

Игра - ведущая форма жизни детей (а не только процесс обучения), вбирающая всю и спонтанную, и организованную жизнь детей. Попытки разгадать “тайну” происхождения игры предпринимались учеными разных научных направлений на протяжении не одной сотни лет. Диапазон предложенных ответов об истоках появления игры очень широк. Проблема игры, по одной из концепций, возникла как слагаемое проблемы свободного времени и досуга людей в силу многих тенденций религиозного социально-экономического и культурного развития общества. В мировой педагогике игра рассматривается как любое соревнование или состязание между играющими, действия которых ограничены определенными условиями (правилами) и направлены на достижение определенной цели (выигрыш, победа, приз). Прежде всего, следует учитывать, что игра как средство общения, обучения и накопления жизненного опыта является сложным социо-культурным феноменом. Сложность определяется многообразием форм игры, способов участия в них партнеров и алгоритмами проведения игры.

Значение игры невозможно исчерпать и оценить развлекательно-рекреативными возможностями. В том и состоит ее феномен, что, являясь развлечением, отдыхом, она способна перерасти в обучение, в творчество, в терапию, в модель типа человеческих отношений и проявлений в труде. Игру как метод обучения, передачи опыта старших поколений младшим люди использовали с древности. Широкое применение игра находит в народной педагогике, в дошкольных и внешкольных учреждениях. В современной школе, делающей ставку на активизацию и интенсификацию учебного процесса, игровая деятельность используется в следующих случаях: в качестве самостоятельных технологий для освоения знаний; как элемент более общей технологии; в качестве урока или его части (введение, контроль); как технология внеклассной работы. Понятие “игровые педагогические технологии” включает достаточно обширную группу методов и приемов организации педагогического процесса в форме различных педагогических игр. В отличие от игр вообще, педагогическая игра обладает существенным признаком - педагогическими

целями и педагогическим результатом, которые могут быть обоснованы в явном виде и характеризуются учебно-познавательной направленностью. Игровая форма занятий создается на уроках при помощи игровых приемов и ситуаций, выступающих как средство побуждения, стимулирования к учебной деятельности

Реализация игровых приемов и ситуаций при урочной форме занятий происходит по следующим основным направлениям: дидактическая цель ставится перед учащимися в форме игровой задачи; учебная деятельность подчиняется правилам игры; учебный материал используется в качестве игрового средства; в учебную деятельность вводится элемент соревнования, который переводит дидактическую задачу в игровую; успешное выполнение дидактического задания связывается с игровым результатом. Игра - школа профессиональной и семейной жизни, школа человеческих отношений. Но от обычной школы она отличается тем, что человек, обучаясь в ходе игры, и не подозревает о том, что чему-то учится. В обычной школе нетрудно указать источник знаний. Это - учитель - лицо обучающее.

Игра - сильнейшее средство социализации ребенка, включающее в себя как социально-контролируемые процессы целенаправленного воздействия их на становление личности, усвоение знаний, духовных ценностей и норм, присущих обществу. Социокультурное назначение игры может означать синтез усвоения человеком богатства культуры, потенциала воспитания и формирования его как личности, позволяющей функционировать в качестве полноправного члена коллектива. Все игры на уроке можно организовать в пространстве двумя способами:

1-й способ. Не меняя расстановку мебели и позиции учащихся, проводить игры настольные, комнатные с раздаточным материалом на каждого или на парту: лото, кроссворды (а также сканворды и чайнворды), шарады, загадки, мегаграммы, анаграммы и пр.

2-й способ. Мебель в классе сдвигается либо по количеству команд (стулья расставляются вокруг сдвинутых столов), либо по принципу “игровое поле” – “жюри” – “зрители”. Для проведения компьютерных игр учащиеся приглашаются в компьютерный класс. Игровая деятельность как элемент урока может применяться на любом этапе его – от проверки домашнего задания до выполнения контрольной работы и обобщения.

Алгоритм построения уроков по игровой технологии

Прежде всего, надо приучить детей к дисциплине игры, для этого игровая деятельность вводится в каждый урок. Необходимо, чтобы дети почувствовали удовольствие от игры. И только когда вы убедитесь в том, что дети беспрекословно принимают правила игры и не пытаются оспорить справедливо поставленные им командой оценки, можно приступить к подготовке игры.

В структуре учебного процесса выделяются 4 элемента построения игрового урока:

1. Ориентировочный этап. Сначала учитель представляет изучаемую тему, напоминает основные понятия. Далее дается обзор общего хода игры.

2. Подготовка к проведению игры. Учитель излагает сценарий игры, останавливается на задачах, обсуждает с учениками игровые процедуры, предлагает критерии оценок, показывает примерный тип решений в ходе игры. После того как роли

распределены, участники проводят черновую репетицию игры.

3. *Проведение игры.* Учитель организует проведение игры, фиксирует игровые действия, следит за подсчетом очков.

4. *Обсуждение игры.* Учитель проводит обсуждение, в ходе которого дается характеристика “событий” игры и их восприятия участниками, корректируются критерии оценок, высказываются мнения о результативности игры, пожелания – либо повторить игру на другом материале, либо отказаться от проведения игры в будущем.

Основные принципы организации педагогической игры: отсутствие принуждения любой формы при вовлечении детей в педагогическую игру; принцип развития игровой динамики; принцип поддержания игровой атмосферы; принцип взаимосвязи игровой и познавательной деятельности; перенос смысла игровых действий в реальный жизненный опыт детей; принципы перехода от простейших игр к сложным игровым формам.

REFERENCES

1. Воронов Н.Я. Игры на уроках русского языка и внеклассных занятиях. Русский язык в школе. 1968, №6. - с. 89-91.
2. Воснянян Г.И. Грамматическое лото. Русский язык в школе. 1966, №3. -с.
3. Выготский Л.С. Игра и ее роль в психическом развитии ребенка. Вопросы психологии. 1966, №6. - с. 62-76.

ШАХС ШАКЛЛАНИШИДА МУЛОҚОТ МАДАНИЯТИНИНГ ЎРНИ

Азамов Умархон Яхёнонович

НамДУ педагогика назарияси
ва тарихи кафедраси ўқитувчиси

Нуриллаев Хайрулло Олимжон ўғли

НамДУ педагогика психология факултети
педагогика психология йналиши талабаси

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7623789>

Аннотация. Ушбу мақолада шахснинг шаклланишида мулоқот маданиятининг ўрни, шакллари, воситалари бўйича амалий маслаҳатлар баён этилган. Мулоқотни амалга ошириш усуллари, ижтимоий-психологик мулоқотнинг ўзига ҳослиги ҳақида фикр юритилган.

Калит сўзлар: мулоқот, мулоқот маданияти, жадаллаштириш, онг, эстетика, ахлоқ, ривожланиш.

РОЛЬ КУЛЬТУРЫ ОБЩЕНИЯ В ФОРМИРОВАНИИ ЛИЧНОСТИ

Аннотация. В данной статье описывается роль культуры общения в формировании личности, даются практические советы по формам и средствам общения. Рассмотрены способы правильного общения, специфика социально-психологического общения.

Ключевые слова: общение, культура общения, интенсификация, сознание, эстетика, мораль, развитие.

THE ROLE OF COMMUNICATION CULTURE IN PERSONALITY FORMATION

Abstract. This article describes the role of the culture of communication in the formation of personality, gives practical advice on the forms and means of communication. The ways of proper communication, the specifics of socio-psychological communication are considered.

Keywords: communication, communication culture, intensification, consciousness, aesthetics, morality, development.

Замонавий жамиятнинг эҳтиёжлари, унинг маънавий ва моддий соҳаларидаги алоқа муаммосини жуда долзарб қилади. Мулоқот инсон руҳиятининг шаклланиши, унинг ривожланиши ва ақли, маданий хулқ-атворининг шаклланишида катта аҳамиятга эга. Психологик жиҳатдан ривожланган одамлар билан мулоқот қилиш орқали, ўрганиш учун кенг имкониятлар туфайли инсон ўзининг барча энг юқори самарали қобилиятлари ва фазилатларига эга бўлади ва ўзи шахсга айланади.

Агар инсон туғилганидан одамлар билан мулоқот қилиш имкониятидан маҳрум бўлса, у ҳеч қачон маданиятли, маданий ва ахлоқий жиҳатдан ривожланган фуқаро бўлиб қолмайди, у умрининг охиригача, ярим ҳайвон бўлиб қолишга маҳкум бўлар эди, фақат ташқи, анатомик жиҳатдан. ва физиологик жиҳатдан одамни эслатади. Буни адабиётларда тасвирланган кўплаб фактлар тасдиқлайди ва инсон ўз тури билан алоқа қилишдан маҳрум бўлган тақдирда ҳам, у организм сифатида тўлиқ сақланиб қолса ҳам, ақлий ривожланишида биологик мавжудот бўлиб қолади.

Мулоқотнинг интензивлиги, (тез, жадал) унинг мазмуни, мақсадлари, воситаларининг хилма-хиллиги шахснинг ривожланишини белгиловчи энг муҳим омиллардир.

Мулоқот инсонни шахс сифатида шакллантиради, унга маълум характерли хусусиятлар, қизиқишлар, одатлар, мойилликларни эгаллаш, ахлоқий хулқ-атвор нормалари ва шакллари ўзлаштириш, ҳаёт мақсадларини аниқлаш ва уларни амалга ошириш воситаларини танлаш имкониятини беради. Мазмуни, мақсади, алоқа воситаларининг хилма-хиллиги шахснинг ақлий ривожланишида ҳам ўзига хос функцияни бажаради.

Мулоқот инсоннинг ижтимоий, онгли мавжудот сифатидаги, онг ташувчи сифатидаги эҳтиёждир. Турли юксак ҳайвонлар ва одам турмуш тарзларининг икки тараф: табиат билан алоқалар ва тирик жонзотлар билан алоқаларга ажралишини кузатамиз. Биринчи тур алоқалар одам фаоллигининг махсус тури сифатидаги фаолият деб номланган. Иккинчи тур алоқалар бир-бирлари билан ўзаро таъсирлашувчи томонлар ахборот алмашинувчи тирик жонзотлар эканлиги билан белгиланади. Тур ичидаги ва турлараро бундай алоқалар тури мулоқот деб аталади.

«Мулоқот» тушунчасининг турлича таърифлари мавжуд.

«Мулоқот ўта мураккаб жараён бўлганлиги сабабли унга ягона тўғри таорифни бериш жуда мушкул. Шунинг учун одатда мулоқот тушунчасининг мазмуни унинг айрим томонларига урғу бериш орқали таорифланади. А) **мулоқот** - ҳамкорликда фаолият эътиёжи билан тақазоланган алоқа ўрнатиш ва уни ривожлантириш жараёни. Б) **мулоқот** - субъектларнинг белгилар тизими орқали ўзаро таосирланишуви.

А.В.Петровский таҳрири остида чиққан "Умумий психология" дарслигида **мулоқот** икки ва ундан ортиқ кишилар ўртасидаги ахборот айрибошлаш, ўзаро таосир ва бир-бирини тушунишдан иборат жараён сифатида эътироф этилади.

М.Г.Давлетшин муаллифлигида чоп этилган "Умумий психология" ўқув кўланмасида **мулоқот** - бу икки ёки ундан ортиқ кишилар орасидаги аффектив баъоловчи характерда ва билиш бўйича маълумот алмашинишдан иборат бўлган ўзаро таосир этишдир"- деб таъкидланади.

М.Г.Давлетшин раҳбарлигида чоп этилган "Психология" қисқача изоъли луғатида мулоқотга қуйидагича таориф берилади: **мулоқот**- икки ёки ундан ортиқ одамларнинг ўзаро бир-бирига таосир этишидир.

Юқоридаги таърифларга мувофиқ мулоқотга умумий тарзда қуйидагича таориф бериш мумкин: **мулоқот** - камида икки кишининг ўзаро таосир жараёни бўлиб, бу таосир давомида ахборот алмашинади, муносабат ўрнатилади, ривожлантирилади. Мулоқот тушунчасини коммуникация тушунчасидан фарқлаш лозим. »¹

Мулоқот барча тирик жонзотларга хосдир, лекин одам даражасида у энг такомиллашган шаклларга эга бўлади, нутқ воситасида англанади.

Биз мулоқот орқали шахсни шакллантиришга уринамиз, шахснинг ҳар томонлама шаклланишида эса мулоқотнинг аҳамияти катта. Оддий нарсаларни ўрганиш учун ҳам

¹ F.I.Xaydarov, N.I.Xalilova Umumiy psixologiya/darslik/ Toshkent, "INNOVATSIYA-ZIYO"- 2019

тақлид орқали ўзаро мулоқотда бўлиш зарур. Жамият қонун - қоидаларига асосланган ҳолда муносабатлар ривожланади. Индивид билан шахс мулоқоти ўртасида жуда катта фарқни кўриш мумкин. Масалан, гўдак, рухий касал, онги паст ривожланган кишиларнинг мулоқоти билан етук ривожланган, онги юксак кишининг мулоқоти ўртасидаги фарқ. Онгли шахс мулоқотни бошлашдан аввал миясида ўйлайди, сўзларини режалаштиради. Шахснинг жисмоний, ақлий, ахлоқий ва эстетик ривожланишида мулоқотнинг ўрни катта. Масалан, ахлоқий ривожланиш учун оилада, мактабда, боғчада болага катталар мулоқот орқали таъсир қиладилар. Шунингдек, эстетик, ақлий, жисмоний ривожлантириш учун ўқувчига ўқитувчи мулоқот орқали таъсир этишга ҳаракат қилади. Демак, мулоқот таъсир қилиш воситаси бўлиб ҳам хизмат қилади.

Шахс мулоқотини шакллантиришда унинг ёши, жинси, касби, дунёқарашини ҳисобга олган ҳолда иш олиб бориш лозим. Масалан, биз кичик ёшдаги болаларга катталарга нисбатан қўллайдиган сўзларни ишлатмаймиз. Ҳар бир ёш даврига кирадиган кишиларга ўзига хос сўзлар қўлланилади. Бунда сўзнинг таъсир кучи ҳисобга олинади. Шахсни темперамент хусусиятларига қараб мулоқот усулларини қўллаш катта аҳамиятга эга. Шахсда кўникма, билим, малакаларнинг ҳосил бўлишида мулоқотнинг ўрни беқиёс. Оддий кўникмаларни ҳам мулоқот орқали сингдирилади.

Шахс мулоқотини шаклланишида унинг тарбияланганлик даражаси муҳим ўрин эгаллайди. Масалан, шахсга кучли таъсир этадиган сўзларни қўлласангиз ҳам у қабул қилмаслиги, сизнинг берган кўрсатмаларингизга амал қилмаслиги мумкин. Чунки у ёшлигидан муомала маданиятини эгаллаши керак. Мулоқотнинг шаклланишида мақсад тўғри қўйилиши лозим. Мулоқот таълим -тарбия жараёнида, турли вазиятларда ривожланади. Масалан, оилада, маҳаллада, жамоада, гуруҳда. Агар оилада катталар бир - бирларига кўпол муносабатда бўлсалар, бола ҳам уларга тақлид қилиб атрофдагилар билан низоларга бориши мумкин.

Шахс шаклланишида мулоқотнинг аҳамияти ҳақида бир неча олимлар ўз фикрларини баён қилганлар. Жумладан, рус психологи Б.Г. Ананоев “Одам билишнинг предмети сифатида” асарида бу масалани чуқур таҳлил қилган. У билимнинг турли элементларини эгаллаш муваффақиятли ўзлаштиришнинг гарови эканлигини таъкидлайди. Билимларни эгаллаш мулоқот орқали амалга оширилишини ҳам уқтириб ўтади. Агар кишилар ўзаро бир - бирларига ахборот ўзатмасалар, тажрибаларини мулоқот орқали алмашмасалар улар ривожланмай қолишлари тўғрисида Б.Г. Ананоев асосли фикрларни келтиради.

Унинг фикрича: “Мулоқот ижтимоий ва индивидуал ҳолатдир. Шунинг учун нутқ билан узвий богълик, коммуникатив вазифани бажаришда пантомимика, имо - ишоралар мулоқот шакллари сифатида юзага чиқади.”²

Мулоқотнинг муваффақиятли бўлишида шахснинг шаклланган сифатлари, фазилатларининг аҳамияти жуда катта. Жумладан, шахсда ижобий фазилатлар яхши шаклланган бўлса (хушмуомалалик, камтарлик, инсонпарварлик, тўғри сўзлилиқ, виждонлилиқ кабилар) мулоқот жараёни яхши ўтади. Чунки шахслар бир - бирини тўғри

² Muлоqot psixologiyasi. O'quv qo'llanma. — T.: «Turon-Iqbol» nashriyoti, 2006

тушунишлари учун, мулоқот муваффақиятли бўлиши учун улар самимий бўлишлари лозим.

Самимийлик инсоннинг энг ажойиб фазилатларидан бири бўлиб, воқеа - ҳодисаларга оқилона муносабатда бўлиш, турли таъсирларга берилмасликдир. Самимийликнинг муҳим белгиси - бу юздаги хушмуомалалик ифодаси ва табассум. Самимийлик бизнинг кайфиятимизга ҳам богълик, чунки кайфиятимиз яхши бўлса, самимийлик кучаяди. Самимийлик кўрсатиш учун кишининг кўнгли тоза, оқкўнгил бўлиш лозим.³

Хулоса қилиб айтганда мулоқотнинг ижтимоий таъсир воситаси сифатида вазифалари, шахс тараққиётида тутган ўрни, унинг турлари, шакллари, босқичлари, психологик тузилишига оид маълумотлар, билим, малака ва кўникмалар шакллантирилади. Мулоқот инсоннинг ижтимоий мавжудот сифатида шаклланишида муҳим маънавий эҳтиёжи ҳисобланади.

Биз бугунги кунда олдимизга ҳар томонлама ривожланган, етук, комил инсонни тарбиялашни мақсад қилиб қўйганмиз. Шундай экан ёшлар ўртасида биринчилардан бўлиб мулоқот маданиятини шакллантиришимиз зарурдир.

REFERENCES

1. E. G'oziyev. Muomala psixologiyasi. T. 2001 .
2. Muloqot psixologiyasi. 0 'quv qo'llanma. — T.: «Turon-Iqbol» nashriyoti, 2006
3. Ismoilova, Nurjahon 1-58 Ijtimoiy psixologiya: o'quv qo'llanma / N. Ismoilova, D. Abdullayeva; O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. — Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2013.
4. F.I.Xaydarov, N.I.Xalilova Umumiy psixologiya/darslik/ Toshkent, "INNOVATSIYA-ZIYO"- 2019

Internet saytlari

H

www.edu.uz.

Ў

Е

Р

Р

L

N

К

К

"

h

h

t

p

³ Muloqot psixologiyasi. O'quv qo'llanma. — T.: «Turon-Iqbol» nashriyoti, 2006

/

/

w

w

w

w

ПОНЯТИЯ О ЯЗЫКЕ И ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИИ

Исчанова Дилбар Курбанбаевна

Преподаватель методики преподавания русской литературы Ташкентского педагогического университета

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7623843>

Аннотация. В данной статье исследуются вопросы изучения языка и лингвокультурологии, ее роли между языком и людьми, отношения культуры к людям, национальности и взаимодействия.

Ключевые слова: лингвокультурология, язык, культура, люди, менталитет, семантика, оттенка, интегральный знак, дифференциальный знак, противопоставление, трансформация, компонент, метод, форма, установка, лингвокультура.

CONCEPTS ABOUT LANGUAGE AND LINGUOCULTUROLOGY

Abstract. This article explores the issues of language learning and linguoculturology, its role between language and people, the relationship of culture to people, nationality and interaction.

Key words: linguoculturology, language, culture, people, mentality, semantics, shades, integral sign, differential sign, opposition, transformation, component, method, form, attitude, linguoculture.

В 90–е годы XX века между лингвистикой и культурологией возникла новая отрасль науки-лингвокультурология (лингвокультурология). Он был признан самостоятельным направлением лингвистики. Практически все исследователи о становлении лингвокультурологии сходятся во мнении, что корень этой теории В. фон Гумбольдта. Создавший серьезные исследования в области лингвокультурологии В.А. Маслова делит развитие этой сферы на 3 этапа:

- 1) создание первых исследований, послуживших толчком к становлению науки (В. Фон Гумбольдт, Э.Бенвенуто, Л.Вайсгербер, А.А. Потебня, Э.Работы лингвистов, таких как сепир);
- 2) выделение лингвокультурологии как отдельной отрасли;
- 3) этап развития лингвокультурологии;

К началу XXI века лингвокультурология успела стать одним из ведущих направлений в мировом языкознании. Лингвокультурология-наука, изучающая язык как культурный феномен, а язык и культура, находящиеся во взаимосвязи, составляют его предмет. В Том Числе В.Н. Об этом Телия пишет: “Лингвокультурология-это наука, изучающая человеческий фактор, а точнее культурный фактор в человеке. Это говорит о том, что центром лингвокультурологии является комплекс достижений, присущих антропологической парадигме о человеке, являющемся феноменом культуры”.

V.V.Воробьева “лингвокультурология-комплексная область науки синтезирующей категории, изучающая взаимодействия и взаимодействия культуры и языка. Этот процесс, как целостный состав единиц с единым языковым и лингвистическим (культурным) содержанием, отражается с помощью системных методов, ориентированных на современные престижные культурные приоритеты (общечеловеческие нормы и ценности)”. Профессор О’показывает взаимно отличающиеся аспекты этих концепций. Юсупов объясняет по-разному. Лингвокультура-единица языка или речи, отражающая в своей семантике (значении) часть культуры.

К лингвокультурам относятся слова, фразеологизмы, словосочетания, предложения, паремии, сложные синтаксические единицы, тексты и др., отражающие часть культуры. У лингвокультуры есть план содержания и выражения, план выражения-это вышеупомянутые единицы, а план содержания-это семантика этих единиц. Отсюда следует, что лингвокультурология отличается от концептуальной тем, что она имеет свое содержание и план выражения, т. Для лингвокультурологии главной задачей является представление культуры народа в ее языковом облике. По его мнению, понятие “лингвокультурология” полезно для сравнительной лингвистики, поскольку язык – это культурный факт, составляющая культуры, которую мы наследуем, а вместе с тем и оружие. Народная культура вербализуется через язык, именно она приводит в движение базовые, базовые понятия языковой культуры и выражает их в виде знаков, то есть через слова”.

Если культурология изучает характер самосознания человека в природе, обществе, искусстве, истории и других сферах социального и культурного бытия, то Лингвистика изучает мировоззрение, отраженное в языке как ментальных моделях языковой картины мира. Основным предметом исследования лингвокультурологии является как язык, так и культура, находящиеся в состоянии постоянного взаимодействия.

“Культура “происходит от латинского слова” Colere“, что означает” обрабатывать, воспитывать, развивать, уважать, поклоняться”. С XVIII века термин “культура” стал применяться ко всему, что является продуктом человеческой деятельности. Все эти значения сохранились в употреблении слова” культура“, но на самом деле это слово означало” целенаправленное воздействие человека на природу, преобразование природы в интересах человека , т. е. обработка земли ” (сельскохозяйственная культура). Позже термин "культура" стал использоваться и для обозначения образованных, образованных, высокообразованных людей. К настоящему времени известно более 500 вариантов употребления термина “культура” в различных областях науки и практики.

Если обобщить приведенные авторами определения культуры, то культуру можно определить как” совокупность всех материальных и духовных благ, которые

создаются и создаются человечеством в процессе его исторического развития". Исходя из этого, различают два вида культуры: 1) материальная культура; 2) духовная культура; материальная культура относится к "второй природе", созданной деятельностью человека, то есть к средствам производства, орудиям труда, навыкам труда, а также ко всем благам, которые служат для жизни, создаваемым в процессе производства. Сфера духовной культуры неисчерпаемо широка, она охватывает все формы общественного сознания, а именно философские, научные, правовые, нравственные, эстетические, религиозные воззрения, образование, воспитание, школу, среднее и высшее образование, науку, учреждения культуры, средства массовой информации, искусство, народ, все виды духовного творчества. Материальная и духовная культура неразрывно связаны между собой, одно дополняет другое. Например, невозможно создать и усовершенствовать какой-либо вид материальных благ без человеческого интеллекта, мышления, умственного труда. Следовательно, в основе построения материальной культуры лежит и духовная культура. Шедевры любой материальной и духовной культуры возникают на основе синтеза умственного и физического труда человека. Духовная культура - это средство художественного отражения и усвоения событийности. Материальная культура тесно связана с миром и условиями материальной жизни людей, а духовная - с обычаями, живописью, традициями, обрядами и национальными ценностями.

Чем глубже и детальнее изучается культура, тем единодушнее ощущается ее связь с мышлением человека. Таким образом, человек всегда стремится запечатлеть события, отраженные в его глазах, через его идею. Известно, что люди живут в определенном социально-экономическом укладе, говорят на том или ином национальном языке и обладают определенной национальной духовностью и культурой. Особенности национальной духовности, языковой культуры и духовности речи, занимающие важное место в ее реализации, находят свое отражение в языковой познавательной деятельности людей. Например, эмоциональное состояние при падении чего-то на пол со стола можно описать словами англичанки "Оапс", немки "Мейн Гот!", русская женщина "Боже мой!", а узбекская женщина - "Ух ты, ух ты". Как видно из этого примера, который позволяет провести сравнительный анализ языковой культуры и речевой духовности женщин разных национальностей, выражение эмоций, происходящих от зависти, не несет в себе никакого лексического значения: "Оапс!" от восклицательного слова "Mein Got", "Воје moi" немецкие и русские женщины используют слова "Mein Got", "Воје moi", которые радуют Аллаха, руководствуясь языковой культурой и речевой духовностью своих предков. А узбекская женщина в этом случае произносит отрицательное "Ух ты, умри! он использует слова".

Bola tashlash qo'ylar uchun kasallikka xos belgidir. Qo'chqorlarda orxit rivojlanadi. Bola tashlashdan 2-3 kun oldin vul'vovaginit boshlanadi, shilimshiq, shilimshiqqon aralash suyuqlik oqadi. Bu davrga kelib qo'ylar ko'p suv ichadi, holsizlanib yotib qoladi. Bola tushgach 2-3 haftacha isitma bo'lishi mumkin, endometrit paydo bo'lib, bo'g'imlar zararlanadi. Ba'zan chala falaj (parez) va falaj yuzaga keladi. Ba'zida bola tashlash 60 foizga yetib, mastit boshlanadi. Qo'ylar ham ko'pincha birinchi tug'ishda bola tashlaydi, ikkinchi marta bola tashlash esa 5 foiz atrofida kuzatiladi.

Bug'ilarda kasallik ko'pincha yashirin kechib, bola tashlash, mastit, bursit, artrit, teidovaginit hollari yuzaga keladi. Erkak cho'chqalarda orxit, enididimit, bureit ko'rinishlarida o'tadi. Urg'ochi cho'chqalarda esa bo'g'ozlikning ikkala davrida ham bola tashlash kuzatiladi. Bola tashlashdan oldin ishtaha pasayadi, yelin shishadi, ba'zan ich ketadi. Keyinchalik endometritvaginit kuzatiladi. Bursit, gigroma, chala falaj, falaj ro'y beradi. Erkak cho'chqalarda esa orxit, epididimit, urug'don xaltasining shishishi kuzatiladi. Yilqilarda bursit paydo bo'lib, umurtqalar yallig'lanadi va jarohatlanadi.

Patologoanatomik o'zgarishlar. Ko'p hollarda mol tashlagan bolasining boshi, oyog'i va tanasi shishgan bo'ladi. Teri ostida seroz-gemorragik infiltrat ko'zga tashlanadi. Kindik ham shishgan, yo'g'onlashgan, ko'krak qafasi va qorin bo'shlig'ida fibrinli qizg'ish suyuqlik to'planga bo'ladi. Ichki a'zolarida nuqtasimon qon qo'yilish kuzatilib, limfatik tugunlar, jigar va taloq kattalashadi. Jigarda kichik nekrotik o'choqlar ko'zga tashlanadi. Bola tashlagan sigirlar tekshirib ko'rilganda yiringli kataral endometrit va kotiledonlar nekrozi hamda yiringlash aniqlanadi. Yelin atrofidagi limfatik tugunlar kuchli jarohatlanadi, ba'zi hollarda esa granulema tugunlari paydo bo'ladi. Erkak mollarda esa yiringli nekrotik orxit va epididimit uchraydi.

Diagnoz. Brutsslyozga diagnoz qo'yish uchun epizootologik holat o'rganiladi. Kasallikning klinik belgilariga qarab, bakteriologik, serologik va allergik tekshirishlar qo'llaniladi. Molning tashlagan bolasi esa patologoanatomik tekshirishdan o'tkaziladi. Mollarning yaylov sharoitida kontaktda bo'lishi, bola tashlashning boshlanishi, suv manbalarining jihozlanmaganligi, odamlar orasida kasallikning qayd qilinishi signal bo'lib xizmat qilishi lozim.

Davolash va immunitet. Kasalga chalingan mollar davolanmay, go'shtga topshiriladi. Kasallikka qarshi emlash ishlari qo'yidagi vaktsinalar yordamida olib boriladi.

Shtamma 19. Brutsellaning obortus turidan tayyorlangan bo'lib, Quruq tirik vaktsinadir. Vaktsinani eritish uchun steril fiziologik eritma yoki distillangan suv ishlatiladi. Eritilgach, 4 - 5 soat ichida ishlatilishi kerak. Vaktsina ko'rsatmaga qat'iy rioya qilib ishlatiladi. Vaktsinatsiya qilingan mollar qattiq hisobga olinib, birontasi yo'qolishi yoki joyini almashtirilishi mumkin emas.

REV 1 qo'y va echkilarni emlash uchun ishlatiladi. Qo'chqorlarning epididimit kasalligida ham tavsiya etiladi. Vaktsina brutSELLA melitenzisning kuchsiz virulentli shtammasidan

tayyorlangan. Uni qo'llanishdan oldin maxsus eritmada yoki strillangan fiziologik eritmada eritiladi. 30 minut o'tgach, teri ostiga 2 ml yuboriladi. 3 haftadan keyin immunitet paydo bo'ladi.

Shtamma 82. Undan tayyorlagan vaksina qoramollarni emlash uchun ishlatiladi. Kuchsiz va glyutinogen obortusdan tayyorlanadi.

Sobiq butun ittifoq Brutsellyoz va sil ilmiy tadqiqot institutida Shtamma 19 va 82 bilai emlash sxemasi ishlab chiqilgan. Bu usul ishlab chiqarishda yaxshi natija bermoqda. Hozir mamlakatimizda kichik dozada emlash o'tkazilmoqda.

Oldini olish. Brutsellyozga qarshi kurash choralari quyidagilardan iborat:

Xo'jalikni brutsellyoz kasalligidan asrash.

Nosog'lom xo'jaliklarni sog'lomlashtirish.

Emlash ishlarini to'g'ri tashkil etish.

Odamlarni kasallikdan saqlash.

Bu ishlarni amalga oshirish uchun qo'yidagi vazifalar hal qilinishi lozim:

Brutsellyozga o'z vaqtida diagnoz qo'yish, kasal mollarni ajratib olib, go'shtga topshirish.

Mollar to'xtovsiz kasallanaversa, ular sog'lom mollarga to'liq almashtiriladi.

Kasallikning oldini olish uchun qator tashkiliy xo'jalik va sanitariya-dezinfektsiya ishlari bajariladi.

Xo'jalikka brutsellyoz kasalligining kirib kelishiga yo'l qo'yimaslik uchun:

Har xil epizootologik holatga mansub xo'jaliklardan mol keltirish va mol chiqarish man etiladi. Xo'jalik ichidagi mollarni brigada va bo'limlarga o'tkazish, joyini almashtirish veterinariya qonunchiligiga binoan taqiqlanadi.

Chetdan keltirilgan mol 30 kun mobaynida profilaktik karantindan o'tkaziladi. Shu kunlar ichida serologik usul bilan tekshiriladi.

Mollar yaylovga chiqarilganda esa, nosog'lom xo'jalikning mollari bilan aralashishiga yo'l qo'yimaslik zarur. Profilaktik karantinda serologik tekshirish natijasi ijobiy bo'lsa, mollar nosog'lom deb yuritiladi. Reja asosida har yili diagnostik tekshirish o'tkazib turiladi. Agar brutsellyozga xos belgilar seziladigan bo'lsa, xo'jaliqda darhol kompleks diagnostik tekshirish o'tkaziladi.

Nosog'lom xo'jalikni sog'lomlashtirish. Brutsellyoz kasalligi qayd qilingudek bo'lsa, darhol xo'jalikda karantin e'lon qilinadi. Xo'jalikni sog'lomlashtirish kalendar ish rejasi tuzilib, tasdiqlanadi. Sog'lomlashtirish Veterinariya boshqarmasining ruxsati bilan vaksina ishlatib yoki vaksinasiz amalga oshiriladi.

Karantin talab-qoidalariga muvofiq quyidagilar taqiqlanadi:

Tashqaridan mol keltirish va mol chiqarish.

Veterinariya vrachining ruxsatisiz mollarni guruhlarga ajratish.

Sut olib chiqish, yasli bog'cha, maktablar uchun uni tarqatish, bozorga chiqarib sotish. Bunday sut xo'jalikda 70° C da 30 minut pasterizatsiya qilinishi, nosog'lom xo'jalikdan chiqariladigan sut maxsus idishlarda olib ketilishi shart.

Sut zavodlarida tuman bosh veterinariya vrachining xo'jaliklar epizootologik holati bayon qilingan ma'lumotnomasi bo'ladi.

Serologik usulda ijobiy natija bergan sigirlardan sog'ilgan sutdan moy olinadi va xo'jalik ichida ishlatiladi.

Nosog'lom xo'jalik territoriyasidan o'rib olingan xashak ikki oy saqlangandan keyin foydalanishga ijozat beriladi.

Qo'y va echkilar sog'ilmaydi, embriinning qopini olish taqiqlanib, shirdon tayyorlashga ruxsat etilmaydi. Shilingan terilar konservatsiya qilishib, mollar tanasi utilga o'tkaziladi.

Dezinfektsiya uchun 2%li aktiv xlori bor xlorli ohak, 2% li ishqor eritmasi, 20%li xlorli ohak, 2%li formaldegid va boshqalar tavsiya etiladi. Go'ng biotermik usulda zararsizlantiriladi.

Maxsus sog'lomlashtirish usuli mavjud bo'lib, bunda vaksina ishlatilmaydi. Sog'lomlashtirilayotgan mollar har 15-35 kun ichida RA, Rozbengal, RSK, RDSK reaksiyalari bilan tekshirib ko'riladi. Serologik tekshirish to guruh bo'yicha ikki marta manfiy natija olinguncha davom ettiriladi. Manfiy natija olingach, mollar 6 oylik veterinariya nazoratiga qo'yiladi. Bu davrda har 3 oyda bir marta yuqoridagi usul bilan serologik tekshirishdan o'tkaziladi. Natija manfiy bo'lsa, xo'jalik sog'lomlashtirilgan hisoblanadi. Maxsus sog'lomlashtirish usuli epizootik holatni inobatga olib, veterinariya bosh boshqarmasi yo'riqnomasi asosida yuqorida qayd qilingan vaksinalarni qo'llab amalga oshiriladi.

Odamlarni brutsellyozdan saqlash. Qishloq xo'jalik hayvonlari orasida brutsellyoz kasalligi chiqqudek bo'lsa, odamlarni bu kasallikdan saqlash uchun quyidagi tadbirlar amalga oshiriladi:

Mollari nosog'lom xo'jalik fermasida xizmat qilayotgan hamma xodimlar tibbiy muassasa nazoratida bo'lib, shaxsiy gigiena qoidalariga qat'iy amal qilishi lozim.

Qo'y-echki fermalarida xizmat qilish brutsellyozga qarshi emlangan odamlargagina ruxsat etiladi. Fermaning hamma xodimlari maxsus kiyim-kechak bilan ta'minlanadi. Har bir chorvachilik binosida qo'l yuvgich, sochiq, sovun, Doriqutichalar bo'lishini ta'minlash zarur. Chorvachilik xodimlari maxsus tibbiy ko'rikdan o'tib turishi kerak.

REFERENCES

1. Salimov X.S., Qambarov A.A. "Epizootologiya" darslik, 2016 y.
2. Parmanov M.P. va boshq., "Epizootologiya" darslik. T, 2010.
3. Parmanov M.P. va boshq., "Epizootologiya" O'quv qo'llanma. T, 2007.
4. Mamatova M.N. va boshq., "Xususiy epizootologiya" O'quv qo'llanma. T, 2006.
5. Parmanov M.P., "Epizootologiya" o'quv qo'llanma. T, 2002.

Axborot manbalari

1. [www. Ziyo.net.uz](http://www.Ziyo.net.uz).
2. www.veterinariya.medsinasi.uz
3. www.sea@mail.net21.ru
4. www.veterinary@actavis.ru

ЁПИШҚОҚ ЭЛАСТИК МАТЕРИАЛДАН ҚИЛИНГАН ТЎҒРИ БУРЧАКЛИ ШАРНИРЛИ БОҒЛАНГАН ПЛАСТИНКА ЭГИЛИШНИ ХИСОБЛАШ МАТЕМАТИК МОДЕЛИ

Халимов Камолиддин Комилжон ўғли

Магистратура талабаси

Амридинов С.

Илмий раҳбар, доцент

Самарқанд давлат университети, Математик моделлаштириш кафедраси

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7624559>

Анотация. Илмий мақолада шарнирли боғланишида бўлган ёпишқоқ-эластик материалдан қилинган ва тенг тарқалган юклама остида бўлган пластинка эгилиши масаласи математик модели кўрилади. Қўйилган масаланинг ечими ва эгилиш ва эгилиш моментнинг вақт бўйича ўзгариши келтирилган.

Kalit so'zlar: Viskoelastik, egilish momenti, chegaraviy masala, boshlang'ich material, algoritm.

МАТЕМАТИЧЕСКАЯ МОДЕЛЬ РАСЧЕТА НА ИЗГИБ ПРЯМОУГОЛЬНОЙ НАВЕСНОЙ ПЛАСТИНЫ ИЗ ВЯЗКОУПРУГОГО МАТЕРИАЛА

Анотация. В научной статье рассматривается изгиб прямоугольной пластинки шарнирно закрепленный по краям при равномерно распределенной нагрузке по результатам расчёта приводится изменения прогиба и изгибающего момента во времени.

Ключевые слова: Вязкоупругий, изгибающий момент, краевая задача, исходный материал, алгоритм.

A MATHEMATICAL MODEL FOR CALCULATING THE BENDING OF A RIGHT- ANGLED HINGED PLATE MADE OF VISCOELASTIC MATERIAL

Abstract. In the scientific article, a mathematical model of the problem of bending of a plate made of visco-elastic material in a hinged connection and under an equally-spread uniform load is observed. How the solution of the given problem and the variation of bending and its bending moment in a time are given.

Key words: Viscoelastic, bending moment, boundary value problem, initial material, algorithm.


Текис тарқалган юклама остида бўлган шарнирли боғланган пластинка эгилишини ҳисоблаш оптимал алгоритмини келтирамиз.

Бошланғич маълумотлар сифатида куйидаларни оламиз:

$\gamma = 1$; $\mu = 0,316$; $x = 0,0032$; $\beta = -0,96$; $f = 100$

Бу масала учун чегаравий шартлар куйидагича ифодаланади.

$$\begin{aligned} x = 0,1 \text{ да } w = w_{xx} = 0; \quad \phi_{yy} = \phi_{yy} = 0 \\ y = 0,1 \text{ да } w = w_{yy} = 0; \quad \phi_{xx} = \phi_{xy} = 0 \end{aligned} \quad (1)$$



(1) Шартларни қаноатлантирувчи координат функцияларни қуйидагича қабул қиламиз

$$W_j(x, y) = W_{j_1, j_2}(x, y) = \sin j_1 \pi x \sin j_2 \pi y;$$

$$\phi_j(x, y) = \phi_{j_1, j_2}(x, y) = (1 - \cos 2j_1 \pi x)(1 - \cos 2j_2 \pi y) \quad (2)$$

Релаксация ядроси сифатида Ю.Н.Работновнинг каср экспоненциал функциясини оламиз:

$$R(t, \tau) = \chi \ni_{\alpha}(\beta, t - \tau) = \sum_{k=0}^{\infty} \frac{x \beta^k (t - \tau)^{r k + \alpha}}{\Gamma[r(k + 1)]} \quad (3)$$

буерда $\beta < 0$, $0 < r < 1 + \alpha < 1$

Бу ҳолатда кўрилайтган масаланинг тенгламалар системаси қуйидагича бўлади:

$$\left. \begin{aligned} \sum_{j=1}^N A_j^{(i)} b_o^{(j)} + \sum_{l,j=1}^N C_{l,j}^{(i)} a_o^{(l)} a_o^{(j)} &= 0 \\ \sum_{j=1}^N D_j^{(i)} a_o^{(j)} - \sum_{l,j=1}^N F_{l,j}^{(i)} a_o^{(l)} b_o^{(j)} &= q_o^{(i)} \end{aligned} \right\} \quad (4)$$

$$\left. \begin{aligned} \sum_{j=1}^N A_j^{(i)} b_k^{(j)} + \sum_{l,j=1}^N C_{l,j}^{(i)} (a_k^{(l)} a_o^{(j)} + a_o^{(l)} a_k^{(j)}) &= \\ = \sum_{l,j=1}^N C_{l,j}^{(i)} \left[\sum_{s=1}^k \left(\sum_{\mu=0}^{s-1} a_{\mu}^{(l)} a_{s-\mu-1}^{(j)} \right) M_{k-s} - \sum_{s=1}^{k-1} a_s^{(l)} a_{k-s}^{(j)} \right] & \\ \sum_{j=1}^N D_j^{(i)} a_k^{(j)} - \sum_{l,j=1}^N F_{l,j}^{(i)} (a_k^{(l)} b_o^{(j)} + a_o^{(l)} b_k^{(j)}) &= \\ = \sum_{j=1}^N D_j^{(i)} \sum_{s=1}^k a_{s-1}^{(j)} M_{k-s} - \sum_{l,j=1}^N F_{l,j}^{(i)} \left(\sum_{s=1}^{k-1} a_s^{(l)} b_{k-s-1}^{(j)} \right) & \end{aligned} \right\} \quad (5)$$

Буерда:

$$A_j^{(i)} = \iint_{00}^{\prime\prime} (\lambda^2 \phi_{jxxxx} + 2\lambda^2 \phi_{jxxyy} + \phi_{jyyyy}) \phi_i(x, y) dx dy$$

$$C_{l,j}^{(i)} = \lambda^2 \iint_{00}'' (W_{jxx} W_{lyy} - W_{jxy} W_{lxy}) \phi_i(x, y) dx dy$$

$$D_j^{(i)} = \iint_{00}'' (\gamma \lambda^4 W_{jxxxx} + 2\lambda^2 W_{jxxyy} + W_{jyyyy}) W_i(x, y) dx dy$$

$$F_{l,j}^{(i)} = \lambda^2 \iint_{00}'' W_{lxl} \phi_{jyy} + W_{lyy} \phi_{jxx} - 2W_{lxy} \phi_{jxy}) W_i(x, y) dx dy$$

(4) ва (5) тенгламалар системасини ечими куйидаги жадвалда келтирамиз (N=2):


K	$a_k^{(1,1)}$	$a_k^{(1,2)}$	$a_k^{(2,2)}$	$b_k^{(1,1)}$	$b_k^{(1,2)}$	$b_k^{(2,2)}$
0	0,2660	0,1541	0,2120	-0,7689	-0,1353	0,6283
1	0,5884	0,6766	0,1419	-0,6313	-0,1414	0,4215
3	0,1804	0,2068	0,4316	-0,2041	-0,4351	0,1306

Эгилиш моменти куйидаги формула билан ҳисобланади:


$$\frac{M_x b^2}{hD} = \bar{M}_x = - \sum_i \sum_j \left(\lambda^2 \frac{\partial^2 W_{i,j}}{\partial x^2} + \gamma \frac{\partial^2 W_{i,j}}{\partial y^2} \right) + \sum_{k=0}^{\infty} \left(a_k^{(i,j)} - \sum_{s=1}^k a_{s-1}^{(i,j)} M_{k-s} \right) t^{rk}$$

$$\frac{M_y b^2}{hD} = \bar{M}_y = - \sum_i \sum_j \left(\frac{\partial^2 W_{i,j}}{\partial y^2} + \lambda^2 \gamma \frac{\partial^2 W_{i,j}}{\partial x^2} \right) + \sum_{k=0}^{\infty} \left(a_k^{(i,j)} - \sum_{s=1}^k a_{s-1}^{(i,j)} M_{k-s} \right) t^{rk}$$

Чизикли ва чизикли бўлмаган назарияси асосида 1-2 расмларда эгилиш функцияси ва эгилиш моментнинг вақт бўйича ўзгариши келтирган.




$M_x: 10$




Расм.2

3 расмда пластинка ўрта текислигида эгилиш функцияси ва эгилиш моментнинг ўзгариши келтирган



Расм.3

4 расмда эгилиш функциясининг пластинка ўртасида чизиқли ва чизиқли бўлмаган назарияси бўйича юклама параметрига боғлиқ бўлган ҳолдаги ўзгариши келтирган.



REFERENCES

1. Бадалов Ф., Амридинов С. К решению задачи об изгибе гибких прямоугольных пластин. Тезисы докладов конференции «Применение ЭВМ в механике деформируемых тел» Ташкент 1975 г.
2. Исроилов М. «Ҳисоблаш методлари» 1-қисм Тошкент «Ўқитувчи» 1988 й.
3. Беллман Р., Калаба. Квазилинеаризация и нелинейные краевые задачи М., “Мир”, 1968 г.
4. Демидович Б.П., Марон И.А. Основы вычислительной математики. Издательство «Наука», Главная редакция физико-математической литературы. Москва – 1970 г.

RISK OF COMPLICATIONS AFTER CORONAVIRUS INFECTION IN PREGNANT WOMEN IN THE THIRD TRIMESTER

Scientific supervisor: **Muminova Ziyoda Abrarovna**

Doctor of medical sciences

Sayitkhonova Malika Zokirkhoja qizi

Tashkent Medical Academy

Graduate student of Obstetrics and Gynecology

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7624618>

Abstract. *Pregnant women occupy a special place among the risk groups of infection with COVID-19. It is known that, despite the fact that pregnancy is a physiological state, a number of organs and systems, including the immune system, undergo changes. Therefore, the susceptibility to infections increases significantly during pregnancy. This article discusses about the risk of complications after coronavirus infection in pregnant women in the third trimester.*

Keywords: *Covid-19 infection, Immune system, preeclampsia.*

РИСК ОСЛОЖНЕНИЙ ПОСЛЕ КОРОНАВИРУСНОЙ ИНФЕКЦИИ У БЕРЕМЕННЫХ В ТРЕТЬЕМ ТРИМЕСТРЕ

Аннотация. *Беременные женщины занимают особое место среди групп риска заражения COVID-19. Известно, что, несмотря на то, что беременность является физиологическим состоянием, ряд органов и систем, в том числе и иммунная система, претерпевают изменения. Поэтому восприимчивость к инфекциям значительно возрастает во время беременности. В данной статье речь идет о риске осложнений после коронавирусной инфекции у беременных в третьем триместре.*

Ключевые слова: *инфекция Covid-19, иммунная система, преэклампсия.*

Currently, there is not enough observation of pregnant women infected with COVID-19, but some observations conducted in China, the USA and Russia allow us to draw some conclusions. Thus, pregnant women with various extragenital diseases are at high risk, especially in the second half of pregnancy. These are cardiovascular diseases, respiratory diseases (bronchial asthma), diabetes, arterial hypertension, chronic inflammatory diseases. In addition to these diseases, during pregnancy, the violation of the immune state, homeostasis (blood coagulation), the presence of malignant tumors increases the tension of the whole body, especially it leads to an increase in the volume of circulating blood, a decrease in respiratory parameters and the development of various complications. A risk factor for the development of complications during pregnancy is a complicated obstetric anamnesis.

That is, preeclampsia observed in the previous pregnancy, increased arterial pressure, bleeding, blood clotting disorders, premature births, termination of pregnancy, and various surgical procedures are also risk factors. Such pregnant women are at risk and require special attention. COVID-19 is more dangerous in the second and third trimesters, which is explained by the increased load on various systems of the body. In order not to increase the mortality rate of mothers and children, it is important not to forget the period when a pregnant woman should undergo a screening examination. All pregnant women, regardless of the coronavirus, should be tested at the time specified in the pregnancy protocol. It is necessary to submit analyzes in a timely manner, undergo UTT examination, consult with doctors. Not to miss the dates of obstetric

screening is a guarantee of reducing obstetric and neonatal complications. It is natural that there are restrictions related to coronavirus infection. But these challenges can be overcome with rest, physical activity, and proper lifestyle management (social distancing, hygiene, and protective measures).

The fetus is not a direct target of the coronavirus infection. The virus does not have a teratogenic effect on the fetus. Because the placental barrier is a reliable barrier for the fetus, babies are born healthy. Much depends on the condition of the mother and the severity of the coronavirus infection. Childbirth is usually easy, that is, children are born without symptoms. The most important thing is to separate them in time. While understanding the general anxiety and nervousness happening in the world, it should be noted that the main risk factor for pregnancy is stress (mental strain). It is necessary to refuse to read unsubstantiated news, follow hygienic procedures and be positive. The health of the placenta and the mother protect the fetus from the virus. Treatment of pregnant women is based on the level of infection with COVID-19, its clinical manifestations, and an accurate assessment of the obstetric situation. Obstetrical tactics depend on several aspects: the condition of the patient, the condition of the fetus and the duration of pregnancy. Taking into account the high risk of perinatal complications in severe and moderate pregnancy up to 12 weeks, it is recommended to terminate pregnancy after treating the infectious process. If the patient refuses to terminate the pregnancy, a chorionic biopsy is necessary to detect chromosomal defects in the fetus.

Termination of pregnancy and delivery during the outbreak of the disease is associated with the death of mothers and a large number of complications: aggravation of the main disease, development and acceleration of respiratory failure, obstetric hemorrhage, intranatal death of the fetus, and an increase in purulent-septic complications. However, if it is not possible to eliminate hypoxia against the background of OSV or in the case of exacerbation of respiratory failure, in case of alveolar edema of the lungs, as well as in refractory septic shock, emergency surgical operation by cesarean section is performed according to vital indications, along with the necessary measures to prevent coagulopathic and hypotonic obstetric bleeding. If labor begins during the peak of the disease and during pregnancy, it is better to give birth through natural childbirth under the monitoring of the condition of the mother and the child. Anesthesia, detoxification, antibacterial and antiviral, respiratory therapy should be carried out. Prevention of infection with the coronavirus is a priority for second-time pregnant women. Sheffield explains why: "Pregnant women can experience changes in their immune system that make them more vulnerable to respiratory viruses," she says. "These changes mean expectant mothers need to be proactive when it comes to safety measures. "If you are pregnant, you should take precautions to protect yourself from contracting COVID-19. Do what you can, including physical distancing, wearing a mask, washing your hands, and staying in close contact with your provider." He said many practitioners are scheduling less frequent appointments to help pregnant patients limit their visits to the doctor's office. Other obstetricians are ramping up telemedicine processes so they can continue to monitor pregnant patients without in-person visits. If you have symptoms of COVID-19 or think you have been in contact with someone who is infected, call your doctor and follow his or her advice. Sheffield says: "Ideally, all pregnant women should be screened for COVID-19 when they are admitted to deliver their babies, especially mothers with cough, fever or respiratory symptoms".

REFERENCES

1. Sunnatilla Abdullayev. If the coronavirus is detected during pregnancy, will this period be continued? Tashkent. 2020.
2. The coronavirus is safer for pregnant women than the flu." Comfort and recommendations for expectant mothers. <https://m.kun.uz/uz/news/2020/07/21>.
3. F. Fontanella and S. Hannes. Obstetrics and gynecology. The Netherlands. 2013.

**BOLA HUQUQLARINI HIMOYA QILISHGA OID O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MILLIY QONUNCHILIGI VA XALQARO HAMKORLIGI**

Urazaliyev Bekzad Abdirashidovich

Andijon davlat pedagogika instituti 2-kurs magistranti,

Jizzax viloyati "Temuriylar izdoshi -NTM" Zomin

filiali maktabi o‘qituvchisi

E-pochta: bekzodurazaliev@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7624675>

Annotatsiya: Maqolada bola huquqlarini himoya qilishga oid o‘zbekiston respublikasi milliy qonunchiligi va xalqaro hamkorligi masalalari aks ettirilgan.

Kalit so‘zlar: implementatsiya, umumjahon deklaratsiya, xalqaro pakt, YUNISEF.

**NATIONAL LEGISLATION AND INTERNATIONAL COOPERATION OF THE
REPUBLIC OF UZBEKISTAN ON THE PROTECTION OF CHILDREN'S RIGHTS**

Abstract: The article reflects the issues of the national legislation of the Republic of Uzbekistan and international cooperation on the protection of children's rights.

Key words: implementation, universal declaration, international pact, UNICEF.

**НАЦИОНАЛЬНОЕ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВО И МЕЖДУНАРОДНОЕ
СОТРУДНИЧЕСТВО РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН ПО ЗАЩИТЕ ПРАВ ДЕТЕЙ**

Аннотация: В статье отражены вопросы национального законодательства Республики Узбекистан и международного сотрудничества по защите прав детей.

Ключевые слова: имплементация, всеобщая декларация, международный пакт, ЮНИСЕФ.

Bugungi kunda yurtimizda bolalarni ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy, ma'naviy jihatdan himoya qilish bo'yicha juda ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, mamlakatimizda bolalar huquqlarini himoya qilish bo'yicha tegishli huquqiy baza shakllangan desak hech mubolag'a bo'lmaydi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, Oila kodeksi, Fuqarolik kodeksi, Mehnat kodeksi, Jinoyat kodeksi va boshqa bir qator qonun hujjatlarida bolalar huquqlarini himoya qilishga oid normalar o'z ifodasini topgan.

Shuni ta'kidlash joizki, bola huquqlarini himoya qilish sohasida qabul qilingan xalqaro majburiyatlarni bajarish uchun O'zbekiston xalqaro huquqiy normalarni milliy qonunchilikka implementatsiya qilish yo'lida katta ishlarni amalga oshirmoqda. Amaldagi qonunchilikda bolalarning huquq va manfaatlariga, shuningdek ularning himoyasiga alohida e'tibor berilmoqda.

Bola huquqlariga oid milliy qonunchilik deganda, avvalambor O'zbekiston respublikasiga e'tiborni qaratish lozim. Dunyoning 100 ga yaqin konstitutsiyalarini o'rganish asosida, ularning eng ilg'or tajribalarini hisobga olib, umuminsoniy nuqtai nazardan e'tirof etilgan xalqaro huquq normalariga asosan, shuningdek, xalqimizning boy o'tmishi va tarixini e'tiborga olgan holda, azaliy urf-odatlarimiz, va an'analimizdan kelib chiqib, qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 13 moddasida inson, shu jumladan, bola ham, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmat va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat, deb e'lon qilindi. Bolaning qonstitutsiyaviy-huquqiy maqomi Konstitutsiyada fuqaroning maqomidan kelib chiqqan holda belgilanadi. Konstitutsiyada bolaga, uning huquqlariga, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga nisbatan davlat va jamiyat munosabatining asosiy tamoyillari belgilangan. Konstitutsiyaning Muqaddimasida bolalar

huquqlariga bevosita aloqador bo'lgan O'zbekistonda inson huquqlariga sodiqlik, xalqaro huquqning umume'tirof etilishi, fuqarolarning munosib hayot kechirishlarini ta'minlashga oid normalarning ustuvorligi belgilangan. Konstitutsiyaning 45-moddasida "Voyaga yetmaganlar, mehnatga layoqatsizlar va yolg'iz keksalarning huquqlari davlat himoyasidadir" deyilgan. Konstitutsiyaning 64-moddasida "Ota-onalar o'z farzandlarini voyaga yetgunlariga qadar boqish va tarbiyalashga majburdir. Davlat va jamiyat yetim bolalarni va ota onalarining vasiyligidan mahrum bo'lgan bolalarni boqish, tarbiyalash va o'qitishni ta'minlaydi, bolalarga bag'ishlangan xayriya faoliyatlarni rag'batlantiradi" degan norma e'tirof etilgan. Konstitutsiyaning 65-moddasida "Farzandlar ota-onalarining nasl-nasabidan va fuqarolik holatidan qat'i nazar, qonun oldida tengdirlar. Onalik va bolalik davlat tomonidan muhofaza qilinadi," - deyilgan.

Shunday qilib, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida bola huquqlarini himoya qilishning asosiy tamoyillari belgilangan. Ular sirasiga quyidagi tamoyillarni kiritish mumkin:

birinchidan, bola huquqlari va erkinliklarini ta'minlashda xalqaro huquqning umume'tirof etilgan tamoyillari va normalarining ustuvorligi;

ikkinchidan, bola huquqlarining muhofaza va himoya qilinishining davlat tomonidan ta'minlanishi;

uchinchidan, yetim bolalar va ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalarga davlat va jamiyat tomonidan g'amho'rlik ko'rsatilishi;

to'rtinchidan, bolalarni kelib chiqishi yoki ota-onasining fuqarolik holati sababli kamsitilishiga yo'l qo'ymaslik;

beshinchidan, bolalarga nisbatan xayriya ishlarni amalga oshirishni rag'batlantirish;

oltinchidan, ota-onalarning o'z farzandlarini boqish va tarbiya qilish majburiyati.

Konstitutsiya Muqaddimasida aks etilgan ushbu tamoyilga binoan, bolalarga nisbatan davlatning huquqiy siyosatini belgilashda O'zbekiston Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt, Fuqarolik va siyosiy huquqlari to'g'risidagi xalqaro pakt va unga Fakultativ protokollardan iborat bo'lgan Inson huquqlari bo'yicha xalqaro billga hamda Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya va unga Fakultativ protokollar va boshqa xalqaro hujjatlarda aks etilgan bola huquqlariga oid xalqaro standartlarga tayanadi. Mazkur tamoyil asosida bola huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi milliy qonunchiligi rivojlanib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasining bola huquqlari sohasidagi xalqaro hamkorligi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi normalari va tamoyillariga, Respublikaning tashqi siyosati va bola huquqlari sohasidagi milliy qonunchiligiga, BMT va YeXHTning tamoyillari va maqsadlariga, shuningdek, O'zbekistonning xalqaro shartnomalaridan kelib chiqadigan majburiyatlariga asoslanadi. Mamlakatimiz, hozirgi kunda, shuningdek, 50 dan ortiq turli xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik olib bormoqda. O'zbekiston BMT va YUNESKO, JSST, YUNISEF kabi uning ixtisoslashgan tashkilotlari va organlari, YeXHT, MDH, ShHT kabi, tashkilotlarga nafaqat a'zo bo'ldi, balki, ular bilan o'zaro foydali hamkorlik aloqalarini ham olib bormoqda. Bunday tashkilotlar orasida, BMT, uning ixtisoslashgan muassasalari, YUNISEF, kabi xalqaro tashkilotlar va xalqaro jamg'armalarga alohida to'xtalib o'tish joizdir. Mazkur tashkilotlarning asosiy faoliyati bola huquqlarini himoya qilish bilan bog'liq bo'lib, ular tomonidan O'zbekistonda qator loyihalar, dasturlar va boshqa tadbirlar amalga oshirib kelinmoqda. O'zbekistonning BMT bilan bola huquqlari bo'yicha hamkorligi to'g'risida aytish mumkinki, O'zbekiston mustaqilligining dastlabki,

kunlaridanoq, boshlangan, desak, adashmagan bo‘lamiz. Ya’ni, 1991-yil 30-sentabrda O‘zbekiston BMTning inson huquqlari va erkinliklari, shu jumladan, bolalarning huquq va erkinliklarini himoya qilish borasida eng muhim bo‘lgan hujjat – Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasiga qo‘shildi. O‘tgan davr mobaynida mazkur hujjatning normalari milliy qonunchilikka singdirib bo‘lindi. 1992-yilda esa, Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyani mamlakat parlamenti ratifikatsiya qildi. O‘tgan davr mobaynida mamlakat milliy qonunchiligi, mazkur Konvensiya normalariga muvofiqlashtirildi. 2008-yilda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuni mazkur Konvensiyaning to‘la implementatsiyasi bo‘ldi. Shuningdek, o‘tgan davr mobaynida, O‘zbekiston inson huquqlari bo‘yicha BMTning asosiy xalqaro huquqiy hujjatlariga qo‘shildi. Shulardan ko‘pchiligi bola huquqlariga taalluqlidir. Jumladan, bola huquqlarini ta’minlashda O‘zbekiston Respublikasi BMTning Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt, Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt, Xotin-qizlarga nisbatan kamsitishning barcha shakllariga barham berish to‘g‘risidagi konvensiya, Irqiy kamsitishlarga barham berish to‘g‘risidagi xalqaro konvensiya va Qiynoq va muomala va jazoning shafqatsiz, noinsoniy va qadr-qimmatni kamsituvchi boshqa turlariga qarshi kurash to‘g‘risidagi konvensiya kabi boshqa asosiy shartnomalariga ham tayanadi.

Shuningdek YUNISEFning O‘zbekistondagi faoliyati bolalar va ularning oilalari hayotini yaxshilashga qaratigan bo‘lib, quyidagi huquqlarni amalga oshirishga yordam beradi:

- yuqori sifatli tibbiy xizmatdan foydalanish huquqi, xususan, onalar salomatligi, bolalar o‘limini qisqartirish hamda OITV/OITS to‘g‘risidagi ma’lumotlarga ega bo‘lish huquqi;

- yuqori sifatli va bepul bo‘lgan boshlang‘ich ta’lim olish hamda yuqori sifatli va imkon qadar bepul bo‘lgan o‘rta ta’lim olish huquqi;

- bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazish va xordiq chiqarish huquqi;

- o‘z fikr-mulohazalarini erkin ifoda etish huquqi;

- jinsi, dini yoki irqidan qat’i nazar, hamma uchun teng imkoniyatga ega bo‘lish huquqi.

YUNISEF O‘zbekistondagi bolalar o‘z imkoniyatlarini to‘la amalga oshirish uchun ularning asosiy ehtiyojlarini qondirish va ularning imkoniyatlarini kengaytirishga yordam berish maqsadida bola huquqlarini himoya qilish borasidagi o‘z faoliyatini 1994-yil 1-mart kundan boshlagan. Dastavval davlat organlari hamda jamoat tashkiltlari bilan hamkorlikning va sherikchilik munosabatlarining asosiy yo‘nalishlari belgilab olindi. Jamg‘armaning butun faoliyati Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiya qoidalarini amalga oshirish bo‘yicha majburiyatlarni bajarishda O‘zbekiston hukumatiga ko‘mak ko‘rsatishga qaratilgan asosiy vazifadan kelib chiqadi. YUNISEF faoliyatini muhim obyekt bolalar, yoshlar va onalar hisoblanadi. YUNISEF hamkorlik dasturlari doirasida hukumat bilan ham markaziy, ham mahalliy darajalarda, fuqarolik jamiyati institutlari va xalqaro hamkorlari bilan faoliyat ko‘rsatib kelmoqda. YUNISEF o‘zining O‘zbekiston hukumati bilan hamkorlik dasturlari doirasida ana shu masalalarga e’tibor beradi. 2005-yil avgustda O‘zbekiston Respublikasi Hukumati va YUNISEF tashkiloti o‘rtasidagi 2005-2009-yillarga mo‘ljallangan Mamlakat Harakat Rejasi dasturi imzolandi. Mazkur harakat rejasi maqsadi hukumati bollar va ayollarning yashash, o‘sish va yaxshi, g‘amho‘r va himoyalangan muhitda rivojlanishiga bog‘liq bo‘lgan majburiyatlarini amalga oshirishda ko‘mak beradi. YUNISEF ushbu maqsadlarga erishish yo‘lida O‘zbekiston Respublikasi Hukumati, fuqarolik jamiyati instituti vakillari va bevosita bolalarning o‘zlari bilan ham yuqorida qayd etib o‘tilgan muhim chora-tadbirlarni amalga oshirish borasida hamkorlik qilib kelayotir.

Xulosa o‘rnida ta’kidlash joizki, mamlakatimizda bolalar huquqini himoya qilishning zarur huquqiy bazasi va xalqaro hamkorlik tizimi yaratildi. Unga ko‘ra bola huquqlarini amalga oshirish va himoya qilish mexanizmi ishlab chiqilib, davlat organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlarining izchil olib borilayotgan faoliyatida namoyon bo‘lmoqda. Shu bois, bola huquqlarini ta’minlash va himoya qilish uchun zarur bo‘lgan huquqiy va tashkiliy sharoitlar va kafolatlar yaratish O‘zbekiston Respublikasi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib hisoblanadi.

REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T.: O‘zbekiston, 2021
2. O‘zbekiston Respublikasi va inson huquqlari bo‘yicha xalqaro shartnomalar: inson huquqlari bo‘yicha universal shartnomalar. – T.: Adolat. 2002.
3. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi.
4. O‘zbekiston Respublikasining “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuni. 2008-yil,-yanvar.
5. O‘zbekiston Respublikasining “Voyaga yetmagan shaxslarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risidagi qonun hujjatlari takomillashtirilishi munosabati bilan o‘zbekiston respublikasining ayrim qonunlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi Qonuni. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2008 y., 16-son.

ТАНОСИЛ ЁКИ ОИВ КАСАЛЛИГИ/ОИТСНИ ТАРҚАТИШ ЖИНОЯТИНИНГ ТУШУНЧАСИ ВА АҲАМИЯТИ.

Курамбаев Тохир Хосинбаевич

Ўзбекистон Республикаси Ички ишлар
вазирлиги Академияси Тергов фаолияти
кафедраси ўқитувчиси

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7625611>

Аннотация. Таносил ёки ОИВ касаллиги, ОИТС атамаларининг тушунчаси, мазмун-моҳияти, ушбу касалликларни ўзга шахсга юқтириш жиноятининг тушунчаси, ушбу жиноят учун жавобгарликнинг моҳияти, уни аниқлаш ва олдини олишдаги ўзига хос хусусиятлар ҳамда жиноят қонунчилигига ўзгартириш киритиш юзасидан таклифлар.

Калим сўзлар: Таносил, ОИВ, ОИТС, жинсий, вирус, иммунитет танқислиги, синдром, юқтириш, жавобгарлик, жиноят қонунчилиги, хавф остида қолдириш.

ПОНЯТИЕ И ЗНАЧЕНИЕ ПРЕСТУПЛЕНИЯ РАСПРОСТРАНЕНИЯ ВЕНЕРИЧЕСКИХ ЗАБОЛЕВАНИЙ ИЛИ ВИЧ/СПИДА.

Аннотация. Понятие, содержание и сущность терминов венерическое заболевание или ВИЧ-инфекция, СПИД, понятие преступления передачи этих заболеваний другому лицу, характер ответственности за это преступление, особенности его выявления и профилактики, а также предложения по внесению изменений в уголовное законодательство.

Ключевые слова: Венерический, ВИЧ, СПИД, сексуальный, вирус, иммунодефицит, синдром, передача, ответственность, уголовное право, оставление в опасности.

THE CONCEPT AND SIGNIFICANCE OF THE CRIME OF VENEREAL OR HIV DISEASE/AIDS DISTRIBUTION.

Abstract. The concept, content and essence of the terms venereal or HIV disease, AIDS, the concept of the crime of transmitting these diseases to another person, the nature of the responsibility for this crime, specific features in its identification and prevention, as well as proposals for amending criminal law.

Keywords: Venereal, HIV, AIDS, sexual, virus, immunodeficiency, syndrome, transmission, responsibility, criminal law, leaving at risk.

Ҳозирги кунда бутун инсоният олди турган глобал муаммолардан бири бу - ОИВ ва ОИТСга қарши курашиш ҳамда уни олдини олиш муаммоси эканлиги ҳеч кимга сир эмас.

Жаҳон соғлиқни сақлаш ташкилоти маълумотларига кўра, ҳозир дунёда ОИВ инфекциясидан азият чекаётган 40 миллионга яқин бемор бор. Улар сони йилига ўртача 1,5 миллион нафарга кўпаяётганини, энг ёмони, хасталик ҳар йили 600 мингдан

зиёд кишининг ҳаётига зомин бўлаётганини таъкидлаш жоиз. Умуман, Ер юзида ОИТС эпидемияси бошлангандан буён 75 миллион одам ушбу дардга чалиниб, 32 миллион нафардан ортиғи вафот этди [1].

Бундан ташқари, ВМТ Матбуоит хизмати томонидан эълон қилинган маълумотномага кўра, 2021 йилда 19 ёшгача бўлган 110 мингга яқин болалар ва ўсмирлар ОИТС билан боғлиқ сабаблар туфайли вафот этган. ОИВ инфекциясини юқтирган вояга етмаганларнинг умумий сони эса 310 мингга кўпайиб, 2,7 миллион кишига етган. Болалар ОИВ/ОИТСга қарши дори-дармонларни камроқ олади. 2021 йилда болалар ва ўсмирлар ОИВ билан яшаётганларнинг атиги 7 фоизини ташкил қилган, бироқ бу ёш гуруҳи ОИТС билан боғлиқ барча ўлимларнинг 17 фоизини ва янги ОИВ инфекциясининг 21 фоизини ташкил қилган [2].

Худди шунингдек, Ўзбекистонда 45 минг киши орттирилган иммунитет танқислиги синдроми (ОИТС) билан касалланган. Қайд этилишича, ОИТСга чалинганларнинг 55 фоизини эркаклар, 45 фоизини аёллар, 14 фоизини эса 18 ёшга тўлмаган болалар ташкил [3].

Мазкур касалликларга қарши курашиш ва унинг олдини олиш ҳамда ушбу касалликни ўзга шахсга юқтирган тақдирда амалдаги Ўзбекистон Республикаси жиноят Кодексининг 113-моддасига кўра, яъни таносил ёки ОИВ касаллиги/ОИТСни тарқатиш жинояти учун жиноий жавобгарлик назарда тутилган.

Таносил, ОИВ касалликлари ва ОИТСни тарқатиш жинояти тушунчасига эга бўлишдан аввал уларнинг луғавий маъноси ҳақида маълумотга эга бўлишимиз лозим, чунки ҳар қандай сўз бирикмасининг мазмун-моҳиятини англаб олиш учун уни луғавий таҳлил қилиш талаб этилади.

“Таносил” сўзининг луғавий маъноси (*кўпайиш, урчиш, болалаш*). “Биологик жинсга оид, жинсий” тушунчаси келтирилган бўлиб, таносил касалликлари жинсий аъзолар касалликлари тушунчаси келтирилган [4].

Ўзбек тилининг изохли луғатида “ОИВ ва ОИТС” тушунчаларининг сўз бирикмаси шаклидаги умумий тушунчаси мавжуд эмас. Лекин ушбу луғатда сўз бирикмасида ишлатилган сўзларнинг таҳлили орқали уларнинг луғавий маъносини билиб олиш мумкин.

“Орттирилган” сўзининг луғавий маъноси сифатида *кўпаймоқ, ошмоқ* тушунчалари келтирилган.

“Иммунитет” (*лотинча immunitas, Immunitatus-қутулиш, халос, холи бўлиш*) организмнинг ўзидан ирсий жиҳатдан ёт хусусиятлари билан фарқ қиладиган, унинг бутунлигига ва биологик ўзига хослигига зарар етказадиган микроорганизмлар (касалик кўзғатувчилар) захарли моддалар ва бошқалардан ҳимояланиш реакцияси тушунилади.

“Танқислик” сўзининг луғавий маъноси сифатида *танқис ҳолат, етишмаслик, етишмовчилик, камёблик* тушунчаси келтирилган.

“Вирус” (*лотинча virus - ўсимлик шираси, заҳар*) сўзининг луғавий маъноси сифатида *фақат тирик ҳужайраларда кўпайиб, одам, ҳайвон, ўсимликда юқумли касалликлар қўзғатувчи микроорганизмлар* тушунилади.

Ўзбек тилининг изоҳли луғатида ОИВ ва ОИТС тушунчаларига сўз бирикмаси сифатида таъриф берилмаган бўлса-да, бироқ, “Одамнинг иммунитет танқислиги вируси келтириб чиқарадиган касаллик (ОИВ инфекцияси) тарқалишига қарши курашиш тўғрисида” ги 353-сонли Қонунда уларга шундай таъриф берилган. Яъни ОИВ - **одамнинг иммунитет танқислиги вируси** - одамнинг сурункали юқумли иммунитет танқислиги касаллигини қўзғатувчи. **ОИТС - орттирилган иммунитет танқислиги синдроми** - одамнинг иммунитет танқислиги вируси одамнинг иммун тизимини шикастлаши натижасида касаллик белгилари келиб чиқадиган ОИВ инфекциясининг сўнгги босқичи [5].

“Тарқатиш” сўзига таъриф берилмаган бўлса-да, ушбу сўз “*Ҳушбўй ҳид тарқатмоқ, хабар тарқатмоқ*”, - каби сўз бирикмалари билан қандай маъно англатиши кўрсатилган.

Мазкур турдаги жиноятлар ҳақида маълумотга эга бўлиш учун ушбу касалликларнинг тўғрисида тушунчага бўлиш лозим.

“Таносил касалликлари” бу жинсий йўл билан юқадиган касалликлар ҳисобланади. Бу касалликлар қўзғатувчилари ва клиник ҳолатига кўра турлича бўлса-да, уларни юқиш йўли бирлаштириб туради, яъни ушбу касалликлар аксарият ҳолларда жинсий алоқа йўли орқали юқадиган касалликлар ҳисобланади.

Сифилис (ескирган: лусес) - тери, шиллик пардалар, ички органлар, суяклар, асаб тизимининг шикастланиши билан сурункали, тизимли таносил юқумли касаллиги бўлиб ҳисобланади. Ушбу касалликнинг яна бир номи Захм деб аталиб, уни оқиш трепонема қўзғатади. Захм ўзига хос клиник кечишга эга: фаол клиник куруниш даври яширин давр билан алмашилиб, клиник ва патологоанатомик жидатдан терида сезилар - сезилмас бўлган яллиғланишлардан то чуқур специфик инфекцион гранулемалар ҳосил бўлишигача кузатилади. Бу гранулемалар кейинчалик некротик йул билан ириб, парчаланади ва уларнинг ўрнида чандик ёки ямоқчалар қолади .

Гонорея (юнонча "seminal суюқлик" ва "теку") грам - манфий диплококк-гонококк лат келтириб чиқарадиган юқумли касалликдир, яъни таносил касалликларини англатади. Ушбу касалликнинг яна бир номи Сўзак деб номланиб, унда асосан сийдик таносил аъзолари, баъзан тўғри ичак, кўз, оғиз шиллик каватлари ҳам зарарланади. Жахон соғлиқни саклаш ташкилоти маълумотларига кўра, ҳозир ҳам сўзак энг кўп тарқалган таносил касалликлари каторига киради. Ер шарида йилига 60 – 62 миллион аҳоли бу касалликка чалинади. Айниқса сўзакнинг 18 - 25

ёшлардаги йигит-қизлар орасида тарқалганлиги кўпгина мутахассисларни ташвишга солмоқда.

Юмшоқ шанкр, шанкроид, венерик яра - ўткир юқумли таносил касалликлардан. **Жинсий аъзолар** териси ёки шиллиқ қаватларида оғриб турадиган юмшоқ яралар пайдо бўлиши билан ифодаланади, уни юмшоқ шанкр деб аталишининг сабаби ҳам шундан. Ушбу касаллик ҳам асосан жинсий йўл билан юқади [6].

Таносил касалликларининг яна бошқа турлари мавжуд бўлиб, Жаҳон Соғлиқни сақлаш ташкилоти (ЖССТ) нинг берган маълумотиغا кўра, ҳозирги кунда таносил касалликларининг сони 27 дан ошган.

ОИВ инфекцияси – одамнинг иммунитет танқислиги вируси келтириб чиқарадиган сурункали юқумли касаллик ҳисобланиб, вирус бемор одам организмида бутун ҳаёти давомида сақланиб қолади. Инфекция дастлаб яширин тарзда кечиши, бу давр бир неча ойдан 5-10 йилгача ва ундан ҳам ортиқроқ давом этиши мумкин.

Орттирилган иммунитет танқислиги синдроми (ОИТС) – одамнинг иммун тизимини иммунитет танқислиги вируси шикастлаши натижасида касаллик белгилари келиб чиқадиган хасталикнинг сўнгги босқичидир [7].

Ушбу турдаги жиноятларни суд-тергов қилиш амалиётда дуч келинаётган айрим муаммоли ҳолатлардан келиб чиққан ҳолда жиноят Кодексининг 113-моддасининг 3-қисми ва ундан кейин қисмларини кенг таҳлил қилиш талаб этилади.

Амалдаги жиноят Кодексининг 113-моддасининг номи таносил ёки ОИВ касалликлари/ОИТСни тарқатиш деб номланиб, ушбу касалликни била туриб бошқа бир шахсга юқтирганлик учун жавобгарликни назарда тутаяди.

Жиноят қонунчилигининг ушбу нормасида ҳам таносил касалликлари учун, ҳам ОИВ ва ОИТСни тарқатганлик учун жавобгарлик назарда тутилган бўлиб, ҳозирги кундаги суд-тергов амалиёти ушбу нормага тегишлича ўзгартиришлар киритишни тақазо этмоқда. Чунки таносил касалликларини юқтириш жиноятнинг объекти инсон соғлиғи бўлса, ОИВ ва ОИТСни юқтириш жиноятининг объекти эса бевосита инсон ҳаёти бўлиб ҳисобланади.

Мазкур модда бўйича хорижий давлатлар жиноят қонунчилиги ўрганилганида қуйидагилар аниқланди, жумладан, Беларусия республикаси жиноят Кодексининг 157-моддаси ОИВни юқтириш, 158-моддаси эса жинсий йўл билан юқадиган касалликлар (таносил касалликлари)ни юқтирганлик учун, Грузия Республикаси жиноят қонунчилигининг 131-моддасида ҳам ОИВ инфекциясини юқтириш учун жавобгарлик белгиланган бўлса, 132-моддасида эса хавfli юқумли касалликларни юқтирганлик учун, худди шунингдек Қозоғистон Республикаси жиноят Кодексининг 117-моддасида жинсий йўл билан юқадиган касалликларни юқтириш учун жавобгарлик назарда тутилган бўлса, 118-моддасида эса ОИВни юқтирганлик

учун жавобгарликни белгилайди. Шу билан бирга яна бошқа бир қатор ривожланган давлатларнинг, хусусан Россия Федерацияси, Туркменистон ва Тожикистон Республикалари ва шу каби бошқа давлатларнинг жиноят қонунчилиги ўрганилганида, уларнинг жиноят Кодексида ҳам таносил касалликларини юқтирганлик учун алоҳида ҳамда ОИВ, ОИТСни юқтирганлик учун алоҳида нормалар белгиланган [8].

Шу боис юқорида қайд этилганлардан келиб чиққан ҳолда Ўзбекистон Республикаси жиноят Кодексининг 113-моддасига қуйидагича ўзгартириш киритиш мақсадига қуйидагича таклифлар ишлаб чиқилди.

Жиноят Кодексининг 113-моддасининг номини “таносил касалликларини тарқатиш”,- деб ҳамда жиноят Кодексининг 113¹-моддасини жорий этган ҳолда унинг номини “ОИВ ёки ОИТСни тарқатиш”,- деб номлаш таклиф этилади.

Жиноят Қонунчилигига ушбу ўзгартиришлар киритилиши келажакда суд-тергов амалиёти олдида турган муаммоларни қонуний ҳал қилиш, жиноят содир этган шахсга нисбатан адолатли жазо тайинлаш, ушбу турдаги жиноятлар кескин камайишига эришиш, шу билан бирга содир этилиши мумкин бўлган жиноятларнинг олдини олишга ҳамда давлатимиз олдида турган энг асосий муаммолардан бири бўлган ОИВ, ОИТС каби иллатларни камайишига, таъбир жоиз бўлса йўқ қилинишига эришиш мумкин.

REFERENCES

1. ¹. https://uza.uz/uz/posts/bugun-butunzhahon-oitsga-qarshi-kurash-kuni_430843
2. <https://qalampir.uz/uz/news/unicef-bolalar-urtasida-oit-s-oivga-chalinish-buyichada%D2%B3shatli-rak-amlarni-ochik-ladi-73139>
3. <https://qalampir.uz/news/uzbekistonda-kancha-odamOITSGa-chalingani-ochiqlandi-54691>
4. Ўзбек тилининг изоҳли луғати, Э.Бегматов, А.Мадвалиев, Н.Маҳкамов, Т.Мирзаев “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти
5. “Одамнинг иммунитет танқислиги вируси келтириб чиқарадиган касаллик (оив инфекцияси) тарқалишига қарши курашиш тўғрисида” ги ЎРҚ 353-сон.
6. С. С. Арифов - Т. : “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2010. - 504 бет
7. <http://pravo.gov.ru/proxy/ips/?docbody&nd=102041891>.

ТАНОСИЛ ЁКИ ОИВ КАСАЛЛИГИ/ОИТСНИ ТАРҚАТИШ БИЛАН БОҒЛИҚ ЖИНОЯТЛАРНИ ТЕРГОВ ҚИЛИШДА УЧРАЙДИГАН АЙРИМ МУАММОЛАР

Курамбаев Тохир Хосинбаевич
Ўзбекистон Республикаси Ички
ишлар вазирлиги Академияси Тергов
фаолияти кафедраси ўқитувчиси

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7625664>

Аннотация. Мақолада муаллиф томонидан таносил ёки ОИВ касаллиги ҳамда ОИТС ҳақида, ушбу касалликларни юқиш йўллари ҳақида, ҳозирги кундаги тергов амалиётида ушбу касалликларни тарқатиш жиноятларини тергов қилишда қандай тергов ва процессуал ҳаракатларни амалга ошириш лозимлиги, ушбу турдаги жиноятларни тергов қилишнинг бошқа турдаги жиноятларни тергов қилишдан ўзига хослиги фарқловчи жиҳатлари, шунингдек ушбу жиноятларни тергов қилиш даврида учраётган айрим муаммолар, йўл қўйилаётган хато ва камчиликлар, мазкур муаммо ва камчиликларни бартараф этиш юзасидан асослантилган таклифлар берилган.

Калит сузлар: Таносил, ОИВ, ОИТС, юқумли, жинсий, вирус, донор, парентерал, хавф, касаллик, экспертиза, иммунитет, синдром.

НЕКОТОРЫЕ ПРОБЛЕМЫ, ВСТРЕЧАЮЩИЕ ПРИ РАССЛЕДОВАНИИ ПРЕСТУПЛЕНИЙ, СВЯЗАННЫХ С РАСПРОСТРАНЕНИЕМ ИЛИ ВИЧ ЗАБОЛЕВАНИЕ/СПИД

Аннотация. В статье автор рассказывает о болезнях, передающихся половым путем то есть, о ВИЧ и СПИДе, о путях передачи этих заболеваний, о том какие следственные и процессуальные действия должны производиться при расследовании преступлений распространения этих заболеваний в современной следственной практике, отличительные особенности расследования данного вида преступлений от расследования других видов преступлений, а также некоторые проблемы, ошибки и недостатки, возникающие при расследовании этих преступлений и даны обоснованные предложения по устранению этих проблем и недостатков.

Ключевые слова: Генитальный, ВИЧ, СПИД, инфекционный, половой, вирусный, донорский, парентеральный, риск, заболевание, экспертиза, иммунитет, синдром.

SOME PROBLEMS ENCOUNTERED IN THE INVESTIGATION OF CRIMES INVOLVING THE SPREAD OF STD OR HIV/AIDS

Abstract. In the article, the author talks about sexually transmitted diseases or HIV and AIDS, about the ways of transmission of these diseases, what kind of investigation and procedural actions should be carried out in the investigation of crimes of spreading these

diseases in the current investigative practice, the distinctive features of the investigation of this type of crime from the investigation of other types of crimes, as well as some problems encountered during the investigation of these crimes, mistakes and shortcomings, and justified proposals for eliminating these problems and shortcomings.

Keywords: *Genital, HIV, AIDS, infectious, sexual, virus, donor, parenteral, risk, disease, expertise, immunity, syndrome.*

Коронавирус пандемияси барчани кўзини очди. Тиббиётда ахборот технологиялари қанчалик муҳимлигини кўрсатди. Лекин бу бўйича шароитлар ҳам, ходимларнинг малакаси ҳам ҳали етарли эмас. Шу боис ривожланган давлатлар тажрибаси асосида дастур ишлаб чиқиб, телемедицинани жадал ривожлантириш керак. Бу вақт ва харажатни тежайди, эпидемиологик хавфсизликни ҳам таъминлайди. Яна юқумли касалликлар тарқалмаслиги учун огоҳ, хушёр, тайёр бўлишимиз кераклигини кўрсатди. [1]

Бугунги кунда глобал касалликлар замонавий жамиятни том маънода босиб олди, аҳолининг барча ижтимоий гуруҳларига кириб борди ва дунё қитъалари бўйлаб ғалабали юришини давом эттирмоқда.

Жорий йилдаги статистик маълумотларга кўра, Ўзбекистонда 45 минг киши ортирилган иммунитет танқислиги синдроми (ОИТС) билан касалланган. Қайд этилишича, ОИТСга чалинганларнинг 55 фоизини эркалар, 45 фоизини аёллар, 14 фоизини эса 18 ёшга тўлмаган болалар ташкил этади [2].

Маълум бўлишича, Тошкент шаҳри ҳамда Тошкент вилоятида ички миграция ҳамда аҳоли сонининг кўплиги ҳисобига ОИТС билан касалланиш кўрсаткичи юқорилиги, бу борада айбдор шахсларнинг жиноий жавобгарлик масаласини қонуний ҳал қилиш, ушбу касалликни ўзга шахсларга қандай йўллар орқали юқтирганлигини исботлаш жараёнлари, бундай шахслар билан тергов ҳаракатларини қандай кўринишда олиб бориш ҳамда келгусида ушбу шахслар томонидан мазкур турдаги касалликларни ўзга шахсларга юқтиришини олдини олиш бўйича тегишли чора-тадбирларни амалга ошириш масалалари юзасидан чуқур илмий-тадқиқот ишларини олиб боришни тақазо этмоқда. [3]

ОИВ инфекцияси – одамнинг иммунитет танқислиги вируси келтириб чиқарадиган сурункали юқумли касаллик ҳисобланиб, вирус бемор одам организмда бутун ҳаёти давомида сақланиб қолади. Инфекция дастлаб яширин тарзда кечиши, бу давр бир неча ойдан 5-10 йилгача ва ундан ҳам ортиқроқ давом этиши мумкин. Касалликнинг яширин даврида вирусни юқтириб олган шахслар кўринишидан соғлом бўлиб, уларда касалликнинг ҳеч қандай белгилари кузатилмайди. Касалликнинг шу даври анча хавфли ҳисобланиб, инфекцияни юқтириб олган шахслар ўзлари билмаган ҳолда касалликни бошқаларга юқтириб юришлари мумкин. ОИВ инфекциясида меъёрда ишлаб турган иммун тизими

йиллар давомида вируснинг тажовузини босиб туради. Аммо, вирус организмда кўпайиб аста-секин иммун тизимни мутлақо издан чиқаради ва натижада ОИТС ривожланади [4]. Орттирилган иммунитет танқислиги синдроми (ОИТС) – одамнинг иммун тизимини иммунитет танқислиги вируси шикастлаши натижасида касаллик белгилари келиб чиқадиган хасталикнинг сўнгги босқичидир [5].

Ўзбекистон Республикаси ЖКнинг 113-моддасига кўра, била туриб бошқа шахсга таносил ёки ОИВ касаллиги/ОИТС ни юктириш ёки юктириш хавфи остида қолдириш учун жавобгарлик белгиланган. [6] Бунинг учун шахс ўзида ушбу касалликлар борлиги ҳақида олдиндан билган бўлиши ва уни бошқа шахсга юктириш ёки юктириш хавфи остида қолдирганлик учун жиноий жавобгарлик назарда тутилганлиги ҳақида огоҳлантирилган бўлиши лозим.

Ҳозирги кунда тергов амалиётида Ўзбекистон Республикаси Жиноят кодексининг 113-моддасида назарда тутилган жиноятларни тергов қилишда бир қатор муаммоли вазиятлар юзага келмоқда, бу эса ушбу муаммоларни тегишли тартибда ўрганишни ҳамда уларнинг илмий ечимини топиш ва уларни амалиётга жорий қилишни тақозо этади. Мазкур жиноятларни тергов қилишда учраётган айрим муаммоларга тўхталамиз. Жумладан, тергов амалиёти шуни кўрсатадики, гумон қилинувчининг ўзи касалликни кимдан юктириб олганлиги, шунингдек унинг ўзи иш бўйича жабрланувчидан ташқари бошқа шахсларга юктирган-юктирмаганлиги каби ҳолатлар тергов жараёнида кўпчилик ҳолларда аниқланмасдан ёки аниқлашга қаратилган тегишли тергов ҳамда процессуал ҳаракатлари етарли даражада олиб борилмасдан, бир сўз билан айтганда, иш бўйича исботланиши лозим бўлган барча ҳолатлар тегишли тартибда текширилмасдан, уларга ҳуқуқий баҳо берилмасдан қолмоқда.

Мазкур муаммоларнинг назарий ечими сифатида рус олимлари, хусусан Л.Я. Драпкин “терговчи муайян вазиятда бўлган ҳолда, реал тергов ҳолатида ҳаракат қилиб, жиноятни тергов қилишни бошлашдан олдин, онгли, тизимли ва мақсадли ҳаракат қилиш учун жиноий ҳодисанинг барча ҳолатлари тўғрисида маълумот олишга, унинг адекват моделини яратишга интилади, гарчи версиялар табиатан эҳтимолий бўлса ҳам. Бироқ, маълумотларнинг этишмаслиги, унинг манбалари тўғрисидаги маълумотларнинг йўқлиги билан у ҳар доим ҳам жиноят ишидаги ҳақиқий вазиятга мос келадиган моделни яратишга қодир эмас. [7]

Ҳатто қарама-қарши нуқтаи назарнинг энг изчил тарафдори Р.С. Белкин тергов ҳолатининг “терговга нисбатан ташқи” хусусиятини қайта-қайта таъкидлаб, шунга қарамай, унинг таркибига “ички”, соф баҳоловчи хусусиятнинг аксарият қисмларини киритган, бу билан тергов ҳолатининг намунавий-ахборот характери ҳақида ҳақиқий хулосага келади. [8]

Шунингдек, И.Ф. Герасимовнинг таъкидлашича эса, “тергов ҳолатининг ҳар қандай элементи вазиятни баҳолашда ҳал қилувчи бўлиши мумкин. Аммо ҳар

қандай шароитда ҳам терговчи барча омилларни ҳисобга олиши керак, акс ҳолда баҳолашда хатолар амалда салбий оқибатларга олиб келиши мумкин”. [9]

Юқоридаги олимларнинг назарий фикрларига қўшилган ҳолда шуни айтиш мумкинки, терговчи жиноят ишининг дастлабки тергов ва суриштируви даврида аниқланиши ва исбот қилиниши лозим бўлган барча ҳолатларга аниқлик киритиши, ишининг барча томонларини тўла ўрганган ҳолда, ҳар бир ҳолатга ҳамда ҳар бир шахснинг хатти-ҳаракатларига ҳуқуқий баҳо бериши, яъни дастлабки тергов ва суриштирувни ҳар томонлама, тўла ва холисона олиб бориши, иш бўйича аниқланиши лозим бўлган барча ҳолатларга тергов даврида тўла ойдинлик киритиб, уларга ҳуқуқий жиҳатдан баҳо бериши лозим.

Шундан келиб чиққан ҳолда, юқорида қайд этилган муаммонинг ечими сифатида шуни қайд этиш лозимки, Ўзбекистон Республикаси ЖКнинг 113-моддаси билан боғлиқ жиноят ишлари бўйича дастлабки тергов ва суриштирув даврида гумон қилинувчи, жабрланувчи, гувоҳ ва шу каби бошқа шахсларни тегишли процессуал тартибда сўроқ қилиш, юзлаштириш, кўздан кечириш ва шу каби бошқа зарур тергов ҳаракатлари давомида улар ўзларида ушбу касаллик тегишли тартибда аниқлангунга қадар ҳамда аниқланганидан кейин мазкур касалликни бошқаларга юқиши хавфини келтириб чиқарувчи муносабатларга киришган-киришмаганлиги аниқланиши ҳамда улар билан муносабатга киришган шахсларни тегишли тартибда текширувдан ўтказиш чоралари кўрилиши лозим.

Шу ўринда, шуни алоҳида таъкидлаб ўтиш жоизки, Вазирлар Маҳкамасининг “Ички ишлар органлари томонидан ўтказиладиган махсус тезкор ва профилактик тадбирларда аниқланган ОИВ/ОИТС инфекцияси билан касалланганликда гумон қилинаётган шахсларни бюджет маблағлари ҳисобидан ғайририхтиёрий равишда тиббий текширувдан ўтказиш тартибини белгилаш тўғрисида”ги қарори лойиҳаси [ЭЪЛОН ҚИЛИН](#)ган бўлиб, унга кўра 2023 йил 1 январдан бошлаб ички ишлар органлари томонидан ўтказиладиган махсус тезкор ва профилактик тадбирларда аниқланган ОИВ/ОИТС инфекцияси билан касалланганликда гумон қилинаётган шахсларни бюджет маблағлари ҳисобидан ғайририхтиёрий равишда тиббий текширувдан ўтказиш йўлга қўйилиши илгари сурилган. [10]

Юқоридаги қарорнинг “Ички ишлар органлари томонидан ўтказиладиган махсус тезкор ва профилактик тадбирларда аниқланган ОИВ/ОИТС инфекцияси билан касалланганликда гумон қилинаётган шахсларни давлат бюджети маблағлари ҳисобидан ғайририхтиёрий равишда тиббий текширувдан ўтказиш тартиби тўғрисида”ги илованинг 2-бандида:

- *хавфли гуруҳ* – ўзининг ғайриижтимоий хулқ-атвори туфайли ўзга шахсларга жинсий алоқа йўли орқали юқувчи касалликларни (ОИВ, захм, сўзак ва бошқалар) юқтириш хавфи юқори бўлган рағбатлантириш эвазига интим хизмат кўрсатувчилар, бесоқолбозлар ва таносил касаллигига чалинган, шунингдек,

гиёҳвандлик воситаларини игна орқали қабул қилувчи ёки қабул қилганликда гумонланган шахслар;

- хавфли гуруҳ билан алоқада бўлган шахслар:

- махсус тезкор ва профилактик тадбирларда аниқланган, хавфли гуруҳга кирувчи шахслар билан жинсий алоқага киришган ёки жинсий алоқага кирганликда гумонланган шахслар;

- махсус-профилактик тадбирлар давомида ахлоққа зид бўлган ҳуқуқбузарликлар (рағбатлантириш эвазига интим хизмат кўрсатувчилар, жинсий эркинликка ва ахлоққа қарши, таносил ёки ОИВ/ОИТС инфекциясини тарқатиш билан боғлиқ жиноятлар)ни содир этилиши мумкин бўлган объектларда ишловчилар ва ташриф буюрувчи шахслар;

- касб юзасидан ўз вазифаларини бажармаганлиги ёки лозим даражада бажармаганлиги оқибатида бошқа шахсга ОИВ/ОИТС инфекциясини юқтириш билан боғлиқ бўладиган объектларда ишловчилар ҳамда тадбир давомида бундай объектларда аниқланган шахс (мижоз)лар каби шахслар ОИВ/ОИТСга қарши гайририхтиёрий равишда тиббий кўрикдан ўтказиш белгиланган.

Шу ўринда И.Ф.Герасимовнинг “Ҳозирги вақтда турли фанларда турли гуруҳлар, таснифлар ва систематикалардан фойдаланмасдан туриб, илмий тадқиқотларда муваффақиятга ишониш қийин”,- деган мазмундаги фикрларини келтириб ўтишимиз жоиздир. [11]

Жиноятнинг барча субъектларини уларнинг хусусиятларига кўра қуйидаги гуруҳларга бўлиш мумкин: “жинсий жиҳатдан бузилган тип”, “ижтимоий тип”, “қундалик тип”, “бепарволик тури”. [12]

Гумон қилинувчи ўзидаги таносил касаллигини кимдан юқтирганлигини аниқлаш ҳамда унинг ўзи ушбу касалликни жабрланувчидан ташқари бошқа шахсларга юқтирган-юқтирмаганлигини аниқлаш учун юқорида қайд этилган ижтимоий гуруҳларни тегишли тартибда тиббий текширувдан ўтказиш йўли орқали аниқлаш имконига эга.

Бундан ташқари, давлатимиз раҳбари, мухтарам Ш.М.Мирзиёевнинг 2022 йил 16 май кунги “Айрим долзарб вирусли инфекциялар тарқалишига қарши курашиш чора-тадбирларини такомиллаштириш тўғрисида”ги 243-сонли қарорига мувофиқ жорий йилнинг 1 сентябрь кунидан эътиборан фоҳишалик билан шуғулланган (МЖТК 190-моддаси) шахсларга нисбатан жавобгарликни белгилаш билан бирга уларни ўз ҳисобидан гепатитнинг “В” ва “С” турларига скрининг текширувларидан ўтказиш тартиби амалга киритилди. [13] Бу ҳам ушбу касалликни кенг тарқалишига қарши жуда кучли самара бериши мумкин.

Ҳозирги кунда таносил, ОИВ касалликлари, қолаверса ОИТС нинг кун сайин тобора ошиб бораётганлиги, албатта кейинчалик бу турдаги жиноятларнинг сони

хам ўсишиб боришидан далолат беради ва бу эса ўз-ўзидан ушбу турдаги жиноятларни тергов қилишни тубдан такомиллаштиришни тақозо этади.

Шу боис, тергов идоралари томонидан Ўзбекистон Республикаси ЖКнинг 113-моддасида назарда тутилган жиноят иши бўйича дастлабки тергов ва суриштирувни ҳар томонлама, тўла ва холисона олиб бориш мақсадида тергов идоралари ходимлари олдида турган муаммоли вазиятларнинг ечимини топиш зарур. Шу жумладан, мазкур жиноят бўйича гумон қилинувчи ушбу касалликни кимдан, қандай йўл орқали юқтирганлиги аниқлаш ва ўша шахснинг хатти-ҳаракатларига ҳуқуқий баҳо бериш шарт. Мавзудан озроқ узоқлашган ҳолда шуни айтиб ўтиш мумкинки, маласан, Ўзбекистон Республикаси Жиноят кодексининг 273-моддаси 5-қисми билан тергов олиб борилаётган жиноят иши бўйича гумон қилинувчи, айбланувчига гиёҳвандлик воситасини сотиб ўтказган шахснинг хатти-ҳаракатларига ЖКнинг 273-моддаси 5-қисми билан ҳуқуқий баҳо берилади, бироқ, худди шунга ўхшаш ҳолатда, яъни кўриб чиқилаётган Жиноят кодексининг 113-моддаси билан тергов олиб борилаётган айрим жиноят ишлари бўйича гумон қилинувчига юқумли касалликни юқтирган шахснинг хатти-ҳаракатларига, шунингдек гумон қилинувчи иш бўйича жабрланувчидан ташқари бошқа шахсларга ўзидаги касалликни юқтирган-юқтирмаганлиги ҳолатларига аниқлик киритилиб, ҳуқуқий баҳо берилмасдан, жавобгарликнинг муқаррарлиги принципини таъминланмасдан очиқ қолмоқда.

Чунончи, ҳозирги кундаги тергов амалиётидаги худди шу турдаги айрим жиноят ишлари бўйича тергов натижаларига кўра, айрим тергов идоралари томонидан Ўзбекистон Республикаси ЖКнинг 113-моддаси билан кўзғатилиб дастлабки тергов ва суриштирув олиб борилган айрим жиноят ишлари бўйича ОИТС маркази (бошқармалари) томонидан гумон қилинувчида ОИВ инфекцияси аниқланиб, у тегишли тартибда ҳисобга олиниб, унга нисбатан алоҳида ҳужжатлар расмийлаштирилиб, бемор ҳақидаги ва у юқтириб олган ОИВ инфекцияси билан боғлиқ барча маълумотлар қайд этилиб, унда бемор ушбу юқумли касалликни кимдан ёки қандай йўл орқали юқтириб олганлиги ҳақида тахминий маълумотлар қайд этилиши аниқланган. Масалан, бемор ҳақида расмийлаштирилган тегишли ҳужжатнинг тегишли қисмида *“бемор сўзидан мазкур касаллик илгари наркотик моддаларни шерикчиликда (парентал) қабул қилиши натижасида юққан”* каби тахминий маълумотлар қайд этилганлиги кўрсатилган. Тергов идоралари ходимлари гумон қилинувчиларни сўроқ қилиш жараёнида улар томонидан ҳам юқоридаги кўрсатмалар берилиши билан, ишнинг мазкур томонига тўла ойдинлик киритиш чоралари кўрилмасдан, гумон қилинувчининг ушбу кўрсатмалари асосида қарор қабул қилинмоқда.

Маълумки, Ўзбекистон Республикаси ЖКнинг 113-моддасида назарда тутилган жинойий жавобгарлик фақатгина шахс ўзида таносил ёки ОИВ касаллиги

ёки ОИТС мавжудлигини била туриб, ушбу касалликни ўзга шахсга юқтирган ёки юқтириш хавфи остида қолдирган ҳолатлардагина келиб чиқиши мумкин, аммо ҳар қандай ҳолатда тергов олиб борилаётган гумон қилинувчи, айбланувчига ушбу касалликни ўзида мавжудлигини олдиндан билган шахс томонидан юқтириб олган бўлиши мумкинлиги эҳтимолдан холи эмас. Ушбу ҳолатда мазкур шахс аниқланиб, унинг ижтимоий хавфли хатти-ҳаракатларига қонуний йўл орқали ҳуқуқий баҳо берилиб, у тегишли тартибда жиноий жавобгарликка тортилмаса, ўзининг жиноий фаолиятини давом эттириши, **натижада эса ушбу касалликлар янада кенг тарқалишига олиб келиши мумкин.** Шу боис, юқоридаги ҳолатда шахс ўзида аниқланган таносил, ОИВ касаллиги ёки ОИТС ни қандай йўллар орқали, кимдан юқтириб олганлигини тегишли йўллар орқали аниқлаш ҳамда унга ушбу касалликни юқтирган шахсинг жиноий жавобгарлик масаласини қонуний ҳал қилиш лозим.

Бундай ҳолатларда терговчилар қуйидаги тергов ва процессуал ҳаракатларни амалга оширишлари тавсия этилади:

- миграция ва фуқароликни расмийлаштириш бўлими орқали гумон қилинувчи, айбланувчининг илгари чет элга чиққан-чиқмаганлигини аниқлаши;

- тиббиёт идоралари орқали унинг ҳаёти давомида қон ва қон компонентларини қуйдирганлиги, донор сифатида қон топширганлиги, инъекцион наркотик моддалар қабул қилган-қилмаганлиги, наркологик касалликлари диспансерида рўйхатда туриш-турмаслиги, ДПМ ларда даволанган-даволанмаганлиги ва шу каби бошқа маълумотлар олиши;

- иш бўйича аҳамиятли маълумотларга эга гувоҳларни сўроқ қилиши, гумон қилинувчи ва жабрланувчининг хулқ-атворини аниқлаш мақсадида унинг яшаш жойидаги маҳалла раисини, маҳалла фаолларини батафсил сўроқ қилиши;

- гумон қилинувчи ва жабрланувчининг яшаш уйини тегишли процессуал тартибда кўздан кечириши;

- унинг олдинги хулқ-атворини ўрганиш, гумон қилинувчига мазкур касалликни юқтирган шахслар доирасини аниқлаш, шу билан бирга гумон қилинувчининг ўзи иш бўйича жабрланувчидан ташқари бошқа кимларга мазкур касалликни юқтирган бўлиши мумкинлиги ёки юқтириш хавфи остида қолдирган бўлиши мумкинлиги бўйича, шунингдек бошқа иш учун аҳамиятга эга ҳолатларни аниқлаш учун тегишли тартибда тезкор ходимларга тергов натижаларидан келиб чиқиб, аниқ вазифалар қўйилган тезкор топшириқлар бериши;

- гумон қилинувчи ва жабрланувчи билан тиббий муолажалар олиб бораётган шифокорларни улардаги касалликнинг ривожланиш тарихи, беморда касаллик қандай йўллар орқали пайдо бўлган бўлиши мумкинлиги, касалликнинг ривожланиш даври ва шу каби иш учун аҳамиятли маълумотларни аниқлаш мақсадида батафсил сўроқ қилиши;

- ҳозирда ушбу касаллик жинсий йўл орқали юқиши кўп учраётганлигидан келиб чиққан ҳолда гумон қилинувчи ҳамда жабрланувчининг ички кийимларини ашёвий далил тариқасида олиб, уларда гумон қилинувчининг эркак уруғлик доғлари, қон доғлари ва шу каби бошқа биологик объектлар бор-йўқлигини аниқлаш мақсадида биологик экспертиза тайинлаш;

- гумон қилинувчи ва жабрланувчида ушбу турдаги касалликни аниқлаган, бу бўйича шуғулланаётган ОИТС маркази (бошқармаси) ходимини батафсил сўроқ қилиши;

- гумон қилинувчи ва жабрланувчига очилган эпидемиологик йиғма жилдларни тегишли процессуал тартибда кўздан кечириши ва уларни Ўзбекистон Республикаси ЖПКнинг 204-моддасига асосан ёзма далил деб эътироф этиши; [14]

- гумон қилинувчи, жабрланувчини ишнинг барча ҳолатларига эътибор қаратиб, тергов йўналиши бўйича аниқланиши лозим бўлган барча ҳолатларни камраб олувчи саволларни қўйган ҳолда ҳамда сўроқ жараёнида олдиндан тайёргарлик кўрган ҳолда, шунингдек зарурат туғилган тақдирда иш бўйича педагог, психолог, мутахассис ва бошқа шахсларни жалб қилган ҳолда сўроқ қилиши;

- гумон қилинувчи шахсга ушбу касалликни юқтирганликда гумон қилинган шахслар доираси аниқланган тақдирда, ушбу шахсни тегишли тартибда ОИТС маркази (бошқармаси) да текширувдан ўтказиб, ушбу ҳолат бўйича иш бўйича гумон қилинувчи ҳақиқатан ўзида мавжуд бўлган касалликни мазкур шахсдан юқтирганлигига аниқлик киритиш мақсадида тегишли судга оид экспертизалар (судга оид тиббий, биологик, зарурат туғилганда одам ДНК нинг биологик экспертизалари) тайинлаши;

- гумон қилинувчига ушбу касалликни юқтирган шахсни ҳамда гумон қилинувчи иш бўйича жабрланувчидан ташқари бошқа шахсларга ўзида мавжуд бўлган касалликни юқтириш ҳолатлари содир бўлган-бўлмаганлигини аниқлаб, ишнинг ушбу томонига ҳуқуқий баҳо бериши лозим.

Ҳозирги кундаги тергов амалиётидаги асосий муаммолардан бири бу-суриштирувчи ва терговчиларнинг иш юритувидаги жинойт ишлари сонининг кўплиги сабабли дастлабки тергов ва суриштирувни имкон қадар қисқа муддатлар ичида тамомлаб судга юбориш ҳисобланади. Дастлабки тергов ва суриштирувни қисқа фурсатлар ичида тамомлаш яхши натижа албатта, аммо терговни тўла, сифатли ва холисона олиб бориш муҳим ҳисобланади.

Шу боис юқорида қайд этиб ўтилганидек, таносил ёки ОИВ касаллиги/ОИТСни тарқатиш билан боғлиқ жинойт ишларини тергов қилишда тавсия этилган тергов ҳамда процессуал ҳаракатлар орқали Ўзбекистон Республикаси ЖПКнинг 22-моддасида кўрсатилган ҳақиқатни аниқлашга эришиш мумкин.

Юқорида қайд этиб ўтилганлардан келиб чиққан ҳолда, Ўзбекистон Республикаси ЖКнинг 113-моддасида назарда тутилган жиноятлар бўйича ўтказилаётган дастлабки тергов ва суриштирув жараёнида учраётган муаммоларнинг ечими ҳамда ҳозирги кунда глобал муаммо сифатида қаралаётган ОИВ касаллиги ва ОИТСнинг тарқалишини олдини олиш мақсадида қонунчиликка қуйидаги таклифларни беришимиз мумкин:

Юқорида қайд этиб ўтилган, “Ички ишлар органлари томонидан ўтказиладиган махсус тезкор ва профилактик тадбирларда аниқланган ОИВ/ОИТС инфекцияси билан касалланганликда гумон қилинаётган шахсларни бюджет маблағлари ҳисобидан ғайриихтиёрий равишда тиббий текширувдан ўтказиш тартибини белгилаш тўғрисида”ги қарор лойиҳасига илованинг 2-бандига “гумонланувчи шахслар билан бирга яшовчи унинг яқин қариндошлари” жумласини киритиш лозим. Негаки жиноят ишлари бўйича гумон қилинувчи, мисол учун эр турмуш ўртоғидан ташқари ўз фарзандларига ҳам юқтирган бўлиши мумкин, агарда унинг фарзандларига юқтирган бўлса ва уни тегишли тартибда текширувдан ўтказилмаса, у ҳам бошқа шахсларга ушбу касалликни ўзи билмаган ҳолда тарқатиб юриши мумкин, шунинг учун албатта текширувдан ўтказилиши шарт ҳисобланади.

Бундан ташқари, илованинг 7-бандида “махсус тезкор тадбирларгача касаллик аниқ бўлган ва қасддан бошқа шахсларга ОИВ/ОИТС инфекциясини юқтириш ҳолатларини содир этишда гумонланган шахслар бўйича маълумот ОИТСга қарши курашиш маркази ва унинг ҳудудий лабораториялари томонидан текширувдан ўтказилган шахсга ёки тегишли тартибда ички ишлар органига тақдим этилади”, - деб белгиланган. Бироқ қонунчилик нуқтаи назардан ёндашадиган бўлсак, бундай ҳолатларда терговга қадар текширув ўтказиш ва мазкур ҳолатга ҳуқуқий жиҳатдан баҳо бериш шартдир. Шу боис мазкур қарор лойиҳасининг ушбу бандини “махсус тезкор тадбирларгача касаллик аниқ бўлган ва қасддан бошқа шахсларга ОИВ/ОИТС инфекциясини юқтириш ҳолатларини содир этишда гумонланган шахслар бўйича маълумот тегишли тартибда ички ишлар органига тақдим этилади”, - деган жумлани янги таҳрирда киритиш лозим. Шу билан бирга қарор лойиҳасининг 5-банди 1-хатбошисига “ҳар бир ОИВ/ОИТС инфекцияси билан касалланганликда гумон қилинаётган шахсни ғайриихтиёрий равишда тиббий текширувдан ўтказиш ҳолати бўйича терговга қадар текширув ўтказилади”, - деган жумлани киритиш мақсадга мувофиқ, чунки ушбу ҳолатда шахсни тиббий текширувдан ўтказиш терговга қадар текширувни амалга оширувчи масъул ходим қарорига асосан ўтказилиши белгиланган, шу боис терговга қадар текширув ўтказиш қонунга мувофиқ ҳисобланади ва аниқланган маълумотлар асосида Ўзбекистон Республикаси ЖПКнинг 330-моддасига асосан қонуний қарор қабул қилиш лозим бўлади.

Юқоридаги қонунчиликка берилган таклиф ва тавсиялар келгусида юқорида қайд этиб ўтилган жиноят ишлари бўйича дастлабки тергов ва суриштирувни тўла,

сифатли ва холисона олиб борилишини таъминлашга ҳамда ҳозирги кунда долзарб ҳисобланган таносил, ОИВ касалликларини олдини олишга кўмаклашиши мумкин.

REFERENCES

1. <https://m.kun.uz/news/2020/05/09/shavkat-mirziyoyev-yuqumli-kasalliklar-tarqalmasligi-uchun-ogoh-hushyor-tayyor-bolishimiz-kerak>;
2. <https://qalampir.uz/news/uzbekistonda-kancha> odamOITSga chalingani ochiqlandi-54691;
3. <https://www.xabar.uz/jamiyat/ozbekistonda-oits-bilan-kasallangan>;
4. Азарова э. С. Жиноятларни очиш ва тергов қилишга уюшган қарши курашиш муаммолари: Дис канд. қонуний Фанлар. Волгоград, 2006 йил;
5. Рйжаков А.П. Жиноий жараён / Университетлар учун дарслик. М., 2003 йил;
6. Ўзбекистон Республикаси Жиноят кодекси 1994 йил 22 сентябрь. 113-моддаси;
7. Герасимов И.Ф. Жиноятларни очишдаги баъзи муаммолар. М. 2002;
8. Белкин Р.С. Криминалистика: университетлар учун дарслик \ эд. Белкина Р.С. - М.: "НОРМА" нашриёти;
9. И.Ф.Герасимов. Хусусий усуллар таркибидаги жиноятларнинг криминалистик тавсифлари // Ин: Жиноятларни тергов қилиш методологиясида суд-тиббий хусусиятлар. Свердловск: Урал давлат университети, 1978 й;
10. <https://darakchi.uz/uz/151273>;
11. Герасимов И.Ф. Жиноятларни очишнинг айрим муаммолари. Свердловск, 1978 йил - п. 151;
12. Фрейд З. “Мен” ва “Бу”. Турли йиллардаги асарлар. Жинсийлик психологияси бўйича иншолар. Пер. Китоб 1. Тбилиси, 1991;
13. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 16.05.2022 йилги “Айрим долзарб вирусли инфекциялар тарқалишига қарши курашиш чора-тадбирларини такомиллаштириш тўғрисида” ги 243-сон қарори;

14. Ўзбекистон Республикаси Жиноят-процессуал кодекси. 1994 йил
22 сентябрь. 204-модда.

BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATEMATIKA FANINI O'QITISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Malikova Lobarxon Xasanboy qizi

Farg'ona viloyati Uchko'prik tumani (Puchug'oy qishlog'i)

37 - umumiy o'rta ta'lim maktabi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7625718>

Annotatsiya. Maqolada so'nggi yillarda kompyuterlar va axborot texnologiyalari hayotimizga dadil kirib kelayotganligi, matematika darslarida o'quvchilarni fikrlash qobiliyatini shakllantirish maqsadida kompyuterdan foydalanishlari va kompyuter savodxonligi, matematika fanini o'qitishda innovatsion yondashuvlar, boshlang'ich sinf o'quvchilarida matematika fanlarini o'qitish to'g'risida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: texnologiya, matematika, innovatsion ta'lim, elektron ishlanma.

USE OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN TEACHING MATHEMATICS IN PRIMARY GRADES

Abstract. The article reflects on the bold penetration of computers and information technologies into our lives in recent years, the use of computers in mathematics lessons in order to form students' thinking skills, computer literacy, innovative approaches to teaching mathematics, teaching mathematics in elementary school students.

Keywords: technology, mathematics, innovative education, Electronic Development.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ОБУЧЕНИИ МАТЕМАТИКЕ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ

Аннотация. В статье компьютеры и информационные технологии смело вошли в нашу жизнь в последние годы, использование компьютеров на уроках математики для формирования у учащихся навыков мышления и компьютерной грамотности, инновационные подходы к обучению математике, преподавание математики ученикам начальной школы. мнение об обучении.

Ключевые слова: технология, математика, инновационное образование, электронное развитие.

“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” da maktab ta'limini rivojlantirish davlat umummilliy dasturi talablarida “ta'lim tarbiya jarayonini shakllantirish ta'lim mazmunini aniqlash, ta'lim tarbiya jarayonini amalga oshirishning didaktik qonuniyatlari va prinsiplarini ishlab chiqish, davlat ta'lim standartlarini takomillashtirish, o'quv dasturlari, darsliklarning yangi avlodi, o'quv metodik majmualar yaratish” vazifasini hal qilish takidlab o'tilgan.

Metodik masalalar har bir darsda yuzaga keladi, Shu bilan birga odatda, ular bir qiymatli yechimga ega emas. O'qituvchi darsda yuzaga kelgan metodik masalaning mazkur o'quv vaziyati uchun eng yaroqli yechimini tez topa olishi uchun bu soxada yetarlicha keng tayyorgarlikka ega bo'lishi talab etiladi.

Boshlang'ich ta'lim metodikasi o'qitish vositasi sifatida mavjud didaktik o'yinlar mantiq ilmi va matematik nuqtai nazaridan mazmunan yetarli emasligi tufayli didaktik o'yinlardan foydalaniladi va o'rganilgan materialni faqat mustaxkamlash vositasi sifatida foydalaniladi.

Matematika boshlang'ich ta'lim metodikasining predmeti quyidagilardan iborat:

1. Matematika o'qitishdan ko'zda tutilgan maqsadni aniqlab asoslash (nima uchun matematika o'qitiladi, o'rgatiladi)

2. Matematika o'qitish mazmunini ilmiy ishlab chiqish (nimani o'rgatish) bir tizimga keltirilgan bilimlar darajasini o'quvchilarining yosh xususiyatlariga mos keladigan qilib qanday taqsimlansa, fan asoslarini o'rganishda izchillik ta'minlanadi, o'quv ishlariga o'quv mashg'ulotlari beradigan yuklama bartaraf qilinadi, ta'lim mazmuni o'quvchilarning aniq bilim olish imkoniyatlariga mos keladi.

3. O'qitish metodlarini ilmiy ishlab chiqish (qanday o'qitish kerak) ya'ni, o'quvchilar hozirgi kunda zarur bo'lgan iqtisodiy bilimlarni, malaka, ko'nikmalarni va aqliy faoliyat qobiliyatlarini egallab olishlari uchun o'quv ishlari metodikasi qanday bo'lishi kerak?

4. O'qitish vositalari-darsliklar, didaktik materiallar, ko'rgazmali qo'llanmalar va o'quv-texnika vositalaridan foydalanish (nima yordamida o'qitish)

5. Ta'limni tashkil qilishni ilmiy ishlab chiqish (darsni va ta'limning darsdan tashqari shakllarini qanday tashkil etish).

Boshlang'ich sinf o'qituvchisi matematika fanidan tuzilgan dasturga binoan o'quvchilarga quyidagi bilimlarni berishni nazarda tutadi:

- Butun nomanfiy sonlarni raqamlash;
- Asosiy miqdorlar va ularning o'lchov birliklari;
- Arifmetik amallar;
- Matnli masalalar;
- Algebraik material(tenglik, tengsizlik va b.q.)
- Geometrik material;

Boshlang'ich maktabda matematika o'qitish metodikasida mustaqil va nazorat ishlari, o'quvchilardan individual yozma so'rov o'tkazishning samarali vositalari yaratilgan. Ba'zi didaktik materiallar dasturning chegaralangan doiradagi masalalarining o'zlashtirilishini reyting tizimida nazorat qilish uchun, boshqalari boshlang'ich maktab matematika kursining barcha asosiy mavzularini nazorat qilish uchun mo'ljallangan. Ayrim didaktik materiallarda (ayniqsa, kam komplektli maktab uchun mo'ljallangan) o'qitish xarakteridagi materiallar, boshqalarida esa nazoratni amalga oshirish uchun materiallar ko'proqdir.

Matematika o'qitish metodikasida "o'quv materialini o'zlashtirilish darajasi" tushunchasining mazmuni to'la ochib berilmagan. O'qituvchilar uchun qo'llanmalarda didaktik materialning u yoki bu topshirig'i qaysi darajaga mos kelishini aniqlashga imkon beradigan mezonlar aniq emas.

Boshlang'ich sinflarning matematika darsida yangi metodlardan foydalanib o'quvchilarni qiziqtirish

Mamlakatimizda matematika 2020-yildagi ilm-fanni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilandi. O'tgan davr ichida matematika ilm-fani va ta'limini yangi sifat bosqichiga olib chiqishga qaratilgan qator tizimli ishlar amalga oshirildi:

birinchidan, ilg'or ilmiy markazlarda faoliyat yuritayotgan vatandosh matematik olimlarning taklif qilinishi va xalqaro ilmiy-tadqiqotlar olib borilishi uchun zarur shart-sharoit yaratildi;

ikkinchidan, xalqaro fan olimpiadalarida g'olib bo'lgan yoshlarimiz va ularning murabbiy ustozlari mehnatini rag'batlantirish tizimi joriy etildi;

uchinchidan, oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqotlarning o'zaro integratsiyalashuvini ta'minlash maqsadida Talabalar shaharchasida Fanlar akademiyasining V.I. Romanovski nomidagi Matematika institutining (keyingi o'rinlarda — Institut) yangi va zamonaviy binosi barpo etildi. Matematika sohasidagi fundamental tadqiqotlarni moliyalashtirish hajmi bir yarim barobarga oshirildi, budget mablag'lari hisobidan superkompyuter, zamonaviy texnika va asbob uskunalari xarid qilindi.

to'rtinchidan, ilmiy darajali kadrlarni tayyorlashning birlamchi bosqichi sifatida stajor-tadqiqotlik instituti joriy etildi;

beshinchidan, ilm-fan sohasidagi ustuvor muammolarni tezkor bartaraf etish, fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini kuchaytirish masalasini Hukumat darajasida belgilash maqsadida O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri raisiligidagi Fan va texnologiyalar bo'yicha respublika kengashi tashkil etildi.

Zamonaviy ta'limning maqsadi - har tomonlama rivojlangan, ijodkorlik qobiliyatiga ega shaxsni tarbiyalash. Bu maqsadni amalga oshirishda bizga zamonaviy pedagogik texnologiyalar yordam bermoqda. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, pedagogik texnologiyalarni bilishning o'zi yetarli emas, ular uzoq vaqt davomida amalga oshirilishi kerak.

Pedagogik (ta'lim) texnologiya - bu ilmiy asosda qurilgan, vaqt va makonda dasturlashtirilgan va ko'zlangan natijalarga olib keladigan pedagogik jarayonning barcha tarkibiy qismlarining ishlash tizimi.

Turli xil zamonaviy ta'lim texnologiyalari orasida boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan ishlashda foydalanish mumkin bo'lganlarini ajratib ko'rsatish juda muhimdir. O'quvchilarga u yoki bu bilimlar haqida ma'lumot berishdan oldin ularda bu bilimlarni idrok etish va tushunish uchun ma'lum bir ijobiy munosabatni shakllantirish kerak. Bunga o'yin yoki hayotiy-amaliy vaziyatni yaratish orqali erishiladi.

Maktablarda matematika darslarida yangi materialni tushuntirish, ayniqsa, quyi sinflarda uzoq davom etmasligi kerak. Yangi material kichik, mantiqiy to'liq "qismlarga" bo'linishi kerak.

Yangi materialni tushuntirishda o'qituvchi doimiy ravishda o'quvchilarga murojaat qilishi kerak: "Sizningcha, bundan keyin nima qilish kerak?". O'quvchilar taqdim etilayotgan materialni tushungan yoki tushunmaganligini aniqlash uchun savollar beriladi. O'qituvchining matematika darslarida yangi mavzuni tushuntirishi ko'rgazmali material, qo'llanmalar namoyishi bilan birga bo'lishi kerak. Masalan, o'qituvchi o'quvchilarni uchburchak elementlarining nomi va soni bilan tanishtiradi. Uchburchak modeli sinf oldida namoyish etiladi, o'qituvchi uchburchakning burchaklari borligini tushuntiradi, ularni ko'rsatadi. Bu yerda o'quvchilarga amaliy ishlar taklif etiladi. Keyin o'qituvchi o'quvchilarni uchburchakning nomi va boshqa elementlari: uchlari, tomonlari bilan tanishtiradi.

Suhbat o'qitish usuli sifatida muammoni hal qilishda keng qo'llaniladi. Suhbatda o'qituvchining savollari diqqat bilan o'ylangan bo'lishi kerak. Ularning mantiqiy ketma-ketligiga rioya qilish kerak. Ular o'quvchilarning bilimlari va hayotiy tajribasini hisobga olgan holda aniq, ixcham, mazmunan ochiq shakllantirilishi kerak.

Boshlang'ich sinflarda ikki tomonlama savollar qabul qilinishi mumkin emas (6 raqami qanday raqamlardan iborat?). Savollarda javob bo'lmasligi kerak (to'rtburchakning barcha tomonlari tengmi yoki qarama-qarshimi?). Noaniq savollardan qochish kerak (kvadrat qaysi raqamlarga tegishli?). Matematika darslarida sinf bilan frontal ishlarni tashkil qilishda har bir

bolaning individual imkoniyatlarini hisobga olish kerak. Eng zaif o'quvchilarni oddiyroq savollarga javob berishga jalb qilish kerak.

Matematik bilimlarni mustahkamlash va takrorlash mashqlarsiz mumkin emas. Mashqlar hisoblash ko'nikmalarini va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirish uchun ishlatiladi. Mashqlar ma'lum bir tizimda, ortib borayotgan qiyinchilik darajasida qo'llanilishi kerak.

Quyida sinflarda yangi material bilan tanishishda o'quvchilar o'qituvchi rahbarligida fan-amaliy mashg'ulotlarga jalb qilinadi. Maktab o'quvchilari olingan matematik bilimlarni hisob-kitoblarda, o'lchovlarda, almashuvlarda va amaliy muammolarni hal qilishda chizishda qo'llashni o'rganadigan o'yin va hayotiy vaziyatlarni yaratish muhimdir. Shakllar, usullar va o'qitish usullarini tanlash bir qator omillar bilan belgilanadi: darsning maqsadi.

Agar talabalarni yangi material bilan tanishtirish kerak bo'lsa, masalan, birinchi o'nlikning yangi raqamini olish, unda ularning o'tmish tajribasidan, mavjud bilimlarni yangi vaziyatda qo'llash qobiliyatidan foydalanish tavsiya etiladi. Bunday holda, suhbat usuli tanlanadi. Agar darsda talabalarni massa o'lchov birligi - kg bilan tanishtirish talab etilsa, u holda suhbat usuli mustaqil amaliy ish, shuningdek, ko'rgazmali o'qitish usuli bilan birgalikda tanlanadi.

Boshlang'ich maktab o'qituvchisi metodik mahoratni puxta egallashi, yordamchi maktabda matematika o'qitish jarayoni samaradorligini muntazam oshirib borishi kerak.

REFERENCES

1. Jumayev.M. va b.q. "Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi" T-2005 y 312
2. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogic mahorat.Toshkent. 2016.
3. Abdullayeva Q., va boshqalar "Ona tili" T., "O'qituvchi "2014 yil.
4. Bo'ri Ziyamammedov, Mamarajab Tojiyev. Pedagogik texnologiya-zamonaviy o'zbek milliy modeli. Toshkent. 2019.

BOSHLANG'ICH SINFLARDA PIRLSNING AFZALLIKLARI AHAMIYATI

Xolbutayeva Soxiba Ruzimirodovna

Samarqand viloyati Samarqand shahar 12 - maktab

Boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi

Husanova Oliya Abdullayevna

Samarqand viloyati Samarqand shahar 12 - maktab

Boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7625789>

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilimni baholashda pirlsning afzalliklari borasida ma'lumotlar keltirib o'tiladi.

Kalit so'zlar: Ilm - fan va ta'lim - tarbiya sohasining rivoji, g'oyalar va axborotlarni talqin qilish, sinfda va sinfdan tashqari o'qish, ijodiy g'oyalar.

ВАЖНОСТЬ ПРЕИМУЩЕСТВ ЖЕМЧУГА В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ

Аннотация. В данной статье представлена информация о преимуществах жемчуга при оценке знаний учащихся начальных классов.

Ключевые слова: развитие науки и образования, интерпретация идей и информации, чтение в классе и вне его, творческие идеи.

IMPORTANCE OF THE ADVANTAGES OF PEARLS IN ELEMENTARY GRADES

Abstract. In this article, information about the advantages of pearls in assessing the knowledge of elementary school students is given.

Keywords: development of science and education, interpretation of ideas and information, reading in and out of class, creative ideas.

Talim sifatini va samaradorligini oshirish yo'lida xorijiy ilg'or tajribalarni o'rganish, xalqaro standartlar talablarining joriy etilishi muhim ahamiyatga ega. Bu borada O'zbekiston Respublikasida qo'yilayotgan amaliy qadamlarga xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarning tashkil etilishi to'g'risida hukumat qarorining qabul qilinishi ta'lim sohasidagi yutuqlarni baholash xalqaro assotsiatsiyasidek (IEA) nufuzli tashkilot bilan hamkorlik aloqalarining yo'lga qo'yilishini misol keltirishimiz mumkin. 1958- yildan buyon ushbu tashkilot ta'lim sohasiga oid ko'plab mavzular bo'yicha o'ttizdan ortiq qiyosiy tadqiqotlarni o'tkazdi. Jumladan matematika va tabiiy fanlar (TIMSS), o'qish (PIRLS), fuqarolik va fuqarolik ta'limi (ICCS), kompyuter va axborot texnologiyalari bo'yicha savodxonlik (ICILS) kabi yo'nalishlarda o'quvchilarning bilim va ko'nikmalari, umuman olganda ta'lim olish jarayonida erishgan yutuqlarni baholab kelmoqda

Shu tadqiqotlardan eng asosiysi boshlang'ich sinf o'quvchilarning o'qish savodxonligini baholash mezonini bo'lgan PIRLS tadqiqoti haqida to'xtalib o'tsak. PIRLS dasturi 2001- yilda ta'lim sohasidagi yutuqlarni baholash xalqaro assotsiatsiyasi (IEA- International Association for the Evaluation of Educational Achievement) tomonidan tashkil etilgan. Xalqaro baholash dasturi PIRLS (Progress In International Reading And Literacy Study) dunyoning turli mamlakatlari milliy ta'lim tizimida o'qish savodxonligi bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar va natijalarni qiyoslashga yo'naltirilgan.

Tadqiqotlar 2001, 2006, 2011, 2016- yillarda o'tkazilgan. O'qish savodxonligi – jamiyat tomonidan talab qilinadigan va inson tomonidan qadrlanadigan yozma tilning shakllarini idrok etish va amaliyotda qo'llay olish qobiliyatidir. Ushbu nuqtayi nazar o'quvchilarning o'qishdan olingan ma'lumotlardan foydalanish qobiliyatiga tobora ko'proq e'tibor qaratadigan zamonaviy jamiyatda dolzarb ahamiyat kasb etadi. Asosiy e'tibor tushunishni namoyon qilishdan o'zlashtirilgan ma'lumotlarni qanday qilib yangi loyihalar va vaziyatlarda qo'llay olish qobiliyatlarini namoyon qilishga qaratilgan. Hozirgi vaqtda PIRLS ta'rifiga ko'ra, o'qish savodxonligi jamiyat tomonidan talab qilinadigan va inson tomonidan qadrlanadigan yozma til shakllarini tushunish va ulardan foydalanish, shuningdek, matnlardan turli shakllarda ma'no hosil qila olish qobiliyati hamdir. O'qish savodxonligining bu ko'rinishi konstruktiv va interaktiv jarayon sifatida ko'plab o'qish nazariyalarini aks ettiradi. O'quvchining matn bilan ishlash jarayonida o'quvchi va matn orasidagi mulqot orqali (shuning uchun ham bu jarayon interaktiv deyiladi) o'quvchi ma'noni yaratadi (shuning uchun ham bu jarayon konstruktiv deyiladi). PIRLS yosh o'quvchilarning sinfda va sinfdan tashqari o'qishining ikkita keng qamrovli maqsadiga qaratilgan.

Bular: 1. Badiiy tajribalar orttirish; 2. Ma'lumot olish va ulardan foydalanish.

Bundan tashqari, PIRLS o'qish maqsadlarining har birida to'rtta keng tushunish jarayonini birlashtiradi. Bular: 1. Diqqatni jamlash va aniq ko'rsatilgan ma'lumotlarni topish; 2. To'g'ridan-to'g'ri xulosalar chiqarish; 3. G'oyalar va axborotlarni talqin qilish va uyg'unlashtirish; 4. Kontent va matn elementlarini baholash va tanqid qilish.

Butun dunyo bo'ylab o'qish savodxonligining rivoji odamlarning nima sababdan o'qishlari bilan bevosita bog'liq. Umuman olganda, bu sabablar zavqlanish va shaxsiy qiziqish uchun o'qishni yoki ta'lim va jamiyat hayotida munosib ishtirok etishni o'z ichiga oladi. Ko'pgina yosh o'quvchilarning dastlabki mutolaasi aksariyat hollarda hikoya (masalan, hikoya to'plamlari yoki rasmlı kitoblar) yoki o'quvchilarga atrofdagi dunyo haqida ma'lumot beradigan va savollarga javob beradigan ma'lumotli matnlardan iborat bo'ladi. PIRLS da ishlatiladigan badiiy matnlarning asosiy shakli – bu badiiy to'qimaga asoslangan hikoyalardir.

O'quvchilar oddiy xulosalar bilan bir qatorda, matndagi g'oyalar va axborotlarni talqin qilishda va uyg'unlashtirishda aniq yoki umumiy ma'nolarga e'tibor berishlari yoki tafsilotlarni umumiy mavzular va g'oyalar bilan bog'lashi mumkin. To'liq javob berish uchun o'quvchidan barcha matnni yoki hech bo'lmaganda uning muhim qismlarini, shuningdek, matndan tashqaridagi fikrlarni yoki axborotni tushunish talab qilinadi.

O'quvchilardan matnni baholash va tanqidiy tahlil qilishda quyidagilar talab qilinadi: 1. Matnda berilgan ma'lumotlarning aniq va to'liqligini baholash; 2. Tasvirlangan voqeani haqiqatan sodir etilishi ehtimolini baholash; 3. Insonlarning o'ylari, bajaradigan ishlarini o'zgartirishda muallifning fikrlari qanchalik aniqligini baholash; 4. Matn sarlavhasi asosiy mazmunni qanchalik yoritib berishini baholash; 5. Metafora yoki nutq ohangi kabi til xususiyatlari ta'sirini tasvirlash; 6. Muallifning asosiy mavzuga oid qarashlarini aniqlash

REFERENCES

1. A. Ismoilov, D. Norboyeva, K. Kucharova, Z. Qosimova, N. Aminova. Xalqaro tadqiqotlarda boshlang'ich sinf o'quvchilarining savodxonligini baholash. (o'quv qo'llanma) – T.: Sharq NMAK, 2019. -94 b.
2. Davydov, V.V. Ta'limni rivojlantirish muammolari / V.V. Davydov. - M., 2016 yil.

O'ZBEKISTONNING XALQARO TASHKILOTLAR BILAN BOLA HUQUQLARI BO'YICHA HAMKORLIGINI RIVOJLANTIRISHNING SAMARADORLIGI

Urazaliyev Bekzad Abdirashidovich

Andijon davlat pedagogika instituti 2 - kurs magistranti,

Jizzax viloyati "Temuriylar izdoshi - NTM" Zomin

filiali maktabi o'qituvchisi

E-pochta: bekzodurazaliy@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7626114>

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekistonning xalqaro tashkilotlar bilan bola huquqlari bo'yicha hamkorligini rivojlantirishning samaradorligi haqida so'z boradi. Maqola davomida mavzu doirasidagi xulosa va takliflar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: xalqaro tashkilotlar, bola huquqlari, kamolot, g'amxo'rlik, imtiyoz va kafolat.

ЭФФЕКТИВНОСТЬ РАЗВИТИЯ СОТРУДНИЧЕСТВА УЗБЕКИСТАНА С МЕЖДУНАРОДНЫМИ ОРГАНИЗАЦИЯМИ ПО ПРАВАМ РЕБЕНКА

Аннотация. В данной статье говорится об эффективности развития сотрудничества Узбекистана с международными организациями по правам ребенка. Выводы и предложения в рамках темы представлены на протяжении всей статьи.

Ключевые слова: международные организации, права ребенка, зрелость, забота, привилегия и гарантия.

EFFECTIVENESS OF DEVELOPMENT OF UZBEKISTAN'S COOPERATION WITH INTERNATIONAL ORGANIZATIONS ON CHILDREN'S RIGHTS

Abstract. This article talks about the effectiveness of the development of Uzbekistan's cooperation with international organizations on children's rights. Conclusions and proposals within the scope of the topic are presented throughout the article.

Key words: international organizations, child rights, maturity, care, privilege and guarantee.

Bugungi kunda mamlakatimizda bola huquqlarini himoya qilishga qaratilgan ulkan ishlar amalga oshirilmoqda. Davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, oldimizda turgan eng ezgu maqsadlarimiz — mamlakatimizning buyuk kelajagi ham, ertangi kunimiz, erkin va farovon hayotimiz ham, O'zbekistonning XXI asrda jahon hamjamiyatidan qanday o'rin egallashi ham — bularning barcha-barchasi, avvalambor, yangi avlod, unib-o'sib kelayotgan farzandlarimiz qanday insonlar bo'lib voyaga yetishiga bog'liqdir.

Bu haqda fikr yuritganda, xalqaro huquqning jismoniy va aqliy jihatdan kamolotga yetmagan, jumladan, alohida e'tibor va g'amxo'rlikka muhtoj bolalarning huquq, imtiyoz va kafolatlarini qamrab oluvchi «bola huquqlari» degan sohasi mavjudligini ta'kidlash lozim. Inson huquqlarining ajralmas qismi sanaluvchi ushbu alohida soha o'ziga xos taraqqiyot yo'lini bosib o'tdi.

Bola huquqlarini himoya qilish va kafolatlashni nazarda tutuvchi xalqaro-huquqiy hujjatlar ro'yxatining boshida, shubhasiz, 1948-yilgi Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi turadi. Binobarin, ushbu Deklaratsiya «Hamma odamlar o'z qadr-qimmatini hamda huquqlarida erkin va teng bo'lib tug'iladilar» degan ulug'vor e'tirof bilan boshlanishi bejiz emas.

O'z navbatida, 1959-yilda Bola huquqlari deklaratsiyasini qabul qilish orqali Birlashgan Millatlar Tashkiloti butun insoniyatni, ota-onalar, davlatlar hukumatlarini bolalarning huquq va erkinliklarini tan olishga, ularga rioya qilishga chaqirdi. Tavsiya mazmunidagi ushbu Deklaratsiya bola huquqlari sohasida ulkan o'zgarishlar davrini boshlab berdi.

Shu ma'noda, Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya bola huquqlariga doir birinchi va asosiy xalqaro-huquqiy hujjattir. Bu Konvensiya BMT tomonidan 1989-yil 20 noyabrda qabul qilingan. Dunyodagi 196 ta davlat, shu jumladan, BMT a'zosi bo'lmagan Vatikan kabi davlatlar ham mazkur Konvensiya ishtirokchilari hisoblanadi.

O'zbekiston Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyaga 1992-yil 9 dekabrda qo'shilgan. Ushbu xalqaro-huquqiy hujjat mamlakatimiz uchun 1994-yil 29 iyuldan kuchga kirgan.

Ayni paytda butun dunyoda, jumladan, mamlakatimizda ham qabul qilinganining 30 yilligi keng nishonlanayotgan mazkur Konvensiya bola huquqlarining xalqaro miqyosda himoya qilish yo'lida munosib xizmat qilib kelmoqda.

Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya bola huquqlariga doir milliy qonunchilikni rivojlantirishning mukammal andozasi sanaladi. Konvensiya mamlakatimizda bolalar huquqlariga oid milliy qonunchilikning mustahkam bazasini yaratishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Xususan, Konvensiya qoida va normalarini milliy qonunchilikka implementatsiya qilish, shu orqali uning talablarini yanada keng ro'yobga chiqarish maqsadida 2008-yili O'zbekiston Respublikasining «Bola huquqlari kafolatlari to'g'risida»gi Qonuni qabul qilindi.

Ayni chog'da mamlakatimiz bolalar manfaatlari va huquqlarini himoya qilishga doir barcha asosiy xalqaro hujjatlarga qo'shilgan. BMTning Balog'atga yetmagan bolalarga nisbatan odil sudlov yuritishga doir minimal standart qoidalari (Pekin qoidalari, 1985-yil) hamda Voyaga yetmaganlar o'rtasida jinoyatlarning oldini olish uchun bosh tamoyillari (Ar-Riyod bosh tamoyillari, 1990-yil) shular jumlasidandir.

Dunyoning turli hududlarida siyosiy tanglik, ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik uzoq vaqtlardan beri davom etayotgan bir vaziyatda u yerdagi bolalarning taqdiri, kelajagi haqida chuqurroq o'ylab, o'zimizga tasavvur qilib ko'radigan bo'lsak, jahonda bola huquqlari himoyasi masalasi qanchalik dolzarb ekani yana bir bor ayon bo'ladi.

YUNISEF ma'lumotiga ko'ra, hozir ko'plab bolalar jismoniy va ruhiy tazyiq odatga aylangan oilalarda istiqomat qilishadi. Bundan tashqari, har o'ninchi bola kattalarning beshafqatligi qurboniga aylanmoqda.

Odatda himoyaga, yordamga yoki alohida g'amxo'rlikka muhtoj ana shu tabaqa vakillari hayotini tashvishlardan holi etish, ular osmonini qora bulutlardan tozalash har doim ham muqaddas burch bo'lib kelgan. BMTning xalqaro bolalar jamg'armasi – YUNISEF va qator xalqaro hamda mintaqaviy tashkilotlar navqiron avlod turmush farovonligini yuksaltirish, ularni turli ofatlardan asrash, huquqlarini himoya qilishga qaratilgan sa'y-harakatlarni amalga oshirishda bosh-qosh bo'lmoqda.

Jahon hamjamiyatining qashshoqlik va ochlikni tugatish, savodsizlikka barham berish, qochoqlar muammosini hal etishga qaratilgan chora-tadbirlari birinchi galda bolalar to'g'risidagi g'amxo'rlik ifodasi, albatta. Zero, yuqorida tilga olingan illatlar, avvalo, jahon bolalarining hayotini izdan chiqarmoqda.

XX asr sahnasida yuz bergan har ikki jahon urushi, ona zaminimizda bo'lib o'tgan va hozir ham davom etayotgan ko'p sonli urushlar va harbiy to'qnashuvlardan avvalo bolalar jabr ko'rmoqda. Oxirgi yarim asr mobaynida xalqaro gumanitar huquq va inson huquqlari sohasida bir qator konvensiyalar qabul qilindi.

Shunga qaramay, himoyasiz bolalar va ayollarga nisbatan shafqatsiz muomalada bo'lish, ularni zo'rlash, qiynash va o'ldirish, aksariyat hollarda yosh bolalarni urushga yollashdek og'ir illatlarga har qadamda duch kelinmoqda. Hozirgi kunda ham dunyoning qator hududlarida sayyoramiz hayotiga xavf solayotgan mahalliy va etnik urushlar, milliy nizolar davom etayotgani afsuslanarlidir.

Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 17-iyuldagi qaroriga asosan BMTning Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyasi qabul qilinganligining 30 yilligini nishonlashga bag'ishlangan Tadbirlar dasturi tasdiqlandi. Tadbirlar dasturi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 22-aprelda qabul qilingan "Bola huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorini bajarish yo'lida navbatdagi muhim qadam bo'ldi.

Tadbirlar dasturi O'zbekistonda ta'limning barcha bosqichlarida bola huquqlari sohasidagi ta'lim faoliyati samaradorligini oshirish; innovatsion texnologiyalarni hisobga olgan holda, bola huquqlari va manfaatlarini himoya qilish usullari va shakllarini takomillashtirish; bola huquqlarini himoya qilishning dolzarb jihatlari bo'yicha milliy va xalqaro axborot-ma'rifiy tadbirlar o'tkazish; BMTning Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyasini amalga oshirishga bag'ishlangan adabiyotlar va boshqa materiallarni tayyorlash va chop etish kabi yo'nalishlarda 19 ta amaliy chora-tadbir belgilangan. Hozirgi kunga kelib ularning aksariyati bajarildi.

Birgina misol: Tadbirlar dasturining 3-bandida mamlakatning barcha maktablarida, litseylarida, kollejlarda, oliy ta'lim muassasalarida Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyasi qabul qilinganligining 30 yilligiga bag'ishlangan umummilliy dars o'tkazish vazifasi belgilangan. Markazimiz mas'ul xodimlari ham ushbu tadbirga faol ishtirok etish uchun hozirlik ko'rmoqdalar.

Xulosa qilib aytganda, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoevning zamon bilan hamnafas o'sib-ulg'ayayotgan yoshlarga qarata: "Bugun zamon shiddat bilan o'zgaryapti. Bu o'zgarishlarni hammadan ham ko'proq his etadigan kim – yoshlar. Mayli, yoshlar o'z davrining talablari bilan uyg'un bo'lsin. Lekin ayni paytda o'zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug' zotlarning avlodimiz, degan da'vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o'zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan" degan so'zlari g'oyat dolzarb va ahamiyatlidir.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 29.05.2020 yildagi PQ-4736-son
2. BOLA HUQUQLARI TO'G'RISIDAGI KONVENSIYA
3. <https://lex.uz/acts/-1297315>

КОРРУПЦИОН ХУҚУҚБУЗАРЛИКЛАРНИНГ ВИКТИМОЛОГИК ПРОФИЛАТИКАСИ МУАММОЛАРИ ТАҲЛИЛИ

Очиллов Қобилбек Мамашукур ўғли
Ўзбекистон Республикаси Ички ишлар
вазирлиги Академияси ҳуқуқбузарликлар
профилактикаси ва криминология кафедраси
ўқитувчиси

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7627623>

Аннотация. Мақолада коррупция, коррупцион ҳуқуқбузарликнинг виктимологик профилактикаси билан боғлиқ муаммолар илмий жиҳатдан таҳлил қилинган, коррупцион ҳуқуқбузарликларнинг виктимологик профилактикасини такомиллаштиришга оид таклиф ва тавсиялар асослантирилган. Муаллифнинг мазкур масалалар юзасидан турли зиддиятларни бартараф этишга қаратилган фикр - мулоҳазалари илмий ечимини топган.

Калит сўзлар: Коррупция, коррупцион ҳуқуқбузарлик, жабрланувчи, виктимоген омил, виктимологик профилактика.

АНАЛИЗ ПРОБЛЕМЫ ВИКТИМОЛОГИЧЕСКИХ ПРОФИЛАТИКИ КОРРУПЦИОННЫХ ПРАВОНАРУШЕНИЙ

Аннотация. В статье научно проанализированы понятия коррупции, коррупционных правонарушений, коррупцион виктимность, классифицированы факторы, вызывающие коррупционные правонарушения, а также разработаны рекомендации по совершенствованию виктимологической профилактики коррупционных правонарушений. Автор научно обосновал свои взгляды с целью устранения различных противоречий по этим вопросам.

Ключевые слова: Коррупция, коррупционное правонарушение, жертва, виктимологический фактор, виктимологическая профилактика.

Через несколько лет коммерческие банки Узбекистана в ответ на новые реалии в нашей республике и мировом банковском сообществе расширили спектр предлагаемых ими услуг, выпустили на рынок новые банковские продукты, а также начали активно внедрять международные стандарты деятельности финансовых институтов.

Зарубежные и отечественные эксперты отмечают, что в последние годы в республике наблюдается отход от основного принципа — специализации и углубление универсализации в банковской деятельности. Это предопределяет содержание банковских операций и характер кредитных отношений.

Президент Республики Узбекистан Ш.Мирзиеев: “При этом для дальнейшего повышения качества предоставляемых банковских услуг и установления полноценных отношений сотрудничества с субъектами предпринимательства актуальными остаются задачи коренного улучшения методов работы коммерческих банков, укрепления взглядов населения и хозяйствующих субъектов на банковскую систему как надежного институционального партнера”.

Стратегии действий дальнейшего развития Республики Узбекистан в 2017-2021 годах предусматривается “углубление реформирования и по-вышение устойчивости банковской системы, уровня капитализации и депозитной базы банков, укрепление их финансовой устойчивости и надеж-ности, дальнейшее расширение кредитования пер-спективных

инвестиционных проектов, а также субъектов малого бизнеса и частного предпринимательства”.

ОСНОВНАЯ ЧАСТЬ

Ни для кого не секрет, что Республика Узбекистан не только сегодня, но и на протяжении нескольких лет качественно и в значительной степени улучшает банковскую систему. В этом отношении также проводятся различные программы, и уровень качества расширителя также растет.

Сегодня слово “капитализация” часто можно услышать в новостях экономического характера. Основными его показателями считаются два: увеличение или уменьшение. Среди экономистов бытует мнение, что капитализация банка – это его удельная стоимость. Следует отметить, что эти два показателя прямо пропорциональны. Таким образом, чем выше капитализация, тем дороже банк, стоимость теряется при снижении показателя капитализации.

В текущем году особое внимание будет уделено вопросам повышения капитализации отдельных банков, т.к. сегодня уставный капитал семи коммерческих банков не соответствует минимальным требованиям. Если таким банкам, как “Узагро-экспортбанк” с капиталом 80 млрд. сумов или “Давр банк” – 93 млрд. сумов, возможно, потребуется только капитализация текущей прибыли, то другим коммерческим банкам – “Туркистонбанк” (40 млрд. сум), “Универсалбанк” (34 млрд. сум), “Ravnaq-bank” (37 млрд. сум), “Hi-tech bank” (47 млрд. сум) и “Мадад Инвест Банк” (22 млрд. сум) скорее всего, уже потребуются дополнительная эмиссия, или будет рассмотрен вопрос слияния отдельных коммерческих банков по решению учредителей. Остается высокой доля коммерческих банков с участием государственной доли: на них приходится 82% совокупных активов, 88,4% кредитного портфеля и 65,8% депозитов всей банковской системы.

Следует отметить, что принимаемые меры по реформированию и капитализации банковско-финансовой системы Республики позволили повысить уровень капитализации банков, расширить сферу кредитования экономики, расширить спектр предоставляемых банковских услуг, а также повысить роль банковской системы в развитии экономики страны.

2017 – 2021 — Стратегия действий по пяти приоритетным направлениям развития Республики Узбекистан в 2021 году, Указ Президента Республики Узбекистан от 2 сентября 2017 года № ПФ-5177 “О первоочередных мерах по либерализации валютной политики”, а также обеспечение финансовой устойчивости банковской системы, совершенствование оценки банковского риска с учетом международного опыта, в целях внедрения современных принципов и механизмов регулирования и контроля деятельности коммерческих банков проведен ряд работ.

В Комплексе мероприятий по дальнейшему развитию банковско-финансовой системы на основе передовой банковской практики на период 2017-2021 годы, первостепенное место отводится мероприятиям повышения уровня капитализации и ликвидности коммерческих банков. Всем коммерческим банкам установлено обеспечить доведения до 1 января 2019 года минимального размера уставных капиталов (фондов) до 100 млрд. сум.

В условиях перехода к капитализационным отношениям значение банковско-финансовой системы кардинально меняется. Именно на эти системы переместился центр

тяжести всей проводимой государством работы в области управления рыночными отношениями. Поэтому наиболее актуальными являются вопросы совершенствования банковской системы, повышения самостоятельности и ответственности банков за ситуацию в денежном обращении, регулирования денежно-кредитных отношений, обеспечения стабильности и высокого престижа рубля, а также выработка соответствующих научных выводов и рекомендаций.

Министерству финансов принять меры по проведению оценки состояния финансового сектора на основе программы Международного валютного фонда и Всемирного банка (FSAP) не позднее 2024 года:

1. Запретить руководителям министерств, ведомств и органов местного самоуправления вмешиваться в деятельность банков по управлению предпринимательскими рисками, в том числе связанными с формированием кредитного портфеля и банковских активов.

2. Министерству экономического развития и сокращения бедности Республики Узбекистан совместно с министерством финансов в двухмесячный срок принять меры по институциональному укреплению государственного фонда поддержки предпринимательской деятельности путем включения независимых членов в состав совета по управлению.

3. Центральному банку и Министерству финансов Республики Узбекистан совместно с другими заинтересованными министерствами и ведомствами в трехмесячный срок внести в Кабинет Министров Республики Узбекистан предложения об изменениях и дополнениях в законодательство, вытекающих из настоящего Указа.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ

Подводя итог, можно сказать, что перечисленная выше капиллярность позволит повысить качество банковской системы нашей страны. Кроме того, в результате проведения Центральным банком Республики Узбекистан стресс-тестов устойчивости и адаптируемости коммерческих банков в условиях либерализации внутреннего валютного рынка был выявлен ряд недостатков, отрицательно влияющих на финансовое состояние и валютные позиции банков, последствия которых, в свою очередь, влияют на ликвидность банков.

REFERENCES

1. Закон “О Центральном Банке Республики Узбекистан”. Т. “Узбекистан” – 2019.
2. Закон Республики Узбекистан “О банках и банковской деятельности”. Т. “Узбекистан” - 2020.
2. Абдуллаев Йо, Абдуллаева Ш. Банковское дело. -Т.: 2018. 4. Тажиев Р. Жумаева С. Международные финансы. Учебное пособие. TDIU. 2005.
3. 5. Тоймухамедов И.Р. Байкал. Текст лекции. TDIU., 2016.
4. 6. Аналитические сборники Национального рейтингового агентства “информационный рейтинг”. 2018 .

PARRANDALARDA NAFAS TIZIMI KASALLIKLARI DIAGNOSTIKASI

Nurmatov Sardor Tuxtamish o'g'li

Termiz agrotexnologiyalar va innovatsion rivojlanish instituti
Veterinariya meditsinasi (faoliyat turlari bo'yicha) yo'nalishi talabasi

Xolto'rayev Anvar G'ayratovich

Termiz agrotexnologiyalar va innovatsion rivojlanish instituti
Veterinariya meditsinasi (faoliyat turlari bo'yicha) yo'nalishi talabasi

Hasanov Elshod Abduqahhor o'g'li

Termiz agrotexnologiyalar va innovatsion rivojlanish instituti
Veterinariya meditsinasi (faoliyat turlari bo'yicha) yo'nalish talabasi

Daliyev Dilshod Anvar o'g'li

Termiz agrotexnologiyalar va innovatsion rivojlanish instituti
Veterinariya meditsinasi (faoliyat turlari bo'yicha) yo'nalishi talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7633355>

Annotatsiya. Nafas tizimining yuqumsiz kasalliklari (respirator kasalliklar) hamma kategoriyalardagi parrandachilik xo'jaliklarida va asosan yosh parrandalar burun yo'llari va bo'shliqlarining yallig'lanishi keng tarqalgan.

Kalit so'zlar: Burun bo'shlig'i, bronxlar, o'pka, bronxopnevmoniya, aerosakulit, rinit, laringit va sinusitlar.

ДИАГНОСТИКА ЗАБОЛЕВАНИЙ ДЫХАТЕЛЬНОЙ СИСТЕМЫ У ДОМАШНЕЙ ПТИЦЫ

Аннотация. Неинфекционные заболевания дыхательной системы (респираторные заболевания) распространены на птицефабриках всех категорий и в основном у молодой птицы воспаление носовых ходов и полостей.

Ключевые слова: носовая полость, бронхи, легкие, бронхопневмония, аэросаккулит, ринит, ларингит и синусит.

DIAGNOSIS OF DISEASES OF THE RESPIRATORY SYSTEM IN POULTRY

Abstract. Non-infectious diseases of the respiratory system (respiratory diseases) are common in poultry farms of all categories, and mainly in young poultry, inflammation of the nasal passages and cavities.

Keywords: nasal cavity, bronchi, lungs, bronchopneumonia, aerosaculitis, rhinitis, laryngitis and sinusitis.

KIRISH

Respirator kasalliklar bilan yosh jo'jalarning ayniqsa, 30 kunlikkacha bo'lgan jo'jalarning kasallanishiga ko'pincha harorat va namlik rejimining buzilishi sabab bo'ladi. Jo'jaxonalardagi haroratning me'yorlardan 3 - 5°S gacha pasayishi, elvizaklar, to'shamalarning namlanib ketishi, jo'jalarga beriladigan suvning harorati 15°S dan past bo'lishi yoki yosh jo'jalarni o'ta issiq haroratda saqlash, soya beradigan ayvonlarning etishmasligi, xonalarda zaharli gazlar miqdorining ruxsat etiladigan miqdorlardan ortib ketishi hamda mikrofloralar omili nafas a'zolarining kasalliklariga sabab bo'ladi.

ASOSIY QISM

Nafas tizimi kasalliklariga rinit, laringit, traxeit, bronxit, pnevmoniya, bronxopnevmoniya aereosakulit va boshqa respirator kasalliklar kiradi.

Rinit- burun bo'shlig'i shilliq pardalarining yallig'lanishi. Parrandalarni noqulay sharoitda asrash oqibatida parrandalarning burun bo'shlig'i shilliq pardalariga chang va kimyoviy moddalarning ta'sir etish oqibatida sodir bo'ladi. Shuningdek, virus yoki bakterial sabablar oqibatida ham rinit kelib chiqadi.

Klinik belgilari. Kasal parrandalarning holsizlanishi, ishtahaning pasayishi, nafas olishni qiyinlashishi, burun teshigi va uning atrofiga shilliq massalarning qotib qolishi, ularning aksa urishi, hushtaksimon nafas olishi, doimiy boshini silkitishi, katak yoki boshqa buyumlarga tumshug'ini ishqalashi va panjasi bilan tumshug'ini qashlashga harakat qilishi kabi belgilar kuzatiladi.

Davolash. Yuqumsiz xarakterdagi sabablar bilan sodir etilgan rinitni davolashda, avvalo etiologik omillar bartaraf etiladi. Burun bo'shliqlari tozalanadi, vitaminli iliq suv beriladi. Patologik jarayonda ikkilamchi mikroflora mavjud bo'lsa, antibiotik bilan davolash tavsiya etiladi.

Laringit – hiqildoq shilliq pardasining yallig'lanishi.

Traxeit – kekirdak shilliq pardasining yallig'lanishi.

Bronxit – bronxlar shilliq pardasining yallig'lanishi bilan xarakterlanadigan kasalliklar hisoblanadi.

Parrandalarning sovqotishi, yelvizakning ta'siri, sovuq suvda cho'milishi, sanitar – gigienik qoidalarining buzilishi xona namligining ortishi, havoda changning ko'payishi, zararli gazsimon moddalar va patogen mikrofloralar oqibatida ushbu kasallik sodir bo'ladi.

Klinik belgilari. Kasal parrandalar oriqlaydi, nafas olish soni ortadi. Xirillaydi va qiynalib nafas oladi. Burun bo'shliqlaridan yallig'lanish oqibatidagi ekssudat ajraladi. Dekorativ qushlarda kasallik og'ir kechib, tumshug'ini ochib nafas oladi. Tillari esa oqish qatlam bilan qoplanadi.

Davolash. Kasal parrandalarning burun bo'shlig'i momiq tampon hamda borat kislotasining 2 % li eritmasi bilan tozalanadi.

Nafas azolarining yallig'lanishini davolash va ikkilamchi mikrofloraning oldini olish maqsadida antibiotik va sulfanilamid guruhiga kiruvchi preparatlarni qo'llab, davolash muolajalari o'tkaziladi. Xususan, makrolan, farmazin kabi antibiotiklarni qo'llash tavsiya etiladi.

Pnevmoniya - parrandalarning o'pkasini yallig'lanishi bilan tavsiflanadi. Pnevmoniya yuqori nafas yo'llarining yallig'lanishiga olib keladigan omillarning mavjud bo'lishi va ularni davolash muolajalari o'tkazilmagan holatlarda kuzatiladi.

Klinik belgilari. Kasal parrandalarda charchoq, qiyin nafas olish, tumshug'ini ochib nafas olish va xirillash belgilari kuzatiladi.

Davolash. Birinchi navbatda kasalliklarning sabablari aniqlanadi va ular bartaraf etiladi. Nafas a'zolarining yallig'lanishini davolash va ikkilamchi mikrofloraning oldini olish maqsadida antibiotik va sulfanilamid guruhiga kiruvchi preparatlarni qo'llab, davolash muolajalari o'tkaziladi. Xususan tilozin, makrolan, farmazin kabi antibiotiklarni yo'riqnoma asosida qo'llash tavsiya etiladi yoki aerosol holida (purchash usulida) qo'llaniladi.

Profilaktika. Parrandalarni, ayniqsa yosh jo'jalarni sovuqda yoki issiqda qolishdan saqlash, parrandalarning yoshi va fiziologik holatini e'tiborga olgan holda harorat - namlik rejimiga qat'iy rioya qilish lozim. To'shamalarning namlanishiga, yelvizaklarning bo'lishiga va shuningdek, tovuqxonalarda zaharli gazlar konsentratsiyasining ruxsat etiladigan miqdordan ortib ketishiga

yo'l qo'ymaslik, parrandalarni to'la qimmatli oziqlantirish orqali organizm rezistenligini oshirish kabi tadbirlar respirator kasalliklar profilaktikasining asosini tashkil etadi.

Bronxopnevmoniya bilan kasallanganda kuchli holsizlanish, ishtahaning yo'qolishi, nafasning zo'riqishi, xirillash, bo'yinni cho'zib, og'iz orqali nafas olish belgilari kuzatiladi. Tana harorati kasallikning boshida 1-1,5⁰S ga ko'tarilib, keyinchalik pasayadi va me'yordan tushib ketish hollari ham kuzatilishi mumkin.

Davolash. Birinchi navbatda kasalliklarning sabablari aniqlanadi va ular bartaraf etiladi. Kasal parrandalar uchun optimal sharoit yaratiladi. Guruh usulida davolash uchun vitaminlar, suvda eriydigan antibiotiklar va sulfanilamidlar suv hamda oziqalarga aralashtirilgan holda beriladi yoki aerosol holida (purkash usulida) qo'llaniladi.

Oldini olish tadbirlari. Parrandalarni, ayniqsa yosh jo'jalarni sovuqda yoki issiqda qolishdan saqlash, parrandalarning yoshi va fiziologik holatini e'tiborga olgan holda harorat - namlik rejimiga qat'iy rioya qilinishi lozim. To'shamalarning nalanishi, yelvizaklarning bo'lishi va shuningdek, tovuqxonalarda zaharli gazlar konsentratsiyasining ruxsat etiladigan miqdorlardan ortib ketishiga yo'l qo'ymaslik, parrandalarni to'la qimmatli oziqlantirish orqali organizm rezistenligini oshirish kabi tadbirlar respirator kasalliklar profilaktikasining asosini tashkil etadi.

Aerosakulit bunda kuchli holsizlanish, ishtahaning yo'qolishi, nafasning zo'riqishi, xirillash, bo'yinni cho'zib, og'iz orqali nafas olish belgilari kuzatiladi. Tana harorati kasallikning boshida 1-1,5⁰S ga ko'tarilib, keyinchalik pasayadi va me'yordan tushib ketish hollari ham kuzatilishi mumkin.

Davolash. Birinchi navbatda kasalliklarning sabablari aniqlanadi va ular bartaraf etiladi. Kasal parrandalar uchun optimal sharoit yaratiladi. Guruh usulida davolash uchun vitaminlar, suvda eriydigan antibiotiklar va sulfanilamidlar suv hamda oziqalarga aralashtirilgan holda beriladi yoki aerosol holida (purkash usulida) qo'llaniladi.

Parrandalar orasida nafas tizimi kasalliklarini keltirib chiqaruvchi omillarni bartaraf etish hamda kasallikning oldini olish profilaktik chora-tadbirlari. Parrandalarni, ayniqsa yosh jo'jalarni sovuqda yoki issiqda qolishdan saqlash, parrandalarning yoshi va fiziologik holatini e'tiborga olgan holda harorat - namlik rejimiga qat'iy rioya qilinishi lozim. To'shamalarning namlanishi, yelvizaklarning bo'lishi va shuningdek, tovuqxonalarda zaharli gazlar konsentratsiyasining ruxsat etiladigan miqdorlardan ortib ketishiga yo'l qo'ymaslik, parrandalarni to'la qimmatli oziqlantirish orqali organizm rezistenligini oshirish kabi tadbirlar respirator kasalliklar profilaktikasining asosini tashkil etadi.

XULOSA VA MUNOZARA

Parrandalarda uchraydigan nafas tizimi kasalliklari bo'yicha ma'lumotlar yig'ilib quyidagi xulosaga kelindi:

1. Nafas tizimi kasalliklarining kelib chiqish sabablaridan biri bu parrandalarni asrash texnologiyasi qoidalariga rioya qilinmaganlik.
2. Parrandalarda nafas tizimi kasalliklarning klinik belgilari bir-biriga o'xshash bo'lganligi uchun aniq tashxis qo'yish murakkab kechadi.
3. Kasallikning oldini olish hamda kelib chiqish sabablarini bartaraf etish uchun parrandaxonalarda doimiy dezinfeksiya ishlarini olib boorish tag to'shamalarini almashtirish havo namligi va tozaligi hamda yoritilganlik darajasiga e'tibor qaratish kerak.

REFERENCES

1. Safarov M.B., Safarov M.M. “Veterinariya diagnostikasi va rentgenologiyasi” Toshkent 2019y.
2. Salimov X.S., Qambarov A. “Epizootologiya” darslik Toshkent-2016y.
3. Norboev Q.N. boshq. “Ichki yuqumsiz kasalliklar” darslik 2007y.
4. Davlatov R.B., Eshbo`riev B.M. “Parrandalarni asrash oziqlantirish va ularning kasalliklarini oldini olish hamda davolash bo`yicha” tavsiyalar, Toshkent 2016y.

VOYAGA YETMAGANLAR TOMONIDAN HUQUQBUZARLIKLAR SODIR
ETILISHINING AYRIM TOMONLARI VA ULARNI BARTARAF ETISH
MASALALARI

Qandimov Ilyos Qalandar o'g'li

Buxoro viloyati yuridik texnikumi o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7636439>

Annotatsiya. Mazkur maqolada voyaga yetmagan shaxslar jinoyatchiligining umumiy holati, dinamikasi va sabablari, voyaga yetmagan jinoyatchilar shaxsining kriminologik tavsifi va voyaga yetmagan shaxslar sodir etadigan jinoyatlarning oldini olishni tashkil etish chora-tadbirlari haqida so'z boradi. Maqola so'nggida xulosa va takliflar berib o'tilgan.

Kalit so'zlar: voyaga yetmagan shaxslar, jinoyat, siyosat, kurash, huquq.

ПРАВОНАРУШЕНИЯ, СОВЕРШЕННЫЕ НЕСОВЕРШЕННОЛЕТНИМИ

Аннотация. В данной статье говорится об общем состоянии, динамике и причинах правонарушений несовершеннолетних, криминологической характеристике несовершеннолетних правонарушителей, мерах профилактики преступлений, совершаемых несовершеннолетними правонарушителями. Выводы и предложения даны в конце статьи.

Ключевые слова: несовершеннолетние, преступление, политика, борьба, право.

OFFENSES COMMITTED BY MINORS

Abstract. This article talks about the general situation, dynamics and causes of juvenile delinquency, criminological description of juvenile delinquents, and measures to prevent juvenile delinquency. Conclusions and suggestions are given at the end of the article.

Key words: minors, crime, politics, struggle, law.

Jinoyatchilikka qarshi kurashning tarkibiy qismi bo'lgan voyaga yetmagan shaxslar tomonidan sodir etiladigan jinoyatlarning oldini olish va unga yo'l qo'ymaslik davlatning jinoiy-huquqiy yo'nalishdagi siyosatida muhim o'rin tutadi. Shuning uchun ham bu muammoni davlat siyosati darajasida hal etishga alohida e'tibor qaratilgan. Voyaga yetmaganlar sodir etadigan jinoyatlarning oldini olish to'g'ri ma'nodagi ijtimoiy-siyosiy muammodir.

To'g'ri, O'zbekistonda voyaga yetmaganlar sodir etayotgan jinoyatlar umumiy miqdorda kamayishi kuzatilayotgan bo'lsa-da, barcha toifadagi jinoyatlarning umumiy miqdorida esa bu ko'rsatkich o'zgarmay qolayotganligini ko'rish mumkin. Demak, voyaga yetmaganlar sodir etadigan jinoyatlarning oldini olish muammosi mavjud va ularning oldini olishda ilmiy- nazariy tadqiqotlar olib borish hamda amaliy jihatdan zarur profilaktik chora- tadbirlarni qo'llash bugungi kunning talabidir.

Voyaga yetmaganlar sodir etadigan jinoyatlar dinamikasining umumiy holatini tahlil etishda, birinchidan, voyaga yetmaganlar va yoshlar o'rtasida sodir etiladigan jinoyatlarning o'zaro bog'liqligiga, ikkinchidan, voyaga yetmaganlar sodir etadigan jinoyatlarning kriminologiya nuqtai nazaridan tarkibiga, g'arazli maqsadlari nimalarga qaratilganligiga alohida e'tibor berish lozim.

Voyaga yetmaganlar va yoshlar o'rtasida sodir etiladigan jinoyatlarning o'zaro bog'liqligi va har birini aniq ifodalash kriminologiyada katta ahamiyatga ega. Chunki voyaga yetmaganlar (14-17 yoshlilar) va yoshlar (18-29 yoshdagi shaxslar)ning ijtimoiy-ruhiy holatlari bir-biridan

sezilarli darajada farq qiladi. O'z navbatida, har ikki guruhga mansub shaxslar tomonidan sodir etilayotgan jinoyatlarning tahlili ham jinoyatchilikning umumiy «manzarasini» aniqlash va to'g'ri xulosa chiqarishga imkon beradi.

Masalan, hozirgi ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy o'zgarishlar jarayonida sodir etilayotgan barcha jinoyatlarning sal kam 57 % 14-29 yoshgacha bo'lgan shaxslar hissasiga to'g'ri kelmoqda. Bu achinarli hol, albatta, biroq jinoyat olamining «yosharishi» nafaqat O'zbekistonda, balki jahon miqyosida yuzaga kelayotgan illat ekanligini ham nazardan chetda qoldir- maslik lozim.

Shu o'rinda katta yoshdagi shaxslarning jinoyat sodir etish «tajribasi» yoshlar o'rtasida yoyilishini ham e'tiborga olish kerak. Zotan, bu muammoni yechishda kriminologiyada mavjud bo'lgan ilmiy tavsiyalar va nazariy xulosalarga tayanish maqsadga muvofiqdir.

Kriminologiya nuqtai nazaridan va nazariy jihatdan e'tirof etilishicha, voyaga yetmagan shaxslar sodir etadigan jinoyatlar umumiy jinoyatchilikning boshlanish bosqichidir. Yosh jihatidan boshqa turdagi jinoyatchilar shaxsiga xos xususiyatlarning mavjudligi alohida xavfli bo'lgan voyaga yetmaganlar jinoyatchiligini keltirib chiqaradi.

Voyaga yetmaganlar sodir etadigan jinoyatlarning katta yoshdagilar tomonidan sodir etiladigan jinoyatlarga nisbatan ta'sir doirasi jinoiy tajovuz yo'nalishining turlariga ko'ra o'zgarib turish xususiyatiga ega. Masalan, voyaga yetmaganlar qasddan sodir etadigan umumiy turdagi jinoyatlarning yoshlar va katta yoshdagi jinoyatchi shaxslar qasddan sodir etadigan jinoyatlar bilan yaqin bo'lib, kuch ishlatish yo'li bilan sodir etiladigan jinoyatlardan farqli ravishda, kuchli bog'lanishga ega. Aksincha, voyaga yetmaganlar tomonidan kuch ishlatish bilan sodir etiladigan jinoyatlar katta yoshdagilar tomonidan sodir etiladigan shu turdagi jinoyatlar bilan sust bog'lanishda bo'ladi, buning sababi kuch ishlatish bilan bog'liq jinoyatlarning sodir bo'lishi turmushning turli yo'nalishlarida ro'y berishi mumkin.

Kuch ishlatish yoki zo'ravonlik jinoyatlarini sodir etilishi voyaga yetmaganlar ichida asosan dam olish paytlarida sodir etilsa, katta yoshdagi shaxslarda maishiy turmushda yoki jinoyatchilikni kasb qilib olgan shaxslar o'rtasida uchrashi kuzatiladi.

Yaqin besh-o'n yil davomida voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilayotgan jinoyatlardan ko'zlangan asosiy maqsad - o'z intilishlari va ehtiyojlarini (ayniqsa, moddiy manfaatdorlik) qondirish, katta yoshdagilar qaramog'ida bo'lmaslik, mustaqil hayot kechirishlarini ta'minlash uchun sodir etilayotganligini ham yaqqol ko'rish mumkin. Keyingi yillarda voyaga yetmaganlar katta yoshdagi jinoyatchilar ta'siridan chiqib, o'zlari mustaqil va jamiyat uchun o'ta og'ir jinoyatlar qilishga qodir jinoiy guruhlarga bir- lashayotganligining miqdori oshganligi ham kuzatilmokda.

Eng xavflisi, voyaga yetmaganlar va yoshlarning jinoyat sodir etishda birlashishi jinoyatchilikning ko'payishiga olib kelmoqda. Jinoyatchilikning «yosharishi» jinoyatlarni sodir etilishida yosh bolalar va o'spirinlar ishtiroki- ning ortganligidadir.

Jinoyat sodir etishda «tavakkal qiluvchi» guruhlar toifasidagi yoshlarda ashaddiylik kuchaymoqda, deyish mumkin. Tavakkalchi guruhlar safi asosan ishsizlar, mayda tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchi o'spirin yoshlar, jazoni o'tab qaytgan voyaga yetmaganlar, harbiy xizmatdan qaytgan yoshlar yoki kam ta'minlangan va hayotda o'z o'rnini topa olmagan kimsalar hisobiga kengaymoqda.

Voyaga yetmaganlar va yoshlarni jinoyat yo'liga kirishida xufiyona ishlab chiqarish ham salbiy ta'sir etayotgani achinarli hol. Biroq xufiyona ishlab chiqarishda voyaga yetmaganlar va

yoshlar eng quyi ijrochilar sifatida jalb qilinadilar. Katta yoshdagi jinoyatchilar bunday vaziyatlarda yosh jinoyatchilarni doimiy ravishda kuzatadilar va «yetilgan yoshlarni» o'z jinoiy guruhlariga qo'shib olishga harakat qiladilar. Voyaga yetmaganlar sodir etadigan jinoyatlarning tarkibi va g'arazli maqsadlari nimalarga qaratilganligini bilish hamda ularni kriminologiya nuqtai nazaridan tavsiflash katta ahamiyatga ega.

Kriminologiyada voyaga yetmagan shaxslar sodir etadigan jinoyatlarning tarkibiga ko'ra tahlil etish keng yo'lga qo'yilgan bo'lib, asosan sakkiz turdagi, ya'ni qasddan odam o'ldirish, qasddan tan jarohati yetkazish, nomusga tegish, talonchilik, bosqinchilik, o'zgalar mulkini o'g'irlash, giyoh- vandlik bilan bog'liq jinoyatlar va bezorilik jinoyatlari bo'yicha tahliliy ishlar amalga oshiriladi.

Ilgari faqat katta yoshdagi jinoyatchilarga xos bo'lgan qonunga xilof ravishda qurol-yarog' va narkotik moddalarni sotish, fohishaxonalar saqlash, qo'shmachilik qilish, chet el fuqarolari va tadbirkorlarga talonchilik hujumlarini uyushtirish, garovga olish, tamagirlik qilish, turli qiynoq usullari bilan jabrdiydalarning hayoti va salomatligiga tajovuz qilish, firibgarlik orqali valuta va qimmatbaho qog'ozlarni muomalaga kiritish, kompyuterlardan axborot olish, o'g'irlangan mulkni sotish, qimorbozlik kabi jinoyatlarning voyaga yetmaganlar sodir etishlari oshgan.

Hozirgi sharoitda kuch ishlatish va g'arazli maqsadlarda qasddan jinoyat sodir etilishini kriminologiya nuqtai nazaridan qanday baholash mumkin va bunda ushbu jinoyatlarning nafaqat turlari, balki qasdiga ko'ra muvozanatini aniqlashda nimalar inobatga olinishi lozim, degan savolga javob topish g'oyat muhimdir. Ushbu muvozanatni aniqlash uchun kriminologiyada barcha statistik ko'rsatkichlar uchta guruhga bo'lingan holda tahlil etiladi.

Bular kuch ishlatish asosida sodir etiladigan jinoyatlar, g'arazli maqsadlarda sodir etiluvchi va g'arazli maqsadlar hamda kuch ishlatish orqasida sodir etiladigan jinoyatlarga xos guruhlardir. Shuningdek, voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etiladigan jinoyatlarni qasddan shakliga qarab bir tizimga kiritishga bo'lgan urinishlarni keltirish mumkin.

Masalan, qasddan g'arazli maqsadda, qasddan rahmsizlarcha, jinsiy vosvoslik (manyaklik), o'z manfaatlaridan kelib chiqish, o'ziga bino qo'yish kabi holatlar shular jumlasidandir. Biroq sud statistikasida qasd shakllarining qayd etilmasligi inobatga olinadigan bo'lsa, bunday tizimni yaratish qiyinchilik tug'diradi.

Shuning uchun ham qasdni shakliga ko'ra tizimga kiritish orqali jinoyatchilikni baholash alohida va ma'lum bir holatlarda o'tkazilsagina yaxshi natija berishi mumkinligini e'tiborga olish kerak.

Ma'lumki, o'smirlar tomonidan o'g'irlik jinoyatlarini sodir etilishida g'arazli maqsadlar har uch yoki to'rt ishda takrorlanadi. Qolgan holatlarda esa g'arazli maqsadlar o'zaro bir-birini qo'llab-quvvatlash, guruh a'zolari bilan bog'liqligi bois o'zini majburlash yoki yoshlik tufayli o'z harakatlariga yuzaki qarash orqali amalga oshiriladi.

G'arazli maqsadlarda qotillik qilish va tan jarohati yetkazish XX asrning so'nggi yillarida (80-yillarida 15-20 % gacha bo'lsa, 90-yillarida 2540 % gacha oshgan) o'sib borganligini ham tadqiqotlarda uchratish mumkin.

O'tkazilgan tadqiqotlarni umumlashtiradigan bo'lsak, quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

a) voyaga yetmaganlar tomonidan g'arazli maqsadlarda jinoyat sodir etilishi avvalgi yillarga nisbatan ko'paymoqda;

b) ushbu jinoyatlar boshqa maqsadlarda sodir etiladigan jinoyatlardan ortganligini ko'rish mumkin va umumiy ko'rsatkichlarning 35-40 % ni tashkil etadi;

d) qasddan sodir etiladigan jinoyatlarda g'arazli maqsadlar, asosan, buyumlar, xorij va mamlakatimizda ishlab chiqarilgan texnika vositalari, kamyob kiyim-kechaklar, valuta, qimmatbaho qog'ozlar, oltin, kumush kabilarga yo'naltirilgan bo'ladi.

G'arazli maqsadlarda va, umuman, qasddan sodir etiladigan jinoyatlarning aniq turlari ham mavjud va ular iqtisodiy qiyinchiliklar, aholining moddiy tomondan kam ta'minlangan qatlamining ko'payishi va shaxs o'zi-ning doimiy maishiy qulayliklari yo'qolishiga ishonch hosil qilgan hollarda yuzaga keladi.

Voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etiladigan jinoyatlar ishtirokchilik asosida, guruh bo'lib sodir etiladi. Bu voyaga yetmaganlarni tabiatiga xos holat hisoblanadi.

Ba'zi hollarda yosh o'smirlar tomonidan yakka tarzda faol amalga oshiriladigan g'ayriqonuniy xatti-harakatlar ham jamiyat uchun katta xavf tug'dirishi mumkin.

Agar jinoyatlarga qarshi kurash olib borish nuqtai nazaridan yondashilsa, guruh yoki uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash olib borishdan ko'ra, yakka tarzda jinoyat sodir etuvchilarni aniqlash va zarur choralarni qo'llash oson kechadn. Shunday bo'lsa-da, guruh yoki jinoyatlardan jamiyatga ko'proq zarar kelishini ham yodda tutish lozim.

Voyaga yetmaganlar tomonidan guruh bo'lib jinoyat sodir etilishiga xos bo'lgan shafqatsizlik, rahmsizlik oqibatida jamiyatga katta ma'naviy zarar yetkaziladi. Zero, jinoyat sodir etishdagi norasmiy uyushishning tez va oson kechishi, guruh munosabatlardagi ko'nikma, janjal chiqarishga monelik, o'z xohishiga ko'ra ish tutish (o'zboshimchalik), betakror va o'ziga xos qiliqlar qilishga intilish, alohida vaziyatlarda g'oyaviy, ma'naviy va huquqiy jihatdan voyaga yetmaganlarda ishonchning yo'qligi holatlari qisqa davr ichida jamiyat uchun xavfli qilmishlarni beqiyos darajada bo'lishiga olib keladi. O'z navbatida, katta yoshdagilar tomonidan jinoyat sodir etilishida bunday holatlar kuzatilmaydi.

Jinoyatlarning umumiy ko'rsatkichlarida voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etiladigan jinoyatlar katta yoshdagilarga nisbatan bir yarimdan besh martagacha ko'p ekanligini (jinoyatlarning turi va ularning hududiy tarqalganlik holatlariga ko'ra) ko'rish mumkin.

Shuningdek, 14 yoshlilar tomonidan guruh yoki jinoyatlarni sodir etish, 17 yoshlilarga nisbatan ko'pdir. Voyaga yetmaganlar tomonidan guruh bo'lib jinoyat sodir etish o'g'rilik, talonchilik, bosqinchilik, nomusga tegish kabi jinoyatlarda ko'proq uchrasa, qasddan odam o'ldirish va qasddan og'ir jarohati yetkazilishda kamroq bo'ladi.

Voyaga yetmaganlarning guruh yoki birlashuvi beqarordir va shuning uchun ham ma'lum bir davrda faoliyat ko'rsatadi va o'z faoliyatini to'xtatadi.

Ba'zida voyaga yetmaganlar tomonidan guruhga uyushganlik o'z maqsadiga ko'ra, uzoq muddatga faoliyat ko'rsatishga mo'ljallangani bois zarur profilaktika chora ta'sirida barham topishi mumkinligini unutmazlik zarur.

Ta'kidlash joizki, so'nggi yillarda voyaga yetmaganlarning jinoiy guruhlarga birlashishi sezilarli darajada oshganligi kuzatilmoqda. Bunday guruhlarning qariyb beshdan uchtasida turli yoshdagi kimsalarning ishtirok etishi ularning xavfliligini oshirmoqda.

Shuningdek, voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etiladigan umumiy jinoyatlarning yarmidan ko'pi bir necha bor jinoyat qilib, tajriba orttirganini ham ko'rish mumkin. Eng muhimi,

ushbu jinoyatlarning sodir etilishi residiv sifatida mulkka nisbatan qaratilgandir. Shuning uchun ham ularga qarshi kurashni yo'lga qo'yish o'z- o'zidan eng dolzarb muammo bo'lib qolmoqda.

REFERENCES

1. Rustambayev M.X., 2018. O'zbekiston respublikasi jinoyat huquqi kursi Oliy ta'lim muassasalari uchun darslik (2-nashr, to'ldirilgan va qayta ishlangan). «Complex Print» nashriyoti, Toshkent, 2018
2. X.P.ОЧИЛОВ, Ш.Д.ХАЙДАРОВ, З.З.ШАМСИДИНОВ
Жиноят_хукуки_Умумий_қисм_ўқув_қўлланма_2021
3. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 1992.
4. Международный пакт о гражданских и политических правах. Международная защита прав и свобод человека. Сборник документов. М.: Юрид.лит., 1990 г.
5. Основные принципы независимости судебных органов. Международные права и свобода человека: Сборник документов. М: Юрид.лит., 1990 г.
6. Всеобщая декларация прав человека. – Права человека. Основные международные документы: Сборник документов. М.: Международные отношения. 1989 г. – С. 134-142.
7. Конвенция о правовой помощи и правовых отношениях по гражданским, семейным и уголовным делам. (Хўжалик ва ҳуқуқ – Хозийство и право. – Tashkent. 1997, №1-2. S. 58-76).
8. Ugolovno-protsessualniy kodeks Respubliki Uzbekistan. – T.: Adolat, 1999.
9. «O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining 2001 yil 7 dekabrda Qonuni.

INSON HUQUQLARI VA ERKINLIK LARI SOHASIDA TA'LIM

Aslonov Navro'zbek Rustamovich

Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi milliy markazi tayanch doktoranti

aslonovnavruzbe@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7636500>

Annotatsiya. Inson huquqlari bo'yicha ta'lim, bu inson huquqlari normalari va tamoyillari, ularga asos bo'lgan qadriyatlar va ularni himoya qilish mexanizmlari haqida bilim va tushuncha berishni o'z ichiga oladi. Inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlash jarayonida inson huquqlarida ta'lim muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada inson huquqlari erkinliklarini ta'minlash sohasida ta'limning ahamiyati va huquqiy asoslari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Inson huquqlari, tabiiy huquq, deklaratsiya, axborot olish huquqi, o'quv dasturi

EDUCATION IN THE FIELD OF HUMAN RIGHTS AND FREEDOMS

Abstract. Human rights education includes knowledge and understanding of human rights norms and principles, the values underlying them, and the mechanisms for their protection. In the process of ensuring human rights and freedoms, human rights education plays an important role. This article analyzes the importance of education and its legal basis in the field of ensuring human rights and freedoms.

Key words: Human rights, natural law, declaration, right to information, curriculum.

ОБРАЗОВАНИЕ В ОБЛАСТИ ПРАВ И СВОБОД ЧЕЛОВЕКА

Аннотация. Образование в области прав человека включает в себя знание и понимание норм и принципов прав человека, ценностей, лежащих в их основе, и механизмов их защиты. В процессе обеспечения прав и свобод человека важную роль играет образование в области прав человека. В данной статье анализируется значение образования и его правовая основа в сфере обеспечения прав и свобод человека.

Ключевые слова: права человека, естественное право, декларация, право на информацию, учебная программа.

Kirish. Inson huquqlari bo'yicha ta'limni inson huquqlarining umumbashariy madaniyatini shakllantirishga qaratilgan ta'lim, o'qitish va axborot olish huquqi deb ta'riflash mumkin. Samarali inson huquqlari bo'yicha ta'lim nafaqat inson huquqlari ularni himoya qilish mexanizmlari haqidagi bilimlarni rivojlantiradi, balki o'quvchilarga harakat qilish imkonini beradigan ko'nikma va munosabatlarni rivojlantiradi: inson huquqlarini targ'ib qilish, himoya qilish va kundalik hayotda qo'llash imkonini beradi. Inson huquqlarini hurmat qilish, himoya qilish va bajarishga mas'ul bo'lganlar uchun inson huquqlari bo'yicha ta'lim ularning imkoniyatlarini rivojlantiradi.

Inson huquqlari bo'yicha ta'lim inson huquqlariga hurmat, tenglik va adolat kabi asosiy qadriyatlariga hamda inson huquqlarining ajralmasligi, o'zaro bog'liqligi, bo'linmasligi va universalligiga asoslanadi. Inson huquqlari bo'yicha ta'lim va ta'lim jamiyatning barcha qatlamlariga, shu jumladan maktabgacha, boshlang'ich, o'rta va oliy ta'limga taalluqlidir, akademik erkinlik hamda ta'lim va ta'limning barcha shakllari, xoh jamoat yoki xususiy, rasmiy yoki norasmiy muhitda ham inson huquqlarida ta'limni rivojlantirish lozim. Bu, jumladan, kasb-hunar ta'limi, xususan, trenerlar, o'qituvchilar va davlat amaldorlarini tayyorlash, uzluksiz ta'lim,

ommabop ta'lim, jamoatchilikni ma'lumot va xabardor qilish tadbirlarini o'z ichiga oladi. Har bir inson boshqalarning huquqlariga nisbatan o'z huquq va majburiyatlarini anglashi universal inson huquqlari madaniyatini rivojlantirish va shaxsning erkin, tinch, plyuralistik va inklyuziv jamiyatning mas'uliyatli a'zosi sifatida rivojlanishiga ko'maklashadi.

O'zbekiston Respublikasida inson huquqlarini ta'minlashda alohida e'tibor qaratilmoqda. Mamlakatimiz prezidenti Sh.M.Mirziyoyev- "Oliy ta'lim muassasalari hamda kadrlarni, jumladan, sudyalari va huquqni muhofaza qilish organlari xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish o'quv markazlarida, shuningdek, maktabgacha ta'lim va umumta'lim muassasalarida, akademik lisey va kollejlarda "Inson huquqlari", "Ayollar huquqlari", "Bola huquqlari", o'quv kurslarini joriy etish"ga doir bir qator takliflarni keltirib o'tganlar⁴.

Asosiy qism. O'rta osiyo xalqlari tarixidagi ilk yozma manbalardan biri hisoblangan Avestoda ham insonning ta'lim olish huquqi to'g'risida tavsiyalar keltirilgan. "Agar sening o'g'ling bo'lsa, uni yoshligida maktabga ber, zero, bilim ko'z nuridir deyiladi"⁵. Davlatimiz rahbari Birlashgan Millatlar Tashkilotining "Inson huquqlari bo'yicha harakatlarga da'vat" tashabbusini ilgari surish maqsadida BMT Inson huquqlari kengashi a'zolari va barcha hamkorlarimiz bilan yaqin hamkorlikni davom ettirishimiz kerakligini bir necha bor ta'kidlab kelmoqdalar. Bugungi kunda mamlakatimizda Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasining Milliy strategiyasi izchil amalga oshirilmoqda.

Zero, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlash, inson huquqlari bo'yicha xalqaro standartlarni milliy qonunchilik va huquqni qo'llash amaliyotiga tatbiq etish insonlar uchun qulay va munosib turmush sharoitini yaratishga qaratilgan demokratik islohotlarning asosiy mezoniga aylandi. O'zbekiston Respublikasida Inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlash va ularning huquqiy savodxonligini oshirish bo'yicha bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda.

Xususan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 22.06.2020 yildagi PF-6012-son "Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy strategiyasi" tasdiqlandi. Unda inson huquqlari ta'minlash borasida ta'limning tutgan o'rni va ta'lim sohasida inson huquqlarini ta'minlash yuzasidan aniq maqsadlar belgilab olindi. 1993 -yildayoq Venada bo'lib o'tgan Inson huquqlari bo'yicha Butunjahon konferensiyasida inson huquqlari bo'yicha ta'lim mamlakatlar o'rtasidagi barqaror va uyg'un munosabatlarni rivojlantirish va ularga erishish, o'zaro hamjihatlik, bag'rikenglik va tinchlikni mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega ekanligi ta'kidlangan edi. Va 1994 yilda BMT Bosh Assambleyasi 1995 yildan 2004 yilgacha bo'lgan davrni Birlashgan Millatlar Tashkilotining Inson huquqlari bo'yicha ta'lim o'n yilligi deb e'lon qildi va barcha davlatlarni umuminsoniy madaniyatni yaratish uchun ta'lim, tarqatish va axborotni rivojlantirishga chaqirdi.

O'zbekiston Inson huquqlari bo'yicha ta'lim bo'yicha Butunjahon dasturi kampaniyasida, BMTning Inson huquqlari bo'yicha ta'lim va kadrlar tayyorlash to'g'risidagi deklaratsiyasi qoidalarini amalga oshirishda faol ishtirok etmoqda. Xalqaro hamkorlar bilan yaqin hamkorlikda inson huquqlariga oid 120 dan ortiq asosiy xalqaro huquqiy hujjatlar davlat tiliga tarjima qilinib, katta nashrlarda chop etildi. BMTning Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi 1948-yil 10-

⁴ Шавкат Мирзиёев. "ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН СТРАТЕГИЯСИ". – Тошкент. "Ўзбекистон" нашриёти, 2021. 77-бет

⁵ А.Х.Саидов. "Ўзбекистон ва инсон ҳуқуқлари умумжаҳон декларацияси". – Тошкент: "Адолат", 2018. 18-бет

dekabrda qabul qilindi. Umumjahon deklaratsiyasining 26-modda 2- qismida “Ta’lim inson shaxsini to’la barkamol qilishga va inson huquqlari hamda asosiy erkinliklariga nisbatan hurmatni kuchaytirishga qaratilmog’i lozim. Ta’lim barcha xalqlar, irqiy va diniy guruhlar o’rtasida bir-birini tushunish, xayrixohlik va do’stlikka xizmat qilishi hamda Birlashgan Millatlar Tashkilotining tinchlikni saqlash borasidagi faoliyatiga yordam berishi kerakligi”- keltirib o’tilgan⁶. Tehronda 1968- yil 22- apreldan may oyining 13-sanasigacha Inson huquqlari bo’yicha xalqaro konferensiya o’tkazildi. Ushbu konferensiyada “Yoshlarni inson huquqlari va asosiy erkinliklari hurmat qilish ruhida tarbiyalash” deb nomlangan XX son rezolyutsiyasi qabul qilingan. Yunesko 1974 yil 19-noyabr oyida Fransiyaning Parij shahrida “Xalqaro anglashuv, hamkorlik va tinchlik uchun ta’lim va inson huquqlari va asosiy erkinliklari bilan bog’liq ta’lim bo’yicha tavsiyalar” mavzusida konferensiya o’tkazildi⁷.

Birlashgan millatlar tashkilotining 2011 yil 19-dekabr kuni Bosh assambleyasi 66/137-rezolyutsiya bilan “Birlashgan Millatlar Tashkilotining Inson huquqlari bo’yicha ta’lim va ta’lim deklaratsiyasi” qabul qilindi⁸. Inson huquqlari va erkinliklari sohasi ta’limda xalqaro hujjatlar qabul qilinib takomillashtirib borilmoqda. O‘zbekiston Respublikasida Inson huquqlari himoya qilishda bir qator chora tadbirlar amalga oshirilib kelmoqda.

Inson huquqlarini himoya qilish uchun avvalo insonlarning huquqiy savodxonligi oshirish lozim. Inson huquqlari va erkinliklari sohasida ta’limni rivojlantirish borasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 07.02.2023 yildagi PQ-46-son “O‘zbekiston Respublikasida inson huquqlari sohasidagi milliy ta’lim dasturini tasdiqlash to‘g‘risida” qaror qabul qilindi. Ushbu qarorda O‘zbekiston Respublikasida inson huquqlari va erkinliklari sohasida ta’limni rivojlantirish borasidagi ishalar aniq belgilab qo‘yilgan.

Xulosa. Inson huquqlari bo’yicha ta’lim va o‘qitish inson huquqlari va asosiy erkinliklariga umuminsoniy hurmat va ularga rioya etilishini rag‘batlantirish, shu tariqa, jumladan, inson huquqlari buzilishining oldini olishga hissa qo‘shishga qaratilgan. Shaxslarga bilim, ko‘nikma va tushunchalar berish hamda ularning munosabati va xulq-atvorini rivojlantirish orqali huquqbuzarliklarga yo‘l qo‘ymaslik, ularga inson huquqlari umumbashariy madaniyatini shakllantirish va targ‘ib qilishga hissa qo‘shish imkoniyatini beradi. Inson huquqlari bo’yicha ta’lim nafaqat inson huquqlari va ularni himoya qilish mexanizmlari haqidagi bilimlarni rivojlantiradi, va inson huquqlarini hurmat qilish, himoya qilish va bajarishga mas’ul

bo‘lganlarni imkoniyatlarini rivojlantiradi. Inson huquqlari bo’yicha ta’lim inson huquqlarining hurmat, tenglik va adolat kabi asosiy qadriyatlariga hamda inson huquqlarining ajralmasligi, o‘zaro bog‘liqligi, bo‘linmasligi va universalligiga asoslanadi. Inson huquqlari bo’yicha ta’lim keng qamrovli natijalar berishi mumkinligini e’tirof etishni aks ettiradi. Insonning inson huquqlariga ega bo‘lgan huquqlarini aniqlash va da’vo qilish va ular duch keladigan muammolarga inson huquqlari standartlariga mos keladigan yechimlarni izlash imkoniyatini beradi. O‘rganilgan narsa inson huquqlari qadriyatlarini aks ettirishi, ishtirok etishni rag‘batlantirishi va inson huquqlari amalda qo‘llaniladigan ta’lim muhitini rivojlantirishi kerak.

⁶ www.lex.uz

⁷ <https://www.unesco.org/en/legal-affairs/recommendation-concerning-education-international-understanding-co-operation-and-peace-and-education>

⁸ <https://www.ohchr.org/en/resources/educators/human-rights-education-training/united-nations-declaration-human-rights-education-and-training>

REFERENCES

1. Шавкат Мирзиёев. “ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН СТРАТЕГИЯСИ”. – Тошкент. “Ўзбекистон” нашриёти, 2021. 77-бет
2. А.Х.Саидов. “Ўзбекистон ва инсон ҳуқуқлари умумжаҳон декларацияси”. – Тошкент: “Адолат”, 2018. 18-бет
3. www.lex.uz
4. <https://www.unesco.org/en/legal-affairs/recommendation-concerning-education-international-understanding-co-operation-and-peace-and-education>
5. <https://www.ohchr.org/en/resources/educators/human-rights-education-training/united-nations-declaration-human-rights-education-and-training>

ИНТЕРЛЕЙКИН - 23, ПЕРСПЕКТИВЫ ПРИМЕНЕНИЯ (ОБЗОР ЛИТЕРАТУРЫ)

Набиева Дилдора Абдумаликовна

Ташкентская медицинская академия

Заведующий кафедрой профпатологии, профессор, доктор медицинских наук.

Махаматходжаева Хулкар Бахтёрровна

Врач-ревматолог в диагностическом центре АкфаМедлайн и Куксарой

Каххорова Шахло Бахтиёрровна

ассистент кафедры фармакологии Ташкентской медицинской академии

Ахмаджонова Мухайё Акрамжон кизи

студенткой Ташкентской медицинской академии.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7638996>

***Аннотация.** С появлением новых технологий охарактеризовано несколько новых провоспалительных цитокинов, таких как IL-23, играющего важную роль в патогенезе ряда воспалительных заболеваний. Пути IL-23, а также другие белки, участвующие в патогенезе воспалительных заболеваний в настоящее время находятся в разработке и показывают многообещающую эффективность и безопасность в ранних испытаниях пациентов с минимальными рисками безопасности. Предварительные исследования показывают, что терапия IL-23 второго поколения эффективна при основных воспалительных механизмах.*

***Ключевые слова:** интерлейкин - 23, воспалительные заболевания, патогенез, терапия.*

INTERLEUKIN - 23, PROSPECTS OF APPLICATION (LITERATURE REVIEW)

***Abstract.** With the advent of new technologies, several new pro-inflammatory cytokines have been characterized, such as IL-23, which plays an important role in the pathogenesis of a number of inflammatory diseases. IL-23 pathways, as well as other proteins involved in the pathogenesis of inflammatory diseases, are currently under development and show promising efficacy and safety in early patient trials with minimal safety risks. Preliminary studies show that IL-23 therapy of the second generation is effective in the main inflammatory mechanisms.*

***Keywords:** interleukin - 23, inflammatory diseases, pathogenesis, therapy.*

Молекулярная и клеточная иммунология в сочетании с новыми способами агрегирования и использования больших наборов клинических данных превращают исследовательские идеи в новые лекарства для болезней, которые еще несколько лет назад считались неизлечимыми. Одной из основных предстоящих задач является проверка новых концепций, нацеленных на широкий спектр признаков редких заболеваний кожи, глаз, центральной нервной системы, кровеносных сосудов и эндокринных желез. Чтобы заблокировать весь путь Th17, лекарство должно быть нацелено на IL-23R +клетки, находящиеся в тканях (часто за гемато-тканевым барьером), а также популяции мигрирующих клеток, которые взаимодействуют с IL-23 и перепрограммируются, чтобы способствовать воспалению. Эти же клетки являются движущей силой реакции на хроническое повреждение, ответственной за многие аутоиммунные заболевания.

Интерлейкин-23 (ИЛ-23) представляет собой провоспалительный цитокин, состоящий из двух субъединиц, ИЛ-23А (p19) и ИЛ-12/23В (p40), причем последний является общим с интерлейкином-12 (ИЛ-12). ИЛ-23 в основном продуцируется макрофагами и дендритными клетками в ответ на экзогенные или эндогенные сигналы и управляет дифференцировкой и активацией Т-хелперных клеток 17 (Th17) с последующей продукцией ИЛ-17А, ИЛ-17F, ИЛ-6, ИЛ-22 и фактор некроза опухоли α (TNF- α). Хотя ИЛ-23 играет ключевую роль в защитном иммунном ответе на бактериальные и грибковые инфекции, было показано, что его нарушение регуляции усугубляет хроническое иммуноопосредованное воспаление. Хорошо зарекомендовавшие себя экспериментальные данные подтверждают концепцию о том, что активация оси ИЛ-23/ИЛ-17 способствует развитию ряда воспалительных заболеваний, таких как псориаз, псориатический артрит; В качестве, Анкилозирующий спондилоартрит; IBD, воспалительное заболевание кишечника; РА, ревматоидный артрит; СС, синдром Шегрена; РС, рассеянный склероз. В результате новые клинические исследования были сосредоточены на блокаде этой патогенной оси как на многообещающей терапевтической мишени при некоторых аутоиммунных заболеваниях; тем не менее, более глубокое понимание его вклада требует дальнейшего изучения (Schinocca C, Rizzo C, Fasano S. И др 2021).

Sherlock JP, Cua DJ. (2021) ИЛ-23 был открыт 20 лет назад в ходе биоинформатического поиска *in silico* новых членов семейства цитокинов ИЛ-6. Этот иммуномодулятор представляет собой гетеродимерный цитокин, содержащий субъединицу p19, связанную с субъединицей p40, общей с ИЛ-12. Важно отметить, что одна и та же общая субъединица p40 соединяется с уникальной субъединицей p35, образуя ИЛ-12. Из-за общей субъединицы p40 большая часть патобиологии, приписываемая ИЛ-12 (1989–2002), фактически была обусловлена двумя различными цитокинами, ИЛ-12 и ИЛ-23. Открытие ИЛ-23 побудило пересмотреть иммунные пути, регулирующие воспалительные заболевания. В то время считалось, что классический ответ IFN- γ , индуцированный клетками Th1, необходим для индукции и поддержания аутоиммунного воспаления. Исторически считалось, что клетки Th1 способствуют аутоиммунитету, в основном благодаря исследованиям с использованием мышей с дефицитом p40 и нейтрализующих антител к p40. Однако были нестыковки. Как было рассмотрено ранее, - / - , IFN- γ R - / - , ИЛ-12R β 2 - / - и ИЛ-12p35 - / - (мышь) очень восприимчивы к аутоиммунному воспалению. Когда решили пересмотреть относительный вклад ИЛ-12 по сравнению с ИЛ-23, используя ИЛ-23-дефицитных мышей p19 - / - , p35 - / - (ИЛ-12-дефицитных) и p40 - / - (ИЛ-12-дефицитных) 12 и ИЛ-23 с дефицитом) было показано, что ИЛ-23 играет важную роль в аутоиммунном воспалении. Примечательно, что устойчивый к болезням ИЛ-23p19- / - у мышей развивались нормальные аутоантиген-специфические ответы Th1, в то время как у них было серьезно нарушено развитие Т-клеток, продуцирующих ИЛ-17. Напротив, у восприимчивых к заболеванию мышей p35 - / - (отсутствующих ИЛ-12) наблюдались нарушенные ответы Th1 с большей частотой продуцирующих ИЛ-17 патогенных клеток Th17.

Хотя первоначальные исследования биологии ИЛ-23 были сосредоточены на антиген-опосредованных ответах Т-клеток, стало очевидным, что цитокин играет важную роль в кластере серонегативных заболеваний, для которых роль специфических антигенов менее ясна. Большой интерес представляет то, что эти заболевания обнаруживают очень тесную

Abstract. This article talks about the history of the origin of national movement games, the types of national movement games, including the aspects of national movement games in the development and growth of children's psychology.

Key words: Action games, types of sports games, traditional folklore games, game activities.

Kirish. Uzoq o'tmish tarixiy taraqqiyotning mutlaq zanjiri bo'lgan inson sivilizatsiyasining shunday ustunlari va tamal toshlari borki, ularda o'tmish, hozirgi zamon va kelajakning bir-biri bilan uyg'unligi, rivoji va davomiyligi saqlanib keladi, avloddan-avlodlarga meros sifatida o'tadi hamda qadriyatlar darajasiga yetadi. Qadriyatlarda esa bir butun xalqning, millatning imon-e'tiqodi, or-nomusi, insof-diyonati mujassam etiladi.

Sog'lom avlodni kamolga yetkazish va tarbiyalashning turli yo'l-yo'riqlari, o'ziga xos usullari mavjud. Ayniqsa bolalarning bo'sh vaqtini to'g'ri tashkil qilish, badan tarbiyasi va sport bilan shug'ullantirish, turli milliy harakatli o'yinlarni o'rgatish ota-ona, yo'riqchilar va murabbiylar oldida muhim vazifa hisoblanadi. Bola tarbiyasidagi bu jihatlarda davlat va jamiyat ahamiyatiga molik masaladir. Prezidentimiz bu masalani davr talab darajasida xal qilishga alohida e'tibor berib, o'quvchilarning bo'sh vaqtini to'g'ri tashkil etishning, shu jumladan ommaviy sport va jismoniy tarbiya, turizm, sportning boshqa milliy turlari va shakllarini amaliyotga joriy etish, ayniqsa, milliy sport o'yinlarini boyitish va shular asosida yoshlarimiz o'rtasida keng tashviqot olib borishni kun tartibidagi dolzarb masalalar sifatida e'tirof aytib o'tdilar. Darhaqiqat milliy harakatli o'yinlar, sport turlari ham xalq qadriyatlariga daxldor bo'lib, ularni yig'ish, boyitish va bolalarga taqdim etishni sog'lom avlodni tarbiyalash yo'lidagi muhim va zaruriy vazifalardan biridir. Insoniyat madaniyatining xazinalaridan biri - bu harakatli o'yinlardir. Ularning turlari, har

xilligi bepoyon o'lkadir. Harakatli o'yinlar odamlarning barcha moddiy va ma'naviy ijodiyotini aks ettirib kelgan va yana ham boyitib kelgan.

Asosiy qism. Bolalarni guruhiy munosabatlar, mehnatsevarlik va jamoat oldida o'z burchini his qilish ruhida tarbiyalash hozirgi kunning eng muhim masalalari hisoblanadi. Bola maktabga qadam qo'ygan birinchi, kundan boshlab, unda mehnatga nisbatan muxabbat uyg'otish, uyushqoqlik, ishchanlik va boshlangan ishni oxiriga yetkaza bilish xususiyatini tarbiyalash kerak. Buning uchun tarbiyaning barcha vositalaridan, jumladan bolalarning sevimli o'yinlaridan foydalanish ayni muddaodir. Bolaning psixologiyasi ham ayni o'yin davomida rivojlanib boradi.

– Milliy sport turlari bilan bir qatorda xalq o'yinlari ham aksariyat yoshlarda katta qiziqish uyg'otmoqda, - deydi Andijon viloyati xalq o'yinlari federatsiyasining rahbari Sharobiddin Toshmatov. – Bu o'yinlar, ayniqsa, bolalar orasida keng yoyilgan. Xususan, mahallalarda o'tkazilayotgan turli tadbirlarda aksariyat bolalar “Quloq cho'zma”, “Oq terakmi, ko'k terak”, “Podachi”, “Charxpalak”, “O'rda to'p”, “Chigi”, “Qo'tir echki” kabi o'yinlarda o'zaro bellashib, kim epchilu, kim chaqqonligini aniqlab oladilar. Shuningdek, “Uzuk olish”, “Igna sanchish”, “Poyondozi”, “Sultonchalar jangi”, “Igna, ip, angishovna” singari xalq o'yinlari ham yillar osha bizgacha yetib kelgan. Mazkur o'yinlar ishtirokchilariga sinchiklab qarasangiz, har birida abjirlik, murakkab holatni to'g'ri baholash, qiyin vaziyatdan chiqib ketish xususiyatlari qaror topganiga amin bo'lasiz. Shundan xulosa qilish mumkinki, milliy sport turlari va xalq o'yinlari yoshlarni sog'lom voyaga yetkazish, ularga ta'lim-tarbiya berishda muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, milliy qadriyat va urf-odatlarini asrab-avaylashda ularning o'rni beqiyos.

O'zbek an'anaviy bolalar folklor o'yinlarining mavzu qamrovi, ijro uslublari juda keng. Ijtimoiy hayot, kishilar munosabatlarining biron bir jabxasi yo'qki, ular o'yinlar nazariga tushmagan bo'lsin. Xalqimizning dehqonchilik, chorvachilik, bog'dorchilik, polizchilik, madaniyati deysizmi, kasb-hunar va bilim sohasi deysizmi, falsafiy, estetik, ahloqiy yohud ta'lim-tarbiya, ahloq-odob bobidagi qarashlari deysizmi-barchasi an'anaviy o'yinlarga mavzudir. Xususan, o'zbek bolalar folklor o'yinlari boshdan oyoq ma'naviy, ma'rifiy, ahloqiy tushunchalar bilan yo'g'rilgan. Xalqimizning ming-ming yillarda bosib o'tgan tarixiy yo'lida, tajriba-sinovlardan qayta-qayta o'tib, yaxlit va mukammal holga kelib, bizgacha yetib kelgan bolalar folklor o'yinlarning mazmuni yo'nalishiga qarab quyidagicha turlarga bo'lish mumkin. Mavsumiy bolalar folklor o'yinlari: ilk bahor, yoz, qish mavsumlarida o'ynaladigan folklor o'yinlar. Marosim bolalar folklor o'yinlari: rasm-rusumlar, odatlar, marosimlar, an'anaviy bayramlarda o'ynaladigan o'yinlar. Oilaviy-maishiy bolalar folklor o'yinlari: “Mehmon-mehmon”, “Kelin tushirish”, “Kelin-kuyov”, “Ona bola”, “Ovqat pishirish”, “Uy jixozlash”, “Qo'g'irchoq o'yini”, “Non yopish”, “Er-xotin”, “Alla-alla”, “Beshik bezash”, “Beshikka belash” va boshqalar. Jismoniy harakatli bolalar folklor o'yinlari: “Quvlashmachoq”, “Kes-kes”, “Ko'rpa yopildi”, “Ziyrak”, “G'oz-g'oz”, “Koptokni quvib et”, “Olar soka”, “Oq suyak”, “To'p-tosh”, “Sinish”, “Chiqildo”, “Chopish”, “Zuv-zuv”, “Oq terakmiko'k terak”, “Eshak mindi”, “Lanka”, “Ot o'yini”, “Qiz quvdi” va boshqalar. Mantiqiy bolalar folklor o'yinlari: tez aytishlar, topishmoqni topish o'yinlari, sanimoqlar, aytishuvlar, savol javoblar, o'ylab topishlar, xotirani tiklashlar, chamalashlar va boshqalar. Hayvonlar va tabiat xodisalari bilan bog'liq bolalar folklor o'yinlari. Ermak bolalar folklor o'yinlari. Musiqa o'yinlari. Xalq o'yinlari, jumladan bolalar folklor o'yinlari, eng qadim vaqtlarda boshlab xalq xayoti tarzini, ma'naviy-ma'rifiy, jismoniy tayyorgarligini, estetik dunyoqarashini mujassamlashtirgan xolda shu kunimizga qadar o'sib, mazmun maqsadiga ko'ra

teranlashib bizga etib kelgandir. Boshqa san'at turlaridan farqligi o'laroq o'yinlarda xalq ruhiyati, psixologiyasi, koloriti, yosh avlod tarbiyasiga bo'lgan munosabatida yorqin aks etadi.

Harakatli o'yin haqida asosiy tushuncha.

O'yin - tarixiy tashkil topgan ijtimoiy voqea, mustaqil faoliyat turi, kishiga xosdir. O'yin faoliyati juda ham turli-tumandir: o'yinchoqlar bilan o'ynaladigan bolalar o'yinlari, stol o'yini, doira bo'lib o'ynaladigan o'yin, harakatli o'yinlar, sport o'yinlari. O'yin o'zi-o'zini bilish vositasi, o'yin-kulgi, dam olish, jismoniy va umumiy ijtimoiy tarbiya vositasi, sport vositasi bo'lishi mumkin. O'yin madaniyati elementi sifatida jamiyatni barcha madaniyati va kishilarning har xil ehtiyojlari bilan rivojlanadi: o'yin-kulgi, dam olishda, ma'naviy, aqliy va jismoniy kuchni rivojlanishida katta o'rin egallaydi. O'yin faoliyati - nafaqat madaniyatni bir elementi xisoblanadi, balki u bolalar va o'smirlarni tarbiyalashda ham foydali vosita xisoblanadi. U har doim maqsadga yo'naltirilgan va turli-tuman maqsadli yo'l-yo'riq hamda asoslangan harakat bilan o'ziga xos xususiyatni ko'rsatib turadi. Doimiy o'tkaziladigan o'yinlar bilan birga har bir faslga xos o'yinlar ham mavjud. Masalan, bahorda daraxtlar uyg'onib, tollar kurtak chiqarganda – "tol bargak", dala gullari ochilganda – "gul o'yini", pishiqchilik paytida danak, yong'oq o'yinlari, arg'imchoq uchishlar sevib o'ynalgan. Kech kuz, qishda yog'ingarchilik boshlanib, yer yumshaganda qoziq, oshiq, tosh o'yinlar odat tusiga kirgan. Qor yoqqanda "qorxat", "qorbo'ron", yomg'ir yoqqanda "yomg'ir yog'aloq", kuchli shamol esganda "bo'ron-bo'ron", sovuq o'z kuchini ko'rsatganda barcha sandal atrofida yig'ilib, "topishmoq top", "tez aytish", "kim aytdi" kabilar o'ynalgan. Kech kuzdan to bahorgacha "uloq-ko'pkari" musobaqalari o'tkazilgan.

Harakatli o'yinlar bolalarni jismoniy jihatdan chiniqtiradi, dadil, qo'rqmas, epchil bo'lishga undaydi. Bolalarda tashabbuskorlik, jamoaviylik, burch hislarini o'stiradi.

Hozirgi texnika va texnologiya asrida bolalarimizning turli texnika buyumlariga qaramligi ortib borayotgan ayni bir paytda milliy harakatli o'yinlarimizni qaytadan shakllantirish va ularni amalda tadbir etish juda muhim ahamiyat kasb etadi.

O'yin faoliyati bolalarni individual ravishda o'rganish imkonini beradi. Ayrim bolalar jamoa bo'lib o'ynashni yoqtiradilar bu psixologik bolani umumiy taraqqiyotiga ta'sir etadi. Bola psixikasining taraqqiy etishida o'yinning roli beqiyosdir. Biz bolaning psixik taraqqiyotini o'yinsiz tasavvur qilishimiz qiyin. Chunki, o'yin orqali bola faqat jismoniy tomondan emas, balki psixologik tomondan ham rivojlanadi. O'yin orqali bola olamni, undagi narsa- hodisalarni, ularga xos xususiyatlarni o'rganibgina qolmay, balki nutq so'zlashga, mustaqil fikrlashga xayol qilishga, ijod qilishga, muomala madaniyatiga o'rganadi.

Xulosa. Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib biz shunday xulosaga kelamizki, milliy va diniy qadriyatlarning inson tarbiyasidagi o'rni beqiyos. Biz o'sib kelayotgan har bir yosh avlodning ongiga milliy qadriyatlarimizni singdirib, ularning ham ta'lim-tarbiya, ham jismonan sog'lom bo'lib voyaga yetishi uchun milliy harakatli o'yinlarni bolalar hayot tarziga chambarchas bog'lagan holda tarbiyani uzluksiz davom ettirishimiz kerak. Kelajagimiz yoshlar qo'lida ekanligini anglagan holda, farzandlarimiz tarbiyasiga, psixologik va jismoniy rivojlanishiga diqqatli bo'lmog'imiz lozim.

REFERENCES

1. Rahimqulov K. Milliy harakatli o'yinlar "Tafakkur- bo'stoni" Toshkent-2012-144bet
2. Usmonxo'jayev T.S., P.A.Usmonov "500 harakatli o'yinlar" Toshkent 2011.-280 b.
3. Xo'jayev F., Abdurasulova R.,Xo'jayeva M. "Milliy harakatli o'yinlar va estafedalar" Umid design-2021.

LEGISLATIVE ACTIVITY OF THE STATE IN PREPARING YOUNG PEOPLE FOR FAMILY RELATIONS

Ergashev Yuldash Danabaevich

Samarkand Law College

Samarkand city

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7642009>

Abstract. *This scientific article describes the legislative framework aimed at legal regulation of young people entering into family relations according to the state policy regarding youth in the Republic of Uzbekistan.*

Key words: *Neighborhood institution, family law, family institution, Center for Family Cooperation, national values.*

ЗАКОНОДАТЕЛЬНАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ ГОСУДАРСТВА ПО ПОДГОТОВКЕ МОЛОДЕЖИ К СЕМЕЙНЫМ ОТНОШЕНИЯМ

Аннотация. *В данной научной статье описывается законодательная база, направленная на правовое регулирование вступления молодых людей в семейные отношения в соответствии с государственной политикой в отношении молодежи в Республике Узбекистан.*

Ключевые слова: *Институт соседства, семейное право, институт семьи, Центр семейного сотрудничества, национальные ценности.*

Marriage and family relations have a long history in the regulation of family relations in Uzbekistan. When talking about its history, it should be noted that it depends on social life, customs, religion, traditions. In "Avesta" not only ethical procedures, but also justice in family relations, and paying attention to child upbringing are emphasized. According to the great scholar Abu Rayhan Beruni, no nation is free from marriage. Society regulates the natural relations between men and women by means of marriage, establishes moral and legal obligations between spouses, parents and children.

In order to realize today's new Uzbekistan and the third renaissance, the development of the family institution in Uzbekistan, the honoring of the family, and the establishment of a modern, exemplary and prosperous family, while enriching our traditional values, have become one of the priorities of the state policy.

The main legislative activity carried out by our state in preparing young people for family relations is the strengthening of the constitutional legal status of the family institution in the Constitution of the Republic of Uzbekistan and its 14th chapter. In Article 63 of the Constitution, family relations are based on the principles of voluntariness and equality. It is also determined that family legal relations are under the protection of the state.

President Shavkat Mirziyoyev, during the celebrations of the 29th anniversary of the Independence of the Republic of Uzbekistan, said, "At the time when the glorious power of our people is flourishing, the foundations are being laid for a new renaissance in our country - the Third Renaissance, and the youth is the greatest strength, wealth, and priceless treasure of our country." We believe that it is important for our people to build a new Uzbekistan, to successfully build the foundation of the third Renaissance, that our young people can happily build their personal family lives.

On February 18, 2020, President Shavkat Mirziyoyev's "On measures to improve the socio-spiritual environment in society, further support the neighborhood institute, and bring the system of working with family and women to a new level" In order to ensure the implementation of Decree No. PF-5938 and Resolution No. PQ-4602 of February 18, 2020 "On the organization of the activities of the Ministry of Neighborhood and Family Support of the Republic of Uzbekistan", the Cabinet of Ministers The Ministry of Neighborhood and Family Support of the Republic of Uzbekistan has adopted a decision to establish an off-budget fund "Prosperous and Safe Neighborhood" and to create a research institute "Neighborhood and Family" without establishing a legal entity.

In order to direct the policy of preparation of young people for family relations by our state, scientific research is being conducted at the scientific research institute "Mahalla va oila" to create a modern family model and eliminate existing problems. On the basis of scientific research, young people who are on the threshold of entering into family relations are informed about the exemplary form of the modern family and "Family is sacred", "Healthy family is a healthy society", "Family is in the protection of society and the state" and "A prosperous family is the basis of the development of society". Conceptual ideas are being inculcated.

The state policy on improving the role of neighborhood institutions in preparing young people for family relations, strengthening their influence in forming young families, and protecting the rights and legal interests of young people is being implemented effectively.

In order to ensure the effective implementation of the state policy on youth support, in order for young people to be fully prepared for family relations, young married persons should be trained in family-legal relations, psychology of family life, family economy and budget, basics of reproductive health, spiritual - it is necessary to systematically prepare for the issues of strengthening moral values.

Protecting the rights and legal interests of young people, increasing their role and activity in the social and political life of the country, allowing young people to acquire moral immunity, preserve and strengthen national values, and protect them from various harmful things that are alien to our national mentality and are growing stronger. Protection of secrets through legislation is the direct duty of the state.

In order to effectively prepare young people for family relations, scientific researches are being carried out on the development and implementation of scientific directions of preparing young people for family relations by the "Makhalla va oila" institute. First of all, the promotion of the single state policy aimed at implementing the idea of "Healthy family - healthy society" is defined as the main direction.

"Family Co-Learning Center" virtual center, which actively promotes the modern model of a prosperous family for young people who are preparing to enter into a university relationship, and a web portal system based on it, has been launched, and social surveys are conducted online through video hosting on the "Modern Prosperous Family" platform. A special "Survey" system was introduced.

The Uzbek people have rich customary rights to prepare young people for family relationships. Such customary rights have been preserved as a national value and are used informally even today. In modern Uzbek national statehood, a special legal framework has been created for the legal regulation of family relations. As part of the family legislation, training

programs for each area of family relations have been developed as a comprehensive approach to preparing young people for family relations. These areas are shown in the schematic table above. Accordingly, the following are important in preparing young people for family relationships:

- in the legal field of preparing young people for family relations, young people are taught the rights and obligations specified in the Constitution and laws, the family code;

- in the practical field of preparing young people for family relations, in order to prepare girls for family and bride-to-be, educational centers such as "Ibratli Kelin" are established and practical lessons are taught to young people from household chores to baby care. Married persons under the age of 30, who have applied for registration of marriage at family centers and have received consent to participate in training sessions, on the basis of a program with a training load of not less than sixteen hours 'struck;

- in the spiritual sphere of preparing young people for family relations, in the community spiritual centers, in order to respect family values, to create a healthy spiritual and moral environment in families, and to form the skills of being exemplary parents, "family-neighborhood-free spiritual lessons were organized within the framework of "cooperation";

- timely identification of youth problems in the psychological field of preparing young people for family relations, providing socio-legal, psychological and material assistance to young people in need of help and who have fallen into a serious social situation, including young people with disabilities. trainings and explanatory work on family psychology are carried out by qualified psychologists in the neighborhoods;

- in the religious field of preparing young people for family relations, explanatory work on religious-educational issues and customs in family relations is carried out by the employees of authorized religious organizations in the neighborhoods;

- in the economic field of preparing young people for family relations, underprivileged young people are identified by the neighborhood and are being helped to recover their economic situation by systematically entering them into the register of youth.

The conclusion of the scientific study of the legislative activities of the Republic of Uzbekistan on the preparation of young people for family relations is that young people who make good use of the above-mentioned conditions eliminate problems in entering into family relations.

Based on the conclusions of scientific research on the topic of preparing young people for family relations, the following can be given as a practical recommendation:

- organizing discussions and discussions on topics aimed at preparing young people for family life in educational institutions and developing a systematic plan of educational activities;

- organization of psychological services in the neighborhood to prepare young people for family life;

- development of a systematic plan of activities to prepare young people for family relations on the basis of all organizations working with young people;

- we believe that it is necessary to conduct spiritual and educational activities for young people in family relations in mass media.

REFERENCES

1. Constitution of the Republic of Uzbekistan. Tashkent - "Uzbekistan" 2021.
2. Decree of the President of the Republic of Uzbekistan dated July 5, 2017 "On improving the effectiveness of the state policy on youth and supporting the activities of the Youth Union of Uzbekistan".
3. Decree No. PF-5938 of February 18, 2020 of the President of the Republic of Uzbekistan "On improving the socio-spiritual environment in society, bringing the system of working with the neighborhood and family, women to a new level" .
4. Resolution VM 820 of December 31, 2020 of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan "On measures to further develop the family institution and prepare young people for family life".
5. Decree of the President of the Republic of Uzbekistan dated February 2, 2018 "On measures to radically improve activities in the field of supporting women and strengthening the family institution"
6. Basics of family law-TDYU 2016
7. Shoumarov G'.B, Shoumarov Sh.B Love and family-T-1999
8. People's Word newspaper, September 28, 2018

F.I.Sh:	Ergashev Yo'ldosh Danaboyevich
Tezis nomi:	Yoshlarni oilaviy munosabatlarga tayyorlashda davlatning qonunchilik faoliyati
Ish o'rni va manzili:	Samarqand viloyat yuridik texnikumi Samarqand shahar, Turkiston ko'chasi 5-uy
Lavozimi:	Ommaviy-huquqiy fanlar kafedrasida o'qituvchisi
Ilmiy daraja va unvoni:	-
Ish joyi va mobil telefoni:	Samarqand yuridik texnikumi 99-626-76-02
e-mail:	

THE MIXED METHODS IN TEACHING: ROLE OF BELIEFS

Abdukodirova Damira Damirovna

Chirchik State pedagogical university Foreign language and literature

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7642068>

Abstract. This article discusses the importance of mixed methods and the role of beliefs in teaching foreign languages, especially English, to students majoring in non-philological disciplines. In particular, important aspects of the formation of English language knowledge and skills in students studying in non-philological specialties through independent learning technology were analyzed. The tasks, mechanisms and effectiveness of independent learning technology in foreign language teaching were studied and appropriate recommendations were made.

Keywords: Self-study technology, students of non-philological education, creative thinking, methods, discussion, system of education.

СМЕШАННЫЕ МЕТОДЫ В ОБУЧЕНИИ: РОЛЬ УБЕЖДЕНИЙ

Аннотация. В этой статье обсуждается важность смешанных методов и роль убеждений в обучении иностранным языкам, особенно английскому, студентам, специализирующимся на нефилологических дисциплинах. В частности, были проанализированы важные аспекты формирования знаний и умений английского языка у студентов, обучающихся по нефилологическим специальностям, с помощью технологии самостоятельного обучения. Были изучены задачи, механизмы и эффективность технологии самостоятельного обучения в преподавании иностранного языка и даны соответствующие рекомендации.

Ключевые слова: Технология самообучения, студенты нефилологического образования, творческое мышление, методы, дискуссия, система образования.

INTRODUCTION (KIRISH)

However, despite the central status of the word among linguistic units and its mental reality for speakers, as a result of which they do not experience serious difficulties in isolating and identifying words in the flow of speech, it is incredibly difficult to define a word. Currently, there are many definitions, among them there are many proposed by linguists working on the material of the English language, but there is not a single generally recognized and universal one.

LITERATURE REVIEW (MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI)

In the register of lexical units, the most significant role belongs to the word. It is not by chance, the human language is often called the language of words: after all, it is the words, in their totality, as the vocabulary of the language, that are the building material without which no language is inconceivable; and it is the words that change and are combined in coherent speech according to the laws of the grammatical structure of a given language. Thus, the word acts as a necessary unit of the language both in the field of vocabulary (vocabulary) and in the field of grammar (grammatical structure), and therefore the word should be generally recognized as the main language unit: all other units of the language (for example, morphemes, phraseological units, any grammatical constructions) are somehow conditioned by the presence of words and, therefore, presuppose the existence of such a unit as the word.

Foreign language teaching methodology as a science has a history of more than 200 years. This is the period to observe different attitudes towards foreign language teaching methods

possible. One such view belongs to academician L.V. Shcherba⁹. According to him, despite the fact that the methodology of teaching any science is a science, is not considered a theoretical science. It solves practical problems, including foreign languages.

RESEARCH METHODOLOGY (TADQIQOT METODOLOGIYASI)

The teaching methodology is not only based on the evidence of psychology, but also general and based on private linguistic research. A linguistic linguistic phenomenon. This is the methodology if it deals with the laws of origin and motion what to do to put into practice the necessary linguistic phenomenon based on the laws answers the question of whether. The most valuable of the methodological books also written by linguists.

The statement of knowledge is considered to be the main goal of education of this method the basic principles are:

1. Language learning is based on written speech.
2. Grammar is taken as a subject of study, and vocabulary is subordinated to it selected. Grammar exercises were the main method of work.
3. First, the grammatical rule is memorized, and then make sentences based on the rules recommended.
4. Grammatical form and meaning of words by word-for-word translation explained.
5. Language material is mastered by word-for-word translation and dry memorization.
6. It is limited to memorizing words out of context, alone.

ANALYSIS AND RESULTS (TAHLIL VA NATIJALAR)

Different versions of this method are known historically. They can be divided into two major groups: natural and direct methods. In the natural method. Learning a foreign language should be in line with the conditions of mastering the native language. Methods' main goal is to learn to read and write by learning to speak a foreign language. The idea that it is possible to get is formed for practical purposes. Natural The most important of the principles included in the method is to create a language environment. There are different approaches to the practical application of the proposed methodological principles. This can be clearly seen in the creative work of the representatives of the method. In the new interpretation of the goal of foreign language education, based on the results of pragmatic linguistic research. This branch of linguistics interprets language as a sphere of human activity, not a system of linguistic forms. New findings in the field of language education that have been accumulated since the early 1970s. The set has led to heated debates in the field of educational goals. The purpose of defining the main directions of foreign language teaching is to teach students. "Behavioral Training" were adopted. In the 70s, "communicative method has been proven in several stages after a series of attempts.

CONCLUSION

As a result, students only passively accept language knowledge and their motivation to learn is stifled. The third problem is that roles of teachers and students are not appropriate, teacher play the role of instructor in the classroom, and rarely explains language learning strategies, leaving the important task of learning vocabulary after class. These teaching problems cause students to memorize vocabulary books or vocabulary lists mechanically, and they always forget old words after learning new words, therefore, it is difficult to expand the breadth of the vocabulary.

^{9/17} M.Xodjayev, M.Qahhorova "Chet til o;qitish metodikasi" – T: Fan va texnologiyalar, 2012.

In addition, students lack the depth of vocabulary learning, and only master the literal meaning of the words they learn, but do not really master the dynamics of the semantics in the context. As a result, students are bored with vocabulary learning and feel that vocabulary learning is boring, resulting in poor speaking and writing ability (productive ability), as well as some common problems in class and examinations, such as, poor semantic flow and inaccurate collocation or word selection.

REFERENCES

1. Hassel, B. C., & Hassel, E. A. (2011). Teachers in the Age of Digital Instruction (No. 1). Education Reform for the Digital Era. Washington, DC.
2. Precourt, G. (2013). What we know about creativity. *Journal of Advertising Research*, 53(3), 238-239.
3. Jalolov J. Chet tili o'qitish metodikasi. – Toshkent., 2012: 30-52.
4. Khakimova, K. B. (2020). The Subject and Place of Toponymics In the System of Sciences. *Science and Education*, 1 (Special Issue 2).
5. Khakimova, K. B. (2020). Basic Principles of Conversation of Toponyms on Geographic Maps. *Scientific-methodical journal of SCIENTIFIC PROGRESS*, (Volume 1, Issue 4, February 2021).

O'QITUVCHINING INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH VA BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING INTELLEKTUAL SALOHİYATINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

G'aynazarova Saidaxon Gulomovna

Andijon viloyati Jalaquduq tumani 17 - DIUM Boshlang'ich ta'lim 1-"V" sinf rahbari.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7646379>

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'qituvchisining darsda innovatsion pedagogik texnologiyasidan foydalanishning mazmuni borasida ma'lumotlar beriladi.

Kalit so'zlar: Yangi O'zbekiston, ilm-fan yutuqlari, ilg'or texnologiyalardan foydalanish, fiziologik va psixologik.

МЕТОДИКА ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ПЕДАГОГОМ ИННОВАЦИОННЫХ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ И РАЗВИТИЯ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОГО ПОТЕНЦИАЛА МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ

Аннотация. В данной статье представлена информация о содержании использования инновационной педагогической технологии учителя начальных классов на уроке.

Ключевые слова: Новый Узбекистан, достижения науки, использование передовых технологий, физиологические и психологические.

METHODOLOGY FOR THE USE OF INNOVATIVE PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES OF THE TEACHER AND THE DEVELOPMENT OF THE INTELLECTUAL POTENTIAL OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS

Abstract. This article provides information on the content of the use of innovative pedagogical technology of a primary school teacher in a lesson.

Keywords: New Uzbekistan, achievements of Science, use of advanced technologies, physiological and psychological.

Yangi O'zbekiston sharoitida Uchinchi Renessansni to'liq barpo etish va bunda boshlang'ich ta'lim ham yuksak talablarga mos bo'lishi talablari qo'yildi. Chunki "boshlang'ich ta'lim umumiy o'rta ta'limning tarkibiy qismi bo'lib, uning asosiy vazifasi 1-4-sinf o'quvchilariga bilim berish, ularni tarbiyalash va ko'nikmalarini shakllantirish masalalarini qamrab oladi hamda unda ta'lim oluvchilarning aqliy, ma'naviy hamda jismoniy kamol toptirishning ilk bosqichini" amalga oshiriladi. Boshlang'ich sinflarda o'qituvchilarni tanlash va tanlov asosida ishga olish ahburiyat diqqat e'tiborida chetda qolib ketgan. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining pedagogik faoliyatini muhim qiluvchi pedagogik kengashlar yo'q, mavjudlari bu faoliyatga rasmiyatchilik nuqtai nazaridan yondashishgan. Tahlillarimiz shuni ko'rsatdiki, juda ko'pchilik umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinf o'qituvchilarining muayyan fanlar bo'yicha bilim darajasining yetarli emasligi, ta'lim-tarbiyaga oid hujjatlarning bilmasligi, o'zining kasbiy bilimi va mahoratini oshirishga qaratilgan maqsadli va rejali faoliyat yo'lga qo'yilmaganligini e'tirof etish lozim. Xuddi shuningdek, boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kichik maktab yoshdagi o'quvchilarning psixologik va fiziologik xususiyatlari, shuningdek ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish va uni boshqarish hamda baholash o'rtasidagi mutanosibliklar hamda ta'lim-tarbiyaning metodik jihatlari to'g'risidagi ko'nikma va malakalar yetarli emasligi, pedagogik voqyelik va pedagogik jarayon o'rtasidagi turg'un bog'liqlik e'tiborga olinmayotganligi ham ayon bo'ldi.

Binobarin, buyuk g'arb pedagogi A. Disterverg ta'kidlaganidek: «Yaxshi o'qituvchi o'zining tarbiya prinsiplaridan hech qachon voz kechmaydi. O'qituvchi o'z ustida mustaqil ishlashi lozim. Yomon o'qituvchi haqiqatni aytib qo'ya qoladi. Yaxshi o'qituvchi o'quvchilarga haqiqatni topishga o'rgatadi».

Boshlang'ich sinflarda ko'zda tutilgan ta'lim samaradorligi boshlang'ich ta'lim konsepsiyasida e'tirof etilgan g'oyalar asosida yaratilgan darsliklar, o'quv qo'llanmalar, metodik tavsiyanomalar, o'quv jarayonini tashkil etishning metod va mexanizmlari, o'qitishning innovasion g'oyalari va vositalariga bog'liq, albatta. Lekin bu pedagogik jarayonda yuksak pedagogik malaka va kasbiy bilimga ega, dars mobaynida muammoli vaziyatlarni yarata oladigan va uni yechimi taklif eta oladigan boshlang'ich sinf o'qituvchisining o'rni alohida ahamiyatga ega ekanligini qayd qilish lozim bo'ladi. Yuqori sinf o'qituvchisi tabiiy va ijtimoiy-gumanitar fanlarning fundamental asoslari va umumiy qonuniyatlari, ularni kishilik jamiyatidagi o'rni va hamiyatini tizimli o'rgatishga, bilim berishning differensial jihatlariga ko'proq maqsadni yo'naltirsa, boshlang'ich sinf o'qituvchisi pedagogik-psixologik bilimlar majmuasi, ta'lim samaradorligini oshirish metodlari, omil va vositalari bilan qurollangan, matematika, ona tili, tabiat, inson va jamiyat ta'lim sohalarining ilmiynazariy asoslarini mukammal bilgan holda bolaning yosh (fiziologik va psixologik) xususiyatidan kelib chiqib fanning umumiy jihatlarini o'rgatishga, ya'ni integrativ ta'lim berishga yo'naltiradi. Bundan tashqari boshlang'ich sinf o'qituvchisi bolani o'yin faoliyatidagi elementlarni ta'limiy faoliyatga yo'naltirishni boshqara olish, mas'uliyatni his qilish, ayrim muammoli vaziyatlarda to'g'ri qarorlar qabul qila olish, vaqtni rejalashtirish, o'quvchilarni istak-xoxishlariga e'tiborli bo'lish, shuningdek ezgulikni qadrlab istiqbolli kelajakni ko'zlash fazilatlarining shakllanishiga mas'ul tarbiyachi hamdir. Boshlang'ich sinf o'qituvchisining yana bir muhim sifatlaridan biri- ta'limiy faoliyatni boshlang'ich va umumta'lim fanlarining uzviylik jihatlarini hamda boshlang'ich ta'lim bosqichi fanlarining o'zaro aloqadorlik tamoyillari asosida tashkil etishidir.

O'qituvchi pedagogik faoliyatni tashkil etish uchun pedagogika nazariyasi, falsafa, sosiologiya, madaniyatshunoslik, dinshunoslik, bolalar anatomiyasi va fiziologiyasi, psixologiya, siyosatshunoslik kabi fanlarni bilishi shart hisoblanadi. Shuningdek, boshlang'ich sinflarda tabiatshunoslik faniga oid obyekt va hodisalarni to'g'ri talqin qilish uchun fizika fani qonuniyatlarini bilishni taqozo qiladi. Bundan tashqari bugungi kunda ta'lim jarayoniga texnologik yondashuvning rivojlanishi pedagogika fanini o'qitishda kibernetik fanlar aloqadorligini ta'minlash maqsadga muvofiq bo'ladi.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'zidagi uslubiy bilimlarni rivojlantirishi uchun metodik kompetentsiyaning keltirib o'tilgan vazifalarini o'rganishi hamda ularni amaliy tajribada qo'llanishi orqali erishadi. Turli pedagogik o'zgarishlar natijasida o'qituvchining metodik qobiliyati shakllanadi. Pedagogik mahoratga ega bo'lgan o'qituvchi tarbiyadagi qiyinchiliklarni yengishga qodir bo'lgan o'qituvchi, o'sib kelayotgan yosh avlodning o'ziga xos hususiyatlarini tushuna oladigan, ularning tuyg'ularini his qila oladigan, ichki dunyosi nozik va zaif bo'lgan, bola hayotidagi turli qiyinchiliklarni ko'ra oladigan va ularga mohirlik bilan yondashadigan, bilimlilik va ijodkorlikni o'zida mujassam o'tgan chuqur ilmiy fikrga ega shaxs hisoblanadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining intellektual salohiyatini rivojlantirish metodikasi

Maktabga borish bolalarning hayotida juda-katta voqeadir. Maktab hayoti bolalarga yangi bir dunyoni ochib beradi, maktab davrida bolalarning asosiy faoliyatlari o'zgaradi. Endi

bolalarning asosiy faoliyatlari, asosiy vazifasi va ijtimoiy burchi o'qish bo'lib qoladi. 6-7 yoshli bolalar uchun yangi faoliyat bo'lgan o'qish ulardan yangi sifat, yangi xususiyatlarga ega bo'lishni talab etadi. O'qish faoliyati uchun bolalarda barqaror diqqat, o'tkir zehn, mustaqillik, ishchanlik va bartiblik xislatlari bo'lishi kerak. Bog'chadan maktabga o'tishlari natijasida kattalar bilan bo'lgan munosabatlarida ham birmuncha o'zgarish yuz beradi. Birinchi sinf o'quvchisi ko'pincha obrazli xotiraga suyanib bilish faoliyatini tashkil etsa ham bu ish xotiraning boshqa turlarini inkor qilmaydi. Aksincha, ta'lim so'z-mantiq xotirasini taqozo etadi. So'z mantiq xotirasining mavjudligi ma'nosini tushunib esda olib qolish jarayonining samaradorligi ortishiga keng imkoniyat yaratadi. Tajribadan ma'lumki, bola ma'nosiz so'zlardan ko'ra ma'nodor tushunchalarni birmuncha tez va mustahkam eslab qolish xususiyatiga ega. Iqtidor - bu inson psixikasining butun umr davomida tizimli rivojlanuvchi sifati bo'lib, insonning boshqa odamlarga nisbatan bir yoki bir necha sohada yuqori natijalarga erishish imkoniga ega ekanligi bilan belgilanadi.

Psixologik lug'atda "iqtidor" tushunchasi quyidagicha ta'riflanadi.

1. Iqtidor bu-faoliyatning muvaffaqiyatli amalga oshirilishini ta'minlaydigan qobiliyatlarning o'ziga xos uyg'unlashuvidir;
2. Iqtidor bu-insonning imkoniyatlari doirasi, faoliyatlari darajasi va o'ziga xosligini belgilaydigan umumiy qobiliyatlar;
3. Iqtidor bu - aqliy potensial, ta'lim olish qobiliyati va bilish imkoniyatlarining bir butun individual xarakteristikasi;
4. Iqtidor bu - tabiat tomonidan in'om etilgan qobiliyatlar, qobiliyatlar tabiiy asoslarining o'ziga xosligi va ularning namoyon bo'lishi darajalari;
- 5) Iqtidor bu - iste'dodlilik, faoliyatda yuqori natijalarga erishish uchun ichki imkoniyat va sharoitlarning mavjudligi.

Ushbu tavsiflardan kelib chiqqan holda, shuni ta'kidlash mumkinki, iqtidor asosida umumiy intellektual va insonning bilish imkoniyatlarini belgilaydigan, tabiat tomonidan in'om etilgan qobiliyatlar, biror bir faoliyatda (masalan, ta'lim, ijodiy, kasbiy, ilmiy) muvaffaqiyatga erishishni ta'minlaydigan maxsus qobiliyatlar yotadi. Umumiy qobiliyat egalari yuqori intellektual imkoniyatlarga ega bo'lib, muammoning yoki biron-bir masalaning yechimini tezda topishi, faoliyatiga ijodiy yondashishi bilan ajralib turadi. Maxsus qobiliyat egalari esa-biron-bir aniq (masalan, matematika, musiqa, rasm chizish, shaxmat o'ynash, sport) faoliyat turiga qobiliyati bo'lgan va mana shu faoliyat bilan shug'ullanishni afzal ko'radilar. Iqtidorli bolalar bu umumiy va maxsus qobiliyatlarni o'zida mujassam etgan bolalardir. Ular boshqa bolalardan quyidagi belgilari bilan ajralib turadilar: Pedagogik nuqtai nazardan umumiy va maxsus qobiliyat yoshdavrilarini inobatga olgan holda muhim jihatlarga bog'liq. Erta yosh davrlar maktabgacha va kichik maktab yoshida iqtidor umumiy hamda universal qobiliyat sifatida ko'rilishi va rivojlanishi mumkin. Vaqt o'tishi bilan bu "umumiy qobiliyat" o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib ma'lum bir yo'nalishni belgilaydi. Ayni vaqtda bu iqtidor bola tomonidan qay darajada namoyon bo'layotganligiga e'tibor qaratish kerak bo'ladi. Aniq namoyon bo'lgan, ya'ni psixolog, pedagog, ota-onalar tomonidan e'tibor berilgan qobiliyat "aktual", atrofdagilar payqamaydigan qobiliyat "potensial" qobiliyat deyiladi.

Ko'pgina mashhur olimlar, bastakorlar, rassom va yozuvchilar (masalan, yosh V.A.Motsart, F.Galton, I.Mechnikov, K.Gauss, N.Vinner, G.Leybnits, V.Gyugo) erta yoshdayoq o'zlarining

qobiliyatlarini namoyon qilganlar. Va aksincha ko‘p hollarda bolalikda hech qanday iqtidorga ega bo‘lmagan bolalar etuklik davrda muvaffaqiyatlarga erishishlari mumkin. Bu aqliy potensialga ko‘pincha atrofdegilar e‘tibor bermasliklari mumkin. Tabiiyki, har bir holatda iqtidorni payqamaslikning sabablari turlidir. Potensial qobiliyat haqiqatdan ham ma‘lum bir vaqtgacha namoyon bo‘lmagandir. Balki, ota-onalar pedagoglar va kattalar tomonidan bola qalbining nozik harakatlaridagi o‘zgarishlarga yetarlicha ahamiyat berilmagandir, intuitiv holda buni payqamagandirlar yoki bilimlari etmagandir. Yoki aksincha, bu narsalarni tushunmaganliklari sababli boladagi buyuk potensial imkoniyatlarni sezmagandir va hattoki, bu ijodkorlikni, intellektual tashabbusni negativ xususiyat sifatida qabul qilganlar.

Boshqa, xususiyatlarni esa qadrliroq deb hisoblaganlar, ya‘ni, hammamizga shaxsiy tajribamizdan ma‘lumki, tirishqoqlik, itoatkorlik, saranjom-sarishtalik kabi xislatlarni fikrlar originalligi, dadillik, harakatlardagi va mulohaza yuritishdagi mustaqillikdan ustun qo‘yadigan ota-onalar, o‘qituvchilar, oliy o‘quv yurtlari professor o‘qituvchilari, rahbarlar uchraydi. Amerikalik olimlar tomonidan 400 ga yaqin taniqli odamlarning tarjimai holi o‘rganib chiqilganda ulardan 60 foizi maktab ta‘limi davrida jiddiy muammolarga duch kelganliklari aniqlandi. Aktual va potensial qobiliyatlar tushunchasining mavjudligi rivojlanishni oldindan prognoz qilish muammosini muhim deb hisoblaydi. Shaxsning qanday sifatleri va xarakter xususiyatlari, fe‘l-atvoridagi va faoliyatidagi fazilatleri kattalarga kelajakda bolaning buyuk olim, rassom yoki davlat arbobi bo‘lishi mumkinligini aniqlashga yordam beradi. Bu savolga javob topish birmuncha mushkuldir. Psixologlar bolaning kelajagini “bashorat” qilish imkonini beradigan qator qonuniyatlarni belgilab berganlar, lekin asoslangan prognozlar berishga hali erishilgani yo‘q.

Shu bilan birga jahon pedagogika va psixologiyasi sohasidagi tajriba shuni ko‘rsatadiki, bolaning imkoniyatlariga ishonchning pedagoglar va ota-onalarning mahoratiga yo‘g‘rilganligi mo‘‘jizalar sodir etishga qodir. Ba‘zi hollarda hayotda insonga tabiat tomonidan berilgan qobiliyatdan ham ko‘ra u ana shu xususiyatni qanday rivojlantira olgani muhimdir.

REFERENCES

1. Mavlyanov A., va b.q. Pedagogik texnologiya tamoyillari asosida dars mashg‘ulotlarini olib borish texnologiyasi. O‘quv-uslubiy qo‘llanma. – Toshkent, 2010 . -117 b
2. Tolipov O. Umumiy pedagogika Toshkent: 2007-y.
3. Buxarkina M., Mosiyeva V. Ta‘lim tizimida yangi pedagogik va axborot texnologiyalari. – M., 2000.

KASBIY TA'LIMDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

Abdumo'minov Burxonjon Sunnatillo o'g'li

Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika universiteti ta'limda axborot texnologiyalari yo'nalishi 2 - bosqich magistranti

Qambarov Bahridin Panji o'g'li

Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika universiteti ta'limda axborot texnologiyalari yo'nalishi 2 - bosqich magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7646507>

Annotatsiya. Ushbu maqolada ta'limda axborot texnologiyalarini o'rni, dars mashg'lotlarida axborot texnologiyalarini qo'llash orqali dars sifati va yoshlarni IT sohasiga qiziqishlarini oshirish, bundan tashqari ta'limda multimedia vositalarini afzalliklari tadqiq etiladi.

Kalit so'zlar: Axborot, kommunikatsiya, texnologiya, audio signal, video signal, multimedia, individual, motivasiya, kompyuter, informatika.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПРОФЕССИОНАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ

Аннотация. В данной статье исследуется роль информационных технологий в образовании, качество уроков и повышение интереса молодежи к сфере IT за счет использования информационных технологий в обучении, а также преимущества мультимедийных инструментов в образовании.

Ключевые слова: информация, коммуникация, технология, аудиосигнал, видеосигнал, мультимедиа, индивидуальный, мотивация, компьютер, информатика.

THE USE OF INFORMATION TECHNOLOGY IN PROFESSIONAL EDUCATION

Abstract. This article examines the role of Information Technology in education, the quality of the lesson through the use of Information Technology in lesson sessions and increasing the interest of young people in the IT field, in addition to the benefits of multimedia tools in education.

Keywords: Information, Communication, Technology, audio signal, video signal, multimedia, individual, motivation, Computer, Computer Science.

Axborot texnologiyalari har kuni inson hayotiga tobora ko'proq kirib bormoqda. Bugungi kunda, hatto eng qadimiy kasblar ham kompyuter dasturlari va turli xil IT- texnologiyalarni talab qiladi. Shu munosabat bilan maktablarda informatika kursi joriy qilindi, chunki bolalar kattalarga qaraganda ancha oson va tezroq o'rganadilar. Bundan tashqari, deyarli barcha zamonaviy maktab o'quvchilari uyda kompyuterga ega, ular maktabdan keyin o'z bilimlarini oshirishdan mamnun.

Ba'zi ekspertlar maktabdagi informatika kursidan kompyuterga oid bilimlar kelajakda barcha maktab o'quvchilari uchun foydali bo'lmasligi mumkinligiga ishonishadi va shuning uchun ular ushbu fanni o'rta maktablarda o'qitish maqsadga muvofiqligini shubha ostiga olishadi. Ammo agar biz bitiruvchilarning kasb-hunarga yo'nalishini hisobga olsak, unda maktab o'quv dasturining ushbu mavzusi o'qish uchun juda zarur va zarur bo'lib qoladi.

O'zini kompyuter texnologiyalari sohasida sinab ko'rgan yoshlar uchun kelajakdagi

kasbini tanlash ancha oson. Informatika jamiyatning axborot sohasining tarixiy rivojlanishining tabiiy natijasi sifatida tushuniladi. Axborotni qayta ishlash texnologiyalari bir asrdan ko'proq vaqt davomida mavjud bo'lib, ularning rivojlanishi evolyutsiyasi ilmiy- texnik taraqqiyot tufayli bir necha bosqichlarni bosib o'tdi.

Birinchi bosqich yozuvlarni ixtiro qilish bilan bog'liq bo'lib, bu bilimlarni avloddan avlodga o'tkazish imkoniyatini yaratdi.

Ikkinchi bosqich XVI asrning o'rtalarida, madaniyatni tubdan o'zgartirgan matbaa ixtiro qilinganidan boshlandi.

Uchinchi bosqich (19-asr oxiri) elektr energiyasining ixtiro qilinishi natijasida yuzaga keldi, shu tufayli telegraf, telefon, radio va telekommunikatsiyalar paydo bo'ldi, bu esa har qanday hajmdagi ma'lumotlarni tezkor uzatishga imkon berdi.

To'rtinchi bosqich (20-asrning 70-yillari) - mikroprotsessor texnologiyasini ixtiro qilish, shaxsiy kompyuterni yaratish.

Har safar axborot texnologiyalari bilim chuqurligi va hajmini, madaniyat darajasini tubdan o'zgartirib yubordi. Shu bilan birga, dastlabki uch bosqich faqat ma'lumotlarni yozib olish, ko'paytirish va tarqatish usullarini o'zgartirdi.

Hozirgi bosqichda intellektual faoliyatni texnologlashtirish amalga oshirilmoqda. Kompyuter texnologiyalariga asoslangan axborot texnologiyalari aqlli protseduralarni amalga oshirishga qodir: kompyuter yordamida loyihalash, kompyuterni modellashtirish, moliyaviy-xo'jalik faoliyati, ko'p tilli tarjima, har xil diagnostika turlari, o'quv tizimlari, ma'lumotlarni qidirish, saralash va boshqalar. Bu to'rtinchi bosqich bo'lib, yangi bilimlarning o'sishini ta'minlovchi texnik vositalarni, usullarni, texnologiyalarni o'rganish va ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan nazariya va amaliyotning ko'plab yangi yo'nalishlari paydo bo'ldi, shuningdek Axborotni o'zgartirish jarayonlari bilan bog'liq bo'lgan inson faoliyati.

60-yillarning oxiri - 70-yillarning boshlarida. XX asr frantsuz olimlari frantsuz tilidagi ikkita so'z - "informatione" (information) va "automatique" (avtomatizatsiya) ning hosilasi sifatida shakllangan "informatique" (informatika) atamasini kiritdilar.

Xuddi shu "Informatika shakllanishi" to'plamida ta'rif berilgan: "Informatika - bu kompyuterlashtirilgan (kompyuterga asoslangan) axborotni qayta ishlash tizimlarini ishlab chiqish, loyihalash, yaratish, baholash, ishlashning barcha jihatlarini o'rganadigan murakkab ilmiy va muhandislik intizomi, ularni qo'llash va ijtimoiy amaliyotning turli sohalariga ta'siri ". Ta'rif nafaqat informatika paydo bo'lishi va kompyuter texnologiyalari rivojlanishi o'rtasidagi bog'liqlikni aniq ta'kidlaydi, balki informatika kompyuterlarning rivojlanishining natijasi hisoblanadi. Informatika o'ziga xos axborot jarayonlari (texnologiyalar) ning ko'p sonli turlariga xos bo'lgan odatiy narsalarni o'rganadi. Ushbu axborot jarayonlari va texnologiyalari informatika ob'ekti hisoblanadi.

Informatika - bu atrof-dagi dunyoni tahlil qilishda tizimli va axborot yondashuvni shakllantiruvchi, axborot jarayonlari, ma'lumot olish, o'zgartirish, uzatish, saqlash va ulardan foydalanish usullari va vositalarini o'rganadigan fan.

Informatika nafaqat fan, balki uning eng keng qo'llanilish sohasi hamdir. Ular inson faoliyatining deyarli barcha turlarini qamrab oladi: ishlab chiqarish, boshqarish, madaniyat, ta'lim, tibbiyot, moliyaviy faoliyat, atrof-muhitni muhofaza qilish va boshqalar. Informatika shuningdek, kompyuter yordamida ma'lumotni konvertatsiya qilish jarayonlari va ularning

amaliy muhit bilan o'zaro aloqalari bilan bog'liq bo'lgan inson faoliyati sohasidir.

Informatikaning qiziqish doirasi - bu axborotning tuzilishi va umumiy xususiyatlari, shuningdek, inson faoliyatining turli sohaslarida ma'lumotlarni izlash, yig'ish, saqlash, o'zgartirish, uzatish va ulardan foydalanish jarayonlari bilan bog'liq masalalar. Avtomatlashtirish va aloqa tizimisiz ulkan hajm va axborot oqimlarini qayta ishlashni tasavvur qilib bo'lmaydi, shuning uchun elektron kompyuterlar va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari ham informatikaning asosiy yadrosi, ham moddiy bazasi hisoblanadi.

Maktab informatika faniga faol rivojlanayotgan informatika fanining mazmunini tashkil etuvchi barcha xilma-xil ma'lumotlar kiritilishi mumkin emas. Shu bilan birga, umumta'lim funksiyalarini bajaradigan maktab predmeti fanning mohiyatini ochib beradigan, talabalarni boshqa fanlarning asoslarini o'rganish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va ko'nikmalar bilan qurollantiradigan eng muhim, asosiy tushunchalar va ma'lumotlarni aks ettirishi kerak. maktabda, shuningdek yoshlarni kelajakdagi amaliy faoliyat va zamonaviy axborot jamiyatidagi hayotga tayyorlash.

Umumiy ta'lim mazmunini shakllantirish tamoyillari orasida zamonaviy didaktika fanning mantiqiyliigi va o'quv predmetining birligi va qarama-qarshiligi printsiptini ajratib turadi. B. T. Lixachev bu borada ta'kidlaganidek, «fan mantig'i va akademik mavzuni loyihalashtirish mantig'ining birligi va qarama-qarshiligi g'oyasi fanning qarama-qarshi rivojlanib borishi bilan bog'liq. U qalin xurofotni bosib o'tib, oldinga sakraydi, joyida yuradi va hatto orqaga chekinadi.

Keling, umuman maktab uchun xarakterli bo'lgan asosiy maqsadlarni qanday qilib maktab o'quvchilarini informatika sohasida o'qitish bilan bog'lash mumkinligini ko'rib chiqaylik.

Maktabda informatika fanini o'qitishning tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadi har bir o'quvchiga informatika asoslari, shu jumladan ma'lumotni o'zgartirish, uzatish va undan foydalanish jarayonlari haqidagi g'oyalarni o'z ichiga olgan dastlabki fundamental bilimlarni berish va shu asosda o'quvchilarga dunyoning zamonaviy ilmiy rasmini shakllantirishda axborot jarayonlarining ahamiyati, shuningdek zamonaviy texnologiyalarni rivojlantirishda axborot texnologiyalari va hisoblashning o'rni. Maktabdagi informatika kursini o'rganish, shuningdek, o'quvchilarni ushbu bilimlarni doimiy va ongli ravishda o'zlashtirish uchun zarur bo'lgan asosiy ko'nikmalar va ko'nikmalarni hamda maktabda o'rganilgan boshqa fanlarning asoslarini qurollantirishga mo'ljallangan. Informatika sohasidagi bilimlarni o'zlashtirish, shuningdek tegishli ko'nikma va malakalarni egallash o'quvchilarning umumiy aqliy rivojlanishi, ularning fikrlash va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish kabi shaxsiyat xususiyatlarini shakllantirishga sezilarli ta'sir ko'rsatishga mo'ljallangan.

Maktab informatika kursining amaliy maqsadi o'quvchilarning mehnat va texnologik tayyorgarligiga hissa qo'shish, ya'ni. ularni bitiruvdan keyin ishlashga tayyorgarlikni ta'minlaydigan bilim, ko'nikma va malakalar bilan jihozlash. Bu shuni anglatadiki, maktab informatika kursi nafaqat informatika fanining asosiy tushunchalari bilan tanishishi kerak, ular, albatta, ongni rivojlantiradi va bolaning ichki dunyosini boyitadi, balki amaliy yo'naltirilgan - o'quvchini kompyuterda ishlashga o'rgatish va yangi axborot texnologiyalari vositalaridan foydalanish.

Kasb-hunarga yo'naltirish uchun informatika kursi talabalarga kompyuter va informatika bilan bevosita bog'liq bo'lgan kasblar, shuningdek, kompyuterlardan foydalangan holda

maktabda o'rganilayotgan fanlarning turli xil qo'llanmalari to'g'risida ma'lumot berishlari kerak. Masalaning ishlab chiqarish tomoni bilan bir qatorda informatika fanini o'qitishning amaliy maqsadlari ham "kundalik" jihatni - yoshlarni kompyuter texnologiyalari va boshqa axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan kundalik hayotda oqilona foydalanishga tayyorlashni nazarda tutadi.

Maktab informatika kursining ta'lim maqsadi, birinchi navbatda, talabalar dunyoqarashining kuchli ta'siri bilan ta'minlanadi, bu jamiyat va tsivilizatsiya taraqqiyotida hisoblash texnologiyalari va axborot texnologiyalari vositalarining imkoniyatlari va roli to'g'risida xabardorlikka ega. butun. Maktab informatika kursining maktab o'quvchilarining ilmiy dunyoqarashiga qo'shgan hissasi fanning uchta asosiy tushunchalaridan biri bo'lgan ma'lumot g'oyasining shakllanishi bilan belgilanadi: zamonaviy ilmiy tuzilishga asos bo'lgan materiya, energiya va axborot. dunyoning rasmlari. Bundan tashqari, informatika fanini sifat jihatidan yangi bosqichda o'rganayotganda aqliy mehnat madaniyati shakllanadi va o'z ishini rejalashtirish, uni oqilona bajarish, uni amalga oshirishning real jarayoni bilan tanqidiy bog'liqlik kabi muhim universal xususiyatlar shakllanadi.

Informatika fanini o'rganish, xususan, algoritm va dasturlarni tuzish, ularni kompyuterda amalga oshirish, talabalardan aqliy va irodaviy harakatlarni talab qilishni, diqqatni, izchillikni va rivojlangan tasavvurni jamlashni talab qiladi, bu kabi shaxsiyatning qimmatli xususiyatlarini rivojlantirishga hissa qo'shishi kerak. qat'iyat va maqsadga muvofiqlik, ijodiy faoliyat va mustaqillik, mas'uliyat va mehnatsevarlik, intizom va tanqidiy fikrlash, o'z qarashlari va e'tiqodlari bilan bahslashish qobiliyati. Maktab informatika fanining predmeti, hech kimga o'xshamagan holda, fikrlash va harakatning aniqligi va ixchamligi uchun maxsus talablarni qo'yadi, chunki fikrlash, taqdimot va yozishning aniqligi kompyuter bilan ishlashning ajralmas qismidir.

REFERENCES

1. Федеральный государственный образовательный стандарт основного общего образования [Текст] / М-во образования и науки Рос.Федерации. — М. : Просвещение, 2011. - 48 с.
2. *Семакин И.Г.* Информатика. Базовый курс. 7-9 классы / И.Г.Семакин и др.— 2-е изд., испр. и доп. — М.: БИНОМ. Лаборатория знаний, 2004.
3. *Бауэр Ф.Л., Гооз Г.* Информатика. Вводный курс: Пер. с нем. / Под ред. А. П. Ершова. — М.: Мир, 1976.
4. *Дородницын А. А.* Информатика: предмет и задачи // Кибернетика. Становление информатики. — М.: Наука, 1986.

EVTANAZIYA NIMA, U JINOYATMI?

Jizzax viloyati yuridik texnikumi
Ommaviy - huquqiy fanlar kefedrasi o'qituvchisi

Ergasheva Zebiniso Berkinovna

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7646545>

Annotatsiya. Ushbu maqolada Evtanaziya haqidagi ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Evtanaziya, jamoatchilik, faol va passiv, og'ir jinoyat, reanimatsiya, qotillik, suiqasd, surunkali kasalliklar.

ЧТО ТАКОЕ ЭВТАНАЗИЯ, ЯВЛЯЕТСЯ ЛИ ЭТО ПРЕСТУПЛЕНИЕМ?

Аннотация. В этой статье представлена информация об эвтаназии.

Ключевые слова: эвтаназия, сообщество, активное и пассивное, тяжкое преступление, реанимация, убийство, убийство, хронические заболевания.

WHAT IS EUTHANASIA, IS IT A CRIME?

Abstract. This article provides information about euthanasia.

Keywords: euthanasia, public, active and passive, serious crime, resuscitation, murder, assassination, chronic diseases.

Inson hayotining mazmuni va ma'nosi, ayniqsa, uning o'lishi yoki o'lmasligi muammosi doim olimlarning diqqat markazida bo'lgan. Inson o'limi masalasi hozirgi zamon olimlari orasida turli tortishuvlarga, munozaralarga sabab bo'layotgan muammolardan biridir. Ayniqsa, "inson o'lish huquqiga egami?", – degan muammo nafaqat olimlar balki jamoatchilik orasida ham turli bahs-munozaralarga sabab bo'lmoqda. Insonni o'z ixtiyori bilan hayotdan ketishi ("o'zini-o'zi o'ldirish") masalasida ham turlicha qarashlar mavjud. Xususan, diniy dunyoqarash insonni o'z ixtiyori asosida hayot bilan xayrlashuvini qattiq qoralaydi.

Bugun fan-texnika jadal suratlar bilan rivojlanayotgan bir paytda inson o'limi tibbiyot tomondan qattiq nazorat ostiga olinishi ushbu muammoning dolzarbligini yanada oshirib yubordi. Chunki, hozirgi evtanaziya (yunoncha, "evtanaziya" – "og'riqsiz o'lim" ma'nosini bildiradi), ya'ni og'riqsiz o'lim masalasida ham turli bahs-munozaralarni ko'rishimiz mumkin.

Evtanaziya – turli harakatlar yoki vositalar bilan bemorning hayotini sun'iy yo'l bilan ushlab turgan qurilmalar ishini to'xtatib qo'yish orqali bemorning o'z o'limini tezlashtirish haqidagi iltimosini qanoatlantirish hisoblanadi. Deyarli evtanaziya bemorning iltimosiga ko'ra amalga oshiriladi. Ayrim hollarda esa bemor og'ir ahvolda bo'lsa uning yaqin qarindoshlari qaror chiqarishi mumkin. Evtanaziya atamasini birinchi bo'lib fanga Frensis Bekon fanga olib kirgan.

Evtanaziyaning ikki xil turi farqlanadi. Bular faol va passiv evtanaziyalardir.

Faol evtanaziya — ahvoli og'ir uzoq vaqt surunkali kasalliklar bilan kurashib kelayotgan va xavfli o'sma (saraton) kasalligi bilan og'irgan bemorlarda ma'lum vosita va harakatlar orqali o'limni tezlashtirish. Faol evtanaziyada bemorning o'limi tezlik bilan keskin ravishda ijro qilinadi. Passiv evtanaziyada esa bu jarayon ma'lum vaqt davom etadi.

Passiv evtanaziya — bunda bemorga taqdim etilayotgan davo choralari to'xtatiladi. O'limgacha bo'lgan vaqtni tezlashtiriladi.

Bundan tashqari, evtanaziyaning ixtiyoriy va majburiy turlari ham bor.

Ixtiyoriy evtanaziya — bemorning talabi, roziligi va iltimosiga ko'ra bajariladi. Binobarin o'lim muqarrar va undan qochib bo'lmaydi, u hayotning oxirgi bosqichi hisoblanadi.

Majburiy evtanaziyada bemorning fikri e'tiborga olinmaydi (og'ir yuqumli kasalliklarga chalingan bemorlar misol uchun: quturish).

Ko'p davlatlar qatori Gollandiya, Shvedsariya, Belgiya, AQSh, Lyuksenburg va Kolumbiyada evtanaziyaga ruxsat berilgan.

Germaniya, Shvetsiya, Hindiston, Isroil, Yaponiya, Kanada va boshqa ba'zi mamlakatlarda muayyan sharoitlarda reanimatsiya yoki evtanaziyada ishtirok etish uchun jazodan mahrum etishga ruxsat beriladi. Bundan tashqari ba'zi davlatlar jiddiy ruhiy kasalliklarga chalingan bemorlarga evtanaziya o'tkazishga ruxsat bergan (bu majburiy evtanaziyadir).

Evtanaziya- hozirgi kunda davom etayotgan baxsli mavzulardan biri hisoblanadi. Bu haqda odamlarning fikri va u qanchalik tez-tez ishlatilishi haqida juda ko'p munozaralar, tadqiqotlar o'tkazilmoqda. 2013-yilda Nyu-England tibbiyot jurnalida so'rovnoma natijalariga ko'ra 74 mamlakatda yashovchi aholidan 65 foizi evtanaziyaga qarshi bo'lgan. AQShda esa 67 foiz odamlar qarshi fikr bildirgan. Buyuk Britaniyada o'tkazilgan bir tadqiqotda shu narsa ma'lum bo'ladiki, shifokorlarning aksariyati ixtiyoriy evtanaziyani qo'llab-quvvatlamaydi. Ularning aosiyo'ntirozi diniy masalarga asoslanganligidadir.

Evtanaziya qonuniy bo'lgan mamlakatlarda o'limning 0,3-4,6 foizini tashkil qiladi. Ushbu o'limlarning 70 foizidan ko'prog'ini saraton kasalligi tashkil qiladi. Aksariyat shifokorlar agar kimdir ruhiy jihatdan tanlov qilishga qodir bo'lsa, evtanaziyani qo'llab-quvvatlaydi. Lekin kimningdir aqliy qobiliyatini aniqlash murakkab jarayon hisoblanadi. Ba'zi shifokorlar esa axloqiy jihatdan bemorlarga evtanaziya qo'llashda ikkilanadi. Chunki ular 2500 yildan buyon Gippokrat qasamyodini qabul qilishadi. Ushbu qasamyod shifokorlarni o'z qaramog'idagi bemorlarga g'amxo'rlik qilishga va hech qachon zarar yetkazmaslikka undaydi.

Insonlarda evtanaziya masalasi qarama-qarshi pozitsiyalarni ko'taradigan masala. Har bir mamlakat usbu masala atrofida o'z qonunchiligiga ega. Vijdonan o'lish va boshqa azob-uqubatlarning oldini olish huquqi ko'pincha evtanaziyani himoya qilishning asosiy dalillari sifatida tilga olinadi. Boshqa tomondan, odamlar ko'pincha evtanaziyaga qarshi pozitsiyalarda yashash huquqi va diniy sabablar haqida gapirishadi.

Bu nima-insonparvarlikmi yoki qotillik? Yoki suiqasdga yordamlashish? Ushbu jarayonni amalga oshiradigan shifokorlar ko'nglidan nelar kechadi? Din bunga nima deydi? Bu tibbiyot yordamida hayotdan ixtiyoriy tarzda ketishni istagan inson haqida eng keng tarqalgan savollar hisoblanadi.

Ayrim odamlar evtanaziyani qotillik deb hisoblashadi va axloqiy sabablarga ko'ra uni qabul qilib bo'lmaydi degan fikrni ilgari suroshadi. Ko'pchilik, o'zingizning o'limingizni hal qilish qobiliyati hayotning muqaddasligini zaiflashtiradi, deb ta'kidlaydilar. Bundan tashqari, ko'plab cherkovlar, diniy guruhlar va diniy tashkilotlar shu kabi sabablarga ko'ra evtanaziyaga qarshi bahs yuritmoqdalar. Musulmonlar evtanaziyaga qarshi. Ularning fikricha, inson hayoti muqaddas bo'lib, bu insonga Alloh tomonidan berilgan omonot va uning qancha umr ko'rishi, qanday vafot etishini Alloh izmidadir, deb hisoblaydilar.

O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida har qanday kasallanish turidan qat'iy nazar bemorlarga evtanaziya usulini qo'llash man etiladi. Chunki O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 24-moddasida shunday deyilgan: yashash huquqi har bir insonning uzviy huquqidir. Inson hayotiga suiqasd qilish eng og'ir jinoyatdir.

Hozirda faqat Gollandiya evtanaziyani mamlakat miqyosida rasman qonunlashtirgan davlat hisoblanadi.

Shunday qilib, inson Alloh tomonidan yaratilgan eng mukammal jonzot hisoblanadi. Uning hayoti ham muqaddasdir. Zero, har bir inson bu dunyoga kelar ekan birinchi navbatda o`z jonining qadriga yetishi kerak. Qur`oni Karimda ham bunday harakatlar qoralangan. Dard kelganda, kulfat yog`ilganda, musibat boshga tushganda ham sabrli bo`lissimiz lozim. Har bir inson qanoat sohibi bo`lsagina o`sha elda fayzu baraka arimaydi. Yurt tinch, osmon musaffo bo`ladi.

REFERENCES

1. O`zbekiston Respublikasi konstitusiyasi. –T; “O`zbekiston”, 2020 yil.
2. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. “Xalq so`zi”, 2020 yil 25 yanvar soni.
3. 2017–2021 yillarda O`zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo`nalishi bo`yicha Harakatlar strategiyasini “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlarini yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturini o`rganish bo`yicha ilmiy-ommabop risola. – T.: 2017. B. 33-44.
4. Odilqoriyev X.T., Razzoqov D. X. Siyosatshunoslik. Darslik. – Toshkent: O`zbekiston Faylasuflari Milliy jamiyati nashriyoti, 2009. B.119-128,198-224.
5. Azizxo`jayev A., Chin o`zbek ishi. – T.: “O`zbekiston”, 2011. B.375-387.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA DAUN SENDROMI

Bahriddinova Nargiza Jaloliddinovna

A.Qodiriy nomidagi JDPU maxsus pedagogika (logopediya) yunalishi tyutori

Qo'ysinboyeva Iroda G'ulomjon qizi

A.Qodiriy nomidagi JDPU maxsus pedagogika (logopediya) 518 – 22 - guruh talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7647141>

Annotatsiya. Daun sindromi bilan kassallangan bolalarning ota – onalarning ginetek anomaliyalarning sabablari farzandlarining har bir hujayrasida bitta xromosomaning ortib ketishi ekanligini yaxshi bilishadi. Gap hujayralarni bo'linib ketish jarayonidagi buzulishi haqida ketayapti.

Kalit so'zi: Daun sindromi kelib chiqish sabablari, kassalik belgilari, diagnostika va xavfli jihatlari.

СИНДРОМ ДАУНА У ДОШКОЛЬНИКОВ

Аннотация. Известно что генетические аномалии родителей детей с синдром Дауна приводят к увеличению одной хромосомы в каждой клетке их детей.

Ключевые слово: Причины синдрома Дауна денежная диагностика и опасные повреждения.

DOWN SYNDROME IN PRESCHOOL CHILDREN

Abstract. Genetic abnormalities of parents of children with Down's syndrome are known to increase one chromosome in each cell of their children.

Key word: causes of Down's syndrome, cash diagnosis and dangerous damage.

Daun sindromi - Kasalliklarni nazorat qilish va oldini olish markazining (CDC) ma'lumotlarini aytishlariga qaraganda, xromosoma bilan bog'liq eng ko'p tarqalgan genetik holat. Ushbu kasallik bilan tug'ilgan bolalarda hujayraning bo'linishi natijasida qo'shimcha genetik material mavjud. Buni natijasida xromosomaning 21. qisman yoki to'liq nusxasi olinadi, bu qo'shimcha genetik material kognitiv va jismoniy rivojlanishga ta'sir qiladi. Bu kasallikni uchta turi bor ularni har biri 21-xromosomadan olingan genetik material bilan bog'liq bo'lgan o'ziga xos holatlardan kelib chiqadi.

1. **Trisomiya 21-** Bu Daun sindromining juda ko'p tarqalgan turi bo'lib, u barcha holatlarning 95 foizini tashkil qiladi. Bu odamning har bir hujayrasining har doimgidek ikki nusxasi o'rniga 21 nusxadagi xromosomaning uchta nusxasi bo'lganida sodir bo'ladi. Bunga sabab tuxum hujayrasidan homla tushushidan yoki sperma yoki kontseptsiyada mo'jizaviy bo'linish sabab bo'ladi, natijada 21-xromosomaning qo'shimcha nusxasi bo'lgan rivojlanayotgan organizmning har bir hujayrasida takrorlanadigan embrion.

2. **Translokatsiya bu** Daun sindromi holatini taxminan 4 foiziga javobgar bo'ladi, bu bola doimgidek 46 xromosoma bilan tug'iladi, lekin 21-xromosomada hujayra ichidagi boshqa xromosomaga yopishib olgan qo'shimcha genetik materialga ega bo'lishi mumkin.

1. **Mozaika bu** Mozaikaning ikkinchi nomi Mozaik Daun sindromi hisoblanadi bu holat taxminan 2 foizni tashkil qiladi. Mozaikalik bilan tug'ilgan chaqaloqlarda ba'zi hujayralar normal 46 xromosomal, boshqalari 47 xromga ega, shu jumladan xromosomal 21 ning qo'shimcha nusxasi, natijada simptomlar kamroq va unchalik og'ir bo'lmaydi.

DAUN SINDROMINING ALOMATLARI VA BELGILARI

Daun sindromi sabab bo'lgan kognitiv va jismoniy alomatlar hamma uchun bir xil emas. Aytish kerakki, odatda Daun sindromi bilan bog'liq ba'zi alomatlar mavjud,

1. Qisqa bo'yin Qisqa,
2. Qisqa barmoqlar va har bir kaft bo'ylab chuqur bitta Burma,
3. Yomon mushak tonusi,
4. ammo g'ayrioddiy egiluvchanlik,
5. Yuzning tekislangan xususiyatlari, shu jumladan burun ko'prigi,
6. Kichik yoki g'ayrioddiy shakldagi quloqlar,
7. Bodom shaklidagi ko'zlar yuqoriga qarab qiyshaygan,
8. Kichkina qo'llar va oyoqlar,
9. Qisqa gavdaning kattaligi.

Ko'paytirish holatlarida ikkala ota-ona ham o'z genlarini farzandlariga beradilar. Ushbu genlar xromosomada olib boriladi. Bolaning hujayralari rivojlanayotganda har bir hujayra 23 juft xromosomani olishi shart, jami 46 xromosoma buladi. Xromosomalarning yarmi tadan, yarmi esa onadan bo'ladi.

Daun sindromiga chalingan bolalarda xromosomalardan biri to'g'ri ajratilmagan bo'ladi. Bu kasalik bilan Chaqaloq 21 xromosomaning ikkita o'rniga uchta qo'shimcha nusxasi bilan tugaydi. bu qo'shimcha xromosoma ko'plab muammolarga sabab bo'ladi, chunki miya va jismoniy xususiyatlar rivojlanadi.

Daun sindromiga chalingan bolalarni davolab bo'lmaydi. Daun sindromi kasalligini birinchi bo'lib ingliz shifokori John Langdon Down tomonidan aniqlangan. John Langdon Down bu kasalikka chalingan bolalarni ma'lum sabablarni inobatga olgan holda bir turkumga kiritgan. Keyin esa shifokor Jerome Lejeune Daun sindromi irsiy kasallik ekanligini aniqlaydi va bu kasalikda insondagi 21 xromosomaning 2 nusxasi o'rniga 3 nusxasi borligini aniqlaydi.

Daun sindromining juda kam uchraydigan(6%) turlari mavjud, unda xromosomalar soni har doim 3 barobar ko'p bo'lmaydi yoki organizmdagi barcha xujayralar ham qo'shimcha xromosomaga ega bo'lmaydi.

Dunyoda Daun sindromi bilan tug'ilgan bolalarning umr ko'rishi o'rtacha hisobda 60 yoshni tashkil etadi. Yigirmanchi asrga kelib bu ko'rsatkich 20-25 yoshni tashkil etadigan bo'ldi Daun sindromi bilan tug'ilgan bolalarning barchasi yengildan tortib kuchli darajagacha bo'lgan aqliy rivojlanishdagi buzilishlarga ega bo'ladi. Daun sindromi bilan tug'ilgan bolalarda boshqa bolalarga nisbatan aqliy va jismoniy ortda qolish kuzatiladi. Daun sindromiga chalingan bolalarda tug'ma yurak defektlari, Alzgeymer kasalligi, autism, uyquda, leykemiya, o'lim, tutqanoq kabi holatlar bo'lishi ehtimollari kattadir. Daun sindromi bilan kasallangan bolalar o'z oila a'zolariga o'xshagani bilan ularning o'ziga xos yuz tuzilishi bo'ladi. Bu ko'rinish ularni Daun sindromiga chalinganligining ilk ko'rsatkichi hisoblanadi.

Daun sindromining belgilari

Yangi tug'ilgan chaqaloqlar tinchlanadilar, kamdan - kam vaqtlara yig'laydilar va gipotoniya ega. Ko'pchilik yuzning tekis profiliga ega ,lekin ba'zilarida tug'ilish paytida g'ayrioddiy jismoniy xususiyatlar yo'q va ular bolalik vaqtlarida yuzning o'ziga xos xususiyatlariga ega bo'lishadi. Yassilangan oksiput, mikrocefaliya va bo'yinning orqa qismidagi qo'shimcha teri keng tarqalgan. Ko'zlar yuqoriga egilgan va odatda ichki burchaklarda epikantal burmalar mavjud. Brushfield dog'lari (irisning periferiyasi atrofidagi tuz donalariga o'xshash

kulrang -oq dog'lar) ko'rinishi mumkin. Og'iz tez -tez markaziy yoriq bo'lmasligi mumkin bo'lgan chiqib ketgan, jingalak til bilan ochiladi. Quloqlar ko'pincha mayda va yumaloq bo'ladi. Qo'llari odatda keng va qisqa bo'lib, ko'pincha bitta ko'ndalang palma burmali bo'ladi. Barmoqlar ko'pincha kichik 5 -raqamli klinikodaktilya "aylanmagan" bilan, ko'pincha 2 falanjga ega. Oyoqlar 1 va 2 barmoqlari orasida keng bo'shliqqa ega bo'lishi mumkin (oyoq-qo'l barmoqlari) va plantar ozroq ko'pincha oyoqlar orqaga cho'ziladi. Daun sindromi tashxisi homilaning ultratovush tekshiruvida aniqlangan jismoniy anomaliyalarga masalan:, nukal shaffoflikning oshishi, o'n ikki barmoq ichak atrezi atrioventrikulyar kanalning nuqsoni, yoki 1-trimestr oxiridagi plazma oqsilining normal darajasiga va g-fetoproteinga, beta- Onaning sarumini skrining qilishda hCG "inson xorionik gonadotropini", konjugatsiyalanmagan estriol va inhibin 2 -trimestr boshida "homiladorlikning 15-16 xaftaligi". So'nggi paytlarda, onaning qon aylanishidan olingan xomilalik DNK tekshiriladigan invaziv bo'lmagan prenatal skrining [NIPS] trisomiya 21 uchun skrining variantiga aylandi, chunki u yaxshi sezuvchanlik va o'ziga xoslikka ega. Agar onaning sarum skannerlashr yoki ultratovush tekshiruvini asosida Daun sindromi kassalligi borligiga shubha qilinadigan bo'lsa, homila yoki tug'ruqdan keyingi tasdiqlovchi test tavsiya etiladi. Xomilani tasdiqlovchi usullarga chorionik villus namunalari olish yoki amniyosentezni karyotip tahlillari yordamida tekshirishlar kiradi. Karyotiping deganda biz, ota -onalarning takrorlanish xavfi to'g'risida tegishli genetik maslahat olishlari uchun bog'liq bo'lgan translokatsiyani istisno qilish uchun tanlovdir. G'ayrioddiy, noaniq yoki noaniq [NIPS] natijasi bo'lgan hamma bemorlarga prenatal tasdiqlovchi test varianti taklifi havola etiladi. Boshqaruv qarorlari, shu jumladan homiladorlikni to'xtatish, faqat [NIPS]ga asoslanib qabul qilinmasligi kerak. Umumiy tirik tug'ilishlar soni 700tadan 1tani ni tashkil qiladi va ona yoshi oshishi bilan xavf asta -sekinlik bilan o'sib boradi. Onalik yoshida 20000 xavf tug'ilishning 2000dan 1; 35 da, bu 365da 1; va 40 da, bu 100dan 1. Ammo, tug'ilishning aksariyati yosh ayollar o'rtasida sodir bo'lganligi uchun, Daun sindromiga chalingan bolalarning aksariyati 35 yoshdagi ayollarda tug'iladi, Daun sindromli chaqaloqlarning atigi 20 foizi 35 yoshdan oshgan onalarda tug'iladi

DAUN SINDROMIGA UCHRAGA BOLOLARNING SURATLARI





REFERENCES

- 1 Yuksak manaviyat yengilmas kuch I.A.Karimov
- 2 Fayillar .org.uz.
- 3.MTMda ilk qadam dasturi

BOSHLANG'ICH SINFLARDA SAVODXONLIKNI RIVOJLANTIRISHNING INNOVATSION METODLARI

Shodiyeva Bahora Axmadjonovna

Samarqand viloyati, Payariq tumani 1- umumiy o'rta ta'lim maktabi

Boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7648234>

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda savodxonlikni rivojlantirishda innovatsion metodlarning o'rni va ahamiyati bayon etilgan. Shuningdek ta'lim tizimiga yangicha yondashuv asosida noan'anaviy darslarni tashkil etishning muhim jihatlari asoslangan.

Kalit so'zlar: innovatsion texnologiya, taqqoslash, hamkorlikda o'qitish, tahlil, nazorat, muvaffaqiyat.

ИННОВАЦИОННЫЕ МЕТОДЫ РАЗВИТИЯ ГРАМОТНОСТИ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ

Аннотация. В данной статье излагается роль и значение инновационных методов в развитии грамотности в начальных классах. Также в основе нового подхода к системе образования лежат важные аспекты организации нетрадиционных занятий.

Ключевые слова: инновационные технологии, сравнение, совместное обучение, анализ, контроль, успех.

INNOVATIVE METHODS FOR THE DEVELOPMENT OF LITERACY IN ELEMENTARY GRADES

Abstract. This article describes the role and importance of innovative techniques in the development of literacy in primary classes. Also, on the basis of a new approach to the educational system, important aspects of the organization of non-traditional classes are based.

Keywords: innovative technology, comparison, collaborative learning, analysis, Control, success.

Bugungi kunda yosh avlod tarbiyasiga berilayotgan ta'lim sifatiga katta e'tibor berilmoqda. O'sib kelayotgan yosh avlodni jismonan baquvvat, ruhan tetik, ma'naviy jihatdan barkamol etib tarbiyalash pedagoglar oldiga muhim vazifalarni qo'yimoqda. Innovatsion texnologiyalarning o'quv - tarbiya jarayoniga kirib kelishi, shuningdek, axborot texnologiyalarining tez almashinuvi va takomillashuvi jarayonida har bir inson o'z kasbiy tayyorgarligini, mahoratini kuchaytirishga imkon yaratadi.

Ta'lim - tarbiya tizimini takomillashtirish bevosita innovatsion texnologiyalarni amaliyotga samarali joriy etish darajasi bilan bog'liqligini inkor etib bo'lmaydi.

Rivojlangan mamlakatlardagi ko'plab texnologiyalardan keng qo'llanilayotgan hamkorlikda o'qitish, loyihalar uslubi, tabaqalashgan o'qitish kabi texnologiyalarni tanlashimizda biz mazkur texnologiyalarning mavjud ta'lim texnologiyalar hamda hozirgi ta'lim mazmunini inkor qilmay ishlab chiqilgan DTS, o'quvchilar bilimini nazorat qilish shakllariga mos kelishi ham nazarda tutiladi. Taklif qilinayotgan texnologiyalarning yana bir muhim jihati shundaki, ya'ni ularning hozirgi ta'limdagi ijobiy tomonlarni saqlagan holda qo'llash imkoniyatining mavjudligi.

Boshlang'ich sinflarda hamkorlikda o'qitishning muhim jihati jamoaviy faoliyat ko'rsatish

bo'lib, bunda o'quvchilarda o'zaro hamkorlik, bir - biriga bog'liqlik hissiyotlari, o'zaro harakatlarini, faoliyatini muvofiqlashtirish munosabatlari shakllanadi. Hamkorlikda o'qitish o'quvchilarning ijtimoiylashuviga, o'zaro muloqot ko'nikmalarining shakllanishi uchun muhim vosita hisoblanadi. O'quvchilarda yoshligidan bir - biriga yordam hissiyotlari rivojlanib, bu faqat darsda emas, balki yashash tarzida va butun hayoti davomida birovga yordamga kelish, har qanday muammoni birgalikda hal qilishdan quvonish kabi shaxsiy sifatlariga aylanadi.

Hamkorlikda o'qitish texnologiyasi turli mamlakatlarda keng qo'llanilib kelinmoqda. Bunda uning hamma joyda, bir xil qolipda emas, balki turli xilda qo'llab boyitish, turli variantlar shakllanishi e'tiborga molik. Masalan, Amerikada komanda tarzida o'qitish keng qo'llaniladi. Bunda asosiy e'tibor ta'limning guruhli maqsadiga qaratilib, guruh muvaffaqiyati uning har bir a'zosi mustaqil ishining natijasiga bog'liq bo'ladi.

Guruh har bir a'zosining vazifasi birgalikda muammoni hal qilib kerakli ko'nikma va malakalarning shakllanishiga erishiladi. Bunda butun komanda har bir o'quvchining nimaga erishganini bilishi muhim hisoblanadi. Butun guruh o'quv materialini uning har bir a'zosi egallashidan manfaatdor. Chunki butun komanda muvaffaqiyati uning har bir a'zosining qo'shgan ulushi va guruhning hamkorlikda o'z oldiga qo'ygan masala yechishiga bog'liq.

Boshlang'ich sinflarda hamkorlikda o'qitishning komanda tariqasida o'quvchilar faoliyatini tashkil qilish texnologiyasi quyidagi uch asosiy tamoyilga asoslanadi:

1. "Taqdirlash" butun guruh ball tariqasida yoki taqdirlash, sertifikat, maqto'v, maxsus mukofot sifatida birgalikdagi ishiga baho oladi. Buning uchun butun guruhga berilgan bitta topshiriq bajariladi.

2. Har bir o'quvchining shaxsiy mas'uliyati butun guruhning yutug'i va kamchiligini belgilaydi. Bu esa guruh a'zolarining har birini boshqalar faoliyatini nazorat qilish, o'quv materialini o'rtog'ining o'zlashtirishi va tushunishiga yordamlashishiga zamin hozirlaydi. Guruh a'zolarining o'z bilimlarini turlicha baholash, nazorat qilishga tayyor turishlarini ta'minlaydi.

3. Guruhdagi har bir o'quvchining o'zlashtirishdagi teng imkoniyatlari o'z komandasiga olib keladigan ballari avvalgi natijalarini yaxshilash asosida amalga oshiriladi.

Ta'limni bunday tashkil qilishda asosiy narsa butun komandani taqdirlash va har birining shaxsiy mas'uliyatini sezishini shakllantirish. Bunda o'quvchilarning birgalikda ishlashi uchun ko'rsatma berish muhim bo'lmay, balki har bir o'rtog'ining bilim egallashidan manfaatdorlikni shakllantirish asosiy hisoblanadi. Shu bilan birga o'quvchilarning hozirgi egallagan bilimlarini avvalgi natijalari bilan taqqoslash, ularni taqdirlashga nisbatan ancha ta'sirchan hisoblanadi. Bu esa ularning shaxsiy natijalarini yanada chuqurlashtirishga olib keladi. Hamkorlikda o'qitishning komanda tarkibida ishlashni umumta'lim maktabida o'qitiladigan fanlarning hammasida qo'llanilishi mumkin.

O'qituvchi yangi mavzuni tushuntirib, so'ngra o'quvchilarni guruhlarda uni mustahkamlash, hamma jihatlarini anglab olishni topshiradi. Guruhlarda ma'lum topshiriq, zaruriy tayanch tomonlarini fahmlash beriladi. Bunda topshiriq ayrim qismlarga bo'lib, har bir o'quvchi o'z qismini o'rganishi yoki aylanma tariqasida har bir o'quvchi undan keyingi qismni bajarishi tarzida bo'lishi mumkin.

Topshiriqni bajarishni guruhdagi kuchli yoki bo'shroq o'zlashtiruvchi o'quvchi boshlashi,

ammo, har bir topshiriqni bajarish oshkora, ovoz chiqarib tushuntirilishi va butun guruh nazorat qilishi lozim bo'ladi. Agar topshiriq guruh uchun bir xil bo'lsa, butun guruh topshiriqni bajarib bo'lgach, o'qituvchi darsni turli guruhlarning ishini umumiy holda muhokama qilishi mumkin. Agar topshiriq turlicha bo'lsa, har bir guruh, alohida yakunlashi mumkin. O'quv materialini o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilganiga o'qituvchi ishonch hosil qilgach, ularning tushunganligi va o'zlashtirganligini aniqlash uchun test sinovi o'tkazadi. Bunda o'qituvchi o'quvchilarga individual yondashib, ularning bilim darajasini hisobga olgan holda topshiriqni tanlaydi. Har bir o'quvchi olgan baholar umumlashtirilib, guruhning umumiy bahosi e'lon qilinadi. Bunda kuchli o'quvchilar bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilar bilan musobaqa qilmay, balki har bir o'quvchi o'zi bilan musobaqa qilib, o'z vazifasini bajarib, guruhga ballarni ko'paytirishga intiladi.

Hamkorlikda o'qitish texnologiyasining yana bir ko'rinishi komanda-o'yin faoliyati. Bunda ham avvalgidagidek, o'qituvchi yangi mavzuni tushuntiradi va o'quvchilar faoliyatini o'quv materialini guruhda o'zlashtirishga yo'naltiradi. Ammo o'zlashtirish natijalarini baholashda komandalar o'rtasida haftalik musobaqa turnirlarini tashkil etadi. Buning uchun 5-6 nafar o'quvchidan iborat "turnir stollari" tashkil qilinib, unda bir - biriga teng o'zlashtiruvchi o'quvchilar musobaqani tashkil etadi. Bunday o'qitish matematika, tabiiy fanlarda ko'proq natija beradi.

Topshiriqlar tabaqalashtirilib, murakkablik darajasiga qarab beriladi. Har bir stol g'olibi o'z komandasiga bir xil miqdorda ballar keltiradi. Bunda bo'sh o'zlashtiruvchilar ham o'z tenglari bilan musobaqalashib, komandasiga ball keltiradi. Turnirda eng ko'p ball to'plagan komanda g'olib deb e'lon qilinadi va unga muvofiq taqdirlanadi.

O'quvchilar o'zlari mustaqil ishlaganlari uchun o'qituvchining alohida guruh yoki o'quvchilar bilan individual ish olib borish imkoniyati kengayadi. O'quvchilar faoliyatini ta'lim jarayonida bunday tashkil qilish ko'proq o'qish, matematika fanini o'qitishda qo'l keladi.

O'qituvchi o'qiyotganlarning bir jufti bilan ishlayotganida boshqasi mustaqil bir-biriga o'qib berib, uning aytib berish rejasini tuzadi. Asosiy fikrlarni ajratib, matndagi savollarga javob yozadi, to'g'ri yozish, lug'at bilan ishlashni mashq qiladi. Ona tili darslarida o'quvchilar to'g'ri yozish, lug'at bilan ishlash, matn ma'nosini aytib berish, bir-birlarining yozma ishlarini tuzatish va tahrir qilish bilan shug'ullanadilar. Guruhdagi barcha ishlar o'qituvchi nazorati orqali amalga oshiriladi. O'quvchilar bilimini baholash testlari o'qituvchi ularning to'la tayyorligiga ishonch hosil qilganida o'tkaziladi.

Hamkorlikda ta'lim berishning "Birgalikda o'qiyamiz" texnologiyasi.

Bunda sinf turli xil o'zlashtiruvchi 6-7 nafar o'quvchidan iborat guruhlarga bo'linadi. Har bir guruh umumiy mavzuning bir qismidan iborat topshiriq oladi. Guruh har bir a'zosining birgalikdagi ishi natijasida butun o'quv materialining o'zlashtirilishiga erishiladi.

Pedagogik texnologiyaning asosiy mohiyati har bir shaxsda mavjud bo'lgan uning ehtiyoji, qiziqishi, iqtidori va imkoniyatlari asosida ularda ijobiy xislat va fazilatlarni shakllantirish, rivojlantirish sanaladi.

REFERENCES

1. Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi innovatsiyasi va integratsiyasi. T: G'.G'ulom 2013
2. Boshlang'ich ta'limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar T.G'afforova T-2011.
3. 3.Mustaqil fikrlashning taraqqiyotga ta'siri.G'oziev E. Ma'rifat gazetasi. 2017yil.
4. Pedagogik texnologiyalar (metodik qo'llanma). T: Fan va texnologiya, 2011 y.
5. Ta'limda innovatsion texnologiyalar T:"Ist'edod"2009 Shodmonova Sh.S, Mirsagatova N.S, Ibragimova G.N, Mirsolieva M.T
6. Ta'lim, fan va innovatsiya T-2017 R.A.Mavlonova, N.Raxmonqulova, R.Ishmuhammedov

**BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARNING UZUNLIKKA SAKRASH
TEXNIKASINI INNAVATSION TEXNALOGIYALAR YORDAMIDA
RIVOJLANTIRISH SAMARADORLIGI**

Xolbekova D.N.

O'ZDJSU O'qituvchi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7652169>

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining uzunlikka sakrash texnikasini o'rgatishda samarali uslub va vositalaridan foydalanish sakrash vaqtida texnikasini o'zgarishi natijasiga ta'siri qay darajada ekanligi, butun mashg'ulotning boshida va oxirida qilingan urinishlarning qiyosiy biomexanik tahlili o'tkazilgan.

Kalit so'zlar. sakrash, oyoq kafti, tos suyagi, yelka harakati, bilaklarning, dinamikasini, joy, talaba.

**ЭФФЕКТИВНОСТЬ ОСВОЕНИЯ УЧАЩИМИСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ
ТЕХНИКИ ПРЫЖКОВ В ДЛИНУ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ИННОВАЦИОННЫХ
ТЕХНОЛОГИЙ**

Аннотация. В данной статье произведен сравнительный биомеханический анализ попыток, предпринятых в начале и конце всей тренировки, в какой степени использование эффективных методов и средств в обучении технике прыжков в длину учащихся начальной школы влияет на результат смены техники во время прыжка.

Ключевые слова: Прыгать, стопа, ладонь, таз, движение плеча, запястья, динамика, расположение, студент.

**THE EFFECTIVENESS OF THE DEVELOPMENT OF THE TECHNIQUE OF
LONG JUMP OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS WITH THE HELP OF
INNAVATIONAL TECHNOLOGIES**

Abstract. This article provides a comparative biomechanical analysis of attempts made at the beginning and end of the entire training, to what extent the use of effective methods and means in teaching the technique of long jumps to elementary school students affects the result of changing techniques during the jump.

Keywords: Jump, foot, palm, pelvis, movement of the shoulder, wrist, dynamics, location, student.

KIRISH.

Xozirgi davrda o'quvchi-yoshlarning jismoniy jihatdan chiniktirish vatanparvarlik ruhida tarbiyalash bugungi kundagi asosiy dolzarb masalalardan biridir. Maktab yoshidagi o'quvchilarning jismoniy tarbiyasi quyidagi asosiy vazifalari o'ziga qamrab oladi. O'quvchilarning salomatlig'ini jismoniy rivojlanishini mustahkamlash va shu bilan birga jismoniy sifatlarni takomillashtirish, jismoniy mashqlarni bajarish vaqtida gavdani to'g'ri tutish ko'nikmalarini shakllantirish, sport bilan doimiy ravshda shug'ullanishga bo'lgan qiziqishini oshirish, buning uchun butun jismoniy tarbiya sistemasi, ya'ni jismoniy tarbiya darslari o'quv kun rejimidagi jismoniy tarbiya tadbirlari jismoniy daqiqalar, darsdan oldin ertalabki gigienik qoidalarga rioya qilish, darslar orasidagi tanaffus vaqtlarida o'tkaziladigan yengil mashq va quvnoq o'yinlar, darsdan tashqari jismoniy tarbiya sport tadbirlarining Hammasi birgalikda olib borilsa bu vazifalar ko'ngildagidek amalga oshirish mumkin.

Jismoniy mashqlarning ayrim turlarini o'quvchilarga o'tiladigan darslar orasida yoki katta tanaffus vaqtida o'ziga uncha ko'p vaqt talab qilmaydigan diqqatga beriladigan mashqlar yoki kamroq vaqtli o'yinlar bilan ham o'quvchilar xap бap jismoniy tarbiya darslarida odatdagi saflanish va umumrivojlantiruvchi mashklardan tashkari, yurish, yugurish, sakrash, muvozanat saklash, osilish, akrobatik va raks xarakatlari, milliy o'yinlarni qo'shib borish kerak bo'ladi.

Buning uchun jismoniy tarbiya darslarida boshlang'ich sinf o'quvchilariga ularni harakat! qobiliyatlarini jismoniy sifatlarini o'stirish uchun ko'proq harakatli o'yinlardan foydalanish juda o'rinni bo'ladi.

Bunda tezlik chakkonlik, egiluvchanlik, chidamlilik, kuchlilik sifatlarini rivojlantiruvchi o'yinlar olinadi. Masalan: «Uchinchisi ortikcha», «Top kapitanga», «Kun va tun», «Romolcham», «Sichkon- mushuk», «Durra tushdi», «Arkon tortishuv», «Esxak mindi», «Eshakdan sakrash». ", "Xar kim oz bayrog'iga", "Sakrovchilar", "Otdan kulatish", va boshkalar kuyi va yukori sinf o'quvchi lariga xam maktab dasturida berilgan sport turlaridan tashkari bolani oz tana og'irligi bilan badjariladigan mashklarni badjartirish maksadga muvofik bo'ladi.

Masalan: bolani yon tomonga, orga tomonga gavdasini engashtirish, burish, ikki oyokda o'tkazib turgazish, yerga kolga tayanib yotgan xolda kolni bukib to'g'rilashi, djoyida uzunlikka sakrash (oldinga orkaga, yon tomonga) mashklarini bajarish, o'tiladigan darslar o'quvchilarning har birini individual xususiyatlariga, jismoniy rivojlanganligiga va jismoniy tayyorgarligiga qarab o'tkazilishi lozim.

Mavjud bo'lgan harakatli o'yinlarni meyorlash hozirgi kunning dolzarb masalalaridan biri bo'lib kolmokda. Djismoni tarbiya darslarida yuklamani meyyorlashda mashklarning o'rtacha muddati chegaralanmagan, mashklarning ketma- ketlik bo'lincha badjarilishi muksimdir.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan o'tkaziladigan jismoniy tarbiya darslarida harakatli o'yinlar juda qiziq tashkil qilinadi. I- II sinf o'quvchilarida uyushqoqlik bilan bir maromda yurish ko'nikmalarini hosil qilish uchun xorovodrdlik o'yinlari, shuningdek, aytilayotgan she'r vazniga mos harakat bajariladigan o'yinlari tanlash zarur. O'qituvchi harakatli o'yinlar yordamida jismoniy mashg'ulotlari qiziqarli o'tkazadi va o'quvchilarda turli harakat ko'nikmalarini hosil qiladi.

Yurtimizda jismoniy tarbiya va sportga davlat siyosati miqyosida e'tibor qaratilishi, O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A. Karimovning "O'zbekiston bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasini tashkil qilish to'g'risida"gi Farmoni (2002) va shu Farmonni bosqichma - bosqich amalga oshirish bo'yicha hukumat tomonidan qabul qilingan Qaror (2002) bolalar sportiga tamomila yangicha yondashish, ilmiy asoslangan texnologiyalar asosida iste'dodli sport zahiralari tayyorlash maktablarini yaratish masalalarini o'rtaga tashlamoqda. Yosh avlodni har tomonlama, aqliy, axloqiy va jismoniy jihatdan rivojlanishda jismoniy tarbiya asosiy o'rinlarni birini egallaydi.

Sog'lom avlod - sog'lom yurt demakdir. Sog'lom avlodni tarbiyalash vazifasi esa birinchi navbatda maktabgacha tarbiya muassasalari zimmasidadir. O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov jismoniy tarbiya va sport ishlariga e'tiborni kuchaytirishni ko'zda tutib, o'zining salomatligi haqida shaxsan g'amxo'rlik qilib borish, madaniyatini yoshlikdan oila, maktab, mahalla, sog'liqni saqlash, jismoniy tarbiya va sport ko'magida singdirish kerak ekanligini aytib o'tgan.

Ma'lumki, sportning porloq kelajagi sport zahiralari doirasining kengligi va sifatiga bevosita bog'liqdir. Binobarin, o'zbek sportini jahon maydoniga olib chiqish, uni raqobatbardosh

pogʻonaga koʻtarish bolalar sportini ilmiy asosda tashkil qilish va bu borada samarali pedagogik texnologiyalar joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Faqatgina maqsadga muvofiq tashkiliy va uslubiy tadbirlarni ilmiy asosda amalga oshirilishi talab qilinadi.

Bunday sifatlarga erishish nihoyatda ehtiyotkorlik, mashgʻulot yuklamalarini asta-sekinlik bilan, “toʻlqinsimon” yoʻnalishda oshira borish evaziga amalga oshirilishi mumkin. Albatda, bu jarayon uzluksiz va muntazamlik hamda mashgʻulot yuklamalarini shugʻullunuvchi “obekt”ning funksional imkoniyatlariga mos tarzda qoʻllash tamoillari asosida yanada samarali va jadalroq kechadi.

Mavzuning dolzarbligi. Maktab oʻquvchi – qizlarining uzunlikka sakrovchanligi rivojlanmaganligi ularning sportdagi natijalariga taʼsir koʻrsatmokda. Tezkor-kuch sifatlari natijalarning asosi boʻlib hisoblanadi va ularni rivojlantirish orqali sportchilar yuqoriroq natijalarga erishishlari mumkin.

Ishning maqsadi. Uzunlikka sakrovchi oʻquvchi – qizlarning tezkor kuch sifatlarini rivojlantiruvchi samarali vosita va uslublarni aniqlash. Ishning yangiligi. Tezkor – kuch sifatlarini rivojlantiruvchi vosita va uslublarni tadqiqot davomida tahlil qilish, mashqlarni shiddati va intervallarini toʻgʻri taqsimlash orqali yaxshiroq samaraga erishish.

Tajriba guruhining tajribadan oldin, keyin natijalari va ularning farqi.

Номи	30 м yugurish (sek.)	60 м yugurish (sek.)	Uzunlikka sakrash т/ж (см)	Uch xatlab sakrash (м.см)	Bal.sakrash т/ж (Abalakov usulida см)	uz.sak. (toʻliq masofa .см)
Tajribadan oldin	5,56	9,81	199,4	5,52	28,6	3,65
Tajribadan kiyin	5,01	9,60	217,9	6,09	33,1	4,17
Farqi (%)	9,9	2,1	8,5	9,4	13,6	12,5

Nazorat guruhining tajribadan oldin, keyin natijalari va ularning farqi.

Номи	30 м yugurish (sek.)	60 м yugurish (sek.)	Uzunlikka sakrash т/ж (см)	Uch xatlab sakrash (м.см)	Bal.sakrash т/ж (Abalakov usulida см)	uz.sak. (toʻliq masofa .см)
Tajribadan oldin	5,62	9,80	199,8	5,40	28,2	3,62
Tajribadan kiyin	5,21	9,68	215,4	5,92	32,1	3,92
Farqi (%)	7,3	2,0	7,2	8,8	12,1	7,7

XULOSALAR

Ilmiy-uslubiy adabiyotlarni tahlil etish natijasida shu narsa aniqlandiki, boshlang'ich sinf o'quvchilarning uzunlikka sakrash texnikasini innavatsion texnologiyalar yordamida rivojlantirish samaradorligi mashg'ulot mobaynida murabbiy tomonidan beriladigan yuklamalar shiddati va dam olish intervallariga oz e'tobor berishi tezkor – kuch sifatlarini sekin sur'atda o'sishiga olib kelmoqda.

Uzunlikka sakrash texnikasini innavatsion texnologiyalar yordamida rivojlantirishda asosan mashqlarni rasional rejalashtirgan xolda mashg'ulotlarni o'tkazish maqsadga muvofiq ekanligi ma'lum bo'ldi. Biz tomondan qo'llanilgan uslub va vositalar, uzunlikka sakrash texnikasini innavatsion texnologiyalar yordamida tarbiyalashda va sportda yuksak natijalarga erishishda katta yordam berishiga ishonamiz.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 martdagi PF-5368-sonli farmoni —Jismoniy tarbiya
2. va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidalg'i
3. Farmoni. (Xalq So'zi. 2018 yil 5- mart.)
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF 5924-sonli farmoni —O'zbekiston Respublikasida jismoniy
5. tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to'g'risidalg'i. Farmoni
6. (Xalq so'zi 2020 yil 24-yanvar).
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ 3031-son qarori —Jismoniy tarbiya va sportni yanada
8. rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risidalg'i (Xalq so'zi 3 iyun 2017 yil)
9. Soliev I.R, Khaydrov B.SH, Mirzatillayev I.I, Khujamkeldiyev G.S, Ziyayev F.CH. Functional training level of
10. runners student-athletes sprinters. // International Journal of Psychosocial Rehabilitation, Vol.24, Issue 05, 2020,
11. <http://www.psychosocial.com/article/PR201878/17061/> 46-50 betlar.
12. Ziyayev F. C. et al. YENGIL ATLETIKA SPORT TURINI RIVOJLANTIRISHDA UMUMIY O'RTA T'ALIM MAKTABLARINING JISMONIY TARBIYA DARSLARIDA YENGIL ATLETIKA TURLARINI O 'RGATISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH SAMARADORLIGI //Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS). – 2021. – T. 1. – №. 3. – S. 348-355.
13. Xo'jamkeldiyev G. S. et al. KICHIK RAZRYADLI O'RTA MASOFALARGA YUGURUVCHILARNING MUSOBAQA OLDI TAYYORGARLIGI //Central Asian Research Journal For Interdisciplinary Studies (CARJIS). – 2021. – T. 1. – №. 3. – S. 270-274.
14. Ziyayev F. C. et al. O 'RTA MASOFAGA YUGURUVCHI YENGIL ATLETIKACHILARNI MUSOBAQA OLDI TAYYORGARLIGI SAMRADORLIGINI

- OSHIRISH //Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS). – 2021. – T. 1. – №. 4. – S. 78-90.
15. Karimov F. M. i dr. BOSHLANG‘ICH IXTISOSLIK GURUHIDAGI UZUNLIKKA SAKROVCHI QIZLARNING DEPSINISH KUCHINI RIVOJLANTIRISH //Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS). – 2021. – T. 1. – №. 4. – S. 119-125.

“DAUN SINDROMI”

Yusupova Dono Gafurovna

Toshkent shahar Yashnobod tumani Maktabgacha ta’lim bo’limi tasarrufidagi 272 - ko’p tarmoqli ixtisoslashtirilgan Davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti Defektologi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7652312>

Annotatsiya. Ushbu maqolada bugungi kunda bolalarda ko’p uchraydigan kasalliklardan biri – “Daun sindromi” haqida umumiy ma’lumotlar: kasallik tarixi, sindromning shakllari, ko’rinishi, belgilari, davolash usullari haqida ma’lumotlar keltirildi.

Kalit so’zlar: Daun sindromi, Jon Daun, Tug’ma sindrom, Braximezofalangiya, Yassi yuz, DYRKIA.

”СИНДРОМ ДАУНА”

Аннотация. В данной статье приведены общие сведения об одном из самых распространенных на сегодняшний день заболеваний у детей – “синдроме Дауна”: история болезни, сведения о формах, проявлениях, симптомах синдрома, методах лечения.

Ключевые слова: синдром Дауна, Джон Даун, врожденный синдром, Брахимезофалангия, плоское лицо, DYRKIA.

"DOWN SYNDROME"

Abstract. This article presents general information about one of the most common diseases in children today – “Down syndrome”: information about the history of the disease, forms of the syndrome, appearance, symptoms, methods of treatment.

Keywords: Down syndrome, John Down, congenital syndrome, Brachimesophalangia, flat face, DYRKIA.

Daun sindromi (21-xromosoma trisomiyasi) - genom patologiyalarning bir shakli bo’lib, unda kariotip ko’pincha normal 46 o’rniga 47 xromosoma bilan ifodalanadi, chunki 21-juft xromosomalar normal ikkita o’rniga uch nusxada bo’ladi.

Mazkur sindromning yana ikkita shakli mavjud:

-21-xromosomaning boshqa xromosomalarga translokatsiyasi (ko’pincha-15, kamroq hollarda -14, undan ham kamroq hollarda -21,22 va Y-xromosomaga)-4%;

-Sindromning mozaik variant -5%

Ushbu sindrom 1866-yilda uni birinchi marta tasvirlab bergan ingliz shifokori Jon Daun nomi bilan atalgan. Tug’ma sindromning kelib chiqishi va xromosomalar sonining o’zgarishi orasidagi bog’liqlik faqatgina 1959-yilga kelib fransuz genetigi Jerom Lejen tomonidan aniqlangan. Yoshlar slengida “Daun” deya shunchaki ahmoq odamlar kamsitiladi (ingl.DOWN-pastki).



“**Sindrom**” so’zi belgilari yoki xarakterli xususiyatlar majmuasini anglatadi. Bu atamani qo’llaganda “Daun kasalligi”dan ko’ra “Daun sindromi” shaklini qo’llash to’g’riroq bo’ladi.

Ularning ko’rinishi qanday?

Quyoshli bolalar bir biriga o’xshash bo’lishadi! Bir biriga yaqin joylashgan ko’zlar (ko’z qorachig’i ozgina g’ilakroq bo’ladi). Peshona kichikroq, lab kengroq, barmoqlar kalta, bilaklar sog’lom insonnikidan kengroq.



Daun sindromiga quyidagi tashqi belgilar hamrohlik qiladi (“Daunsayd Ap” broshyurasidan olingan ma’lumotlar bo’yicha):

- Qo’l oyoqlarning kaltaligi -70%
- Braximezofalangiya (o’rta falangalarning kam rivojlanganligi sababli barmoqlarning kaltaligi)-78%
- Ensaning yassiligi-78%
- Mushaklarning gipotoniyasi-80%
- 8 yoshdan keyin katarakta rivojlanishi-66%
- Bo’g’imlarning giperxarakatchanligi -80%
- Epikantus(ko’z yorug’ining medial burchagini qoplovchi vertikal teri qatlami)-80%
- Yangi tug’ilgan chaqaloqlar bo’ynidagi terining qatlamliligi -81%
- Braxisefaliya (kalla suyagining anomal kaltaligi)-90%
- “Yassi yuz” -90%
- Rangdor pardoning chetlarida dog’lar -19%
- Episindrom -8%
- Burun qansharining yassiligi -52%
- Arkasimon tanglay-58%
- 5-barmoq klinodaktilyasi(qiyshiq jimjimaloq)-60%
- Og’izning ochiqqligi (muskul tonusining pastligi va tanglayning maxsus tuzilishi tufayli)-65%
- Kalta burun-40%
- Kalta keng bo’yin -45%
- Ko’ndalang kaft qatlami -45%
- Burushgan tili-50%
- Tish anomaliyalari-65%
- Ko’krak qafasining deformatsiyasi -27%
- O’n ikki barmoqli ichakning stenozisi yoki atreziyasi-80%



Davolash

Daun sindromida davolab bo'lmaydi, biroq bemorlarga ijtimoiy va boshqa ko'nikmalarni o'rttirishga yordam beradigan ko'plab uslublar mavjud. Ammo olimlar medikamentoz vositalarni o'rganishni chetga surib qo'yishmagan. Bunday vositalarning eng so'ngillariga misol qilib ko'k choyda mavjud bo'lgan epigallokatexin gallat moddasidir.

Bemorlardagi kognitiv buzilishlar DYRK1A geni ishlab chiqaradigan mahsulot bilan bog'liq deb hisoblanadi. Yuqoridagi modda esa sichqonlarda o'tkazilgan tajribada mazkur genning ekspressiyasiga olib kelib, xotira o'rganishni yaxshilashini ko'rsatdi. Lekin bunday tajribalarning yordam berishi isbotlanmagan.

Daun sindromi bo'lgan bolalar / kattalar rivojlanishining istiqbollari

Qo'shimcha xromosomalarning mavjudligi bir qator fiziologik xususiyatlarning paydo bo'lishiga olib keladi, buning natijasida bola sekinroq rivojlanadi va uning tengdoshlari va barcha bolalar uchun xos bo'lgan umumiy rivojlanish bosqichlaridan biroz kechroq o'tadi. Bolaning o'rganishi qiyinlashadi, ammo Daun sindromi bo'lgan bolalarning ko'pchiligi yurish, gapirish o'qish yozish va boshqa bolalarning qo'lidan keladigan ko'p narsalarini qilishni o'rganishi mumkin.

Zehn va nutq rivojlanishining kechikishining namoyon bo'lish darajasi ham tug'ma omillarga, ham bola bilan shug'ullanishga bog'liq. Daun sindromi bo'lgan shaxslarda odatda aqliy zaiflik jiddiy darajada bo'ladi; 50% hollarda – debillik, 75% hollarda – imbetsillik, 20% hollarda esa idiotiya.

“Daun sindromi bolalarda mayda qo'l motorikasini rivojlantirish uchun o'yinlar”

Yomg'ir o'yini

Maqsadlar.

1. Barmoqni bo'yoqqa botirishni o'rgatish, qog'ozda iz qoldirish.
2. Vizual-eshitish e'tiborini kattalar ko'rsatmalari asosida tuzatish.
3. Rasm chizishga ijobiy munosabatni tarbiyalash.

Materiallar: gul chizilgan qog'oz varag'i, guash, salfetka, sug'orish idishi (leyka), xona guli. O'yinning borishi.

1. Qo'l va barmoqlarni massaj qilish.

“Karamni tuzlash”

Biz karamni maydalaymiz, (Bir qo'lning cheti bilan ikkinchi qo'lning kaftining orqa tomonini taqillatamiz).

Sabzini qirg'ichdan o'tkazamiz, (Biz kaftni egilgan barmoqlar suyaklari bilan ishqalaymiz).

Endi esa tuzlaymiz, tuzlaymiz, (biz tuz sepishga taqlid qilamiz.)

Hammasini ezamiz, ezamiz. (Barmoqlaringizni siqing va eching.)

2. Barmoq bilan chizish.

Pedagog bolaga gul idishini ko'rsatadi:

Qarang, gulning boshi pastga egilgan. U chanqagan bo'lsa kerak. Men gulni sug'orishim kerak. Qanday?

Pedagog o'yinchoq suv idishini olib, xona gulini sug'oradi.

- Suv sug'orish idishidan yomg'ir kabi quyiladi. Rasmdagi gul ham so'lib, boshini tushirgan, ehtimol uni uzoq vaqt davomida hech kim sug'ormagan. Rasmimizga yomg'ir chizamiz, gul suv ichsin.

- Qanday yomg'ir yog'ayotganini ko'rsating. Barmog'ingizni kaftingizga teging.

Yomg'ir, yomg'ir

Tuk –tuk -tuk!

Nam bo'ldi yo'llar.

Biz sayrga chiqolmaymiz

Oyoqlarimizni namlaymiz.

Pedagog bolaga barmoqni bo'yoqqa qanday botirib, qog'ozda iz qoldirishni ko'rsatadi. Bola pedagogning yordamida rangli nuqtalarni chizadi.

3. Yakunlash.

Barakalla! Siz yomg'ir yog'dirib, gullarni sug'ordingiz.



Urug'larni qo'llash o'yini

Maqsadlar:

1. Barmoq uchlari bilan nisbatan aniq harakatlarni bajarishni o'rganing: bosish, qo'llash.
2. Ob'ektlar bilan harakatlar asosida qo'l-ko'zni muvofiqlashtirishni tuzatish.
3. Go'zallik tuyg'usini tarbiyalash.

Materiallar va jihozlar: plastilin, loviya, no'xat, qovoq urug'lari.

O'yinning borishi.

1. Qo'l va barmoqlarni massaj qilish.

Bizning Masha pishirgan bo'tqa, (Ko'rsatkich barmog'ingizni kaftingiz ustida yuring). Pishirilgan bo'tqasi bilan bolalarni ovqatlantirdi.

Men buni berdim, buni berdim, (Har bir barmoqni navbatma-navbat yoğurun.)

2. Aplikatsiyaning bajarilishi.

Pedagog plastilin va no'xat, loviya va qovoq urug'lari bilan solingan bankani ko'rsatadi.

Urug'lar bilan bezatamiz. (No'xatni qanday bosish mumkinligini ko'rsatadi.) Qanday chiroyli gul chiqdi va biz qovoqdan barg yasaymiz. Endi sinab ko'ring. Bola navbatma-navbat ikki yoki uch barmog'i bilan no'xat va boshqa urug'larni olib, ularni bankaga surtadi va ularni plastilina bosadi.

3. Yakunlash.

Barakalla! Siz urinib ko'rdingiz va chiroyli banka oldingiz.

Sehrlı qopcha o'yini

Maqsadlar.

1. Kinestetik sezgilarni rag'batlantirish va ularning barmoq teginishini rivojlantirish.

2. Taktil idrokni rivojlantirish.

3. Xursandchilik tuyg'usini ko'tarish.

Materiallar va jihozlar: massaj to'pi, yog'och yoki plastmassa kubik, bolaga tanish bo'lgan yumshoq o'yinchoq (quyon yoki it), qopcha.

O'yinning borishi.

1. Qo'l va barmoqlarni massaj qilish.

Mashq "Usta shkaf yasadi."

Usta shkaf yasadi, taxtalarni arraladi.

(Kaftni chetiga qo'ying va boshqa kaftning yuzasi bo'ylab "arra" qiling.)

Ular bolg'a bilan urib, go'yo bolg'acha mixladi.

(Qo'lingizni mushtga siqib, kaftingizga, barmoqlaringizga ozgina teging.)

Eshiklarni yasadi,

(Bosh barmoqlarning yon yuzalarini ulang, "eshiklarni" oching va yoping.)

U kalit yasay olmadi.

(Ikkala qo'lning barmoqlarini "qulf" ga, bosh barmoqlarini bir-biriga ulang va ularni "qulf" ichiga yashiring.)

2. Sehrlı qopcha bilan mashq qilish.

Pedagog bolaga qopchani ko'rsatadi, teginish uchun beradi, tekshiradi.

Endi biz qopchada turli narsalarni yashiramiz.

Bola bir vaqtning o'zida bitta ob'ektni oladi, uni nomlaydi va qopchaga soladi, pedagog yordam beradi.

- Bu massaj to'pi, u kichkina va tikanli. Bu quyon, u yumshoq. Bu qoshiq, u silliq va sovuq. Bu kubik, uning burchaklari bor.

- Barcha buyumlar qopchada yashiringan edi, ular endi ko'rinmaydi. (Pedagog qopchani silkitadi.)

Bola biror narsani qidiradi, uni tanib olishga harakat qiladi va uni olib tashlaydi. Pedagog uni olqishlaydi.

3. Yakunlash.

- Siz qopcha bilan o'ynashni yoqtirdingizmi? Qopchadagi narsalarni topish qiyin bo'ldimi? Yaxshi, siz sinab ko'rdingiz va barcha narsalarni to'g'ri topdingiz.

Mayda qo'l motorikasi - bu qo'llar, barmoqlar va oyoq barmoqlari bilan aniq kichik harakatlarni amalga oshirishga qaratilgan muvofiqlashtirilgan inson harakatlaridir. Bunga asab, mushak va suyak tizimlarining, shuningdek, odatda ko'rish tizimining muvofiqlashtirilgan ishlashi orqali erishiladi. Qo'l va barmoqlarning motorli ko'nikmalariga qo'llanilganda, ko'pincha "chaqqonlik" atamasi ishlatiladi.

Mayda qo'l motorikasi - bu vosita mahoratining turlaridan biri.

Mayda qo'l motorikasi sohasi turli xil harakatlarni o'z ichiga oladi: imo-ishoralardan, masalan, narsalarni ushlabdan tortib, inson qo'l yozuvi bog'liq bo'lgan juda kichik harakatlarga.

Siz Mayda qo'l motorikasini rivojlantirishni turli yo'llar bilan tezlashtirishingiz mumkin, masalan:

Kichik ob'ektlar bilan o'yinlar - jumboqlar, mozaikalar, konstruktorlar va boshqalar;

Barmoq mashqlari;

Qo'llar va barmoqlarning massaji va boshqalar;



Ular kelajakda ishlay oladilarmi?

Albatta! Har bir insonni qiziqishi bo'lgani kabi quyoshli bolalarda ham o'z qiziqishlari bor! Faqat nimaga qiziqishi borligini topishga yordam berish kerak. Buning uchun psixolog yordami kerak bo'ladi(xar xil psixologik mashqlar orqaliqiziqish topiladi). Quyoshli bolalar o'zlari qiziqan, yaxshi ko'radigan ishini topa olishsa, eng sifatli ishchi bo'lishadi. Har bir vazifa ular uchun quvonch olib keladi. Shuning uchun vazifasini sog'lom insondan ham sifatli bajarishadi. Ularni hattoki pul ham qiziqitirmaydi.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi qonunchilik palatasi tomonidan 2019- yil 22- oktabrida qabul qilingan qarori.
2. Антакова-Фомина Л. В. Стимуляция развития речи у детей раннего возраста путём тренировки движений пальцев рук (Тезисы докладов 24-го Всесоюзного совещания по проблемам ВНД). М., 1974

3. Кольцова М. М. Двигательная активность и развитие функций мозга ребенка. М., 1973
4. Савина Л. П. Пальчиковая гимнастика для развития речи дошкольников. Москва: Издательство «Родничок», 1999
5. Ткаченко Т. А. Развиваем мелкую моторику. М.: Издательство ЭКСМО, 2007
6. Ткаченко Т. А. Мелкая моторика. Гимнастика для пальчиков. М.: Издательство ЭКСМО, 2010
7. O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlar milliy bazasi: <http://www.lex.uz>

ADABIYOT DARSLARIDA INOVATSION TA'LIM METODI

Qulmurodova Fotima Mirzayevna

Samarqand viloyati Urgut tumani 9 - umumiy o'rta ta'lim maktabi

Ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7652422>

Annotatsiya. Ushbu maqolada ta'lim sifatini oshirishda interfaol usullardan foydalangan holda o'quvchilarni o'qitishdagi muammo va yechimlar haqidagi masalalar tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: innovatsiya, usul, demokratlashtirish, drama, intensiv, audio matn.

ИННОВАЦИОННЫЙ МЕТОД ОБУЧЕНИЯ НА УРОКАХ ЛИТЕРАТУРЫ

Аннотация. В данной статье анализируются проблемы и решения для обучения студентов с использованием интерактивных методов повышения качества образования.

Ключевые слова: инновация, метод, демократизация, драма, интенсив, аудиотекст.

METHOD OF INOVATIONAL EDUCATION IN LITERATURE LESSONS

Abstract. This article will analyze issues about problems and solutions in teaching students using interactive methods in improving the quality of Education.

Keywords: innovation, method, democratization, drama, intensive, audio text.

Mamlakatimizda bugungi kunda ilm-fan, texnika va axborot - kommunikasiya texnologiyalari, ta'lim - tarbiya sifatini mazmun jihatidan yangi bosqichga ko'tarish maqsadida, o'qituvchilardan yanada yuksak mas'uliyat va vazifalarni amalga oshirishni talab qilmoqda. Chunki innovatsion pedagogik jarayonlar ta'lim muassasasi o'quv faoliyatining muhim komponentlaridan biriga aylanib bormoqda. Bu bejizga emas.

Negaki, innovatsion pedagogik jarayonlar ta'lim xizmatlari bozorida, nafaqat u yoki bu ta'lim muassasasining raqobatbardosh bo'lishiga asos yaratadi, balki o'qituvchi va o'quvchi shaxsini intensiv rivojlantirish, o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikdagi faoliyati va muloqotini demokratlashtirish, ta'lim - tarbiya jarayonini insonparvarlashtirish, o'quvchini faol ta'lim olish hamda o'zini shakllantirishga yo'naltirish, ta'lim texnologiyalari, metod va vositalari hamda ta'limning moddiy - texnika bazasini modernizatsiyalash kabi vazifalarni bajaradi. Pedagoglarning kasbiy mahorati, ularning ijodkorligi, izlanuvchanligining rivojlanishini aniqlaydi.

O'quvchilarning shaxs sifatida kamol topishida muhim o'rin tutadi. Shu jihatdan, innovatsion texnologiyalar asosida ta'lim jarayonlari sifat va samaradorligini oshirish muammosi shaxsni rivojlantirish va uni hayotga tayyorlashga yo'naltirilgan kompleks vazifalarni amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan ta'lim siyosatining bugungi kundagi muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Shuning uchun, umumiy o'rta ta'lim muassasalarida pedagogik innovatsiyalarni tatbiq etishda o'qituvchilarning ilmiy-metodik tayyorgarligini rivojlantirish, kasbiy faoliyatini innovatsion yo'naltirish, ularni innovatsion pedagogik jarayonlarga tayyorlash masalalariga alohida ahamiyat qaratish lozim. Ta'lim jarayonida interfaol usullarni qo'llash o'quvchilarda fanga nisbatan qiziqish uyg'otish, nutqiy malaka va ko'nikmalarni hosil qilish, ularning faoliyatini nazorat qilishda yuqori samaradorlikka erishishga yordam beradi.

Yuqoridagilarga tayangan holda, bugungi kunda adabiyot darslarining samaradorligini oshirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar va AKTning ahamiyati katta. Biz buni

birgina “Case-study” metodi orqali kuzatishimiz mumkin. Mazkur usul turli xil g’oyalar o’rtasidagi aloqalar to’g’risida fikrlash imkoniyatini beruvchi tuzilmani aniqlashni talab etadi. Undan foydalanish inson miya faoliyatining ishlash tamoyili bilan bog’liq ravishda amalga oshadi. Bu usul o’quvchilarni faol fikrlashga chorlaydi, bilgan ma’lumotlarini yangi ma’lumot bilan bog’lashga o’rgatadi, matn mazmunini tushunib olishga qiziqish uyg’otadi.

Jahon tajribasiga tayanib, o’quvchilarning keysni hal etish texnologiyasi ikki bosqichdan iborat bo’lsa, ta’limiy maqsadlarga erishishda yanada ko’proq samaraga erishish mumkin:

Birinchi bosqich – keysni hal etish bo’yicha individual (sinf dan tashqari) ish.

Ikkinchi bosqich – keysga asoslangan holda birgalikda jamoa bo’lib (sinfda) ishlash.

Keysni yechish natijalari - kichik guruhlar tomonidan taqdimot o’tkazadi va real vaziyat yechimiga doir o’z variantlarini taqdim etadi.

Keysni amaliyotga tadbiq qilishdan oldin ishchi guruh o’z ishchi dastur rejasini tuzib oladi va rejaga muvofiq ishlar taqsimlanadi.

Shuningdek, murakkab mavzuni o’quvchilar ongiga osongina yetkazish uchun “Aqliy hujum”, “Zakovat”, “Modul dars”, “Zigzak”, “Interfaol”, “O’yin dars”, “Munozarali-bahsli dars”, “Sayohat dars”, “Musobaqa dars” kabi usullardan foydalanish mumkin. Ta’lim har doim yangilanishga mushtojdir. Shuning uchun, iloji boricha, ta’limning yangi usullari ustida izlanishimiz talab etiladi. Chunki o’quvchilarga ham bir xil qolipdagi darslar yoqmaydi, ularni zeriktiradi. Natijada o’quvchi darsni yaxshi o’zlashtira olmaydi.

Har bir usuldagi darslar ikki-uch marta o’tilganda o’zini oqlaydi. Me’yoridan oshmasligi, o’quvchilarni zeriktirmasligi uchun usullarning turlicha bo’lishi darsning samaradorligini yanada oshiradi. Dars jarayonlarida notiqlik, suhbat, hikoya, mustaqil ish, yozma ish, zamon bilan bog’lash, mustaqil fikrga tayanish shakllariga katta e’tibor berishimiz lozim. Har bir o’tilayotgan darsga o’quvchilar tomonidan berilayotgan baho biz uchun qadrlidir.

Hozirda ta’lim metodlarini takomillashtirish sohasidagi asosiy yo’nalishlardan biri interfaol ta’lim va tarbiya usullarini joriy qilishdan iborat. Interfaol usullarni qo’llash natijasida o’quvchilarning mustaqil fikrlash, tahlil qilish, xulosalar chiqarish, o’z fikrini bayon qilish, uni asoslangan holda himoya qila bilish, sog’lom muloqot, munozara, bahs olib borish ko’nikmalari shakllanib, rivojlanib boradi.

Darslarimni yana ham qiziqarli va tushunarli bo’lishi uchun “Sinkveyn”, “Assesment”, “Tushunchalar tahlili” kabi metodlardan va “Matn tahlili” metodlarini ham ko’proq qo’llash maqsadga muvofiqdir, chunki bir xil metodlarni qo’llash ham bolalarni zeriktirib qo’yishi mumkin.

Xususan, Sinkveyn metodidan foydalanish orqali o’quvchilar so’z turkumlarini yana bir bor esga olishadi. Misol uchun 8-sinf darsligida “Kuntug’mish” dostoni yuzasidan o’quvchilarga sinkveyn tuzish vazifasi berilsin. Bunda o’quvchilar asr ichida biror so’zni olib bajarishadi.

1. Sandiq
2. Katta, chiroyli
3. Yasaladi, solinadi, quluf lanadi
4. Usta chiroyli sandiqlar yasadi
5. Quti Bugungi kunimiz nihoyatda shiddatkor.

U har bir o’qituvchidan o’z ishiga ijodiy yondashishni, ta’limning yangi shakllaridan foydalangan holda dars samaradorligini oshirishni talab qilmoqda. Ayniqsa, adabiyot darslarida o’quvchi o’zligini anglasa, o’zini va o’zgalarni tushuna olsa, o’qituvchi o’zining kamchiliklarini

ko'ra olsa va ularni to'g'rilashda g'ayratli bo'lsagina, dars kashfiyot darajasiga etadi.

Ushbu loyihalardan ko'zlangan maqsad shundan iboratki: mahoratli pedagog yosh kadrlar salohiyatini oshirishda zamonaviy axborot kommunikatsion texnologiyalaridan oqilona foydalansa, o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirishga erishadi.

Har bir soha yuzasidan yozilgan mukammal asarlar juda oz, boshqalarida esa mana shu oz asarlarda birmuncha to'la va tiniq yoritilgan narsalar takrorlanib, suyultirilib, buziladi. Shunday ekan har bir o'qiyotgan asarimiz va har bir yozilajak kitob insonni ma'nan yuksaklikka chorlovchi kuch bo'lsa, har bir dars, mohir pedagogdan katta kuchni talab qiladigan yangi yozilajak asardir.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 24-yanvar 2020-yil.
2. Abdurauf Fitrat "Saylanma" - "Tamaddun", Toshkent - 2011.
3. Golish L.V., Fayzullaeva D.M. Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish. – T.: TDIU, 2010.
4. Yo'ldoshev J.G'., Usmonov S. Ilg'or pedagogik texnologiyalar. – T.: O'qituvchi, 2004. Tolipov O'.Q., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. – T.: Fan, 2005.

17-19 YOSHLI QISQA MASOFAGA YUGURUVCHILAR ORGANIZMIGA JISMONIY TAYYORGARLIKNING TA'SIRI

F.Ch.Ziyayev

O'ZDJTSU O'qituvchi

E.X.Raximov

O'ZDJTSU II - bosqich magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7652479>

***Annotatsiya.** Maqolada yengil atletikachi yuguruvchilarning yillik tsikldagi tayyorgarligini rejalashtirish va tashkil etish masalalari yoritilgan.*

***Kalit so'zlar:** mashg'ulot yuklamalari, qisqa sprint, uzoq sprint, jismoniy tayyorgarlikning o'sishi, jismoniy rivojlanish, somatotip, dermatoglifika.*

ВЛИЯНИЕ ФИЗИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ НА ОРГАНИЗМ БЕГУНОВ НА КОРОТКИЕ ДИСТАНЦИИ 17-19 ЛЕТ

***Аннотация.** В статье рассмотрена подготовка легкоатлетов-бегунов в годовом цикле. освещаются вопросы планирования и организации.*

***Ключевые слова:** тренировочные нагрузки, короткий спринт, длинный спринт, физические нагрузки. тренировочный рост, физическое развитие, соматотип, дерматоглифика.*

THE EFFECT OF PHYSICAL FITNESS ON THE BODY OF SHORT-DISTANCE RUNNERS 17-19 YEARS OLD

***Abstract.** The article considers the preparation of runners in the annual cycle. issues of planning and organization are covered.*

***Key words:** training load, short sprint, long sprint, physical activity. training growth, physical development, somatotype, dermatoglyphics.*

KIRISH

Insoniyat tarakkiyoti o'zgaruvchidir, bu xech kachon bir nuqtada to'xtab qolmagan. Ma'lumki, hozirda ham inson jamiyat rivojida asosiy bug'in vazifasini bajargan. Ularning tanazzuliga yoki tarakkiy etishiga xam inson sababchi bo'lgan. Bugungi kunda barkamol, sog'lom va teran fikrli yosh avlod tarbiyalash uning xar tomonlama puxta, mukammal inson bo'lib etishishiga erishish masalasiga har qachongidan xam jiddiyrok etibor berilmoqda. Yosh avlodni yuksak ma'naviyatli shaxs sifatida tarbelash juja muhim ijtimoiy omil sifatida qaraladi. Barchamizga ayonki, inson qalbiga yo'l avvalo, ta'lim - tarbiya boshlanadi. Bugungi kunda barkamol avlodni sog'lom turmush tarziga tayyorlashda ta'lim- tarbiya soxasid boshlab, matbuot, televideniya, Internet va boshqa ommaviy axborot vositalari yoshlarni komil kilib tarbiyalaydigan har qanday ijobiy jarayonni zamon talablari asosida yangi bosqichga zar ko'tari. "Ommaviy axborot vositalarida yoshlarni ishtiroki Vatan, millat taqdiri uchun epizodini ma'sul sezib baxslarda daxldorlik tuygusi bilan ishtirok etayotgani insonni kuvontiradi". Jamiyat talab va ehtiyojlari, erki va ozodligi hamda ijtimoiy iqtisodiy va siyosiy tepan-yesh avlod Zero, Yurtboshimiz ta'kidlaganlaridek: farzandlarimiz bizdan kura kuchli, bilimli, dono va albatta baxtli bo'lishlari shart degan so'zlarida har bir yosh avlodni sadokat ruhida kamol topishi uchun muhim bir e'tibor desak bejiz bo'lmaydi. Albatta, barkamol avlodi Ustirishda ta'lim- tarbiya jarayonining mohiyati, mazmuni, tashkiliy yo'nalishlari, tuzilmalarni butun faoliyatini uzviy ravishda amalga

oshirish muhim ahamiyatga ega. Yurtboshimiz o'zining ma'naviyat- yengilmas kuch" asarida ta'kidlaganidek, ta'limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta'limdan ajratib bulmaydi. Mamlakatimizning doimiy taraqqiy etib borishi uchun avvalambor yosh avlodni sor mustaqil fikrlaydigan, bilimli, tadbirkor, o'z Vataniga mexrli kilib tarbiyalash masalasi davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan biri qilib belgilangan. Jamiyatda yuksak ma'naviy fazilatlar shakllantirish, yoshlarni boy madaniy, ma'naviy merosimiz, tarixiy an'analarimizga, umuminsoniy kadriyatlarga hurmat, sadoqat ruhida tarbiyalash respublikamizda amalga oshirilayotgan barch islohotlarning muhim omili hisoblanadi. 1982 yilda "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunning qabul qilinisha kartinkada ta'lim isloxotlari yo'lidagi ilk qadam bo'ldi. Jahon hamjamiyati sari yuzlana mamlakatimizdat ta'lim sohasini eskicha qarashlardan ozod qilishga va kelajak uchun zamonaviy dasturlar istikbolini ishlab chikish imkoniyatini beradi.

NATIJALAR

Tezkorlik, tezlik-kuch qobiliyatlari, maxsus jismoniy ish qobiliyatini aks ettiruvchi jismoniy tayyorgarlik dinamikasi qisqa masofalarga yuguruvchilarda harxil yo'nalishli xususiyatga ega, bu asosan yillik tsiklda sport formasini egallashning o'ziga xos xususiyatlari bilan belgilanadi va, umuman, mashg'ulot jarayonining yo'nalishini aks ettiradi. 100 m ga yuguruvchi sprinterlar bilan o'tkazilgan nazorat testlashlar natijasida maxsus ish qobiliyatining yozgi davr boshiga kelib yuqori darajada oshishi aniqlandi. Testlashning yakuniy bosqichida turgan joyidan 30 m ga yugurishdagi natija 4,43% ga, 100 m ga yugurishda – 1,64% ga, 150 m da – 6,29% ga, 200 m da – 1,93% ga, 250 m da – 5,99% ga va 400 m masofaga yugurishda – 1,02% ga yaxshilandi (4-jadval). Nazorat testlash natijalarining ko'rsatishicha, qisqa sprintda (100 m) ixtisoslashuvchi yuguruvchilar yozgi davr boshida maxsus ish qobiliya-ting yuqori darajasiga erishdilar. O'tkazilgan ajribalar shuni ko'rsatadiki, umuman, maxsus ish qobiliyatini takomillashtirish azifasi, anaerob yo'nalishdagi ishning bajarilishidan tashqari, aerob imkoniyat-larni rivojlantirish bilan birga olib borilishi mumkin.

1-jadval

Yillik siklning alohida davrlarida 100 m masofaga yuguruvchilar jismoniy tayyorgarligining nazorat ko'rsatkichlari dinamikasi (II sport razryadi, n= 14)

TSikl oylari	Yillik tsiklning alohida davrlarida 100 m masofaga yuguruvchilar jismoniy tayyorgarligining nazorat ko'rsatkichlari dinamikasi (II sport razryadi, n=14)						
	Turgan joyidan 30 m ga yugurish	100 m	150 m	200 m	250 m	400 m	uzun-likka sakrash
Sentyabr (2-yarmi)	3,38±0,10	11,90±0,41	19,86±0,78	24,30±0,42	33,19±0,70	54,48±0,80	6,05 ±0,16
Oktyabr	3,36 ±0,13	11,87±0,40	19,75 ±0,88	24,22±0,39	33,05 ±0,78	54,38±0,82	6,10±0,15
Dekabr	3,40 ±0,12	11,83±0,53	19,60 ±0,94	24,15±0,40	32,60±0,89	54,30±0,91	6,14±0,18
Fevral	3,36 ±0,12	11,81±0,46	19,20±0,70	24,07±0,37	32,20±0,67	54,25±0,86	6,17±0,16
April	3,28±0,11	11,77±0,40	19,04±0,78	23,90±0,44	31,80±0,75	54,12±0,88	6,21±0,18
May	3,24 ±0,12	11,73 ±0,28	18,80±0,70	23,85±0,48	31,38±0,68	54,00±0,81	6,25±0,20

Iyun	3,23±0,10	11,70±0,26	18,61±0,55	23,83±47	31,20±0,74	53,92±0,80	6,30±0,14
O'sish,%	4,43%	1,64%	6,29%	1,93%	5,99%	1,02%	4,13%
$x \pm \sigma$	3,32±0,07	11,77±0,05	19,27±0,48	24,05±0,19	32,20±0,78	54,21±0,20	6,17±0,09

400 m masofaga yuguruvchilarda musobaqa oldi tayyorgarlik bosqichida yoki oraliq bosqichda anaerob va aralash anaerob-aerob yo'nalishdagi yuklamalarning hajmi oshganligi kuzatildi. Yillik tsikl davrlari bo'yicha maxsus ish qobiliyati ko'rsatkichlarining dinamikasi to'g'risida ularning o'sish kattaliklari bo'yicha ham baho berish mumkin.

2-jadval

Yillik tsiklning alohida davrlarida sprinterlarning maxsus ish qobiliyati ko'rsatkichlari dinamikasi (400 m, II razryad)

TSikl oylari	Sprinterlar jismoniy tayyorgarligining nazorat ko'rsatkichlari dinamikasi (400 m, n=12)					
	30 m	100 m	200 m	300m	400 m	600 m
Sentyabr	3,28±0,12	12,27±0,47	24,86±0,45	39,03±0,29	53,70±0,80	1,35,00
Oktyabr	3,27±0,11	12,23±0,45	24,78±0,38	39,00±0,30	53,43±0,81	1,34,55
Dekabr	3,26±0,10	12,20±0,40	24,68±0,37	38,80±0,27	53,13±0,83	1,32,53
Fevral	3,24±0,11	12,12±0,50	24,52±0,44	38,61±0,40	52,88±0,91	1,30,77
April	3,23±0,13	12,08±0,48	24,40±0,40	38,43±0,29	52,47±0,80	1,30,00
May	3,21±0,10	12,04±0,44	24,32±0,47	38,12±0,32	52,15±0,88	1,29,60
Iyunь	3,22±0,12	12,00±0,30	24,25±0,42	37,06±0,28	52,00±0,87	1,28,88
O'sish,%	1,82%	2,20%	2,45%	5,04%	3,81%	7,36%
$x \pm \sigma$	3,24±0,03	12,13±0,10	24,54±0,24	38,44±0,69	52,10±0,76	91,14±2,61

MUHOKAMA

Yillik sikl davomida mashg'ulot ta'sirlari natijasida 400 m ga yuguruvchilarda tezkorlik sifatlarining o'sishi 30 m ga yugurishda 1,82% ni, 100 m da – 2,20% ni tashkil qildi; tezkorlik chidamliligi 200 m ga yugurishda 2,45% ga, 300 m da – 5,04% ga o'sdi. 400 m masofada maxsus ish qobiliyatining o'sishi 3,81% ni tashkil etdi, 600 m masofada esa eng yuqori ko'rsatkich o'rnatildi, u 7,36% ga teng bo'ldi. Nazorat guruhida ham jismoniy sifatning rivojlanishida o'sish kuzatiladi. Biroq ko'rsatkichlar qiymatlari birinchi va ikkinchi tajriba guruhlarinikidan ancha past. 30 m ga yugurishda tezkorlik sifatlarining o'sishi – 2,09% ni, 100 m da 0,57% ni tashkil qildi, tezkorlik chidamliligi 200 m masofani bosib o'tish vaqti bo'yicha baholandi, mashg'ulot ta'sirlaridan so'ng o'sish 1,04% ni tashkil qildi. 400 m masofada maxsus chidamlilikning o'sishi 1,69% ni, 600 m da esa 0,84% ni tashkil etdi. Ta'kidlash joizki, 30 m ga yugurishda tezkorlik ko'rsatkichlarida farqlar deyarli aniqlanmadi va 100 m ga yuguruvchilar uchun uning qiymatlari 3,22 sek ni, 400 m ga yuguruvchilar uchun 3,23 sek ni tashkil etdi. Mashqlanganlikning yanada oshishi saqlab turuvchi xususiyatga ega bo'lgan yuklamalarni qo'llash va ularni oqilona uyg'unlashtirish natijasida sodir bo'ladi. Bu ko'rsatkichlarning barqarorlashishi organizmning tegishli yo'nalishdagi yuklamalarga to'liq moslasha olganligidan dalolat beradi, bu rivojlanuvchi samara davomiyligini aniqlashga imkon yaratadi.

Yuqoridagilar shunday xulosa qilishga imkon yaratadiki, sprinter-lik mashg'ulotlarining butun mazmuni masofaning qisqa bo'lagida yuguruvchi rivojlantira olishga qodir bo'lgan tezlikni butun masofa davomida saqlab turish qobiliyatini tarbiyalashdan iborat. Jadvalda keltirilgan

ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, 100 m ga yugurishda ixtisoslashuvchi, yillik tsikl davomida tezkorlik va tezkorlik-kuch sifatlarini rivojlantirish mashg'ulot dasturini o'tagan yuguruvchilarning har biri yugurish tezligi ko'rsatkichlariga sezilarli darajada natija qo'shdi, bu haqda test natijalari dalolat beradi. Asosiy statistik parametrlar, xatolarni qo'shib – o'rtacha arifmetik kattalik, o'rtacha kvadrat og'ishi va variatsiya koeffitsienti hisoblab chiqariladi. Aniqlandiki, gavda uzunligi bo'yicha o'rtacha qiymatlar barcha tekshiriluvchilarda katta emas: $173,5 \pm 1,14$ sm dan (stayerlarda) $178,50 \pm 0,80$ sm gacha (sprinterlarda). Gavda og'irligi, ko'krak qafasi aylanasi va tananing mutlaq yuzasi bo'yicha kichik qiymatlar uzoq masofaga yuguruvchilarda aniqlandi. Sportchilarda tana uzunligi tana og'irligi bilan uyg'unlashadi, bunda gavda og'irligining oshishi mushak (yog' emas) og'irligi bilan korrelyatsion bog'liqlikka ega bo'ladi. Adabiyotlarda jahonning eng kuchli sprinterlarining o'rtacha bo'yi $179,8 \pm 0,9$ sm ni tashkil qilishi to'g'risida ma'lumotlar bor. Variatsiya koeffitsientlari gavda uzunligi, ko'krak aylanasi va tananing mutlaq yuzasi ko'rsatkichlari uchun bir xilga o'xshaydi. Tana og'irligi variatsiya koeffitsientining eng katta qiymatlariga ega (7,04 dan 8,7 gacha). SHunday qilib, 3 ta taqqoslanayotgan guruhlar uchun total o'lchamlar orasida gavda og'irligi eng labil (o'zgaruvchan) bo'lib chiqdi. Olib borilgan tadqiqotlar natijasida aniqlandiki, sprinterlarning umumiy jismoniy rivojlanishlarini tavsiflash uchun gavda uzunligi va og'irligi, ko'krak qafasi aylanasi, oyoqlar uzunligining gavda uzunligiga nisbatlari, son va boldir mushak massasining rivojlanish darajasi kabi belgilarni tahlil qilib chiqish bilan cheklanish mumkin. Natijalar morfologik belgilarga asoslanib sprint mashg'ulotiga saralab olish muammosiga xolisona yondashish imkonini beradi. Muayyan sport ixtisosligidagi sportchining morfologik portretini tuzish uchun faqat jismoniy rivojlanish darajasini aks ettiruvchi antropometrik ko'rsatkichlarga ishonish yetarli emas. Gavda og'irligining tarkibiy qismini tekshirishga asoslangan, shuningdek, muayyan somatotipni tashxislashga imkon beradigan eng axborotli belgilar kerak bo'ladi. Gavda shakli va tarkibining individual variantlarini aks ettiruvchi gavda tuzilishini baholashda endomorfiya, mezomorfiya va ektomorfiya kabi tarkiblar yetakchi omillar hisoblanadi. Endomorfiya semizlik darajasini, ya'ni yog' to'qimalarining rivojlanishini tavsiflaydi; mezomorfiya mushaklarning nisbiy rivojlanishini belgilab beradi va ektomorfiya inson tanasining nisbiy cho'zilganligini aks ettiradi. Somatotiplarga bo'lish natijalari shuni ko'rsatdiki, sprinterlar gavasining tarkibiy qismlari ballarda $3,8 : 3,0 : 1,9$ sifatida berilgan, tashxislangan somatotip esa ekto-mezomorfli tip toifasiga kiradi: 3,8 ball – ektomorfiya yoki og'irlik-bo'y ko'rsatkichi; 3,0 ball – mezomorfiya – mushak massasining rivojlanish darajasini tavsiflaydi; 1,9 ball – endomorfiya yoki yog' to'qimalarining rivojlanish ko'rsatkichi. Ektomorfiya ko'rsatkichlari sodir bo'layotgan o'sish jarayonlarining jadalligi to'g'risida dalolat beradi.

XULOSA

Aytish joizki, tekshirilayotgan sprinterlar guruhida ekto-mezomorfli somatotip dominant hisoblanadi. Ektomorfiya ko'rsatkichi ahamiyatiga ko'ra ustuvor sanaladi va sprinterlar uchun og'irlik-bo'y ko'rsatkichining ahamiyatini tasdiqlaydi. Tug'ma harakat qobiliyatlarining, jumladan, tezkorlik sifatlarining rivojlanish darajasini aniqlash uchun dermatoglifika metodi qo'llanildi. Har qanday genetic marker shartli bo'lishini, ya'ni ba'zi belgi marker sifatida faqat mazkur bashorat modelida ko'rib chiqilishi mumkinligini e'tiborga olib, tadqiqotlar genetik jihatdan bir xil tanlab olingan sportchilarda o'tkazildi. Butun tekshirilgan kontingentning, jumladan, sprinter yengil atletikachilarning barmoqlaridagi naqsh chiziqclarini son jihatdan taqsim-

lash yuzasidan o'tkazilgan tahlil shuni aniqlashga imkon berdiki, yoylar – 2,4% ni, ulnar ilmoqlar – 56,1% ni, radial ilmoqlar – 3,8% ni, burmalar – 38,7% ni tashkil qiladi (6-jadval). O'ng qo'lda burma naqshlarning va chap qo'lda ulnar naqshlarning ko'proq ekanligi aniqlandi, yoysimon naqshlarning taqsimlanishida farqlar aniqlanmadi. Dermatoglifika belgilari orasida ahamiyatli farqlar UQS yoki umumiy qirralar sanog'i uchun aniqlandi. Biz tekshirgan sportchilarda uning qiymatlari 184 ni tashkil etadi, ayni paytda UQS ko'rsatkichi o'zbek millatida o'rtacha 150-160 qirrani tashkil etadi. Keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, UQS sportchilarda sport bilan shug'ullanmaydigan shaxslarga nisbatan 30 ta qirra atrofida ko'proq. SHunday qilib, dermatoglifika ko'rsatkichlari orasida eng axborotlisi – bu UQS qiymatlaridir va unga tezkorlik sifatlarining yuqori darajada rivojlanishini bashorat qiluvchi eng ishonchli mezon sifatida qarash mumkin. UQS qiymatlari 180-190 qirra atrofida bo'lsa, uni ijobiy marker deb hisoblash va tezkorlik sport turlariga saralab olishda, jumladan, yengil atletikachilarni sprinterlik masofalarga saralashda tashxislash kompleksida foydalanish mumkin. Olib borilgan tadqiqotlar shundan dalolat beradiki, tezlik sifatlarini mashq qildirsa bo'ladi, lekin ushbu belgining reaksiya qilish me'yori tor, ya'ni o'zgaruvchanlik chegarasi ko'p jihatdan genetik shartli, chunki tug'ma sifat nasldannaslgaga o'tadi. Demak, tezlik sifati naslga bog'liq, bunga dermatoglifika ko'rsatkichlari dalil bo'la oladi. Jismoniy chidamlilik sifati esa tashqi sharoitlarga, jumladan, maqsadli ta'sir qiluvchi mashg'ulot ta'sirlariga juda ham bog'liq. Shuninguchun “chidamlilik” dasturi bo'yicha mashq qilgan ushbu yuguruvchilar guruhida qator jismoniy sifatlarning katta o'sishi kuzatiladi. Qisqa masofalarga yuguruvchilarning yillik tsikl davomidagi mashg'ulot faoliyati tahlili quyidagi xulosaga kelishga imkon beradi. Ishlab chiqilgan mashg'ulot dasturlari deyarli to'liqligicha bajarildi. Mashg'ulot jarayoni ushbu ko'rsatkich uchun avval ishlab chiqilgan sport formasiga erishish qonuniyatlari asosida tashkil qilindi, tajriba guruhlarida jismoniy va masofaviy tayyorgarlikdagi tahlil qilinayotgan belgilar bo'yicha chetga chiqishlar “oqilona” dinamika sifatida rejalashtirilgan ko'rsatkichlarga mos keladi. Tug'ma qobiliyatlarni tashxislash uchun genetik markerlarning identifikatsiyasi o'tkazildi, ya'ni tezkorlik sifatlarini rivojlantirishga qaratilgan mashqlarni bajarishga bo'lgan genetik moyillik aniqlandi. Dermatoglifika ko'rsatkichlari orasida barmoqlarning naqshlari, uyg'unliklari va umumiy qirralar sanog'i (UQS) eng axborotli hisoblanadi. 180-190 qirralar atrofida bo'lgan UQS qiymatlari harakat sifatlarining yuqori darajasini bashorat qiluvchi ishonchli mezon sanaladi va sprintersportchilarni saralab olishda foydalanish uchun tavsiya qilinadi.

REFERENCES

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 5 мартдаги ПФ-5368-сонли фармони —Жисмоний тарбия
2. ва спорт соҳасида давлат бошқаруви тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисидаги
3. Фармони. (Халқ Сўзи. 2018 йил 5- март.)
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг ПФ 5924-сонли фармони —Ўзбекистон Республикасида жисмоний
5. тарбия ва спортни янада такомиллаштириш ва оммалаштириш чора-тадбирлари тўғрисидаги. Фармони

6. (Халқ сўзи 2020 йил 24-январ).
7. Ўзбекистон Республикаси Президентининг ПҚ 3031-сон қарори —Жисмоний тарбия ва спортни янада
8. ривожлантириш чора тадбирлари тўғрисидаги (Халқ сўзи 3 июн 2017 йил)
9. Soliev I.R, Khaydrov B.SH, Mirzatillayev I.I, Khujamkeldiyev G.S, Ziyayev F.CH. Functional training level of
10. runners student-athletes sprinters. // International Journal of Psychosocial Rehabilitation, Vol.24, Issue 05, 2020,
11. <http://www.psychosocial.com/article/PR201878/17061/> 46-50 бетлар.
12. Ziyayev F. C. et al. YENGIL ATLETIKA SPORT TURINI RIVOJLANTIRISHDA UMUMIY O'RTA T'ALIM MAKTABLARINING JISMONIY TARBIYA DARSLARIDA YENGIL ATLETIKA TURLARINI O'RGATISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH SAMARADORLIGI //Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS). – 2021. – Т. 1. – №. 3. – С. 348-355.
13. Xo'jamkeldiyev G. S. et al. KICHIK RAZRYADLI O'RTA MASOFALARGA YUGURUVCHILARNING MUSOBAQA OLDI TAYYORGARLIGI //Central Asian Research Journal For Interdisciplinary Studies (CARJIS). – 2021. – Т. 1. – №. 3. – С. 270-274.
14. Ziyayev F. C. et al. O'RTA MASOFAGA YUGURUVCHI YENGIL ATLETIKACHILARNI MUSOBAQA OLDI TAYYORGARLIGI SAMRADORLIGINI OSHIRISH //Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS). – 2021. – Т. 1. – №. 4. – С. 78-90.
15. Каримов Ф. М. и др. БОШЛАНГИЧ ИХТИСОСЛИК ГУРУҲИДАГИ УЗУНЛИККА САКРОВЧИ ҚИЗЛАРНИНГ ДЕПСИНИШ КУЧИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ //Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS). – 2021. – Т. 1. – №. 4. – С. 119-125.

17-19 YOSHLI QISQA MASOFAGA YUGURUVCHI SPORTCHILARDA TEZKOR-KUCH SIFATLARINI RIVOJLANTIRISH USLUBIYATI

N.B.Normuradov

O'ZDJTSU O'qituvchi

E.X.Raximov

O'ZDJTSU II - bosqich magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7652583>

Annotatsiya. Ushbu maqolada 17-19 yoshli qisqa masofaga yuguruvchi sportchilarda tezkor-kuch sifatlarini rivojlantirishda ularning maxsus tezkor-kuch sifatlarini, ularni rivojlantirish usuliyatini aniqlashda o'quv-trenirovkalardagi mashq yuklamalarini ishlab chiqish va ularni rivojlantirish usuliyati bo'yicha trenirovka jarayoni o'rganish yoritilgan.

Kalit so'zlar: Tezkor-kuch, sifat, usuliyat, rivojlantirish, trenirovka, Antropometrik o'lchovlar, tibbiy nazorat, ta'sir vaqti, tezkorlik qobiliyati, yuklama, mashg'ulot.

МЕТОДИКА РАЗВИТИЯ СКОРОСТНО-СИЛОВЫХ КАЧЕСТВ У БЕГУНОВ НА КОРОТКИЕ ДИСТАНЦИИ 17-19 ЛЕТ

Аннотация. В данной статье рассматриваются вопросы развития скоростно-силовых качеств у бегунов на короткие дистанции 17-19 лет, их специальные скоростно-силовые качества, разработка физических нагрузок на тренировочных занятиях, изучение тренировочного процесса по методике их развитие.

Ключевые слова: Быстродействие, качество, методология, разработка, обучение, Антропометрические измерения, врачебный контроль, время воздействия, скоростные качества, нагрузка, обучение.

METHODOLOGY FOR THE DEVELOPMENT OF OPERATIONAL-STRENGTH QUALITIES IN SHORT-DISTANCE RUNNER ATHLETES 17-19 YEARS OLD

Abstract. This article discusses the development of speed-strength qualities in sprinters aged 17-19 years, their special speed-strength qualities, the development of physical loads in training sessions, the study of the training process according to the method of their development.

Key words: Speed, quality, methodology, development, training, Anthropometric measurements, medical control, exposure time, speed qualities, load, training.

Dolzarbligi: Bugungi kun sport amaliyotida iste'dodli sportchilarni tayyorlash masalasiga yangicha nazar bilan yondashish zaruriyatini tug'dirmoqda. Ushbu zaruriyat ayniqsa yugurishda yaqqol ko'zga tashlanadi. Yuguruvchilarimiz jahon sport maydonlarida muhim g'alabalarni qo'lga kiritib kelmoqda. Ammo erishilgan yuksak o'rinlarni saqlab qolish uchun trenirovka jarayonini takomillashtirishga qaratilgan tadqiqotlarni davom ettirish zarur bo'ladi. Yuguruvchilar va zahira tayyorgarligini takomillashtirishning yangi mashg'ulot yuklamalarini oqilona rejalashtirish, nazorat qilish muammosini hal etish bilan bog'liq.

1. Yuguruvchilarning tayyorgarligi bosqichlarida sportchilar organizmiga turlicha kattalikdagi yuklamali va har xil yo'nalishli mashg'ulotlarning ta'siri xususiyatlarini o'rganish.

2. Yuguruvchilar guruhlarida tayyorgarligi bosqichlarini rejalashtirishda mashg'ulot jarayonida turli kattalikdagi va yo'nalishdagi yuklamalarni almashlab berish xususiyatlariga bog'liq samaradorlikni aniqlash.

3. Yuguruvchilarning tayyorgarligi bosqichlarini tuzishda mashg'ulot jarayonida turli kattalikdagi va yo'nalishdagi yuklamalarni almashlab o'tish xususiyatlariga bog'liq samaradorlikni aniqlash.

4. Yuguruvchilarda maxsus tezkor-kuch sifatlarini aniqlash va tayyorgarlik bosqichida ularni rivojlantirish usuliyotini aniqlashda o'quv-trenirovkalardagi mashq yuklamalarini ishlab chiqish.

5. Yuguruvchilarda maxsus tezkor-kuch sifatlarini aniqlash va tayyorgarlik bosqichida ularni rivojlantirish usuliyoti bo'yicha trenirovka jarayoni o'rganish. Muammoning o'rganilganlik darajasi:

Sport fani sohasining taniqli olimlari ta'rificha, sport tayyorgarligi jarayonida mashg'ulotlarni rejalashtirishda, ayniqsa, sport yugurishida mahoratli sportchilar zahiralarni va malakali sportchilarni tayyorlashda mashg'ulotlar shiddatini, mashq samaradorligini kuchaytirish mazmuni bo'yicha har xil nuqtai nazardagi fikrlar farki kuzatilmoqda. Shu nuqtai nazarlarda mavjud kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan ilmiy-uslubiy yondashish natijasida sportchilarning xalkaro musobaqalardagi ishtirokini va yuqori natijalarga erishishlarini ta'minlashda sport tayyorgarligi mashg'ulotlarining samaradorligini oshirish bugungi kunda sport amaliyotida dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Shu jumladan, mutaxassislar tomonidan o'rganilgan va ishlab chiqilgan maxsus va musobaqaoldi tayyorgarlik mashg'ulotlari yuklamalari kattaligi va yo'nalishi ilmiy asoslangan mashg'ulotlarga bo'lgan etiyojni ko'rsatmoqda. Sport mashg'ulotlari jarayonida rasional yuklamalarni bajarish, ish hajmini oshirish borasida mikrosikllarga asoslangan optimal dasturlar tuzilishi, har bir mashg'ulot vazifasi samaradorligini takomillashtirish masalasi sport amaliyotida katta o'rin tutadi.

Shu singari, malakali yuguruvchilar guruhlariga rejalashtirilgan mashg'ulotlarni, turli kattalikdagi va yo'nalishdagi yuklamalar bilan olib boriladigan mashg'ulotlarni rasional darajada muvofiqlashtirish, kuniga bir yoki ikki marta mashg'ulot o'tkaziladigan mashg'ulotlar bosqichlarining asosiy uslubiy tamoyillarini rejalashtirish usullari va tuzilishi yetarlicha aniqlanmagan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Yugurish mashg'ulotlarida turli kattalikdagi va yo'nalishdagi yuklamalarning qo'llanilishi mazkur masalani hal etishda katta ahamiyatga ega bo'lishidan qat'iyinazar, ularning sportchilar organizmiga ta'siri to'g'risidagi muammo hal qilinmagan 17-19 yoshli yuguruvchilarni maxsus tezkor-kuch sifatlarini aniqlash va mashg'ulotlarda rivojlanish samaradorligini tahlil qilish. Tadqiqotning ilmiy yangiligi: yuguruvchilar tayyorlash tizimida organizmiga katta va turli yo'nalishdagi yuklamalarning ta'siriga talluqli tadqiqot natijalari olinib, yosh yuguruvchilar guruhlarida mashq yuklamalarining samaradorligini oshirishda quyidagi yangi usublardan foydalanildi:

- 17-19 yosh yuguruvchilarning mashg'ulot izchilligi, kunlari, kunlik va haftalik mikrosikllar - yuguruvchilar organizmiga mashg'ulotlar jarayonida harakat mexanizmining ta'siri samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan qo'shimcha mashg'ulotlarning uygunligi, mashg'ulotlarning umumiy sonini oshirish va uning natijasida maxsus ish qobiliyati samaradorligi o'rganildi yuguruvchilarning tayyorgarlik bosqichlarini rejalashtirish jarayonida mashg'ulot

yuklamalarining bajarilishini nazorat qilish, yuklamalarning turli kattaligi, yo'nalishi, mashg'ulotlar turining kuchi va ta'sir qilish tavsifi o'rganildi;

- yuguruvchilarning tayyorgarlik bosqichlari davomiyligining o'zgaruvchan holatiga va haftalik mikrosikl tizimida turli yo'nalishlarda bajarilgan yuklamalarning natijalari samaradorligiga baho berildi;

- Yuguruvchilarda maxsus tezkor-kuch sifatini rivojlantirishda trenirovka mashq yuklamalarining yangicha taqsimlash orqali faoliyatidagi natijalarni yuqori darajaga ko'tarish tadqiqot jarayonida yuguruvchilarning tayyorgarligi bosqichlarining tuzilishi, turli yuklamalar va yo'nalishdagi usullarda o'rganildi va samaradorligi tadqiqotda isbotlab berildi.

17-19 yoshli yuguruvchilarning ish qobiliyatini oshirish borasida mavjud bo'lgan omillarning biri sifatida tayyorgarlik bosqichlarida katta yuklamali mashg'ulotlar sonini izchillik bilan, zo'r bermasdan oshirish uslublari ishlab chiqilib, yuklamalarning amaliy mashg'ulotlarda keng qo'llanishi tizimlashtirildi va katta yuklamali mashg'ulotlardan so'ng tiklanish holatlariga faol ta'sirlari aniqlandi;

- mashg'ulotlarni rasional almashlash asosida yuguruvchilarning tayyorgarlik bosqichlari mikrosikllari variantlari, turli kattaligi va yo'nalishiga qaratilgan mashg'ulotlarni tashkil etish borasida tajribaviy ko'rsatkichlar olindi.

Yosh yuguruvchilar bilan olib boriladigan o'quv trenirovkasida maxsus tezkorkuch sifatlarini rivojlantirish musobaqalarda yaxshi natijalarga erishishga imkon beradi. 17-19 yoshli yuguruvchilarning tayyorgarlik bosqichlarida mashg'ulotlar kattaligi va yo'nalishi tizimlarini takomillashtirish, maxsus jismoniy tayyorgarligi sifatlarini rivojlantirish borasida qo'shimcha mashg'ulotlarni uyg'unlashtirishda mikrosikl mashg'ulotlarini rasional almashlab o'tkazish, katta yuklamali mashg'ulotlarning umumiy sonini oshirish va uning natijasida yuguruvchilarning maxsus ish qobiliyatini samarali rivojlantiradi.

Yuguruvchilarda maxsus tezkor-kuch sifatlarini aniqlash va ularni rivojlantirish uslubiyati orqali trenerovkadagi yuklamalarini optimal rejalashtirish musobaqalarda yuqori natijalarni beradi. Yuguruvchilarda tezkor-kuch sifatlarini rivojlantirish yugurishchining raqib qarshiligini engib o'tish yoki mushak kuchlanishi hisobiga unga qarshilik ko'rsatish qobiliyati tushuniladi. Kuchning quyidagi turlarini ajartish qabul qilingan: umumiy va maxsus, mutlaq va nisbiy, tezkor va portlovchan, kuch chidamliligi.

Yuqoridagilarga asoslangan holda shunday xulosa qilish mumkin: sportchilar organizmining shaxsiy xususiyatlari va har bir yugurishchining tayyorgarlik darajasiga qarab mashg'ulot yuklamalarining hajmi, shiddati va takrorlar soni alohida belgilanadi. Tadqiqot natijasiga har bir yugurishchining mashqlanganlik darajasi va shaxsiy xususiyatlari ta'sir qilmasligi uchun biz ilmiy tadqiqot ma'lumotlariga mos holda solishtirma tadqiqot variantlaridan foydalandik. Shu bilan birga yuguruvchilar 24 soatdan keyin uzoq muddatli, 2 kundan keyin qisqa muddatli shiddat bilan bajariladigan ishlarni bemalol bajarishlari mumkin. Yuguruvchilarning maxsus tezkor-kuch sifatlarini rivojlantirish tahlili: Yuguruvchilarning maxsus tezkor-kuch sifatlarini aniqlash va tayyorgarlik bosqichida ularni rivojlantirish ustida ish olib bordik.

Oldimizga qo'yilgan masalalarni o'rganish maqsadida yuguruvchilar bilan olib boriladigan trenirovka jarayoni hamda va etakchi trenerlar, mutaxassislar ish tajribasi umumlashtirildi hamda tadqiqotlar olib borildi. Olingan natijalar asosida aniqlandiki yuguruvchilarning maxsus tezkor-kuch sifatlarini muayyan darajada harakatlar tezkor-kuch talab qiluvchi amallarda katta ahamiyatga

ega bo'ladi. yuguruvchilarda turli mushak guruhlari kuchining ortishi bir me'yorda bo'lmaydi va yuqori shiddatga erishadi. Bunday yugurish bilan shug'ullanish tezkor-kuch sifatleri topografiyasiga, ya'ni turli mushak guruhlarining maksimal kuchi nisbatiga o'z muhrini bosadi. Yuguruvchilarni maxsus tezkor-kuch sifatlarini trenirovkadagi mashq yuklama vositalarini hajmi yig'indilarini tahlil qilish, tekshirilayotgan yuguruvchilarning yuqori sport natijalarini egallashda maqsadida o'tkaziladi.

Nazorat qilish uchun 22 ta yugurish bilan shug'ullanuvchi yugurishchi tanlab olindi. Yuguruvchilar bilan olib boriladigan trenirovkaning faqat asosiy qismidagi maxsus tezkor-kuch sifatleri tayyorgarlik bosqichida ularni rivojlantiruvchi trenirovka yuklamalari tahlili olindi. Trenirovka bosqichi tayyorgarligini asosiy vositalarining hajmi har xilligi, o'rtacha hajm, standart og'ish keltirilgan. Asosiy qilib yuguruvchilarning darajasiga va murakkablik koeffisientiga qarab trenirovka mashqlarini taqsimlash qabul qilindi.

Hamma maxsus mashqlar o'z ichiga yuqori bo'lgan trenirovka vositalarini olgan, ya'ni sherik bilan yugurish, shartli yugurish, texnik-taktik mahoratni takomillashtirish uchun sherigi bilan bajariladigan mashqlar olingan. Ixtisoslashtirilgan trenirovka mashqlari hajmi jihatidan ularni murakkabligiga qarab taqsimlandi. Kuzatuvlar shuni ko'rsatadiki, ayrim trenerlar qisqa muddat ichida yuguruvchilarni tayyorlash maqsadida jismoniy sifatleri rivojlantiruvchi mashqlarni zo'rma-zo'raki qo'llaydilar.

Bu borada ayniqsa maxsus tezkor-kuch sifatini tarbiyalash bolaning jismoniy imkoniyatini e'tiborga olish zaruriyatini belgilaydi. Me'yoridan ortiq beriladigan surunkali maxsus tezkor-kuch mashqlari shug'ullanayotgan bolani zo'riqish holatiga tushirib qo'yishi muqarrar. Shuning uchun maxsus tezkor-kuch mashqlarini qo'llashdan avval maxsus tezkor-kuch sifatini baholovchi ommabop maxsus test mashqlaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Tadqiqotlar natijasida quyidagi asos qilib olindi:

1. Maxsus rezina bilan ishlash 30 soniya.

2. Maxsus tezkor-kuch sifatini rivojlantirish uchun 15 soniya davomida o'z vazndan kichik sherik bilan oyoq oldida oyoq bilan chalish usullarni bajarish.

3. 20 soniya yotgan holatdan gavnani orqadan ushlab sherigini ko'tarish.

4. 10 soniyada gimnastika qo'shpoyada qo'llarni bukib yoyish.

5. Bir daqiqada davomida katta bolg'ani o'ng va chap tomonga harakatlantirish. Yuguruvchilar faoliyatida va xususan musobaqa bellashuvlarida barcha turdagi maxsus tezkor-kuch sifatleri (umumiy va maxsus, mutloq va nisbiy, statik va dinamik, tezkor-portlovchi) hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lishi mumkin. Shuning uchun o'quv-trenirovka jarayonida maxsus tezkor-kuchni rivojlantirishga e'tibor qaratish yuguruvchilar tayyorlashning muhim shartlaridan biridir. Yuguruvchilarda har xil turdagi maxsus tezkor-kuch sifatlerini o'rganish qayd etilgan ko'rsatkichlar tadqiqot boshida sezilarli darajada sayoz ekanligini ko'rsatdi. Jumladan, tajriba va nazorat guruhdagi shug'ullanuvchilarni qo'shib hisoblaganda ham ularning ko'rsatkichlari tadqiqot boshlanmasdan avval deyarli farq qilmadi.

Yugurish bilan shug'ullanuvchilarning maxsus tezkor-kuch sifatlerini rivojlanish darajasi natijalari

Chunonchi, maxsus rezina bilan ishlashda tadqiqot guruhi yuguruvchilarda o'rtacha arifmetik qiymati 24 ni tashkil qildi. Nazorat guruhida yuguruvchilarda o'rtacha arifmetik qiymati 21 ni tashkil qildi. Maxsus tezkor-kuch sifatini rivojlantirish uchun 15 soniyada davomida o'z

vazndan kichik sherik bilan oyoq oldida oyoq bilan chalish usullarni bajarish tadqiqot guruhi yuguruvchilarda o'rtacha arifmetik qiymati 7 ni tashkil qildi. Nazorat guruhida yuguruvchilarda o'rtacha arifmetik qiymati 8 ni tashkil qildi. 20 soniya yotgan holdan qo'llarni bukib yoyish tadqiqot guruhi yuguruvchilarda o'rtacha arifmetik qiymati 16 ni tashkil qilodi. Nazorat guruhida yuguruvchilarda o'rtacha arifmetik qiymati 15 ni tashkil qildi. 10 soniya gimnastika qo'shpyada qo'llarni bukib yoyish tadqiqot guruhi yuguruvchilarda o'rtacha arifmetik qiymati 10 ni tashkil qildi.

Nazorat guruhida yuguruvchilarda o'rtacha arifmetik qiymati 9 ni tashkil qildi. Bir daqiqa davomida katta bolg'ani o'ng va chap tomonga harakatlantirish tadqiqot guruhi yuguruvchilarda o'rtacha arifmetik qiymati 27 ni tashkil qildi. Nazorat guruhida yuguruvchilarda o'rtacha arifmetik qiymati 29 ni tashkil qildi. Olib borilgan tadqiqotlardan so'ng aniqlandiki yosh yuguruvchilarda tezkor-kuch sifatleri etarli darajada rivojlanmagan deb baholashga asos bo'ldi.

Yuguruvchilarda maxsus tezkor-kuch sifatini rivojlantirish maqsadida olib borilgan pedagogik tadqiqotlardan so'ng tadqiqotning samarasini baholash maqsadida tadqiqot va nazorat guruhlariga mansub yuguruvchilar ko'rsatkichlari statistik tahlil qilindi. Chunonchi, maxsus rezina bilan ishlash da tadqiqot guruhi yuguruvchilarda o'rtacha arifmetik qiymati 28 ni tashkil qildi. Nazorat guruhida yuguruvchilarda o'rtacha arifmetik qiymati 23 ni tashkil qildi.

kelmaslik uchun ham bilim, ko'nikmaga ega bo'lish kerak. Hozirgi kunda O' o' va G' g' harflarini kompyuter klaviaturasida yozish ham dolzarb bir muammo bo'lib kelmoqda. Bu harflarni elektron matnlarda aks ettirish uchun ham ancha vaqt, sabr talab qiladi. Bu harfni yozishda kamida kompyuter klaviaturasidagi 4 yoki 5 ta tugmani bosish talab qilinadi. Bu esa anchagini vaqtni sarf qilish demakdir. Olimlarning statistik ma'lumotlariga qaraganda, bu harflar agarda 1 ta tugma bilan bajarilish imkoni bo'lganida qanchadan qancha qog'ozlar soni ham siyohlar ham miqdor jihatdan kam bo'lar edi. Hozirgi kunda turli xildagi ommaviy axborot vositalarida yoki internetdagi dasturlarda ham ko'chish belgisining o'rniga tutuq yoki boshqa xildagi belgilar orqali O' o' va G' g' harflarning boshqa bir variantlarini ko'rishimiz mumkin. Masalan, O hafining tepa qismiga chiziqcha, to'liqin kabi belgilarni qo'yish holatlari yuzaga kelmoqda. Misol uchun, ayrim so'zlarda o'g'itlamoq; o'g'itlamoq; o'g'itlamoq kabi holatlarni kuzatilgan. Bularga endi yana «**Ò**», «**Ó**», «**Õ**», «**Ö**», «**Õ**», «**Ö**» kabi turli harflardan foydalanib yozayotganlarni qo'shing. Shuningdek, bu holat internet tarmog'ida o'zbek tilida qidiruv tizimini ham ancha murakkablashtiradi. Chunki kompyuter O' kabi harflarni ikki yoki uchga bo'lib tushunadi. Ko'chish belgisini birtirnoq deb nomlasak ham bo'ladi. WinWord dasturida biror so'zning harflarini kattalashtirish zaruriyati bo'lsa, so'zni to'liq Shift+F3 bilan belgilab olish kerak bo'ladi. Chunki dastur birtirnoqqacha qabul qiladi: **CHILBIRCHO'liklar**, **BOG'lar** kabi. Axborot asrida har kunlik chiqqan ma'lumotlarni va dolzarb mavzularni topish va kuzatish oson bo'lishi uchun **heshteg** bilan ifodalanadi. Bu holatda ham O' o' va G' g' harflari ishtirok etgan so'zlardan heshteg yasab bo'lmaydi: **#O'zbekiston #Marg'ilon; #Dang'ara #Go'zallik; #G'ijduvon #Farg'ona** kabi. Shuningdek, bu harflardan turli dasturlarni yaratish ham qiyinchiliklarga olib kelmoqda. Bu kabi masalalarni IT mutaxassisleri ham tinmay takrorlab kelishmoqda. Bu harflarning yechimini topish kerakligi oldimizda turgan muhim masala hisoblanib, O' o' va G' g' harflarini kompyuter klaviaturasida bitta tugma orqali hosil qilish, shuningdek, bu harflarni jamiyatda bexato yozishni yo'lga qo'yish shart.

XULOSA. Yuqoridagi fikrlarning xulosasi o'laroq shuni aytish joizki, Tutuq belgisi va ko'chish belgisining farqi ularni yozuvda aks ettirganda shakli har xil bo'lishi shart. Shuningdek, tutuq belgisi orqali ifodalangan so'zda tutuq belgi qo'llangan harflar orasida to'xtam hosil bo'ladi. Bu esa so'zning chiroyli talaffuz qilinishida xizmat qiladi. Tilimizda tutuq belgisi bilan ifodalangan so'zlar so'zlashuv jarayonida keng qo'llanilib kelinadi. Tutuq belgisi bitta so'zda qo'llanilishi va qo'llanmasligiga ko'ra ma'no farqlanadi. Masalan, da'vo, sa'va kabi so'zlarda bu holat kuzatiladi. Ko'chish belgisining tutuq belgisidan farqli tomoni shundaki, tutuq belgisi ma'lum bir so'zda to'xtam belgisini ifodalasa, ko'chish belgisi esa O' o' va G' g' harflarini hosil qilishda xizmat qiladi. Demak, ko'chish belgisi ma'lum bir harf yasashining bir bo'laki bo'ladi. Jamiyatda bu belgilarni farqlash uchun maktablarda o'quvchilarga orfografiya bo'limi chuqur o'rgatilishi hamda kompyuterda yozayotgan har bir kishi uchun kompyuter savodxonligini oshiruvchi o'quv qo'llanmasi tarkibiga ko'chish belgisi va tutuq belgisi haqida nazariy ma'lumot berib o'tilishi kerak.

REFERENCES

1. Rahmatullayev. Sh. O'zbek tilining yangi alifbosi va imlosi. -Toshkent, 1999.
2. Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. - Toshkent, 2013.
3. Ahmedova.N. O'zbek orfografiyasi va punktuatsiyasi asoslari.-Toshkent,2016.
4. CC BY-SA 3.0
5. Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili //Toshkent-2007. – 2005.
6. Madvaliyev A. O'zbek tilining imlo lug'ati. T.; Akademnashr. 2013. – B. 526.
7. Makhmaraimova S. T. Uzbek political and social, public discourse metaphoric models //Thematics Journal of Education. – 2021. – T. 6. – №. November.
8. Mengliyev B. Hozirgi o'zbek tili //Toshkent: Tafakkur bo'stoni. – 2018.
9. N. Mahmudov, A. Rafiyev, I. Yo'ldoshev. Davlat tilida ish yuritish. –T.
10. Cho'lpon. 2007. www.ziyouz.com kutubxonasi. – B. 128.
11. Rahimov S., Umurqulov B. Hozirgi o'zbek adabiy tili //Toshkent: O'qituvchi. – 2003. – T. 220.
12. Umurqulov B. An essential feature of artistik discourse //Scientific Bulletin of Namangan State University. – 2019. – T. 1. – №. 10. – C. 242-246.
13. Sayfullayeva R. R., Khalmuhamedova U. R., Botirova A. E. Language picture of the world and functional specialization of words //Journal of Critical Reviews. – 2020. – T. 7. – №. 7. – C. 943-947.
14. Xolmanova Z. O'zbek tili imlo qoidalarini takomillashtirish davr talabi.
15. O'zbek tilshunosligining dolzarb masalalari. 2017. – B. 30-33
16. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995-yil 24-avgustdagi "O'zbek tilining asosiy imlo qoidalarini tasdiqlash haqida" 339-son qarori. <https://lex.uz/docs/-1625271>
17. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori: Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida /01.09.2020/ <https://lex.uz/acts/-316337>
18. Rahmatullayev Sh., Hojiyev A. O'zbek tilining imlo lug'ati. T.; O'qituvchi
19. Davidov Y. J. WORD FORMATION PATTERNS IN UZBEK LANGUAGE //International Conference on Agriculture Sciences, Environment, Urban and Rural Development. – 2021. – C. 16-21.
20. Davidov Y. J. The Phenomenon of Polysemy and Different Aspects of Conversion //European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630). – 2021. – T. 12. – C. 245-247.
21. Davidov Y. O'ZBEK TILINING KIRILL VA LOTIN YOZUVI IMLO QOIDALARINING QIYOSI //Eurasian Journal of Academic Research. – 2022. – T. 2. – №. 13. – C. 836-839.

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING INTELLEKTUAL QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH – PEDAGOGIK ZARURIYAT

Ibragimova Yulduzxon Baxodirovna

Andijon viloyati Jalaquduq tumani 17 - DIUM Boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7660105>

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang'ich sinif o'quvchilarining intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishning pedagogik zaruriyati va mavjud holati, o'rganilganlik darajasi hususida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim, qobiliyat, intellekt, matematika, rivojlanish, didaktik o'yinlar, ijodiy yondashuv, fikrlash, integratsiya.

РАЗВИТИЕ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫХ СПОСОБНОСТЕЙ МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ - ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ НЕОБХОДИМОСТЬ

Аннотация. В данной статье рассматривается педагогическая необходимость и текущее состояние развития интеллектуальных способностей младших школьников, степень усвоенности.

Ключевые слова: начальное образование, способности, интеллект, математика, развитие, дидактические игры, творческий подход, мышление, интеграция.

DEVELOPMENT OF INTELLECTUAL ABILITIES OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS - PEDAGOGICAL NECESSITY

Abstract. This article provides an idea of the pedagogical necessity and existing state of development of intellectual abilities of Primary School students, the level of learning in particular.

Keywords: primary education, ability, intelligence, mathematics, development, didactic Games, creative approach, thinking, integration.

Bo'lajak boshlang'ich sinif o'qituvchisi boshlang'ich ta'lim o'quvchilarining intellektual fikrlay olish salohiyati, aqliy rivojlanishi, o'zini-o'zi anglash salohiyatini shakllantirishi, moddiy borliq go'zalliklarini his eta olishga o'rgatishi, boshqalar fikrlarini tushunishini, shaxsiy fikrlarini og'zaki va yozma bayon eta olish hislatlarini shakllantirishga erishishi lozim.

“Ta'lim va fan sohasini rivojlantirish davlat siyosati ma'no-mazmuni va uning dolzarbligidan kelib chiqib, unga quyidagicha izoh keltirish mumkin:

birinchidan, yangi ta'lim tizimi, barkamol avlod kadrlarni tayyorlashdagi o'zgarishlar va yangicha yondashuvlar, zamonaviy kasb sohalarining paydo bo'lgani hamda uning mamlakatimiz sharoiti bilan bog'liqligidir;

ikkinchidan, ta'lim tushunchasi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot natijasida muayyan davrdan boshlab inson faoliyatining alohida mustaqil sohasiga aylanib, jamiyatning ijtimoiy tajribasini keyingi bosqichga uzatadi;

uchinchidan, ta'lim inson shaxsining intellektual-ma'naviy qirralarini shakllantirish, uning jamiyat ishlab chiqarish va ijtimoiy, siyosiy, madaniy, ma'rifiy hayotida faol va muvaffaqiyatli ishtirokini ta'minlashga qaratilgan harakatlar yig'indisi bo'lib, ma'rifat hamda bilim berishni anglatadi;

to'rtinchidan, fan jamiyatining ijtimoiy institutlaridan biri bo'lib, tabiat va jamiyat hayotini aks ettiruvchi ijtimoiy ong shaklidir. U katta ilmiy salohiyatni, ijodiy kuch-quvvatni birlashtirib,

ma'naviy barkamol insonni tarbiyalashga, mamlakatda qudratli ilmiy salohiyatni yaratishga xizmat qiladi”.

Bugungi kunda faqat yuksak bilimli, zamonaviy, mustaqil fikrlaydigan, intellektual rivojlangan va amaliy kasb-hunarga ega yoshlargina mamlakatning buyuk kelajagini taminlashi mumkin.

Intellekt (lotincha: intellects — bilish, tushunish, idrok qilish) — insonning aqliy qobiliyati; hayotni, atrof muhitni ongda aynan aks ettirish va o'zgartirish, fikrlash, o'qish-o'rganish, dunyoni bilish va ijtimoiy tajribani qabul qilish qobiliyati; turli masalalarni hal qilish, bir qarorga kelish, oqilona ish tutish, voqeahodi-salarni oldindan ko'ra bilish layoqati. [5, 46-b]

O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida “Uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, yosh avlodning ijodiy va intellektual salohiyatini qo'llab-quvvatlash va ro'yobga chiqarish”i kabi ustuvor vazifalar belgilanib, bu borada boshlang'ich sinf o'quvchilarining intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish amaliyotini tahlil qilish, mantiqiy fikrlash mezonlarini aniqlashtirish, o'quvchilarning intellektual rivojlanishlari va o'z qobiliyatlari va moyilliklariga muvofiq malakalarni egallash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. [1, 6-son, 70-modda]

Darslarni tayyorlash va o'tkazishda quyidagi tamoyillarni amalda qo'llash boshlang'ich sinf o'quvchilarining intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishda asosiy tamoyillar hisoblanadi :

1 . Bolaning intellektiga ko'p qirrali rivojlanish ta'siri tamoyili.

Darslar uchun nafaqat berilgan mavzu bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishga hissa qo'shadigan, balki bir qator intellektual fazilatlarni rivojlantiradigan mashqlarni tanlash va tuzish

2. Ta'limga samarali yondashish tamoyili.

Darsni shunday tashkil etishga harakat qilish kerakki, bolalar vazifalarni hal qilishning o'ziga xos usullarini izlashsin, chunki bir vaqtning o'zida ularning aqliy faoliyati faollashadi va intellektual fazilatlari yaxshilanadi.

3. Oqilona javob berish tamoyili.

Vazifalarni shunday shakllantirish kerakki, bolalar o'z nuqtai nazarini, yechimining o'z versiyasini asoslashlari kerak.

4. Ijobiy motivatsiya prinsipi

Muvaffaqiyatli o'quv jarayoni uchun sinfda maxsus sharoitlar yaratish - quvonch, ajablanish, zavqlanish muhiti.

5. Insonparvarlik va hamkorlik tamoyili

Boshlang'ich sinf matematika darslari orqali o'quvchilarning intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish imkoniyatlari boshqa o'quv predmetlariga nisbatan kengroqdir. Sababi, biz matematika darsidan oddiygina bir masala yechimini topish orqali ham fanlararo integratsiyani amalga oshiramiz, ham o'quvchini kengroq nazariy bilimni amaliy hayotga bog'lab o'rganishlariga yordam beramiz va matematika darslarida o'quvchilar o'zi yashayotgan hayotdagi bo'layotgan o'zgarishlardan ham o'z o'rnida xabardor bo'ladilar. Misol sifatida, 3- sinf matematika darsligidagi bir masalani keltirib o'tmoqchimiz:

Masala. Anvarning akasi va singlisi bor. Uchalasining yoshini qo'shib

hisoblaganda 17 yosh. 6 yildan keyin ularning yoshini hisoblaganda qancha bo'ladi? [6, 39 b]

Yuqoridagi birgina masalani yechimini izlash orqali o'quvchilarda

birinchidan, tarbiya fani bilan integratsiya qilib aka-uka, opa-singillar orasidagi mehr-oqibat haqida o'quvchilarning fikrlarini kengaytirish mumkin.

Ikkinchidan, hayotga bog'lab masala yechimini topishda esa o'quvchilarga quyidagicha savol berish mumkin, sizning akangiz (ukangiz), opangiz(singlingiz) va sizning yoshingizni qo'shganimizda natija nechi bo'ladi? 6 yildan keyin qanday o'zgaradi bu oraliq?, 9 yildan keyinchi?, 10 yildan keyinchi?. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishda

1. Nostandart masalalar 2. Mantiqiy masalalar

3. Muammoli vaziyatlarga keltiruvchi masala turlaridan kengroq foydalansak o'z maqsadimizga osonroq erishamiz.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7-fevraldagi "O'zbekiston
2. Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategisi to'g'risida"gi PF-4947 son Farmoni //O'zbekiston Respublikasi qonun xujjatlari to'plami, 2017 yil., 6-son, 70-modda.
3. Adizov B "Boshlang'ich talimni ijodiy tashkil etishning nazariy asoslari" Toshkent. 2002- yil.
4. Nurmatova Sh.I. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish: Mag. Diss. Toshkent 2014.
5. E.G'oziyev. Ta'lim jarayonida o'quvchilar tafakkurining o'sish. Toshkent "Fan" nashriyoti 1980 yil. 46-bet.
6. M.M.Sultonov. Matematika darslarida boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv-intellektual qobiliyatini rivojlantirish. O'quv qo'llanma. Toshkent 2012
7. S.Burxonov, O'. Xudoyorov. 3-sinf matematika darsligi. Toshkent 2019.

ONA TILI O'QITISH METODIKASINING ILMIY ASOSLARI VA TAMOYILLARI

Xaydarova Dilnoza Xikmatovna

Andijon viloyati Jalaquduq tumani 17 - DIUM Ona tili va adabiyoti o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7660184>

Annotatsiya. Metodik fan sifatida ona tili o'qitish metodikasi maktabda o'qitishning o'quvchilar nutqining yaxshi rivojlanishiga kafolat beradigan tilni har tomonlama bilishning ijtimoiy rolini tushuntiradigan yo'llari bilan ta'minlashi kerak. Demak, nutq o'stirish maktabning muhim vazifasidir.

Kalit so'zlar: ona tili, pedagogik psixologiya, adabiyot.

НАУЧНЫЕ ОСНОВЫ И ПРИНЦИПЫ МЕТОДИКИ ОБУЧЕНИЯ РОДНОМУ ЯЗЫКУ

Аннотация. Методика обучения родному языку как методическая дисциплина должна обеспечивать способы школьного обучения, объясняющие социальную роль всестороннего знания языка, гарантирующего хорошее развитие речи учащихся. Следовательно, развитие речи-важная задача школы.

Ключевые слова: родной язык, педагогическая психология, литература.

SCIENTIFIC FOUNDATIONS AND PRINCIPLES OF THE METHODOLOGY OF TEACHING THE NATIVE LANGUAGE

Abstract. The methodology of teaching the native language as a methodological science should provide ways of teaching at school that explain the social role of comprehensive knowledge of the language, which guarantees the good development of students' speech. Hence, the cultivation of speech is an important task of the school.

Keywords: mother tongue, pedagogical psychology, literature.

Dunyoni bilish nazariyasi ona tili o'qitish metodikasining metodologik asosi hisoblanadi. Metodikaning amaliy ahamiyati o'quvchilarning til boyligini har tomonlama to'liq bo'lib olishlarini ta'minlashdir. Buning uchun biz quyidagilarni yodda tutushimiz lozim: til kishilar o'rtasidagi aloqaning zaruriy vositasidir; tilsiz jamiyatning yashashi mumkin emas; tilning aloqa vositasi sifatidagi ahamiyati uzluksiz ortib boradi; maktabning vazifasi tilni aloqa-kishilar orasidagi munosabatning rivojlangan nozik quroliga aylantirish hisoblanadi. Til oqilona, mantiqiy bilish vositasidir; til birliklari va formalari yordamida bilish jarayonida umumlashtirish, tushunchani muhokama va xulosa bilan bog'lash amalga oshiriladi; til va nutq tafakkur bilan uzviy bog'lanadi; biz fikrni nutqda shakllantiramiz; tilni egallash va nutqni o'stirish bilan o'quvchining fikrlash qobiliyati ham o'sadi. Amaliyot kishi bilimining manbai va harakatlantiruvchi kuchi, haqiqat mezoni va bilim tojidir. Analitek-sintetik ishlar yordamida til ustida kuzatishdan umumiy xulosa chiqarishga, nazariy ta'rif va qoidaga, shular asosida og'zaki va yozma tarzidagi jonli nutqiy aloqaga, to'g'ri talaffuzga o'tadilar. Ular kuzatish jarayonida bilib olgan, uzlashtirgan qoidalarini amaliyotga tatbiq etadilar.

Metodika bilish nazariyasidan tashqari, yangi fanlar, xususan, psixologiya, pedagogika ma'lumotlariga tayanadi. Pedagogik psixologiya bilimlarning o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishini, ko'nikma va malakalarning shakllanish jarayonini tekshiradi. Metodika psixolingvistika bilan ham bog'liq. Metodikaga psixolingvistika nutq haqida, uni talab qiluvchi

sabablar, nutq turlari, nutqni qabul qiluvchi signallar va boshqalar haqida ma'lumot beradi. Shuningdek, metodika, didaktika, umumiy pedagogika bilan o'zaro bog'liq. Ona tili o'qitish metodikasini ona tilning ma'lum qismini amaliy, ma'lum qismini nazariy egallashni nazarda tutadi. Shuning uchun ona tili - lingvistik metodikasining muhim asosi hisoblanadi.

Savod o'rgatish metodikasini ishlashda fonetika, fonologiya, grafika asos bo'ladi. Lug'at ishini tashkil etishda leksikologiya, so'z tarkibi, so'z yasashini o'rganishda so'z yasalishi, etimologiya, grammatika asos bo'lsa, morfologiya va sintaksis til qurilishi haqida tushuncha hosil qilishda, to'g'ri yozuvga o'rgatishga orfografiya nazariyasiga asoslanadi.

O'qish metodikasi adabiyot nazariyasiga asoslanadi. Chunki o'quvchilar badiiy asarni amaliy tarzda tahdil qiladilar. Boshlang'ich sinflarda adabiyotshunoslikdan nazariy ma'lumot berilmaydi, ammo metodika adabiy asarning yaratilish qonuniyatlarini va uning o'quvchilarga ta'sirini ayniqsa, adabiyotshunoslikka oid mavzulardan asarning g'oyaviy mazmuni, uning mavzusi va mazmunini, qurilishi, janri, tasvirik vositalarini hisobga olish zarur.

O'quvchilarga ona tilni o'rgatish, ularni tarbiyalash, har tomonlama o'stirish vazifasidan kelib chiqib, bilish nazariyasiga asoslanib, barcha yaqin, o'zaro bog'liq fanlar tavsiyalariga asoslanib ona tili o'qitish metodikasi o'z tamoyillarini ishlab chiqadi. Bu tamoyillar umumdidaktik tamoyillardan tashqari tamoyillar bo'lib, o'qituvchi bilan o'quvchi o'rtasidagi o'quv mehnatining yo'nalishlarini belgilab beradi.

Ona tili o'qitish tamoyillari 5 ta:

1. Til materiyasiga, nutq organlarining o'sishiga, nutq malakalarining to'g'ri rivojlanishiga e'tibor berish tamoyili. Nutq, til qonuniyatlariga, oz bo'lsa-da, e'tibor bermaslik amaliy nutq faoliyatini egallashga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Masalan, fonetik ko'nikmalarga yetarli e'tibor berilmasa imloviy savodxonlikka putur yetadi. Bu ta'lim tamoyili tildan olib boriladigan mashg'ulotlarda eshtuv va ko'ruv kursatmaliligini ta'minlashni va nutq organlarini mashqlantirishni (gapirib berish, ifodali o'qishni ichida, gapirishni) talab etadi.

2. Til ma'nolarini (leksik, grammatik, morfemik, sintaktik ma'nolarini) tushunish printsipli. So'zni, morfemani, so'z birikmasini, gapni tushunish borliqdagi ma'lum voqea-xodisalar o'rtasidagi bog'lanishni aniqlash demakdir. Til ma'nolarini tushunish tamoyiliga amal qilishning sharti tilning xamma tomonlarini, tilga oid barcha fanlar (grammatika, leksika, fonetika, orfografiya, stilistika)ni o'zaro bog'langan xolda o'rganish xisoblanadi. Masalan, morfologiyani sintaksisga tayangan xoldagina o'rganish, o'zlashtirish mumkin. Sintaksisni o'rganishda esa morfologiyaga suyaniladi, orfografiya fonetika, grammatika, so'z yasashiga suyanadi va h.k. So'zni morfemik tomondan taxlil qilish uning ma'nosini tushunishga yordam beradi. Tilning hamma tomonlari bir-biri bilan o'zaro bog'langan bo'lib, o'qitishda buni albatta xisobga olish kerak.

3. Tilga sezgirlikni o'stirish prinsipi. Til - juda murakkab xodisa, uning tuzilishini, sistemasini faxmlab olmay turib, sal bo'lsa-da, uning qonuniyatlarini, o'xshashliklarini o'zlashtirmay turib uni yodda saqlab bilmaydi. Bola gaplashish, o'qish, eshitish bilan til materiallarini yig'adi, uning qonunlarini o'zlashtiradi. Natijada kishida tilga sezgirlik (til xodisalarini tushunish) xususiyati shakllanadi : tilni egallash mumkin emas.

4. Nutqning ifodaliligiga baho berish tamoyili. Bu tamoyil til hodisalarini tushunmay turib savodli yozish, nutq madaniyati vositalarining xabar berish funksiyasini tushunish bilan bir qatorda, uning ifodalilik (uslubga oid) funksiyasini tushunishni, mazmuninigina emas, balki so'z

va nutq oborotlarining, tilning boshqa badiiy-tasviriy vositalarining hissiy ottenkalarini ham tushunishni kuzda tutadi. Bu tamoyilga amal qilish uchun, birinchn navbatda, badiiy adabietlardan, shuningdek, tilning funktsional-stilistik xususiyatlari anik ifodalangan boshka matnlardan foydalanish talab etiladi.

5. Og'zaki nutqni yozma nutqdan oldin o'zlashtirish tamoyili. Bu tamoyil ham kishi nutqining rivojlanishiga ta'sir etadi va til o'qitish metodikasini tuzishda xizmat qiladi.

Metodika tamoyillari, didaktika tamoyillari kabi o'qituvchi bilan o'quvchining maqsadga muvofik; faoliyatini belgilashga, ularning birgalikdagi ishlarida qulay yo'nalishini tanlashga yordam beradi, metodikaning fan sifatida nazariy asoslash elementlaridan biri bo'lib xizmat qiladi.

REFERENCES

1. Toshkent sh., 2020-yil 20-oktabr, PF-6084-son
2. Ibrohim Haqqul. Mushohada yog`dusi. T- 2009.

BUGUNGI KUNDAGI IMLO MUAMMOLARI

Ro'ziyeva Marjona Ixtiyor qizi

Termiz davlat universiteti O'zbek filologiyasi fakulteti

Amaliy filologiya yo'nalishi 1 - kurs talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7660662>

Annotatsiya. Ushbu maqolada tilshunoslik uchun muhim bo'lgan imlo qoidalari va shu bilan bog'liq muammolar haqida so'z boradi. Chunki madaniyatning birinchi bosqichidan biri bu nutqning imloviy jihatdan to'g'ri bo'lishi hisoblanadi. Maqolada bugungi kundagi imlo muammolarimiz yoritilgan va ularni yechish haqida fikr bildirilgan.

Kalit so'zlar: lotin, kirill, imlo, alifbo, savod.

СЕГОДНЯШНИЕ ПРОБЛЕМЫ С ПРАВОПИСАНИЕМ

Аннотация. В данной статье рассматриваются правила правописания и связанные с ними проблемы, важные для языкознания. Потому что одним из первых этапов культуры является правописание правильной речи. В статье освещаются проблемы правописания, с которыми мы сталкиваемся сегодня, и предлагаются способы их решения.

Ключевые слова: латиница, кириллица, орфография, алфавит, грамотность.

TODAY'S SPELLING PROBLEMS

Abstract. This article discusses spelling rules and related problems that are important to linguistics. Because one of the first stages of culture is spelling correct speech. The article highlights the spelling problems we face today and suggests how to solve them.

Key words: Latin, Cyrillic, spelling, alphabet, literacy.

Mustaqillikka erishgach o'zbek tiliga Davlat tili maqomi berilganligi ona tilimiz nufuzini oshishida asosiy sabablardan biri bo'ldi. Milliy iftixorimiz, g'ururimiz, o'zligini va o'ziga bekligimizning yorqin ifodasi bo'lgan davlat tilimiz o'z maqomiga erishguncha ko'plab tazyiq va tahqirliklarga duch kelgan. "Dunyodagi qadimiy va boy tillardan biri bo'lgan o'zbek tili xalqimiz uchun milliy o'zligimiz va mustaqil davlatchiligimiz timsoli, bebaho ma'naviy boylik, buyuk qadryatdir", deya ta'kidlagan edi muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev. Aslida, iftixorimiz ramziga aylangan o'zbek tilini o'z qonun qoidalari asosida chiroyli qo'llay olishimizni o'zi tilimizga nisbatan yuksak ehtirom sanaladi.

Yurtboshimizning yuqoridagi fikrlarini doimo yodda saqlamog'imiz darkor: "Ayni vaqtda jamiyatimizda til madaniyatini oshirish borasida hali ko'p ish qilishimiz lozimligini ham unutmasligimiz zarur. Ayniqsa, ba'zan rasmiy murojaatlarda ham adabiy til qoidalari rioya qilmaslik, faqat ma'lum bir hudud doirasida ishlatiladigan sheva elementlarini qo'shib gapirish holatlari uchrab turishi bu masalalarning hali-hanuz dolzarb bo'lib qolayotganligini ko'rsatadi. Bu haqda esa so'z yuritganimizda, bobimiz Alisher Navoiyning "Tilga e'tiborsiz- elga e'tiborsiz" degan so'zlarida naqadar chuqur hayotiy haqiqat mujassam ekaniga yana bir bor ishonch hosil qilamiz".

Lotin yozuviga to'liq o'ta olmayotganimizning o'ziga yarasha sabablari mavjud. Ularning eng asosiysi deb harflardagi noqulayliklar e'tirof qilinib kelmoqda. Ushbu masala yuzasidan Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida maxsus kengash tuzilib, ijobiy ishlar amalga oshirilmoqda. Lotin alifbosiga 1995-yilda o'zgartirishlar kiritiladi. Bu esa ba'zi noqulayliklar keltirib chiqardi. O'shanda qabul qilingan "sh", "G", "Ch", "O" harflarini yozish uchun bir

necha klavishlardan foydalanishimiz kerak bo'lib qoldi. Buning natijasida ko'plab foydalanuvchilar, shular jumlasidan, yoshlar ijtimoiy tarmoqlardagi o'zaro so'zlashuvlarda "sh" harfining o'rniga "w", "ch" harfining o'rniga "4", "o" harfining o'rniga "6" kabi sinovlardan ham foydalanishiga o'tib ketishdi. "Sh" va "ch" harflardan muammolarga to'xtaladigan bo'lsak, bu harflar ikkita simvol bilan ifodalanadi, ya'ni "s" va "h", "c" va "h". Ushbu qo'sh belgilar "h" va "x" harflari ishtirok etgan so'zlarni farqlashga ham halaqit bergani uchun ko'pchilik "h" harfining faqat sh va ch harflarini ifodalash uchun foydalanib, qolgan hollarda esa faqat "x" harfini ishlatayotgani barchamizga ma'lum. Bu nuqson va xatoliklar lotin alifbosida imlo savodxonligi ancha pastga tushib ketishiga sabab bo'lmoqda.

Demak, bu muammoga yechim sifatida shuni ayta olamanki, sh va ch harfiy birikmalarni "sh" va "ch" ko'rinishida ifodalasak, h va x harfini ortiqcha tashvishdan xalos qilishi mumkin va o'quvchilarga h va x harflarini qay o'rinda qanday ishlatishni va farqlashni osonlashtiradi deb hisoblaymiz. Bugungi kunning dolzarb muammolarining biriga aylanib bo'lgan lotin alifbosidagi O' va G' harflaridagi simvol va tutuq belgisidir. Ularni yozish bo'yicha juda ham ko'plab xatoliklar mavjud. Bu harflardan simvol va tutuq belgisini bir-biridan farqlay olmaydiganlar, albatta, yo'q emas. O' va G' harflari ustidagi yuqoriga qaragan vergul ko'rinishidagi simvol va pastga qaragan vergul ko'rinishidagi vergul ko'rinishidagi esa tutuq belgisi hisoblanadi. Shu sababli biror matnni kompyuterlarda yozmoqchi bo'lsak, imlomizda ko'plab xatolar qilamiz.

Yuqoridagi xatoliklar o'z savodxonlik darajasi, lotin yozuvining imlo qoidalaridan qanchalik xabardorligiga bog'liqdir. Bunda, albatta, har bir shaxs o'z ustida ishlashi, imlo qoidalari bo'yicha bilimni oshirishi kerak bo'ladi.

Bizning asosiy maqsad va vazifalarimizdan biri ona tilimizni mukammal holga keltirish, undagi so'zlarni to'g'ri talaffuz qilish va to'g'ri yozishdi. Xo'sh, biz bu qonun qoidalardan unumli foydalanib kelyapmizmi? Ushbu masalaning bir qismigagina to'xtalib o'tmoqchiman. Davlat tili haqidagi qonunning ikkinchi va undan keyingi tahrirlarida asosiy e'tibor lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosiga mukammal o'tishni ta'minlashga qaratilgan.

Demak, qonun ijrosini ta'minlash uchun, avvalo, joriy grafik tizimimizda qat'iy rioya qilishni yo'lga qo'yish lozim bo'ladi. O'zbek tiliga Davlat tili maqomining berilishi o'qitish, o'rganish tamoyillarning, usullarini tubdan o'zgartirishni taqozo qilmoqda. Shu o'rinda insoniyatning o'tmishidagi ma'naviy-ma'rifiy va ilmiy boyliklarni, jamiyatdagi yetakchi, ilg'or g'oyalarni avlodlarga yetkazib berishda muhim qurol yozuv ekanligini ta'kidlash joizdir.

Endi masalaning ikkinchi tomoniga to'xtaladigan bo'lsak, hozirgi kunda bolalarga, maktab o'quvchilariga, talabalarga mo'ljallangan kitoblar, darslik va qo'llanmalar lotin alifbosida, keng omma uchun mo'ljallangan kitoblar esa kirill alifbosida nashr qilinayotgani barchamizga ma'lum. Chunki lotin alifbosi yetarlicha ommalashgani, kirill yozuviga o'qigan odamlarning soni nisbatan ko'pligi sabab kirill yozuvidagi kitoblarga talab yuqori.

Barchamizga ma'lumki, taraqqiyot rivojlanganligi sababli ish yuritish hujjatlarini elektron shaklda tayyorlashni taqozo qilmoqda.

Ko'pgina tashkilot hujjatlari matnlarni kuzatish jarayonida yozuvning ruscha-kirilcha turidan foydalanib kelinayotganligiga guvoh bo'lamiz. Bu esa o'zbek tilidagi ayrim so'zlarning butunlay xato yozilishiga sabab bo'lmoqda.

Birgina misol sifatida "hujjat" so'zini olib qaraydigan bo'lsak, ruscha-kirilcha yozuvda bu so'z "хужжат" tarzida yozilib kelinayotganligi achinarli hol. Bunday misollarni ko'plab

keltirishimiz mumkin. Ozgina e'tibor va mas'uliyat bilan bu kabi g'alizliklarga, kerak bo'lsa jiddiy muammolarga oydinlik kiritish, o'zbek yozuviga asoslangan lotin yozuvidan samarali foydalanish maqsadga muvofiqdir. Ko'cha yozuvlardagi xatoliklar, bir tomondan, lotin alifbosini yaxshi o'rganmaganlik, ikkinchi tomondan, yozma nutqqa e'tiborsizlik bilan qarashining natijasida. Bugungi kunda asosiy muammolarga sabab bo'lgan "сентябрь" va "октябрь" so'zlari ushbu kungacha sentabr va oktabr tarzda yozilib keldi.

Ammo Shavkat Rahmatullayev o'zbek tilining asosiy imlo qoidalariga quyidagi ilovani kiritadi: "So'zning talaffuzi keskin o'zgarib ketmasligi uchun ba'zan -ya, -yo, -yu harflari yoziladi". Masalan, боксёр-boksyor, бюро- byuro, славян-slavyan kabi so'zlar yuqoridagi muammolarni bir qadar hal etadi, ammo -ya, -yu, -yo harflarining birikmali qo'llanishini aniq belgilab bera olmaydi. Yozuv amaliyotida sentabr-sentyabr, oktabr-oktyabr kabi so'zlarning ikki xil yozila boshlanganigi ham shundan bo'lsa kerak.

Ming afsuski, hozirgi kunda bunaqa xatolar minglab topiladi. Shu bilan birgalikda qanchalik savodsizlanib borayotganimizni ko'rishimiz mumkin. Bu esa achinarli holat. O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 10- fevraldagi "Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosiga bosqichma-bosqich o'tishni ta'minlash chora tadbirlari" to'g'risidagi 61-son qarori davlat tilini yanada mukammal rivojlantirish, uning nufuzini yanada oshirish bo'yicha bir qator vazifalarni belgilab berdi.

Ularning biri lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini, imlo qoidalarini yanada takomillashtirish va yangi yozuviga to'liq o'tishni ta'minlash, foydalanish tizimiga barham berish. Ushbu masala bo'yicha mutaxassislar lotin alifbosiga to'liq o'tishni qat'iylik bilan aytishmoqda va bu, albatta, aniq maqsad.

O'zbek tilini davlat tili sifatida nufuzi va mavqeini oshirishdagi vazifalardan biri imlo qoidalarini takomillashtirishdan iboratdir. Hozirgi kunda xalqimiz ikki xil yozuvidan foydalanyapti. Avvalo, ikki xil yozuvning muomalada bo'lishi maqsadga muvofiq emas. Shuningdek, 1993-yilda qabul qilingan lotin yozuvining to'liq joriy qilinishiga to'siq bo'layotgan sabablar ham bor. Shuning uchun 20 yildan ortiq muddat davomida lotin yozuvi asosidagi yangi o'zbek alifbosiga to'liq holda o'tilmadi. Bizning asosiy muammomiz ikki xil yozuvidan foydalanayotganidan emas, balki har ikkala yozuvning o'ziga xos bo'lgan imlo qoidalariga amal qilmayotganimiz natijasida yuzaga kelmoqda.

Oliy ta'lim va umumta'lim maktablari uchun mo'ljallangan "Hozirgi o'zbek adabiy tili" darsliklarini orfografiyaga oid qismlarida yozilishi muammo bo'layotgan so'zlarni amalda to'g'ri ifodasini keltirish imlo qoidalarini o'zlashtirishga, savodxonlik darajasini oshirishga tubdan xizmat qilib kelmoqda. Universitet talabalari, maktab o'quvchilariga imlo lug'atlaridan foydalanish ko'nikmasini hosil qilish, tilshunoslikka oid darslarda imlo lug'atlariga murojaat qilish imlo qoidalari bilan bog'liq muammolarni bartaraf qilishga xizmat qiladi. O'zbek tili ta'limida metodlardan foydalanish, yangi o'qitish texnologiyalarini qo'llash asosida imlo qoidalariga qat'iy amal etish ham muhim masalalardan biri hisoblanadi.

Savodxonlik odamning axloqi, fazilati, mas'uliyatidan dalolat beradi. Savodxonlikka amal qilmaslik shunchaki imlo qoidalarini buzish emas, balki noto'g'ri ifodalashga ham olib keladi. Ona tilini qadrlash, takomillashtirish, uning sifatini, nufuzini oshirish har birimizning asosiy maqsadlarimizdan biridir. Har birimiz so'zlarni to'g'ri yozishimiz shart, negaki to'g'ri yozish savodxonlikning asosidir.

REFERENCES

1. Ahmedova.N. O‘zbek orfografiyasi va punktuatsiyasi asoslari.-Toshkent,2016.
2. Rahmatullayev. Sh. O‘zbek tilining yangi alifbosi va imlosi. -Toshkent, 1999.
3. Jamolxonov H, Sapayev Q . Imlo muammolari. - Toshkent, 2013.
4. Jamolxonov H. Hozirgi o ‘zbek adabiy tili //Toshkent-2007. – 2005.
5. Madvaliyev A. O‘zbek tilining imlo lug‘ati. T.; Akademnashr. 2013. – B. 526.
6. Mengliyev B. Hozirgi o ‘zbek tili //Toshkent: Tafakkur bo‘stoni. – 2018.
7. N. Mahmudov, A. Rafiyev, I. Yo‘ldoshev. Davlat tilida ish yuritish. –T.
8. Rahimov S., Umurqulov B. Hozirgi ozbek adabiy tili //Toshkent: O‘qituvchi. – 2003. – T. 220.
9. Xolmanova Z. O‘zbek tili imlo qoidalarini takomillashtirish davr talabi.
10. O‘zbek tilshunosligining dolzarb masalalari. 2017. – B. 30-33
11. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995-yil 24-avgustdagi “O‘zbek tilining asosiy imlo qoidalarini tasdiqlash haqida” 339-son qarori. <https://lex.uz/docs/-1625271>
12. Davidov Y. J. WORD FORMATION PATTERNS IN UZBEK LANGUAGE //International Conference on Agriculture Sciences, Environment, Urban and Rural Development. – 2021. – C. 16-21.
13. Davidov Y. J. The Phenomenon of Polysemy and Different Aspects of Conversion //European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630). – 2021. – T. 12. – C. 245-247.
14. Davidov Y. O‘ZBEK TILINING KIRILL VA LOTIN YOZUVI IMLO QOIDALARINING QIYOSI //Eurasian Journal of Academic Research. – 2022. – T. 2. – №. 13. – C. 836-839.

ОБРАЗ МАТЕРИ В ПРОЗЕ Ч.Т.АЙТМАТОВА

Муродова Дилдора Арабовна

Преподаватель русского языка и литературы Кафедры «Истории и филологии»
Азиатский Международный университет, Бухара, Узбекистан

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7660694>

Аннотация. Статья посвящена образу матери в прозе Чингиза Торикуловича Айтматова. В данной статье анализируется образ матери, описанный в трудах Ч. Айтматова. Здесь рассматривается поэтапный процесс формирования духовно-нравственных ценностей современной молодёжи.

Ключевые слова: Образ матери, ценность, земля, скорбящая мать, Чингиз Айтматов.

THE IMAGE OF THE MOTHER IN THE PROSE OF CH.T. AITMATOV

Abstract. The article is devoted to the image of the mother in the prose of Chingiz Torekulovich Aitmatov. This article analyzes the image of the mother described in the writings of Ch. Aitmatov. Here we consider the step-by-step process of formation of spiritual and moral values of modern youth.

Keywords: Mother's image, value, land, grieving mother, Chingiz Aitmatov.

Проблема воспитания современной молодёжи – это задача не из лёгких. Значимая деятельность педагога- научить детей, соответствуя жить в обществе сохраняя духовность и культуру.

Внимательное чтение произведений писателя Ч.Айтматова наводят нас на размышление, что образ матери занимает почетное, достойное место и особое место в его прозе. «Мать является заступницей, наставницей, примером мужественности и самообладания». [2,с.43]. Мама в его произведениях стойкая женщина способная пожертвовать собой ради своих детей. Образ матери в литературе заслуживает особого внимания, так как является сильным, неповторимым и ярким. На некоторых произведениях Айтматова остановимся более подробно.

Одна из первых повестей Ч.Айтматова «Материнское поле», является наиболее ярким примером скорбящей матери, в повести мы встречаемся с обычной простой киргизской женщиной – крестьянкой, которая пришла к земле-матери со своей болью, именно в день поминовения. [1,с.54]. Эта сильная женщина, которая потеряла на войне своего мужа и троих сыновей только здесь давала волю своим чувствам. Она приняла на свои хрупкие плечи управление колхозом, несмотря ни на что, она смогла простить и понять грех своей невестки Алиман, а также она заменила мать и вырастила биологически неродного внука, после того как умерла его мать.

Трагедию материнской души, терзания и скорбные стоны, счастливые и радостные переживания - это поле, как родная мать выслушивало в течении многих лет. [5,с.76]. Толгонай обращалась именно к нему за советом и помощью, как к своему доброму и понимающему родителю.

Смысл материнства показывает автор, олицетворяет не только мать страдающую, но мать -кормилицу, заступницу. Обессмертив образ матери Толгонай, Чингиз Айтматов

показал её диалог с Полем, который звучит как гимн матери. Значение выражения: «Перед Богом и матерью все равны» в этой повести писатель явно дал нам понять. [7,с.27].

Повесть «Материнское поле» Чингиз Айтматов посвятил своей матери, которую глубоко любил и ценил. В данном произведении по словам автора: «он выразил все, что хотел сказать о своей матери». [3,с.13]. Писатель глубоко оценивал роль матери в судьбах своих детей. Он говорил: «Поклон нашей Матери! Каким мужеством, преданностью и мудростью, к родительскому долгу она обладала. Все самое лучшее в нашей судьбе и нашей жизни, было достигнуто благодаря труду и мужеству матери». [1,с.28].

Как отмечают некоторые критики, в литературе ближнего зарубежья, впервые образ скорбящей матери появляется в произведении Чингиза Айтматова «Материнское поле». [2,с.34]. Основной темой этой повести является война. Для Чингиза Айтматова образ матери многозначен. В первую очередь это мать, которая родила ребёнка и не только одного, а троих сыновей, проводившая их на войну и потерявшая всех своих детей. В повести писатель наделяет образ Толгонай мужеством, смирением, силой воли и безмерной любовью к своим детям и родной Земле. Во-вторых; мать народа – Толгонай, вспоминая своих детей любит их, гордится ими и понимает, что «материнское счастье идет он народного счастья, благополучия и мира в каждом доме». [5,с.61]. Мать в повести очень часто очень часто, мысленно ведет диалог с каждым из своих сыновей и с Землёй, потому что она никому не может излить душу, так как не хочет показаться слабой или несчастной женщиной в глазах других, но в повести также звучит мысль о силе материнской любви, которая может роднить, воскрешать и объединять.

А другой образ матери в романе «Плаха». Писатель, используя метафору и символизм обращается к образу животных. Это образ волчицы Акбары, образ матери- мстительницы, в сердце которой, несмотря ни на что побеждает любовь. Прочитав данный роман, мы пересматриваем многие ценности жизни, как предупреждающий колокол.

В романе «И дольше века длится день», появляется новый образ матери- жертвы, здесь прежде всего писатель поднимает проблему памяти, он предупреждает нас, что человечество обречёт себя на деградацию и гибель, если потеряет память. В произведении говорится о женщине-матери, чей сын становится жертвой человеческой жестокости и безразличия. [4,с.54]. Не зная судьбы сына, мать не перестаёт надеяться на то, что её сын жив. Когда она услышала о пастухе-манкурте, не побоявшись она решается идти в земли своих врагов, чтобы убедиться и проверить, не её ли это сын. Жестокость захватчиков жуаньжуанов не испугала самоотверженную женщину-мать, с которыми воевало её племя, мать даже не испугала встреча останков её горячо любимого сына. Когда она встретилась с сыном, который совсем её не знал, она рассказала ему о его детстве и о родных, о которых он ничего не помнил. Хотя женщина пела для него свои материнские песни, его память всё равно молчала, ведь находясь на территории врагов он превратился в раба, который нисколько не раздумывая всегда исполнял, только приказания своего хозяина. Мать не испугалась врагов и осталась до конца рядом со своим сыном, который так и не вспомнил ни отца, ни мать, она становится жертвой и принимает смерть от руки своего сына, который во всем слушался своих хозяев. С тех самых пор, по преданию, над той степью по ночам летает птица Донебай и постоянно спрашивает у путников: «Как твое имя? Имя? Вспомни, чей ты? Чей ты?» [6,с.97].

В произведениях писателя, через этот образ мы можем увидеть какой верностью и силой наделено сердце матери. Чингиз Айтматов от произведения к произведению подводит читателя к осознанию и понимаю величия образа матери: «Как и в любом эпосе, исторгнутом из глубин народной поэзии, центральный персонаж поэзии: это традиционный образ матери Мекен-Эне, Матери – Родины. И в данном случае образ матери возвышен до универсальной значимости всех матерей земли нашей- былых и живущих сейчас. Великая и вечная, как сама природа [8,с.62-65].

Писатель стремился постичь значение и сущность материнства через образы главных героинь своих повестей и романов. В этом произведении Ч.Айтматова материнство-выступает, как безусловная ценность, наивысший критерий, который может быть мерилем бытия, относительно которого могут быть самые сложные и осмысленные проблемы жизни.

Анализируя произведения Чингиза Айтматова, то здесь вывод напрашивается о том, что центральный образ матери в его произведениях полон трагизма и драматизма свой путь испытаний проходит каждая из героинь писателя. Здесь, мы можем научиться у матери любить своего ребенка, и как к нему хорошо относиться. Печаль страдальцы и защитницы несёт в себе образ матери в произведениях писателя. Героини Чингиза Айтматова животные и люди, которые прошли сквозь множество потерь и бед, умеют находить в себе силы сквозь жизненные боли и потери, преодолевают жизненные трудности встречающиеся на их пути, умеют выстоять, сохраняя при этом женственность, любящее сердце, светлую и чистую душу как у ребёнка.

REFERENCES

1. Айтматов Ч.Т. Джамиля.- Издательство: Эксмо, серия-М.2017.
2. Айтматов Ч.Т. Когда падают горы - Издательство: Азбука-классика, серия:- М.2008.
3. Айтматов Ч.Т. Материнское поле. - Издательство: Советский писатель- М.1967.
4. Айтматов Ч.Т. Первый учитель- - Издательство: Детская литература – М.1988.
5. Айтматов Ч.Т. Плаха. - Издательство: Вече, серия 100 великих романов – М.2016.
6. Айтматов Ч.Т. Прощаль Гульсары .- Издательство: Эксмо, серия:русская классика – М.2012.
7. Айтматов Ч.Т. Тавро Кассандры.- Издательство: Азбука- классика, серия: - М.2008.

QORAMOLLAR EKSTERERI, INTERERI VA KONSTITUTSIYASI.

Murodov Botir Yoqubovich

Qishloq xo'jalik hayvonlarini urchitish va ko'paytirish yo'nalishi 2 - kurs magistiri

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7679698>

Annotatsiya. Ushbu maqolada qoramollar ekstereri, intereri va konstitutsiyasi hususida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: Qoramollar ekstereri, qobiliyat, intereri, mahsuldorlik, dimorfizm, embrionalizm va infantilizm, hayvonlar konstitutsiyasi, fiziologik ko'rsatkichlar.

ВНЕШНИЙ ВИД, ИНТЕРЬЕР И ТЕЛОСЛОЖЕНИЕ КРУПНОГО РОГАТОГО СКОТА.

Аннотация. В этой статье рассматривается внешний вид, интерьер и телосложение крупного рогатого скота.

Ключевые слова: экстерьер крупного рогатого скота, способности, интерьер, продуктивность, диморфизм, эмбриональность и инфантильность, Конституция животных, физиологические показатели.

CATTLE EXTERIOR, INTERIOR AND CONSTITUTION.

Abstract. This article provides an idea of the exterior, interior and Constitution of cattle.

Keywords: cattle exteriors, abilities, interiors, productivity, dimorphism, embryonalism and infantilism, animal Constitution, physiological indicators.

Qoramollar ekstereri, intereri va konsitutsiyasini o'rganish nazariy va amaliy ahamiyatga ega. Eksterer - hayvonlarning tashqi tuzilishi. Hayvonlar tashqi tuzilishini o'rganish bilan ularning mahsulot yo'nalishini, konstitutsiya tipini hamda ularning ma'lum darajada mahsuldorlik, sog'ligi haqida fikr yuritish mumkin. Qishloq xo'jalik hayvonlarining qator eksterer kamchiliklari ularning tana tuzilishiga salbiy ta'sir qiladi. Ayniqsa hayvonlarning eng asosiy tana kamchiliklari bo'lib ko'ragining torligi va sayozligi, ko'krak ortida tananing torligi, belning yetarli rivojlanmaganligi, dumg'azaning tor va kalta bo'lishi, sigirlar yelinining yaxshi rivojlanmasligi hisoblanadi.

Oldingi oyoqlarning tuzilishida uni "O", "X" simon qo'yilishi, sigir va buqalarda «buzoq oyoq» shaklida qo'yilishi keyingi oyoqda esa uning "X", qilichsimon, filsimon qo'yilishlarini ko'rsatish mumkin. Bunday oyoq kamchiliklariga ega bo'lgan hayvonlarning oyoqlari tez ishdan chiqib, ular jadal foydalanish sharoitlariga javob beraolmaydi. Qoramollarning tana tuzilishida, jinsiy dimorfizm yaqqol namoyon bo'ladi, ularda sut va go'sht yo'nalishidagi mollarning tana tuzilishi farq qilib turadi, bu xususiyatlarni tana tuzilishini baholashda e'tiborga olish kerak. Buqalar tanasining tuzilishi sigirlar tanasining tuzilishiga qaraganda keskin farq qiladi.

Buqalarning tanasining oldingi qismi kuchli rivojlangan bo'lib, gavdasi yirik, tirik og'irligi yuqori bo'ladi. Buqalar tirik vazni sigirlarnikiga nisbatan 40-50 % ko'p bo'ladi. Buqalarda keng peshonalik, tos-ko'krak indeksleri sigirlarnikiga nisbatan ko'proq ko'rsatkichga ega. Ye. A. Bogdanov buqalardagi tana tuzilishidagi ustunliklarga jinsiy bezlar suyuqligi bilan bog'liq; agarda jinsiy farq yaxshi shakllanmagan bo'lsa bu hayvonning jinsiy jihatdan yashxi rivojlanmaganidan dalolat beradi, bunday hayvonlardan jinsiy faoliyatda uzoq vaqt foydalanib bo'lmaydi, bunday buqalarning urug'ini otalantirish qobiliyati past bo'lib, tug'iladigan buzoqning sifatiga ham salbiy tasir ko'rsatadi. Sigirlarda esa ularning sut mahsuldorligi va onalik sifatlariga ta'sir qiladi. Shuning uchun buqalar va sigirlar tana tuzilishini baholashda alohida - alohida talablar asosida amalga

oshirish kerak. Hayvonlarning tana tuzilishi ularning yoshiga qarab o'zgarib boradi, bu o'zgarish umumbiologik jarayon asosida ro'y beradi. Yangi tug'ilgan buzoqlarning oyoqlari uzun, tanasi tor va kalta, orqa tomoni balandroq bo'ladi.

Yangi tug'ilgan buzoqning vazni voyaga yetgan hayvonlar vaznining 6-8% tashkil qilgan holda oyog'ini uzunligi 70 %, yag'rin balanlligi 55 %, tana uzunligi va chuqurligi 40-45 % va ko'krak kengligi 30-35 % ni tashkil qiladi. Keyinchalik yoshi oshishi bilan hayvonlar tanasida o'ziga xos o'zgarishlar ro'y beradi. Bunda qaysi yoshda qaysi a'zolar tez yoki sekin o'sishi bilan bog'liq. Yoshi katta bo'lishi bilan hayvonlarda naysimon suyaklar o'sishi pasayib, o'q suyaklar o'sishi ko'payadi, natijada hayvon tanasining uzunligiga va eniga o'sishiga guvoh bo'lamiz.

Hayvonlar tana tuzilishining shakllanishi ko'p jihatdan o'stirish sharoitlari va uning xususiyatiga bog'liq. Ayniqsa embrionalizm va infantilizm belgilariga ega hayvonlar tana tuzilishi bir-birlaridan aniq farq qilib turadi, buning asosiy sababi hayvonning ona qornida va tug'ilgandan keyingi davrdagi shakllanishiga bog'liq. Ayniqsa turli mahsulot yo'nalishidagi hayvonlar tana tuzilishi bir-biridan keskin farq qilib turadi. Qoramollarning ichki tuzilishi (intereri). Interer ko'rsatkichlar hayvonlarning salomatligi, mahsuldorligi va sharoitiga moslashganligining in'ikosi deb qarash mumkin. Interer fiziologik ko'rsatkichlar teri, jun, suyak, mushaklar, ichki a'zolar, qon va boshqa tana suyuqliklarini o'z ichiga oladi. Interer deb hayvonning ichki fiziologik, gistologik, biokimyoviy xususiyatlarining uning konstitutsiyasi va mahsulot yo'nalishida aks etishidir. Interer fiziologik, gistologik, rentgen, sitobiokimyoviy biopsiya va mikroskopik usulda, suratga tushirish bilan o'rganaladi.

Bu hususiyatlar hayvonlarning tiriklik paytida va so'yilgandan keyin amalga oshiriladi. Qonning ko'rsatkichlariga qarab hayvonning salomatligi, konstitutsiyasi va mahsuldorligi haqida fikr yuritish mumkin. Qon guruhlariga qarab hayvonlarning qarindoshlik darajalarini belgilash mumkin. Qon tarkibi ko'p jihatdan modda almashinish darajasiga bog'liq, shuning uchun yosh hayvonlarda modda almashinuvi darajasi yuqori bo'lib, yoshi kattalashishi bilan modda almashuvining ma'lum darajada susayishi qon tarkibida shakl elementlari va eritrositlar miqdorining kamayishi bilan izohlanadi. Buqalar qonida eritrositlar bichmalarnikiga nisbatan ko'proq bo'ladi, yoki sigirlar bo'g'ozligi ham eritrositlar sonini ko'payishiga sabab bo'ladi. Sigirlar sut mahsuldoligini ko'paygan davrida ularning qoni tarkibida shakl elementlari va eritrositlar miqdori ko'payib, sog'in davrini oxirida ular kamayishi kuzatiladi.

Laktasiya davrining birinchi yarmida albumin va globulin oqsillar miqdori ko'payib, ikkinchi davrida esa kamayishi, bu oqsillarning qon tarkibidagi miqdori bilan sut mahsuldorligi o'rtasidagi bog'lanishni ko'rish mumkin. Hayvonlar qonining tarkibi oziqlantirish, havo harorati va namligi, qo'yosh nuri, yil fasllari, dengiz sathidan balandligi ta'sirida o'zgarib turadi. Tananing tomir urish, nafas olish tezligi va uning harorati muhim interer ko'rsatkichlar hisoblanadi. Tana harorati doimiy bo'lib yosh o'zgarishi bilan farq qilmaydi.

Yurak urishi esa yoshiga bog'liq bo'ladi : yangi tug'ilgan buzoqlarda 70-80 marta bo'lganda, 2 yashar tanalarda 40-60 martani tashkil qiladi. Sog'in va bo'g'oz sigirlarda qisir sigirlarga nisbatan yurak urushi ko'proq bo'ladi. Nafas olish tezligi ham yurak urushi o'zgarishiga o'xshagan bo'ladi. Fiziologik ko'rsatkichlar hayvonning mahsulot yo'nalishiga bog'liq, bu jarayon sut yo'nalishidagi hayvonlarda jadalroq bo'lib, go'sht yo'nalishidagilarda sustroq qo'shmahsuldor mollar oraliq o'rinni egallaydi. Ushbu jarayonlar jadal kechgan sigirlar aksariyat sersut bo'lishi isbotlangan.

Ichki a'zolarining yaxshi rivojlanishi ularning solishtirma vazni og'irligining katta bo'lishi hayvonlarning mahsuldorlik imkoniyatlarini ko'paytiradi, bunday sigirlarni tez muddatda iydorlik (razdoy) imkoniyatlari mavjud. Sigirlarning yelini 4: ikki oldingi va ikki keyingi bo'lmalardan iborat. Yelin yuqqa, silliq, siyrak junli teri bilan qoplangan, uning orqa qismi pastdan balandga va eniga o'sib boradi va yelin oynasini tashkil qilib sigirning sersutligining asosiy belgilaridan biri bo'lib hisoblanadi. Yelin bez va biriktiruvchi to'qimalardan tashkil topadi va unda qo'shimcha yog' to'qimalari ham bo'ladi. Urg'ochi tanalar va bo'g'oz sigirlar yelinida yog' to'qimalari nisbati yuqori bo'lib tug'ishiga yaqin ular o'rnini bez to'qimalari egallaydi. Sersut sigirlar yelini to'qimalari mikro strukturasi o'rganilganda ularning 70- 80 % bez va 30-20 % biriktiruvchi to'qimalardan iborat ekanligi qayd qilingan.

Agar sigir yelini tarkibida bez to'qimalari nisbati 70 % kam bo'lsa u kamsut, 80% ko'p bo'lsa bu holat yelin faoliyatiga va hayvon sog'ligiga salbiy tasir qiladi. Sigirning tirik vazni va yelin vazni orasida bog'lanish mavjud. 1 kg yelin vazniga qancha kam tirik vazn to'g'ri kelsa sigir shunchalik mahsuldor hisoblanadi. Ko'p tajribalar 60-80 kg tirik vaznga 1 kg yelin vazniga to'g'ri kelishini qayd qilganlar. Sog'in davrining birinchi yarmida yelinda bez to'qimalari nisbati ko'p bo'lib, ikkinchi yarmida uning nisbati kamayib boradi. Sog'in davriniig ikkinchi yarmida yelin vazni 20-40%, bez to'qimalari 10%, sut alveolari diametri 30% qisqaradi. Biopsiya usuli yordamida sigirlar hayotligida ular yelinida to'qimalar nisbatini o'rganish mumkin. Bundan tashqari sigirlar yelinini vazni va hajmini tirik paytida aniqlash yo'li mavjud, bu usullar sigirlarni bu ko'rsatkichlar bo'yicha tanlash va saralash imkonini beradi. Suyak tananing tayanch vazifasi bilan mineral moddalar zahirasi bo'lib hisoblanadi. Suyak tarkibi va holati hayvonning salomatligi va uning konstitutsiyasidan dalolat beradi.

Hayvonlar hayotligida suyakning rivojlanishi kaft aylanasini o'lchash bilan o'rganib boriladi. Yosh ortib borishi bilan suyakning nisbiy ko'rsatkichi kamayib, mutloq og'irligi esa ortib boradi. Yangi tug'ilgan buzoqda suyakning nisbati 20-22% bo'lsa, voyaga yetgan hayvonda esa 12-15% tashkil qiladi. Hayvonlar konstitutsiyasi va mahsuldorlik xususiyatlarini belgilashda teri xususiyati va faoliyati alohida o'rin tutib, tashqi muhit bilan aloqani ta'minlab turadi. Teri tanani tashqi muhitning noqulay ta'sirlaridan himoya qiladi.

Bundan tashqari teri tana haroratini barobarlashtirib turishda ahamiyatga ega. Teri - nafas olish va chiqaruv a'zosi bo'lib hisoblanadi. Terida joylashgan ter bezlari kuniga 8-10 litr namlikni chiqaradi. Teridagi yog' bezlari ishlab chiqargan yog' terini egiluvchanligini saqlab, junni yaltiroqligini taminlab, uni xo'llanishdan saqlaydi. 129 Voyaga yetgan qoramollar terisining qalinligi terining ustki qavati (epidermis) 1-3%, haqiqiy teri, uning so'rg'ich (32-40%) va to'r qatlami (42-54%), teri osti qatlami 11-20% tashkil qiladi. Hozirgi paytda hayvonlar terisining tiriklik paytida qalinligi, maydoni, zichligi va vaznini aniqlash usullari mavjud. Bu bilan hayvon konstitutsiyasi tipini, yosh mollarni o'sish va rivojlanishi haqida fikr yuritish mumkin.

Terini zichligi 6 oylikkacha ortib, keyin u sekin kamayib boradi, birinchi to'qqanda u yana ortadi, qari qoramollarda esa terining egiluvchanligi keskin yomonlashib boradi. Terining vazni tana og'irligining voyaga yetgan hayvonlarda 5-6% ini tashkil qiladi, 1 yoshgacha yosh qoramollar 8-12, 1-2yoshda esa 6-7% tashkil qiladi. Terining qalinligi tananing hamma joydalida bir xil bo'lmaydi. Uning ustki qismi qalin, ostki qismiga qarab yuqalashib boradi. Hayvonlar jun qatlami tanani tashqi muhitning noqulay ta'siridan himoya qilsa, ikkinchidan ma'lum darajada issiqlik almashinuvida ishtirok etadi. Jun sifati hayvon zotiga, oziqlantirish saqlash sharoitlariga va

iqlimiga bog'liq. Jun uch qatlamdan iborat, qobiq 5-10 %, mag'iz 35-40 %, o'zak 50-60 % tashkil qiladi. Jun qiltiq, tivit va orqa oraliq tolalardan iborat. To'llash mavsumiy va doimiy bo'ladi. Oziqlantirish va saqlash mavsumiy bo'lsa to'llash ham shunga qarab bo'ladi. Doimiy bir xil oziqlantirilgan hayvonlarda to'llash yil davomida bo'lib turadi.

Tananing turli qismlarida jun tolalarining qalinligi, yo'g'onligi, uzunligi bir xil bo'lmaydi. Oq tusli hayvonlar junining o'zak qavati qalin bo'lishi uning dag'alligidan dalolat beradi. Oq junlar issiqlikni yomon o'tkazadi, qora va qizil junlar issiqlikni yaxshi o'tkazadi. Shuning uchun bu omil tanada issiqlikni boshqarishda, hayvonlarni yangi sharoitlarga moslashishida asosiy omillardan hisoblanadi.

Qoramollar konstitutsiyasi Konstitutsiya - bu hayvonning biologik, xo'jalik belgilari va xususiyatlarining, ularning morfofiziologik ko'rsatkichlarining yaxlitligi tushuniladi. Konstitutsiya ro'yobga chiqishi hayvonning tashqi muhit omillariga javobi bo'lib, uning sog'ligi va mahsuldorligida o'z aksini topadi.

Hayvonning konstitutsiyasi irsiyat bilan belgilanib, tashqi muhit ta'sirida shakllanadi. N. P. Kuleshov tomonidan 4 xil konstitutsiya tiplari belgilangan: dag'al, nozik, zich, bo'sh. Dag'al konstitutsiya. Bunday hayvonlar boshi dag'al, og'ir va dag'al hajmli suyakka ega bo'ladi; mushaklari zich, muskul to'qimalari yaxshi rivojlanib, yog' to'qimalari kuchsiz bo'ladi; terisi qalin yomon egiladigan, juni dag'al bo'lib tanada, bir xilda tarqalmagan.

Dag'al konstitutsiyaga mansub hayvonlar kam mahsuldor, ko'p oziqa iste'mol qilib, mahsulot birligiga ko'p oziqa sarflaydi, lekin ular juda chidamli bo'ladi. Bunday hayvonlar asosan ish yo'nalishiga mansub. Nozik konstitutsiya. Ularning boshi kichik va yengil bo'ladi; shoxi ingichka; suyagi yengil; ko'kragi tor va sayoz; mushaklari yaxshi rivojlanmagan; terisi yupqa bo'lib buyni va yelinida burmalar bo'ladi; tanasi kalta nozik, siyrak jun bilan qoplangan bo'ladi. Tabiatdan harakatchan, tashqi muhit sharoitiga tez javob beradi. Modda almashinuvi jadal kechadi. Bu konstitutsiya tipiga mansub hayvonlar asosan sut yo'nalishida bo'ladi.

Bunday hayvonlar yuqumli kasalliklarga chidamsiz, ularning yashash davri qisqaroq bo'lib, hayoti davomida ko'p mahsulot berish imkoniyatidan maxrum. Nozik tipdagi hayvonlarni yanada noziklashishiga yo'l qo'ymaslik kerak.

Zich konstitutsiya. Bunday hayvonlarning mushaklari yaxshi rivojlangan, zich bo'ladi. Suyaklari qattiq, o'rtacha rivojlangan. Ularning tanasi mutanosib, ichki a'zolari yaxshi rivojlangan bo'ladi. Bunday hayvonlar mahsuldorligi yuqori, tashqi muhit ta'siriga chidamli bo'ladi. Ularda modda almashinuvi jadal kechadi.

Bu tipga asosan sut-go'sht yo'nalishidagi qoramollar kiradi. Bo'sh konstitutsiya. Bu hayvonlarda teri osti yog' qatlami qalin bo'ladi; biriktiruvchi to'qimasi bo'sh; suyagi ingichka; boshi kichkina; ko'kragi yaxshi rivojlangan; terisi qalin va yumshoq; juni nozik va siyrak bo'ladi. Tashqi muhit ta'siriga sekin javob beradi. Bunday hayvonlar tanasida ko'proq yog' to'planadi shuning uchun oson bo'rdoqilanadi. Bu tipga asosan go'sht yo'nalishidagi hayvonlar kiradi. 4 konstitutsiya tipidan tashqari oraliq turi mavjud. M. F. Ivanov mustahkam konstitutsiya tipini taklif qilgan, bu ko'proq zich tipdagi konstitutsiyaga to'g'ri keladi.

REFERENCES

1. Мирзиёев Ш. М. Ўзбекистонни ривожлантиришнинг бешта устивор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегияси. Тошкент, Ўзбекистон, 2017. “Газета.uz”
2. Ҳамрокулов Р., Қарибаев К. “Қишлоқ хўжалиги ҳайвонларини озуклантириш” . Дарслик. Тошкент 1999 й.
3. А.Калашников. ва бошқалар. “Чорва молларини озиклантириш норма ва рационлари”. Дарслик. М 1988.
4. Arzumanyan Ye.A. Jivotnovotstvo. M.”Agropromizdat”, 1985.
5. Axmedov A.M., Samorodov N.M., Jiyanov Ya. Sutchilik ishi va chorvachilik mahsulotlari texnologiyasi. Toshkent, “O’qituvchi” nashriyoti, 1973.
6. Bakanov V.N., Menkin V.K. Kormleniye selskoxozyaystvennykh jivotnyx. M. «Agropromizdat», 1989

QORAMOLLAR MAHSULDORLIGI

Murodov Botir Yoqubovich

Qishloq xo'jalik hayvonlarini urchitish va ko'paytirish yo'nalishi 2 - kurs magistiri

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7679750>

Annotatsiya. Ushbu maqolada qoramollar mahsuldorligi, sigirlarning sut mahsuldorligi, qoramollarning go'sht mahsuldorligi hususida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: sut mahsuldorligi, yog' kislotalari, Sutni qayta ishlash, nerv va ichki sekresiya bezlari, Laktasiya parhez oziq-ovqat, oziqa quvvati, sarig'yog', pishloq, nordon sut.

ПРОДУКТИВНОСТЬ КРУПНОГО РОГАТОГО СКОТА

Аннотация. В этой статье рассматривается продуктивность крупного рогатого скота, молочная продуктивность коров, мясная продуктивность крупного рогатого скота.

Ключевые слова: молочная продуктивность, жирные кислоты, переработка молока, нервные и эндокринные железы, кормление грудью диетическое питание, пищевая ценность, масло, сыр, кислое молоко.

CATTLE PRODUCTIVITY

Abstract. This article will focus on cattle productivity, dairy productivity of cows, meat productivity of cattle.

Keywords: milk productivity, fatty acids, milk processing, nerve and internal secretion glands, lactation dietary food, nutrient capacity, yolk, cheese, sour milk.

Qoramollarning asosiy mahsuloti bo'lib sut va go'sht hisoblanadi. Mahsuldorlik darajasi hayvonlarning zotiga, o'stirish va foydalanish sharoitlariga bog'liq.

Sigirlarning sut mahsuldorligi. Sigir suti to'yimli va mazali oziq-ovqat mahsuloti bo'lib, tabiiy va qayta ishlangan holda foydalaniladi. Sigir suti tarkibida 12,5-13% quruq modda, shundan 3,8% yog', 3,3% oqsil, 4,6% sut qandi va 1% atrofida kul mavjud. Sutning tarkibida 200 dan ortiq to'yimli moddalar bo'lib, ular inson tanasi tomonidan oson hazmlanadi. Sutning tarkibida 20 xil vitaminlar, 30 xil ferment, 20 xil mikro va 10 xildan ko'p makro elementlar mavjud. Sut yog'ining tarkibida 150 dan ortiq yog' kislotalari va 20 dan ko'p aminokislotalar mavjud. Inson tanasida sut yog'i 95%, oqsili va qandi 98% hazmlanadi. Yuqoridagilarni inobatga olganda sut muhim parhez oziq-ovqat hisoblanadi. Sigir tanasi tomonidan oziqalar oqsili samarali o'zlashtiriladi. Sog'in sigirlar 40 kg to'yimli moddadan 2-2,4 kg hayvon oqsili paydo qiladi, xuddi shu oziqa bilan qoramollar bo'rdoqilanganda faqat 400 gramm hayvon oqsili hosil bo'ladi.

Sigirlar sut hosil qilishi uchun oziqa quvvatining 50%, qoramollarning semirishda esa faqat 17% samarali foydalaniladi. Sigirlar 100% oziqa birligi iste'mol qilib, 100 kg sut ishlab chiqaradi, uning tarkibida esa 315 Mdj energiya mavjud bo'lgani holda, shuncha oziqa evaziga qoramollarni 22 kg semirtirish mumkin, qaysiki uning tarkibida hammasi bo'lib 260 Mdj mavjud. Shuning uchun sut ishlab chiqarish chorva mahsulotlari ichida eng samaralisi bo'lib hisoblanadi. Chunki sut ishlab chiqarishni ko'paytirish bilan insolarni hayvonot oqsiliga bo'lgan talabini tezroq qonidirish mumkin. Sutni qayta ishlash natijasida juda noyob sarig'yog', pishloq, nordon sut mahsulotlari ishlab chiqarish mumkin. Bu mahsulotlar ilmiy asoslangan meyorlarda iste'mol qilish insonlarni to'yimli moddalarga bo'lgan talablarini qondirishda muhim o'rin tutadi. Keyingi davrda jahon miqyosida yangi sutni iste'mol qilishni kamayishi, pishloqni iste'mol qilishni ko'payib

borayotganini guvohi bo'lamiz. Sigirlar sut mahsuldorligi sigirlarningzotiga, individual xususiyatiga yoshiga, fiziologik holatiga, oziqlantirish va saqlash sharoitlari yil fasllari va boshqa qator omillarga bog'liq. Sut tarkibidagi yog'ning miqdori turli omillar ta'siri ostida tez o'zgarishini kuzatishimiz mumkin. Lekin sutni oqsili ayniqsa qand va madanli moddalar kam o'zgaradi Sut tarkibidagi A vitamini va ba'zi biologik aktiv moddalar tez-tez o'zgarib turadi.

Sigirlarda sut hosil bo'lish hususiyatlari. Sut sigirlar sut bezining mahsulotidir. Qon tarkibidagi to'yimli moddalardan sut bezining sekretor hujayralarida biosintez natijasida sutning tarkibiy qismi hosil bo'ladi. Sut tarkibi vitaminlar, gormonlar fermentlar va madanli moddalar to'g'ridan-to'g'ri qon tarkibidan sutga o'tadi. Sut hosil bo'lishi ananing barcha a'zolari faoliyati bilan bog'liq, ayniqsa bu jarayonda nerv va ovqat hazm qilish a'zolarining xizmati katta, bundan tashqari bu jarayonda qon aylanish va ichki sekresiya bezlari faol ishtirok etadi. Sut hosil bo'lishi nerv va ichki sekresiya bezlari tomonidan boshqarib turiladi. Ichki sekresiya bezlaridan gipofizning gormonlari muhim o'rin tutadi.

Yelinda hosil bo'lgan sut moddalari (yog', oqsil, qand) qonning shu moddalaridan keskin farq qiladi. Masalan sutning kazein, albumin, globulin oqsillaridan faqat globulin oqsili qon globuliniga uxshaydi. Sut yog'i ham o'z tarkibi va xossalari bilan hayvon tana, oziqa va qon zardobi yog'laridan farq qilishini ko'rsatish kerak. Ba'zi yog' kislotalari faqat sut yog'ining tarkibida uchraydi xolos, xulosa qilish mumkinki ular sut bezlarida hosil bo'ladi. Sut qandi (laktoza) sut bezlarida qon glyukozasidan hosil bo'ladi. Sut yelin to'lgunga qadar hosil bo'ladi, keyin bu jarayon to'xtaydi.

Shuning uchun yelinni vaqti-vaqti bilan sutdan bo'shatib turish yangi sut hosil bo'lishiga sabab bo'ladi va sigirlardan ko'p sut sog'ib olish omili bo'lib hisoblanadi. Sut ajralishi - murakkab refleks jarayon bo'lib u buzoqning emishi va sog'ish bilan bog'liq: bu jarayonda buzoq emishni, yoki sog'uvchi sog'ishni boshlagandan keyin yelindagi nerv reseptorlari orqali xabar bosh miyaga boradi va undan buyruq gipofiz beziga keladi, natijada oksitosin gormoni ajralib qonga qo'yiladi, u qon bilan yelenga borib uning barcha hajmidagi sutning ajralib chiqishiga sabab bo'ladi. Sigirlarning sut berish tezligi turlicha bo'lib bu ko'proq irsiy belgi hisoblanadi. Shuning uchun muhim ko'rsatkich bo'lib sigirlarni mashinada sog'ishga mosligini aniqlaydi. Sut bezining rivojlanishi va faoliyati urg'ochi sut emizuvchilarning jinsiy faoliyati bilan bog'liq bo'lib, jinsiy balog'at yoshiga to'lishi bilan boshladi, uning asosiy faoliyati g'unajin tuqqandan keyin ro'y beradi. Sigirlarning sut berish davomiyligi (laktasiya davri) zotli sigirlarda iydirish, yaxshi oziqlantirish va saqlash sharoitlari natijasida 305 kun va undan ko'proq davom etadi. Ishlab chiqarish sharoitida sigirlarning sog'imining davomiyligi 300305 kun bo'lib 55-60 kun dam olgani ma'qul. Bunday holat sigirlardan yilda bir bosh buzoq va yuqori sut mahsuldorligini ta'minlaydi. Sigir tuqqandan sutdan chiqqangacha bo'lgan davr laktasiya davri yoki laktasiya deb ataladi. Laktasiya davrining oxirida sigir sutdan chiqariladi.

Sigirning sutdan chiqqandan tug'ishgacha bo'lgan davri bo'g'oz sigirlarni dam olish davri hisoblanadi. Sigir tuqqanidan 20-30 kundan keyin qochirilishi mumkin. Sigir tuqqandan otalangungacha bo'lgan darvga servis davri deb ataladi. Servis davrining davomiyligi laktasiya davrining muddatiga ta'sir qiladi. Servis davri qisqa bo'lsa laktasiya qisqarib sut kamayadi, servis davri meyordan cho'zilib ketsa yilda sigirdan bir bosh buzoq olish imkoniyatidan mahrum qiladi. Sigir tuqqanidan keyin tez qochirilsa laktasiya davri qisqaradi, kech qochirilsa sigir tug'ishdan oldin yetarlicha dam olmasdan, to'yimli moddalar zahirasini tashkil qila olmaydi. Qisir qolgan

sigirlarda laktasiya davri uzayadi yoki ularni ko'plari o'z-o'zidan sutdan chiqib ketadi, yoki sut mahsuldorligi keskin kamayib ketadi. Eng xavfli qisir sigirlarning podani to'ldirish qobiliyati susayadi.

Tug'ishdan-tug'ishgacha bo'lgan davr bir yil bo'lishi kerak, undan 305 kun laktasiya davri va 60 kun dam olish davriga to'g'ri keladi. Alohida sersut sigirlarga bu davrni 1,0-1,5 oygacha cho'zish mumkin. Laktasiya davomida sigirlar sut mahsuldorligi bir xilda bo'lmaydi. Tug'imdan keyin 2-3 oyda sigirlar eng yuqori sut mahsuldorligiga ega bo'ladi. Keyin u laktasiya oxirigacha oyma-oy kamayib boradi (bir oyga taxminan 6 %). Laktasiya davrida sigirlar sut mahsuldorligini o'zgarishiga grafik usulda ifodalanishi laktasiya egri chizigi deb ataladi.

Laktasiya egri chiziqining ko'rinishi sigirning mahsuldorligiga, irsiyatiga, individual xususiyatiga, oziqlantirish va saqlash sharoitiga, fiziologik holatiga bog'liq. Ayniqsa u sigirlarni tuqqandan keyin iydirishga (razdoy) bog'liq. Bundan tashqari bu ko'rsatkichga sigirning tug'ish fasli va boshqa omillar ta'sir qiladi. Yaxshi sharoitlarda saqlanagan turli sigirlarning bu ko'rsatkichi bir-biridan keskin farq qiladi. Laktasiya egri chizig'i yuqori va muqim bo'lgan sigirlar sut mahsuldorligi, tez o'zgaruvchan laktasiya egri chizig'iga ega bo'lgan sigirlarga nisbatan ancha yuqori bo'ladi, laktasiya egri chizig'i muhim bo'lmagan sigirlar ko'pincha muddatidan oldin sutdan chiqib ketadilar. Sigirlar tuqqandan keyin 7-10 kun o'g'iz suti beradi, u oddiy sutdan o'zining tarkibi va xossalari bilan keskin farq qiladi. U quyuc bo'lib, sarg'ich rangga sho'roq ta'mga va o'ziga xos xidga ega. Uning tarkibida 26% quruq modda, shundan 15% oqsillar asosiy qismi albumin va globulin bo'ladi, yog' - 6,3%, madanli moddalar va vitaminlar 4% atrofida bo'ladi. O'g'iz suti yangi tug'ilgan buzoqlar uchun zarur bo'lib iste'molga uncha yaroqli emas. Yog' olish sigir tuqqandan 7 kun, pishloq qilish uchun 10 kundan keyin ishlatiladi. Laktasiya davomida sut tarkibi yog'dan tashqari ko'rsatkichlar kam o'zgaradi. Ko'pgina sigirlarda laktasiyaning 2-3 oyida sutni tarkibidagi yog' miqdori 0,20,4 % kamayadi, undan keyin u sutdan chiqqanga qadar oshib boradi.

Ko'p hollarda sutning yog'i oshib borishi bilan uning oqsilli ham ortib boradi. Sutning tarkibida vitaminlar miqdori faqat oziqaga bog'liq, asosan sutning tarkibi sigirlar sutdan chiqish oldidan ancha o'zgaradi. Laktasiya davri sigirni barcha a'zolar faoliyatini kuchayishini talab qiladi. Sermahsul sigir bir kecha-kunduzda 100 kg dag'al, shirali va yem oziqlar iste'mol qilishi bunga asos bo'la oladi. 1 kg sut hosil bo'lishi uchun sigir yelinidan 500 litr qon oqib o'tadi. Shuning uchun yaxshi rivojlangan yelin sersutlikni dastlabki belgisi hisoblanadi. Sermahsul sigirlarda yelin vazni 8-20 kg tashkil qiladi. U sut bilan to'lganda 40 kg ga yetadi. Sigirlar asosan bir kecha-kunduzda 2 marta sog'iladi, ko'p marta sog'ish iqtisodiy jihatdan o'zini oqlamaydi. Sermahsul, birinchi tug'im va yangi tuqqan sigirlarni 3-4 oygacha 3 marta sog'ish maqsadga muvofiq, shunda kunlik sog'im ko'payadi.

Sigirlarning sut mahsuldorligi yelin hajmi, shakli, qattiq-yumshoqligi, so'rg'ichlar rivojlanishi va joylashishiga, bundan tashqari sut venasi, hamda sut qudug'ining katta -kichikligiga bog'liq. Sigirlarning mashinada sog'ishga moslashganligi alohida andozalar asosida aniqlanadi.

Qoramollarning go'sht mahsuldorligi. Qoramol go'shti yuqori to'yimligi va oziq-ovqat sifatleri bilan boshqa go'shtlardan o'larok, jahon miqyosida barcha xalqlar tomonidan so'yib iste'mol qiliniladi. Ayniqsa maxsus boqilgan go'shtdor qoramollar go'shti o'zining "marmarsimon" tuzilishi, xushta'mligi bilan ajralib turadi. Mamlakatda ishlab chiqarilayotgan mol go'shti asosan sut yo'nalishidagi yosh va puchak qilingan mollar hisobiga to'g'ri keladi. Go'sht

yo'nalishidagi mollardan olinadigan go'sht nisbat jihatdan juda kam, chunki ushbu soha mamlakatimizda keng tarqalmagan. Jami ishlab chiqarilayotgan qoramol go'shtining 70% yosh va 30% puchak qilingan mollarga to'g'ri keladi. Qoramol go'shti boshqa go'shtlardan muskul va yog' to'qimalarining nisbati bilan farqlanib, uning tarkibida muskul to'qimasi ko'proq bo'lishi bilan ajralib turadi. Unig tarkibida xolestirin modda qo'y yoki cho'chqa go'shtiga nisbatan ancha kam. Qoramol go'shti to'yimlilik uning tarkibida almashtirib bo'lmaydigan aminokislotalarga boyligi bilan ajralib turadi. Unda arginin, lizin, metionin, triptofan, sistin, tirozin, gistidin kabi aminokislotalarga boy. Bundan tashqari unig tarkibi yog' kislotalari mineral va vitaminlarga boy. Shuning uchun ham uning inson tanasi tomonidan 95% hazmlanadi. Go'shtning sifat ko'rsatkichlari belgisi bo'lgan uning morfologik va kimyoviy tarkibi hayvonning zotiga, jinsiga, yoshiga, semizlik darajasi, oziqlantirish va saqlash sharoitlariga bog'liq bo'ladi. Qoramol nimta go'shti tarkibida turli omilar natijasida muskul to'qimasi 42-68%, yog' 14-30%, suyak 13-20% va biriktiruvchi to'qima, pay va tog'aylar 10-14% bo'ladi. O'rtacha semizlikdagi voyaga yetgan qoramol go'shtining tarkibi quyidagicha bo'ladi; suv 66%, oqsil 20%, yog' 23%, madanli moddalar 1,0%, 1 kg shu sifatdagi qoramol go'shtining to'yililik darajasi 7560 Kdj. Buzoq go'shtida suv miqdori ko'p bo'lib (72%), yog'ning (15%) va biriktiruvchi to'qimaning miqdori ancha kam bo'ladi.

Qoramolning go'sht mahsuldorligiga ta'sir qiluvchi asosiy omil hayvonning zoti hisoblanadi. Ayniqsa go'sht yo'nalishidagi qoramollar yuqori go'sht mahsuldorligiga ega bo'ladi. Ular o'zlarining tez yetiluvchanligi, so'yim chiqimining yuqori bo'lishi va ajoyib go'sht sifati bilan ajralib turadi. Ularnig tirik vazni 600-1000 kg, so'yim chiqimi 65% bo'lib, yaxshi bo'rdoqilanib, 1kg vazn ortishi uchun kam oziqa sarflaydi. O'zbekistonda asosiy go'sht yo'nalishidagi zotlar qozoqi oqbosh, santagertruda, aberdin anguss zotlari bo'lib ularning go'shtining to'yimlilik yuqori bo'lib mazaligi jihatdan yuqori baholanadi. Ko'pgina sut va ayniqsa sut-go'sht yo'nalishidagi qoramollarning ham yuqori go'shtdorlik imkoniyatlari borligi aniqlangan.

REFERENCES

1. Bakanov V.N., Menkin V.K. Kormleniye selskoxozyaystvennykh jivotnykh. M. «Agropromizdat», 1989.
2. Barabanshikov N.V. Molochnoye delo. M. "Kolos", 1983.
3. Jitenko P.V. Texnologiya produktov uboya jivotnykh. M."Agropromizdat", 1984.
4. Ionis N.I., Starchikov I.N. Ptisevotstvo. M. "Agropromizdat", 1990.
5. Lisisin A.P. Razvedeniye selskoxozyaystvennykh jivotnykh. M. "Agropromizdat", 1987.

ХАЙВОНЛАР ВА ОДАМЛАР УЧУН УМУМИЙ БЎЛГАН КАСАЛЛИКЛАР

Бобоёрова М.А

Хамрақулов Ғ.Х

Тошкент кимё технология институти

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7668940>

Аннотация. Мақолада хайвонлар ва одамлар учун умумий бўлган касалликлар келтирилган. Жумладан яшур, куйдирги, некробактериоз, чўчка гриппи ва парранда гриппи. Ҳар бир касалликнинг ўзига хос белгилари, қаерларда учраши, инсонларга қайси йўл орқали юқиши, ким томонидан аниқлангани ва ўша хайвонни сўйишдан аввал ветеринария-санитария қоидаларига риоя қилиши ҳақида маълумот берилган.

Калит сўзлар: ветеринар – санитария экспертизаси, яшур, куйдирги, некробактериоз, H5N1, чўчка грипп.

БОЛЕЗНИ, ОБЩИЕ ДЛЯ ЖИВОТНЫХ И ЧЕЛОВЕКА

Аннотация. В статье перечислены болезни, общие для животных и человека. В том числе яшур, сибирская язва, некробактериоз, свиной грипп и птичий грипп. В нем рассказывается о конкретных симптомах каждого заболевания, о том, где оно встречается, каким путем передается человеку, кем оно было обнаружено, и о соблюдении ветеринарно - санитарных правил перед забоем этого животного.

Ключевые слова: ветеринарно – санитарная экспертиза, яшур, сибирская язва, некробактериоз, H5N1, свиной грипп.

DISEASES COMMON TO ANIMALS AND HUMANS

Abstract. The article presents diseases common to animals and humans. Including live, anthrax, necrobacteriosis, swine flu and avian flu. Each disease has its own symptoms, where it occurs, where it is transmitted to humans by the Kaysi route, who has been identified and who has been informed about the observance of Veterinary and sanitary procedures before slaughtering that animal.

Keywords: veterinar – sanitary examination, live, anthrax, necrobacteriosis, H5N1, swine flu.

Саноат ривожланган сари экологиянинг нафақат биз одамларнинг балки, ер юзидаги хайвонларни ҳам четлаб ўтмаяпти. Уларда турли хил касалликлар учраши инсон ва атроф-мухитга жуда катта зарар етказида. Машхур рус олими Евсеенконинг ветеринария ва тиббиёт тўғрисида ёзиб қолдирган „Тиббиёт инсонни даволаса, ветеринария инсониятни даволайди“ гаплари жуда ўринли. Ветеринар – санитар экспертизасини давлат ветеринар хизмати олиб боради. Асосий вазифаси хайвонларда юқадиган касалликлар, уларни олдини олиш ва профилактика ишларидир. Ҳозирги кунда хайвонлар микроорганизм ва паразитлардан юқтирадиган касалликлари учрамоқда ва уларнинг маҳсулотини инсонлар эстеъмол қилиши натижасида юқтириб олмақдалар. Улар яшур, брутцеллез, туберкулёз, сап, H5N1, сувчечак, куйдирги ва бошқа касалликлардир.

Яшур – овсил ёки оксил касаллиги деб ҳам аталади. Осиё ва Африка мамлакатларида кўп учрайди. Қўзғатувчиси филтрланувчи вирус. 1897-йил Лифлер ва Фрош томонидан аниқланган. Ҳозирги кунда вируснинг 7 тури мавжуд. Ташқи мухитга ўта чидамли. Кийимда 3.5 ойгача, хона ҳарорати шароитидаги сутда 25-30 соат, мулатгич (4 °С) да 9-12 кун,

тузланмаган ёғда 4 ва 25 кун, колбаса маҳсулотларида 50 кунгача, терида 67 кун, ахлатда 39 кун, музлаган гўштда 680 кун, кўлмак сувида 103 кун ўз хусусиятини сақлайди. Касаллик озиқланиш тизими орқали ҳам ўтиши мумкин.

Чорвачилик, ветеринария ва зоотехника ходимлари, гўшт конбинат ишчилари, кушхоналар, ҳайвон хом ашёсини қайта ишловчи ташкилотлар ходимларида касбий зарарланиш хатарига ҳага бўладилар. Кундалик ҳаётда болалар зарарланган сут ва сут маҳсулотларни истеъмоли туфайли касал бўлишади. Бир партиядан бўлган, оксил билан касалланган ёки гумон қилинган ҳайвонлардан олинган гўшт ва бошқа маҳсулотлар колбасанинг қайнатилган ёки қайнатиб - дудланган сортларига, қайнатилган пазандалик ёки консерва маҳсулотлари тайёрлашга ишлатилади. Гўштни кўрсатилган маҳсулотларга ишлатишнинг имкони бўлмаганда, у қайнатиб зарарсизлантирилади. Гўшт ва бошқа сўйиш маҳсулотларини хом ҳолда чиқариш тақиқланади. Кўпчилик мушакларда (тос, кўкрак, оёқларда, елка боғламида ва бошқалар) кўплаб майда ёки ёйилган некроз ўчоқлари мавжуд бўлса, шунингдек оёқлар, сут бези ва бошқа органларнинг гангренили ёки йирингли яллиғланиши билан кечувчи оксилнинг асоратли шаклларида тана гўшти ва органлар утилизацияга жўнатилади.

Куйдирги- бактерия (*Bacillus anthracis*- кўмир таёкчаси) спора ҳолатида тупроқда 100 йилгача яшайди. Ҳайвонларга ем- хашат орқали, улардан эса одамларга юқади. Касалликни 1758- йил Морган томонидан аниқланган. 1788- йилда С.С. Андреевский тўлиқ маълумот берган. Бу касаллик АҚШ, Туркия, Ҳиндистон ва Жанубий Америка давлатларида кўп учрайди. Эшак, туя, от, шохли ҳайвонлар ва чучқада кўп учрайди. Йўқиш йўллари маиший мулоқат, ҳайвон озиқ овқат маҳсулотлари, аэроген ҳолда. Куйдиргига гумон қилинган ҳайвон сўйиш таъқиқланади. Меҳнатни муҳофаза қилган ҳолда тана гўшtidан бир бўлак, талоқ, ўзгарган тўқима қисми ва лимфа тугунлари олинади ва бактериоскопик, бактериологик текширувга юборилади. Бактериоскопик текширувларда куйдирги касаллига аниқланса тана органлари ва териси бактериологик текширишни кутмасдан йўқ қилинади. Агар салбий натижа олинса бактериологик текширув хулосаси кутилади ва унгача цехда дезинфекция ишлари олиб борилади.

Некробактериоз, некробациллёз — уй ҳайвонлари ва кўпгина ёввойи ҳайвонларда учрайдиган юкумли **касаллик**. 1997-йил рус олими А.А.Сидорчук томонидан аниқланган. Касалликни *Bacterium necrophorum* бактерияси қўзғатади. Бактерия ташқи муҳитга чидамсиз, **куёш** нури таъсирида тез ўлади. Некробактериоз билан кўпроқ кўй, сигир, от, **товуқ** (аксарият жўжалар) касалланиб, одамга ҳам юқиши мумкин. Касаллик манбаи — касал **ҳайвонлар**. Қўзғатувчи гўнгда 40-50 кун, сувда 15 кун, сутда 35 кун, нам тупроқда 3 ойгача фаол сақланади, 60-65 С иссиқликда 15 дақиқа, 100 С да 1 дақиқа, куёш нурида 8-10 соатда ўлади. Бактерия **нафас** йўли ва шикастланган **тери** ёки шиллиқ пардалар орқали организмни захарлайди, натижада тўқималарда **моддалар алмашинуви** бузилади ва майда **кон** томирларида тромблар, ички органларда эса метастазалар пайдо бўлади.

Касаллик катта ёшдаги ҳайвонларда сурункали, ёшларида эса шид-датли ўтади. Кўпинча туёқ оралиғи, туёқнинг юмшоқ қисмлари, кўзиларнинг лаблари, **бурун** қанотлари, **оғиз** шиллиқ пардалари шишиб, **яра** бўлади. Кейинчалик шу жойларда **қон** аралаш йирингли суюқлик тўпланиб, тўқималар ирийди. Касал ҳайвон озади, ўлади. Маҳаллий патологик жараёнда (лаб, бурун, ҳалқум, ички органлар ёки оёқлар зарарланганда) тана

гўшти чекловларсиз чиқарилади, зарарланган қисми эса утилизацияга жўнатилади. Септик жараёнда тана гўшти, калла-поча, ичак-чавақлар утилизацияга жўнатилади. Тана гўшти ўртача семизликда бўлиб бир неча органлари зарарланганда гўшт ва ички органларни ишлатиш мумкинлиги тўғрисидаги қарор бактериологик текширишлар (патоген кокк микрофлоралар, сальмонеллалар мавжудлигига) ўтказилгандан сўнг қабул қилинади.

H5N1 яъни Европа парранда ўлати – биринчи марта италиялик ветеринар Эдуардо Перронсито 1878- йилда товуқ тифуси номи билан таърифлаган. Бу касаллик кўпроқ Европа, Африка, Осиё ва Шимолий Америка давлатларида учрайди. Қўзғатувчиси вирус. Табиатта 24 хил штампи мавжуд. Грипп вируси одамлар, ҳайвонлар, паррандалар, ўрдак, чучқа, от, тюлен ва бошқаларда учрайди. Одамларга юқиш йўллари тухум, чала пишган тухум, касалланган айвон гўштини эстеъмол қилиш орқали. Вируснинг H5N1 сероварианти томонидан чақириладиган касалликда тана гўшти ва органлар ветеринария-санитария экспертизасидан ўтказилмасдан йўқ қилинади.

Чўчка Грипп [франц. grippe], инфлюэнца – кенг тарқалган ўткир юқумли касаллик. Чўчка гриппи АҚШ, Мексика, Канада, Жанубий Америка, Европа, Кения, Хитой, Тайван, Япония ва бошқа мамлакатлардаги уй чўчкалари орасида кенг тарқалган. Бундан ташқари, вирус одамлар, қушлар ва бошқа жонзотлар муҳитида тарқалиши мумкин. Яққол интоксикация кузатилади, нерв ва юрак-томир тизими фаолияти бузилади. Гриппни вируслар кўзгатади; уларнинг А, А_р А₂, В, С турлари маълум. Вируслар вақт-вақти билан антиген тузилишини ўзгартириб туради. Жумладан, А турининг ўзида антиген хусусиятига қараб А (Н₁Н₁), А (Н₁Н₂) антигенли вируслар фарқ қилинади. Ўзбекистонда, асосан, А, айрим ҳолларда, В тури учрайди. Грипп вируслари жуда беқарор; хона шароитида бир неча соатдан сўнг юқиш эҳтимоли йўқолади, қуёш нури таъсирида тез нобуд бўлади. Паст ҳароратда, айниқса, ҳаво ҳарорати 0° дан паст бўлганда вирус узоқ сақланади. Шу сабабли грипп касаллиги совуқ мавсумда кўпроқ кузатилади. Одамларга чўчка гўштини ейш орқали юқади. Дезинфекцияловчи воситалар (хлорамин, хлорли оҳак эритмалари, формалин, кислота ва ишқорлар) таъсирида вируслар тез нобуд бўлади. Исириқ тутуни ҳам грипп вируларини ўлдиради.

Хулоса қилиб айтганда, ҳозирги кунда ер юзида ҳайвонлар ва одамлар учун умумий бўлган касалликлар жудҳҳа ҳам кўп. Ўзбекистон ҳудудига импорт қилинаётган гўшт ва гўшт маҳсулотлари ветеринар -санитария экспертизасидан ўтқизиш муҳим аҳамиятга эга. Бу экспертиза ҳайвонлардан олинган маҳсулотларнинг сифати, хавфсизлиги таъминлашда ва улар тарқатадиган касалликларнинг бошқа ҳудудларга тарқалишининг олди олинади.

REFERENCES

1. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. Тошкент, “Ўзбекистон” НМИУ, 2017. – 56 б.
2. Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. “Ўзбекистон” НМИУ, 2017. – 47 б.
3. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурагимиз. “Ўзбекистон” НМИУ, 2017. – 485 б.

4. Мирзиёев Ш.М. Танкидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик-ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қондаси бўлиши керак. “Ўзбекистон” НМИУ, 2017. – 103 б.
5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида” ги ПФ-4947-сонли Фармони. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., 6-сон, 70-модда
6. Гариев В.Г.-Микробиология, Тошкент 1990 й. ўқув қўлланма 200 бет.
7. Теппер Е.З., Шильникова В.К., Переверзева Г.И. Практикум по микробиологии. М. 2005 г. ўқув қўлланма 200 бет.
8. Кисленко Е.З., Колычев Н.М. Ветеринарная микробиология и иммунология. Часть I, Общая микробиология и иммунология. 2006 г. дарслик 300 бет.

A'ZAM O'KTAM IJODINING G'OYAVIY-BADIY MANZARASI

Raimova Sayyora Zoitovna

Ilmiy rahbar: Phd.

Jo'rayeva Gavhar

Termiz davlat universiteti 2 - bosqich magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7668979>

Annotatsiya. Mazkur maqolada A'zam O'ktamning ijodga kirib kelishi, ijodiy bisoti masalalariga e'tibor qaratilgan. Shuningdek, ayrim she'rlarining g'oyaviy badiiy xususiyatlariga to'xtalangan.

Kalit so'zlar: A'zam O'ktam, adabiy muhit, yo'l, to'g'ri yashash.

ИДЕЙНО-ХУДОЖЕСТВЕННЫЙ ЛАНДШАФТ ТВОРЧЕСТВА АЗАМА ЎКТАМА

Аннотация. В этой статье основное внимание уделяется вопросам творческой биографии и вхождения Азама Ўктама в творчество. Также затронуты идейно-художественные особенности некоторых его стихотворений.

Ключевые слова: Азам Ўктама, литературная среда, дорога, прямая жизнь.

IDEOLOGICAL AND ARTISTIC LANDSCAPE OF THE CREATIVITY OF AZAM O'KTAM

Abstract. This article focuses on the introduction of Azam O'ktam into creativity, creative bisoti issues. Also touched upon the ideological artistic features of some of his poems.

Keywords: Azam O'ktam, literary environment, path, living right.

Inson ham parvardigorga taqlidan yaratishga, zohiru botinning, tilu dilning, osmonu yerning, oqu qoraning, balandu pastning koshifi bo'lishga, ijod qilishga moyil. Insonning manglayidagi bu ganjina ong orqali mingyilliklar davomida taraqqiy etdikim, pirovardida uning mavjudodlar orasidagi rutbasi yuksak bo'ldi; zaminning haqiqiy sohibiga aylantirdi. Ijod falsafasi insoniyat tarixining ongli yaratilari evolyutsiyasi ibtidosidan beri kishilik jamiyati afkor ommasining o'y-xayollarini band etib, ularning bu azaliy mavzudagi turli qarashlarini yuzaga keltirib kelmoqda. Odam ongu shuuri hamma zamonlarda va makonlarda ijodga ehtiyojmand bo'lgan. U ijod ko'zi bilan dunyoga qaragan, dunyo ham insonning ijodkorlik qobiliyatini rag'batlantirdi. Ijodkor inson shundayki, u olamni o'zigacha hech kim, hech qachon ko'rmagandek ko'radi, o'zigacha hech kim, hech qachon tinglamagandek tinglaydi – ana shunda ijod yuzaga keladi. Shu boisdan uning ijodiy mahsullari, ovozi va uslubi o'zidan, ta'bir joiz bo'lsa, o'z olamidan kelib chiqadi. Har qanday ijodkor o'zi ko'rib, mutaassir bo'lib, qalbidan o'tkazib ko'rgan-bilgan voqea-hodisasiga nisbatan ijodiy aks sado beradi.

Azaliy va abadiy ijod masalasida insoniyat badiiy tafakkuri va his-tuyg'ularining betimsol og'zaki va yozma mahsuli bo'lgan she'riyatning barcha qadimiy va xos san'at turlari barobarida negiz san'at turi sifatida tasniflash, bizningcha, maqsadga muvofiq. Buning asosiy sabablarini keltirar ekanmiz, ro'yxat avvaliga so'zning qudratini, tuyg'uning o'lmasligini, inson aqlu zakovati, qalbu shashti aynan she'riyatga xos bo'lgan ilohiy unsurlarga ehtiyojmand ekanligini, inson tabiatidagi poetik evrilishlar xossalarini inobatga olib, mazkur sabablarni ilkinchi qatorlarda keltirish mumkin. Shuni ham alohida ta'kidlash kerakki, fikr, g'oya va badiiy niyatning tushuntirib

bo'lmis darajadagi poetik reaksiyaga kirishish hodisasining avangard namunalari faqatgina she'riyatda nisbatan yaqqolroq ko'rinadi, his etiladi.

XX asrning 80-90-yillarida o'zbek adabiy muhitida vujudga kelgan yangi ruh, ovoz, g'oya, badiiy tafakkur, eksperimental ijodga xos she'riyat adabiyotshunoslik ilmi uchun, ta'bir joiz bo'lsa, ko'p vaqtga qadar asqotadigan "tadqiqotlar zaxirasi" bo'ldi. Ayni shu davrda adabiyot maydoniga kirib kelgan bir guruh shoirlar orasida, o'zbekning iste'dodli, bilimdon, yuksak saviyali, kurashchan, diyonatli, milliy g'ururi uyg'oq shoirlaridan biri A'zam O'ktamning otashin, ehtirosli va intellektual asosga qo'yilgan she'rlarini alohida e'tirof etish, tadqiqqa tortish bag'oyatda jo'yali ish. Uning ijodi asosini erk, erkinlik hissi, erkin so'z, fikr va ifoda kabi jahon she'riyatiga xos bo'lgan muhim jihatlar tashkil etadi. Haqiqiy shoir hamma zamonlarda va makonlarda, tuzumlar imperiyalarda har qanday vaziyatda haqiqat kuychisi, mazlumlar tarafdori, ko'ngillar g'amxo'ri, qalblar homiysi, tuyg'ular kuychisi bo'lib qolishi zarurati haqidagi adabiy aksiomalarga mos tushadigan A'zam O'ktam ijodida ham erk hissi badiiy g'oya o'laroq birinchi planga chiqadi. Bugungi o'zbek she'riyati (umuman, adabiyoti) bu – erkin badiiy tafakkur mevasi bo'lib, unda hayotimizning barcha ranglari – kamalak jilosi yanglig', qalblarda tovlanishini ko'rish, his qilish mumkin. Aslida, badiiy tafakkurdagi bunday erkinlikka osonlikcha erishilgani yo'q. Adabiyotdagi o'zgarishlar har doim ham siyosiy-ijtimoiy hayotdagi o'zgarishlarga mos harakat qilmaydi. Uni o'zgartiradigan kuch bu – hayot va uni ijodkor ruh tomonidan idrok etilishidir. Qabul va idrok jarayoni esa vaqt talab qiladi. Jarayon o'z maromiga yetib borgandagina badiiy tafakkurda haqiqiy evrilishlar yuz beradi. Badiiy tafakkurdagi o'zgarishlar bu – adabiyotning yangilanishi demak. Yangilanish davri yetildimi, unga hech kim hech qachon ta'sir ko'rsatolmaydi. Zero, bunday hodisalar xalq ruhidagi botiniy yangorishlar bilan bevosita bog'liq.

A'zam O'ktam ijodidagi g'oyaviy badiiyat silsilasi: ruhiyat fasllari, badiyatdagi ranglar jilosining tarannumi, iymon, diyonat taskiniyati, milliy izzati nafs hissini yuksaltirish muammosi, o'zlik atalmish genetik mohiyatni anglash missiyasi, xalq, ona yurt uchun jonfido yashash sezimi va samimiy sevgi-muhabbat, do'stu yorlik tuyg'ularining jo'sh urishi hamda haqgo'ylik tamoyillari kabi qator gumanistik fazilatlar, g'oyalar bilan chambarchas bog'langan. Shoirning "Kuzda kulgan chechaklar", "Kuzatish", "Ziyorat", "Taraddud", "Ikki dunyo saodati", "Qirqinchi bahor", "Osmon yaqin", "Sahar vaqti yurak yig'lar" singari salmoqli she'riy to'plamlari, "Xabar", "Bola dunyoni tebratar" kabi o'ziga xos ijtimoiy-badiiy ahamiyatga ega qissalari, hatto bir turkum badiiy publisistik bitiklari, biz yuqorida sanab o'tgan asosiy g'oyalar bilan to'yingan.

Shoirning "Yo'l" sarlavhali she'rida inson hayotining murakkab pallasida murod-maqсад sari shaxd bilan intilayotgan qalbning go'yo daf'atan hasrat atalmish "bekat"da noma'lum muddatga to'xtab qolib, bir muddat bosib o'tgan yo'lini sarhisob etayotgan holatini kuzatishimiz mumkin:

Yil yiqilar yilning ustiga,

Xotiralar tipirchilar xit.

Yelkam og'rir, qaqshar ustixon,

Yuk ostida siltanar umid.

Qo'qqisdan inson ruhiyati va shuurida turadigan og'riqlar, hasratlar, sog'inchlar istalgan kuchli iroda sohibini ham bir muddat karaxt holatga tushirib qo'yishi hech gap emas. Shunday damlarda insonning foniy dunyo bilan murosasidagi so'nggi rishtasi – umidvorlik hissi ham

oraliqda qoladikim, vaqt atalmish beparvo tushunchaning kuch-qudratidan esankirash vaziyati mazkur she'ringing dastlabki satrlaridanoq o'quvchini o'zining ruhiy kayfiyatiga jalb etadi.

*Beraymikan taqdirimga tan,
Nahot bari tugadi yohu!
Yildan yilga yetaklab o'tgan –
Orzularim ushalmadi-ku?!*

– deya ikkilanish insonga xos va tabiiy bo'lgani bois ham minglab odamlar hayot atalmish ne'matning past-balandlarida ayni savolni o'zlariga berganliklari uchun ham shoir iztiroblarini teran his etadi.

*Sergak qadam tashlayman, axir,
Yurar yo'lim – qalin tikanzor.
Benihoyat uzundir umr,
Bittagina oq ko'ylagim bor.*

Satrlari orqali shoir benihoya alam bilan bu hayotning turli to'g'anoqlari, tuzoqlari, turli niqoblar bilan yashayotgan va istalgan vaqtda pand berishi muqarrar bo'lgan soxta va xiyonatkor odamlar ko'pligini va toza dillar bunday muhitda o'ta sergak yashashga majbur ekanliklarini uqtirarkan, umrning tikanzorligini, hayotning o'yinchoq emasligini urg'ulaydi. Shuningdek, bir qarashda “besh kunlik”dek tuyuladigan umrning bunday nokaslar ichida o'tishini nazarda tutib, uzoq deya isyon qiladi. Va “bittagina oq ko'ylagi” pokiza qalbiga dog' tushishidan xavotirlanadi.

*Yuksaklarga cho'zibman qo'lni,
Omon yetay unga ishqilib.
Tanladim sal og'irroq yo'lni,
Sal yengilroq jon berayin deb.*

Bandiga kelib she'r o'zining kulminatsiyasiga chiqadi. Bu dunyoga pok kelgan odamlarning nopok yo'llarga bosh suqmay, yaratganning nazarida ham, insonlar nazarida ham harchand og'ir va murakkab yo'l bo'lmasin, to'g'ri va halol yashashga undaydi, yengil-yelpi gunoh botqog'iga botiruvchi ko'plab yo'llarda andarmon bo'lmaslikka chorlaydi.

*Qadam bosish tobora qiyin,
Umr kifta. Qaqshar ustixon.
Olg'a qarab yurganim sayin
Yil yiqilar yilning ustiga.*

“To'g'ri yashash tobora qiyin”ligi, umrni bu tarzda opichlab o'tish azobini tasvirlar ekan shoir, amal-taqal bo'lsa-da o'zligini saqlab qolayotgan inson obrazini g'amgin bo'yoqlarda tasvirlaydi. E'tibor qaratsak, “Yil yiqilar yilning ustiga” satri bilan boshlangan she'r ayni shu satr bilan nihoyalanmoqda. Bu vaqtning bardavom ekanligini va hech kim bilan hech qachon hisoblashmasiligini, bu oraliqda kelib-ketuvchi: bugun bor bo'lgan umr, ertaga yo'q bo'lishini ro'yirost eslatarkan, ushbu muqarrar hodisaning mohiyatini bilaturib ham qing'ir yo'lni tanlash haqiqiy odamga, bandaga xos tutum emasligini uqtiradi.

Ushbu she'rni yozish uchun avvalo inson ayni murakkab holatni yashab o'tmog'i zarur. A'zam O'ktam yallachi, hayotning faqatgina yorqin taraflarinigina kuylaydigan chegaralangan shoir emas, aksincha u inson ruhiyatining turli manzaralarini boricha aks ettiruvchi, hayotni she'riyatda ham realizatsiya etuvchi realist shoir. Shu ma'noda uning badiiyatidagi g'oyalarini umrboqiy deyish mumkin.

REFERENCES

1. Аъзам Ўктам. Саҳар вақти юрак йиғлар...: Шеърлар. – Тошкент: Мовароуннаҳр, 2014. – 304 б.
2. Ошо. Ижод (Рус тилидан Олимжон Салимов таржимаси). “Жаҳон адабиёти” журналы, 2021. № 8, 76-б.
3. Улуғбек Ҳамдам. Эркин бадий тафаккур ва бугунги ўзбек шеърияти. “Ўзбекистон адабиёти ва санъати” газетаси, 2013. № 48.
4. Баҳодир Карим. Рухият алифбоси. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2018. 364-б.
5. *XX аср ўзбек шеърияти антологияси*. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2007. – 496 б.

ADABIYOT DARSLARIDA JAHON ADABIYOTI NAMUNALARI TAHLILIGA
KOMPRAVISTIK YONDASHUVI

Feruza Turopova Bexzodovna

Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti

Gumanitar fanlar fakulteti Ona tili va adabiyot yo'nalishi magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7669017>

A

n
n
o

t **Kalit so'zlar:** adabiyot konteksti, darslik kontenti, yangi dastur, Davlat ta'lim standarti.

a **КОМПРАВИСТСКИЙ ПОДХОД К АНАЛИЗУ ОБРАЗЦОВ МИРОВОЙ**
t **ЛИТЕРАТУРЫ НА УРОКАХ ЛИТЕРАТУРЫ**

s **Аннотация.** В статье проведен сравнительный анализ преподавания мировой литературы в общеобразовательных школах. Проанализировано содержание учебников литературы, предназначенных для школьников. В учебниках рассматривались страницы, отведенные под мировую литературу, влияние представленных в них образцов на сознание школьников. **Annotation.** In the article a comparative analysis of the teaching of world literature in general secondary schools is conducted. The content of literature textbooks intended for schoolchildren is analyzed. The textbooks deal with the pages allocated for world literature, reflections on the impact of the samples presented in them on the minds of students.

**A COMPREHENSIVE APPROACH TO THE ANALYSIS OF SAMPLES OF
WORLD LITERATURE IN LITERATURE LESSONS**

Abstract. The article conducted a comparative analysis of the teaching of World Literature in general secondary schools. The content of literature textbooks intended for schoolchildren was analyzed. The textbooks dealt with the pages allocated for world literature, reflections on the impact of the samples presented in them on the minds of students.

Keywords: literature context, textbook content, new program, state educational standard.

Qiyosiy adabiyot kontekstida dunyo adabiyotining o'rni adabiy tanqidchilarning turli muhokamalariga sabab bo'lib kelmoqda. Muayyan mamlakatning mintalitetiga mos kelmaydigan g'arb yoki sharq adabiyoti namunalarida ilgari surilgan g'oyalarning o'quvchilar ongiga ta'sir qilishini hisobga olgan holda, darsliklar kontentini tuzish juda muhim vazifa hisoblanadi. Bundan tashqari, jahon adabiyoti namunalarini mahalliy va global miqyosda uyg'unlashtirilgan metodologiyadan foydalanish va o'quvchilar uchun maqbul yondoshuvni taqdim etish jarayonida qiyinchiliklarga duch kelinayotgani tabiiy hol. Agar mavzu o'quvchi yoshiga mos, milliy mintalitetga xos tarzda tanlansa, madaniyatlar aro yaqinlikka, o'quvchi tasavvur doirasining kengayishi va xayolan dunyoning qaysidir chekkasida yashash imkoniyati beriladi.

Tsvetan Todorov "Adabiyot nima uchun?" nomli asarida maktab yoshiga to'lmasdan oldinroq kitoblar olamiga oshno bo'lgani haqida yozadi: "Ilk xotiralarim kitoblar qurshovida bo'lgan paytim bilan bog'liq. Uyimizda kitoblar juda ko'p bo'lardi. Bolalar adabiyotining klassik durdonalaridan "Arab oqshomlari", "Aka-uka Grim va Anderson ertaklari", "Tom Soyer", "Oliver Twist" asarlarini takror o'qirdim." Todorov adabiyotga bo'lgan muhabbatini kitob sahifalari va ulardagi satrlarga asir bo'lgani bilan izohlagan. Todorov muayyan mintaqaviy matnini o'qish orqali

hudud bilan yaqinlik, umumiy muhit va mahalliy kontekst bilan tanishish imkoniyatini berishini isbotlab bergan. "O'quvchining shaxslik sifatlarini shakllantirishda adabiyot fani hal qiluvchi ahamiyatga ega hisoblanadi. Yozuvchining ijod dunyosiga kirishi va shu orqali bola ongi va didini o'stirish asosiy maqsad demakdir.

Darslik va majmualardan o'rin olgan o'zbek va jahon adabiyoti durdonalarining o'quvchi fikrini boyitish va hissiyotlarni tarbiyalashda ahamiyatlidir." Asosiy masala faqat milliy adabiyotning o'qitilishida emas, balki boshlang'ich sinflarning "O'qish kitobi", yuqori sinflardagi "Adabiyot" darsliklarida jahon adabiyoti uchun ajratilgan bo'limlar kontenti bilan bog'liqdir. Xorijiy maktab darsliklariga e'tibor qaratsak, 5-6 sinfda rus o'quvchisi J.Vern, M.Tven, E.Seton-Tompson, A.Gofman kabi jahon bolalar adabiyoti durdonalari bilan tanishadi. 6-sinf o'zbek o'quvchisining adabiyot darsligi ikki qismdan iborat bo'lib, unda jahon adabiyoti turkumidan faqatgina Janni Rodari hayoti va ijodiga murojaat qilinganligini ko'rish mumkin.

Vaholangki, I.Krilov, Lafonten va boshqa ko'plab yozuvchilarning sarguzasht asarlari o'quvchi tasavvurini kengaytirishda, qiziqishlarini shakllantirishda xizmat qilishi mumkin. 10-sinf o'quvchilari uchun tuzilgan adabiyot darsligining ikkinchi qismi so'ngidan jahon adabiyotining atoqli vakillari Jek London va Alfonse Dode hayoti va ijodi o'rin olgan. "Hayotga muhabbat" va "So'nggi saboq" hikoyalari ibratli, ayni o'smir yoshdagi bolalar uchun juda foydalidir. Ushbu hikoyalarda vatanparvarlik, insoniylik, mehnatsevarlik, jasurlik, odillik kabi sifatlar ulug'langan. Lekin 11-sinf o'quvchilari uchun tuzilgan adabiyot kitobining kontentidan o'rin olgan Rashod Nuri Gunteginning "Choliqushi" asarini to'g'ri tanlangan deb aytish qiyin. "Romanda berilishicha, Kamron bilan Narimon degan bir tul ayol o'rtasidagi munosabatlarni Ferede ulkan bir daraxt o'rtasida o'tirib tomosha qiladi... Ferede o'zining ham boshqa qizlar kabi qalb egasi ekanligini anglatish uchun ham Kamron bilan Narimon o'rtasidagi uchrashuv sahnasiga o'z laqabini qo'yib gapirib beradi. " 11-sinf o'quvchilari o'z kitobida 15 yoshli qizning ishqiy sarguzashtlarini o'qishi axloq qoidalariga to'g'ri kelmaydi deb hisoblaymiz.

Bundan tashqari jahon adabiyotida 17-18 yoshli bolaning ruhiyatiga ta'sir qiladigan, hayotga qarashlarini o'zgartiradigan, jiddiy qarorlar qabul qilishga undaydigan asarlar juda ko'p. "Yangi dastur bo'yicha 5-sinfdan boshlab izchil tarzda o'rganiladigan adabiyot mazmuni sinfdan-sinfga murakkablashib boradi. Quyi sinflarda ko'proq xalq og'zaki ijodidan namunalar, o'zbek adabiyoti namoyondalarining asarlari berilsa, yuqori sinflarda jahon adabiyoti namoyondalarining asarlari bilan tanishtirish ustun turadi. Adabiy materiallar davriy tizimda emas, oddiydan m

u Ammo yuqori sinflarda, 10-11-sinflarda jahon adabiyoti namunalari sonida o'sish kuzatilmaydi. "Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'rganilishi ko'zda tutilgan adabiy ta'lim asosida hech kimga o'xshamagan alohida shaxsni, mutolaa qiladigan, mohiyatini anglaydigan, tahlil etib, kulosa chiqara biladigan, qahramon holatini his etadigan, o'zgalar dardiga sherik bo'ladigan, ularni kushunadigan va shu asnodda o'zini ham kashf eta biladigan barkamol insonni tarbiyalash maqsadi turadi." Bundan kelib chiqib xulosa qiladigan bo'lsak, 11-sinf o'quvchisi "Choliqushi" asarini b'qib, qahramonlar holatini his etishi, hali sevgi-muhabbat nimaligini anglamay turib, qahramonlar holatini his qilishi va o'zini ham Feride yoki Kamron timsolida qayta yaratishi o'rta ta'lim tizimining ko'zlagan maqsadlaridan biri sifatida tushuniladi.

Darsliklar tuzish murakkab, katta kuch talab qiladigan jarayon bo'lish bilan birgalikda, betishib kelayotgan yosh avlodning tarbiyasiga ta'sir qiluvchi mas'uliyatli ish ham hisoblanadi.

Darslik kontentini, agar kamchiliklari yoki nomutanosibliklari bo'lsa, hech qanday ilg'or texnologiya ham, pedogogik mahorat ham xaspo'shlay olmaydi. Shu sababli, har 4 yilda darsliklar muqovalarini o'zgartirib qayta nashr qilmasdan, mazmun-mohiyati ustida ishlash uchun yangi ishchi guruhlarini jalb etish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Bolalikda o'qilgan asarlarning ta'siri umr bo'yi insonga hamroh bo'ladi. Yoshlikda xayolga o'rnashgan tushuncha, tasavvurlar hamisha to'g'ridek tuyuladi. Shuning uchun bolaning oq qog'ozdek sof, toza ongu shuuri kitobda zikr etilgan haqiqatlarni hayratomuz bir tashnalik bilan o'zlashtiradi, ularga umri davomida ishonib yashaydi... Shunday ekan, bugungi adabiyot darsliklarini ahvoli qanday? Ular bugungi davr talabiga javob bera oladimi?

Darsliklar yaratish murakkab va ma'sulyatli ishligini hisobga olsak, uzluksiz ta'lim tizimi uchun tayyorlangan darsliklar bir-birini takrorlamasligi, aksincha, mazmunan to'ldirishi, o'quvchi bilimni bosqichma-bosqich yuksaltirishga xizmat qilishi lozim. Hozirgi maktab darsliklari katta fundamental ish sifatida e'tirofqa loyiqdir. Lekin darsliklardagi ayrim o'rinlar xususida mulohazalar borki, ularni aytib o'tish darkor.

Hozirda amaldagi 5–9-sinf adabiyot darsliklarida o'quvchilar 67 nafar o'zbek hamda jahon adabiyoti namoyandalarining hayoti va ijodi, shuningdek, turli adabiy janrlar, badiiy tasvir vositalari haqidagi ma'lumotlarga ega bo'lishadi. Har bir mavzu oxirida keltirilgan savol va topshiriqlar o'quvchilarni mustaqil fikrlashga undaydi...

To'g'ri, 5–6-sinf darsliklarida bolalarbop asarlar yo'q emas. Lekin ularning safini kengaytirish kerak. Sababi, mana bir necha yilki, maktab o'quvchilari Xudoyberdi To'xtaboyev, Antuan de Sent-Ekzyuperi, Janni Rodari kabi sanoqli bolalar yozuvchilarining asarlari bilan tanishishmoqda. Ushbu sinflarda o'zbek yozuvchilaridan Nosir Fozilov, Erkin Malik, Anvar Obidjon, Qambar Ota hamda jahon adabiyotidan Lev Tolstoy, Aleksandr Pushkin, Ivan Krilov, Jyul Vern, Lafonten, aka-uka Grimlar, Sharl Perro, Amadey Hofman kabi ijodkorlarning bolalarga atalgan asarlaridan namunalar berish ayni muddao bo'lardi.

To'g'ri, bu ijodkorlarning kitoblari nashr etilmoqda, maktab kutubxonalariga ham yetib borgan. Ammo hamma maktab kutubxonalari ham kitobga boy emas. Shu ma'noda aslida o'quvchilar yuqorida aytib o'tilgan adiblarning asarlarini eng avvalo maktab darsliklari orqali bilib olishlari kerak.

Adabiyot darsliklarida berilgan ijodkorlarning tarjimai holi haqidagi ma'lumotlar xususida to'xtalib o'tsak. Ayrim shoir-yozuvchilarning hayot yo'li bayonida faqat ma'lumotbozlik bo'y ko'rsatadi. Ijodkor hayoti va ijodiga oid matnlarda sanalar, joy hamda asarlar nomi ko'pligidan o'quvchi tugul, hatto o'qituvchi ham shoshib qoladi. Masalan, 5-sinfda Maqsud Shayxzoda, 6-sinfda Turob To'la, 7-sinfda Mirmuhsin va O'lmas Umarbekov, 8-sinfda Fitrat, 9-sinfda Furqat kabi ijodkorlar hayoti haqidagi ma'lumotlar shu qadar ko'p va quruq holatda berilganki, bu o'quvchini zeriktirishi, toliqtirishi, chalg'itishi tabiiy.

Ayrim ijodkorlar haqidagi mavzular sinfdan sinfga o'tarkan, hech o'zgarishsiz, qo'shimcha va to'ldirishlarsiz ko'chiriladi. Masalan, 6-sinfda keltirilgan Muqimiy hayoti haqidagi ma'lumotlarni olaylik. Shoirning vafotidan keyin uning 4-5 ta to'plami nashr qilinganini aytmasak, 5-sinf darsligida berilgan ma'lumotlar mazkur sinfdan shundayligicha takrorlangan. Bundan tashqari, Asqad Muxtor, Erkin Vohidov, O'tkir Hoshimov kabi ijodkorlarning ham tarjimai hollari o'zgarishsiz, yangi ma'lumotlarsiz darslikdan-darslikka ko'chib o'tavergan. Keyingi nashrlarda bu qaytariqlar tuzatilishi maqsadga muvofiq...

Hazrat Alisher Navoiy – ma’naviyatimiz quyoshi, ulug‘ mutafakkir. Ul zoti sharifning ibratlarga to‘la hayot va ijod yo‘li maktabgacha ta‘lim muassasalari hamda boshlang‘ich ta‘lim jarayonidan yosh avlodga o‘rgatib kelinayotgani tahsinga loyiq. Lekin darsliklarda Navoiy haqidagi mavzular, bizningcha, tizimli ravishda berilmayapti. E’tibor bering, 5-sinfda ulug‘ shoir hayoti va ijodi haqida ikki sahifa, 6-sinfda esa bir sahifagina ma’lumot berilgan bo‘lib, barchasi umumiy gaplardan iborat. Vaholanki, 6-sinfda o‘quvchilar Navoiy haqida avvalgi sinfda berilmagan ma’lumotlarni o‘qishlari, ul zotning hayoti va ijodiga taalluqli yangi bilimlarga ega bo‘lishlari kerak edi. Biroq, afsuski, bu masala na kitob mualliflari, na Respublika ta‘lim markazi xodimlarini o‘ylantirayapti...

Hozirgi o‘quvchilardan Navoiyning qaysi g‘azallarini bilasan deb so‘rasangiz, «Kecha kelgumdir debon...», «Ko‘rgali husningni zoru...» kabi g‘azallari, «G‘urbatda g‘arib...», «Zohid, sanga huru...» singari ruboiylarini aytishadi, xolos. Bizningcha, buning asosiy sababi bir necha yildan beri o‘zgarmsdan, shunda ham faqat 8-sinf darsligidagina berib kelinayotgan «dejurniy» she‘rlar. Aslida darsliklarda Navoiy ijodidan namunalarning berilish tizimi ham munozarali. E’tibor bering: 5- va 6-sinflarda hazratning «Hayrat ul-abror» va «Mahbub ul-qulub» asarlari, 7-sinfda «Sab‘ai sayyor» dostonidan parcha, 8-sinfda bir turkum g‘azal hamda qit‘alari, 9-sinfda esa «Farhod va Shirin» dostonidan parchalar berilgan. Nega butun bir avlod faqat 8-sinfda akasi, opasi, amakisi, xolasi yodlagan g‘azallarni yodlashi kerak!? Axir hazrat Navoiyning o‘zbek tilida yozilgan 2600 dan oshiq g‘azali bor-ku! **Shuning uchun har bir sinf darsligiga shoir g‘azallari-yu ruboiylaridan, qit‘alari va tuyuqlaridan namunalar hamda ularning tahlillarini kiritish lozim.**

7-sinfda «Sab‘ai sayyor» dostonidan parcha berilgan. Bizningcha, birinchi galda asar nima uchun «Yetti kezuvchi» deb nomlangani, uning asosiy syujeti va mazmun-mohiyati haqida o‘quvchiga tushuncha berilishi kerak edi. Ammo bu asarning g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari, tuzilishi haqida bir jumla ham ma’lumot berilmagan. Shoir hayoti haqidagi ma’lumot tugashi bilan «Beshinchi iqlim yo‘lidan kelgan musofirning dostonorlig‘i» deb Mehr va Suhayl haqidagi voqealar boshlanib ketgan. Aslida bu asar shoh Bahrom hamda uning husn va tafakkurda tengsiz bo‘lgan yori Dilorom haqida bo‘lib, Bahromning shoshqaloqligi va kaltabinligi oqibatida Diloromdan ayrilgani, Bahromni chalg‘itish uchun turli rangdagi yettita qasr qurilib, yetti kecha unga turli rivoyatu afsonalar aytilgani, Mehr va Suhayl haqidagi rivoyat beshinchi kecha – chorshanba kuni moviy qasrda bir jahongashta sayyoh tomonidan aytilganini o‘quvchilar Navoiyni o‘qishni o‘zi ham ma’naviy burch deb bilgan o‘qituvchisi bo‘lsa, biladi... Bo‘lmasa, bilmay ulg‘ayaveradi (o‘quvchilardan «Sab‘ai sayyor» qanday asar deb so‘raganingizda, Mehr va Suhayl haqida deyishsa, hech ajablanmang!).

Shuni inobatga olib, darslik yaratishga adabiyotning turli sohalarini – nasr, nazm va dramaturgiya yo‘nalishlari bo‘yicha tadqiqot olib borayotgan, turli oliy o‘quv yurtlarida adabiyotdan saboq berayotgan, adabiyot o‘qitish metodikasi bilan muntazam shug‘ullanayotgan yuksak salohiyatli fan doktorlari va professorlarni ham jalb qilish lozim. Bunday deyishga ham sabab bor. 9-sinf adabiyot darsligida mumtoz adabiyot vakillaridan Navoiy, Bobur, Mashrab, Ogahiy, Furqat kabi ulug‘ shoirlar bor. Ammo darslik mualliflari safida na navoiyshunos, na boburshunos, na ogahiyshunos, umuman olganda, mumtoz adabiyot olimlari bor (yoki darsliklarda berilgan xalq og‘zaki ijodiga doir namunalar – turli xalq qo‘shiqlari, maqol va topishmoqlar, dostonlarning tahlilida ham folklorshunos olimlarning ko‘magidan foydalanish mumkin edi...).

Agar ushbu darslik mualliflari navoiyshunos olimlarni ijodiy hamkorlikka chorlab, birga ishlaganlarida edi, «Farhod va Shirin» dostonidagi «Mashaqqatdin yigitni el qori der / Ki, qozilmish iki-uch yuz qori yer» bayti «*Mamlakatdin* yigitni el *qari* der / Ki, qozilmish iki-uch yuz *qari* yer» deb tushunarsiz holda darslikka kiritilmasdi. Yoki bo‘lmasa, 5-sinfda Zahiriddin Muhammad Bobur haqidagi mavzuda shoirning «Hajringda bu tun ko‘ngilda qayg‘u erdi / Vaslingga yetishmadim, jihat bu erdi / Ohim tutuni birla ko‘zimning yoshidin / Yo‘l balchiq edi, kecha qorong‘u erdi» ruboiysining oxirgi ikki misrasi shunday izohlanadi: «Keyingi ikki satrda shoir hazil-mutoyibaga o‘tadi. Fojia hazil bilan beriladi...». Bizningcha, bu yerdagi holatni fojia deyish va shoirning izohini mutoyibaga yo‘yish to‘g‘ri emas. Oh tutun kabi atrofni zim-ziyo qilishi, ko‘zidan oqqan tinimsiz yosh sabab hammayoq loy-balchiq bo‘lishi – mubolag‘a, bo‘rttirish san‘atidir.

Shu o‘rinda yana bir muhim masalaga to‘xtalsak. Til va adabiyot sohasining ham ilmiy, ham amaliy jabhasi bo‘lgan muassasalar – O‘zbekiston fanlar akademiyasi tasarrufidagi O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti, O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi, shuningdek, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti nega darslik yaratish jarayoniga jalb qilinmaydi? Kelajak egalarining tafakkurini rivojlantirish va ularning ko‘ngliga ezgulik hamda to‘g‘rilik urug‘larini qadashda, nahotki, sanoqli mutaxassislarning maqolalari-yu taqrizlari yetarli bo‘lsa?! Bizningcha, bu ishda ko‘pchilik bo‘lib, bahamjihat ishlagan ma‘qul.

Yaqinda oliy o‘quv yurtiga kirish uchun repetitorga qatnayotgan bir yigit bilan suhbatlashib qoldim. Adabiyot sohasiga yaqinligimni bilib, «Hozir ham tirik shoirlar bormi?» deb qoldi. Daf‘atan kulib yubordim. Kulganimdan xijolat bo‘ldimi, «To‘g‘ri-da, darslikdagi hamma shoirlar vafot etgan. Hozir ham yashab ijod qilayotganlari kiritilmagan demoqchiman», — dedi. Bu gapdan keyin esa kulolmadim, aksincha, ich-ichimdan xo‘rsindim. Negaki, bu yigit darslikka qarab, bugungi kunda adabiy asarlar yaratilmayapti, boshqa shoir-yozuvchi yo‘q ekan degan xayolga borayotgani hammani ham o‘ylantirishi tayin. Afsuski, bunday yoshlar (abituriyentlar) ko‘plab topiladi. «Bularning hozirgi adabiy jarayondan uzoqligiga o‘zlari aybdor, gazeta-jurnal o‘qishmaydi, televideniya badiiy-ma‘rifiy ko‘rsatuvlarni ko‘rishmaydi» deydi darsliklar ham topilsa kerak. Balki shundaydir. Yaxshiyam oliy o‘quv yurtlaridagi kirish imtihonlarida ona tili va adabiyot fani qo‘yilgan, ko‘pchilik yoshlar test uchun bo‘lsa-da, shoir-yozuvchilarimizning hayoti va ijodini o‘qib, yodlashmoqda.

Bundan tashqari, Shukur Xolmirzayev, Rauf Parfi, Shavkat Rahmon kabi ijodkorlarning yurt va millatni sevishga undaydigan, erk va ozodlik kabi muqaddas tuyg‘ularni bosh g‘oya sifatida aks ettirgan asarlari negadir darsliklardan tushib qoldi... Ularning o‘rniga Saida Zunnunova, Xayriddin Saloh, Turob To‘la, Mirmuhsin kabi ijodkorlar kiritildi. Ochig‘ini aytish kerak, olib tashlangan ijodkorlar yangi kiritilganlardan ijodi jihatidan yuqori bo‘lsa yuqoriki, aslo kam emas... Aytmoqchi bo‘lganimiz shuki, milliy adabiyotimiz darajasini ko‘rsatib turuvchi darsliklarga asarlari badiiy barkamol bo‘lgan shoir-yozuvchilarni kiritish kerak.

Yuqoridagi barcha fikrlarga oddiy bir kitobxonning mulohazalari deb qaralishini istardik. Biz darsliklar mualliflarini tanqid qilish, ularning kamchiliklarini ko‘rsatish yoki ularga aql o‘rgatish niyatidan yiroqmiz. Ushbu fikrlar taklif sifatida qabul qilinib, agar ma‘qul bo‘lsa, keyingi nashrlarda e‘tiborga olinadi degan umiddamiz.

REFERENCES

1. Botirova, S. I. (2020). PROBLEMATIC ASPECTS RELATED TO THE USE OF EDUCATIONAL TECHNOLOGIES AND INTERACTIVE METHODS IN THE CLASSROOM. EPRA International Journal of MULTIDISCIPLINARY RESEARCH (IJMR), 6(8), 539-541.
2. Botirova, S. I. (2020). FOR STUDENTS OF PHILOLOGY TEACHING LITERARY CONDITIONS OF LEARNING BASIC ANALYSIS. Science and Education, 1(5), 110-113.
3. Isamidinova, B. S. (2020). THE RELATIONSHIP BETWEEN SYMBOLICALLY FIGURATIVE INTERPRETATION AND PSYCHOLOGY. Asian Journal of Multidimensional Research, 9(9), 12-15.
4. Ботирова, Ш. (2020). Бадиий психологизм критерийлари ва замонавий узбек романчилиги. Tafakkur ziyosi, 2(2), 146-148.
5. Q. Yadgarov. O. Xidirov. DTS asosida maktab darsliklari bilan ishlash. Jizzax. 2014. 7 b.
6. Q
7. Шахло, Б. (2020). Инсон ва ҳаёт воқелигини метафорик уйғунлаштиришда бадиий психологизмнинг урни. Суз санъати, 2(3), 19-23.
8. Ёдалова, В. (2020). Modern Methods of Teaching Russian and Uzbek as a Foreign Language. Journal of Pedagogical Research, 1(1), 1-10.
9. Сайдахметова, Д. Х. (2020). МЕЖДУНАРОДНЫЕ ОЦЕНОЧНЫЕ ПРОГРАММЫ (PISA, TIMSS, PIRLS) И ПОДГОТОВКА УЧЕНИКОВ К НИМ. Педагогические исследования, 1(1), 1-10.

O'RGATISH

Melixolova Muxabbat Boltayevna

Samarqand viloyati Narpay tumani 53 - maktab

Boshlang'ich sinf o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7670094>

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilariga chet tillarini turli xil ta'limiy va didaktik o'yin usullari va vositalari orqali o'rgatishning ahamiyatli tamonlari haqida so'z boradi. Shuningdek, o'quvchilarga chet tilini o'rgatishda "Bu kim?", "Hafta kunlari" kabi o'yin metodlaridan foydalanish haqida tavsifa berildi.

Kalit so'zlar: Psixik jarayon, emotsional holat, chet tili, didaktika, ta'limiy o'yin.

ОБУЧЕНИЕ ИНОСТРАННОМУ ЯЗЫКУ НЕТРАДИЦИОННЫМИ МЕТОДАМИ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ

Аннотация. В данной статье рассматриваются существенные аспекты обучения младших школьников иностранным языкам с помощью различных методик и средств учебно-дидактической игры. Также при обучении студентов иностранному языку "кто это? Рекомендовано использовать такие игровые приемы, как "дни недели".

Ключевые слова: психический процесс, эмоциональное состояние, иностранный язык, дидактика, развивающая игра.

TEACHING A FOREIGN LANGUAGE IN NON-TRADITIONAL METHODS IN ELEMENTARY GRADES

Abstract. The article presents various foreign language teaching methods and technologies in elementary school. Significant attention is devoted to the importance of holding educational game like activities. According to the author, in group games, children make a great effort to achieve the object and also obtain the discipline of self responsibility and being responsible for the sake of the group objective.

Key words: Mental process, emotional state, didactics, foreign language, educational game.

Bugungi kunda horijiy tillarni o'rganishga bo'lgan e'tibor barcha ruvojlangan mamlakatlar qatori Vatanimiz – O'zbekistonda ham e'tibor kuchayib bormoqda. Chet tillarini o'rganish uchun yaratilgan shart – sharoitlar o'z natijasini ko'rsatmoqda. Chet tili mutaxasislari tamonidan darslar o'quvchilar uchun qiziqarli va maroqli tashkil etish bo'yicha yangicha metodik uslublar, jahon ta'lim standartlariga mos yangi darsliklar, qo'llanmalar yaratilmoqda. Bu talablar zamirida o'quvchi - yoshlarga mukammal ta'lim – tarbiya berish maqsadi yotadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari ongida chet tilini o'qitishga bo'lgan qiziqishning shakllantirilishi, tilni o'rgatish bilan birga ularda bilim egallashga bo'lgan qiziqishlarini ortishiga sasab bo'ladi. Dars jarayonida o'quvchilarga horijiy tillarni o'rgatishda qo'llanilayotgan interfaol metodlar va didaktik o'yinlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Boshlang'ich sinflarda chet tillarini o'rgatish turli usul va vositalar, shuningdek she'r va qo'shiqlar yodlatish, hikoya va ertaklarni o'qish va ularni sahna ko'rinishlari orqali ijro etish yordamida amalga oshirish, o'quvchilarni tilga bo'lgan qiziqishlarini ortishiga va bilim egallashga samarali foyda beradi. Ta'lim jarayonida bolalarni o'qitish va kamol toptirishda chet tili muhim hisoblanadi. O'quvchining ijodiy ish faoliyatini kuchaytiradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga tilni o'rgatishda ro'lli o'yinlarning muhimligiga alohida e'tibor qaratishimiz zarur. Chunki bolalar o'yinlarga hech ham e'tiborsiz bo'lishmaydilar. Shuning uchun ularga turli didaktik o'yinlar orqali amaliy jihatdan o'rgatilsa, bola ongiga tez yetib boradi. O'qituvchi o'quvchilarning chet tilini oson o'zlashtirishini ta'minlovchi, ulardagi psixik jarayonlarning ruvojlantirishiga bevosita xizmat qiluvchi o'yinlardan habardor bo'lsa, amalyotda qo'llashda muammolarga uchramaydi. Bu o'rinda o'qituvchi o'quvchilarning bilim darajasini, o'yinning dolzarbligini hisobga olishi kerak.

O'yin – bola hayotining mazmuni hisoblanib, dars davomida har qanday tortinchoq bola ham o'yin jarayonida emotsional holatlarini aks ettiradi.

Ma'lumki, ta'limiy o'yinlar o'quvchilarni aqliy va axloqiy jihatdan tarbiyalash uchun muhim ahamiyatga egadir. Jumladan jamoa bo'lib o'ynaladigan o'yinlarda o'quvchilar maqsadga erishish uchun qa'tiyatini ko'rsatishi, guruhi oldida o'zining emas, balki o'rtoqlarining xatti-harakatlari uchun ham javobgarlik hissinu sezadigan bo'lib tarbiyalanadilar.

Darslarda o'yinlardan foydalanish bilim olish bilan birga o'quvchilarda o'z manfaatlarini jamoa bilan uyg'unlashtira olishi, bir-biriga ko'maklashish va o'rtog'ining muvaffaqiyatidan xursand bo'lish kabi yaxshi fazilatlarining shakllanishiga yordam beradi.

Didaktik o'yinlarda o'quvchilar o'z bilimlarini yangi sharoitda ishlata bilishga o'rgatadi, hamda ulardan aqliy faoliyatning turli-tuman shakllarini nomayon qilishni talab etadi. Masalan: 1-sinf o'quvchilarida hayvonlar mavzusini mustahkamlashda, ularga hayvonlar o'yinchoqlari beriladi, ular o'yinchoqlarni o'ynaydilar, lekin o'quvchilar zimmasiga o'yinchoqni barmoqlari bilan paypaslab, tasvirlab berish vazifasi yuklatiladi. O'quvchilar o'yinchoqlarni nomini, rangini va tana a'zolarini tasvirlab bera olishi kerak bo'ladi.

-What is it?

-It is a tiger.

-What colour is it?

-It is orange.

-What is it?

-It is a horse.

O'yin shu tariqa barcha bolalar tamonidan davom ettiriladi.

O'qituvchi dars jarayonida o'yinlardan foydalanar ekan, o'quvchilarning qiziqishlarini hisobga olishi shart.

O'quvchilarga hafta kunlari mavzusini tanishtirishda quyidagi "Bu kim?" o'yinidan foydalanishi mumkin. O'qituvchi yetti o'quvchini ingliz tilida hafta kunlari bilan nomlab oladi: Monday, Tuesday, Wednesday, Thursday, Friday, Saturday, Sunday.

O'qituvchi bolalarga hafta kularini raqamlar bilan aytadi. Teacher:

-Who is the fifth day of the week?

-I'm Friday.

-Who is the first day of the week?

-I'm Monday.

O'yin shu tariqa davom etadi.

O'yin o'quvchilarni ma'naviy tushunchasini boyitadi, qobiliyatini oshirishga yordam beradi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, darslarimizda o'yin til o'rgatishning eng muhim

faoliyat turlaridan biri bo'lib qoladi. O'yin orqali o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishi ortib, darslarni yaxshi tushunib boradilar.

REFERENCES

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch- T.: "Ma'naviyat", 2008-yil.
2. Tolipov O'. Pedagogik texnologiyaning asosiy tamoyillari. "Xalq ta'limi", 2001-yil.
3. Cameron, Lynne Teaching Writing to Young Learners Cambridge. Cambridge university Press. print 2001
4. Halliwell, Susan Teaching English in the Primary Classroom London : Longman 1992
5. Harmer, Jeremy How to teach English 1998 Longman limited.

Bazarov Sherali Abdinazarovich

Termiz agrotexnologiyalar va innovatsion rivojlanish instituti
O‘zbek tili va adabiyoti kafedrası o‘qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7672478>

Annotatsiya. Ushbu maqolada avesto yozuvi tarixi, bu yozuvning paydo bo‘lishi haqida ma’lumotlar aniq misollar bilan ko‘rsatib o‘tilgan. Maqola davomida avesto yozuvi finikiya va pahlaviy yozuvi asosida paydo bo‘lganligi haqida to‘xtalib o‘tilgan. Maqola so‘nggida esa hozirgi kunda avesto yozuvini iste’moldan chiqarib yuborgan yozuv arab yozuvi ekanligi haqida kerakli ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: Avesto kitobi, zardo’shtiylik dini, avesto yozuvi, finikiya yozuvi, pahlaviy yozuvi, oromiy yozuvi va arab yozuvi.

АВЕСТИЙСКАЯ ПИСЬМЕННОСТЬ

Аннотация. В этой статье показана история письменности Авесты, информация о происхождении этой письменности на конкретных примерах. В статье подчеркивается, что Авестийская письменность возникла на основе финикийской и пехлевийской письменности. В конце статьи, однако, содержится необходимая информация о том, что письменность, которая в настоящее время вытеснила письменность Авесты из употребления, является арабской.

Ключевые слова: книга Авесты, зороастрийская религия, надпись Авесты, финикийская надпись, надпись Пехлеви, арамейская надпись и арабская надпись.

AVESTO WRITING

Abstract. This article shows the history of the avesto writing, information about the appearance of this writing with specific examples. During the article, it is mentioned that the avesto script appeared on the basis of the Phoenician and Pahlavi script. At the end of the article, however, the necessary information is given that the record that now excludes avesto from consumption is the Arabic script.

Keywords: Avesto book, Zoroastrianism religion, avesto writing, Phoenician writing, Pahlavi writing, Aramaic writing and Arabic writing.

Har bir yozuvning o‘z yaralish tarixi mavjud. Shu kunga qadar ota-bobolarimiz bir qancha yozuv namunalaridan foydalanishgan. Yozuv – insoniyat tafakkuri yaratgan ma’naviy boyliklarni asrlardan-asrlarga, avlodlardanavlodlarga yetkazuvchi bebaho vosita. Yozuvning paydo bo‘lishi–kishilik jamiyati yaratgan eng yirik madaniy kashfiyot hisoblanadi. Insoniyat qo‘lga kiritgan eng yirik davrga xos madaniy obidalar yig‘indisi hozirgi davrga yetib kelishida yozuv muhim rol egallaydi. Agar yozuvlar bo‘lmaganida qadimgi avlodlarimizdan qolgan meros, ular yaratgan yodgorliklar bizgacha yetib kelmagan bo‘lardi. Yozuvning yaratilishi, uning takomillashtirilishi, jamiyat taraqqiyoti tilning rivojlanishini tezlashtirdi¹¹.

Ma’lumki, Zardushtiylik dinining muqaddas kitobi Avestodir. Uning vatani Xorazm ekanligi tarixiy manbalarda tasdiqlangan. Bu memuar asar Eron, Ozarbayjon ayniqsa, Xorazmning tarixi, madaniyati, ijtimoiy–siyosiy hayoti, tili, yozuvi bo‘yicha qimmatli ma’lumotlarni berishi

¹¹ Sh.Bazarov. “Yozuv va uning kelib chiqish tarixi”, Ta’lim va rivojlanish tahlili” onlayn ilmiy jurnali, Sherobod – 2022, bet -116

mumkin. Eng muhimi, eramizdan avvalgi davrlardayoq Xorazmda san'at, madaniyat, jumladan, tilning taraqqiy qilganligidan dalolat beradi¹².

“Avesto” kitobi avesto yozuvida yozilganligi ilmiy manbalarda tasdiqlangan. Avesto yozuvi juda qadimgi yozuvlardan bo'lib, uning tili Eron tillari guruhiga kiradi. Avesto yozuvining tarixida jahonda alifboli yozuvning kelib chiqishi bilan chambarchas bog'liqdir.

Ma'lumki, alifboli yozuv yozuvning taraqqiy etgan shakli bo'lib, u eramizdan avval ming yil ilgari Nil daryosi vodiysiga bostirib kirgan giksos qabilalari tomonidan Finikiyada yaratilgan. Finikiyaliklar boshqa xalqlar mamlakatlari bilan savdo–sotiq ishlarini keng yo'lga qo'yganligi natijasida ularning yozuvlari ham ko'pgina joylarga tarqalgan. Boshqa xalqlar o'z yozuvlarini Finikiya yozuviga moslashtirganlar. Alifboli yozuvning negizi sanalgan Finikiya yozuvi asosida Sharqda Oromiy, Suriya yozuvlari shakllangan¹³.

O'z navbatida, oromiy yozuvi bir qancha yozuvlar jumladan, Xorazm, arab yozuvlarining shakllanishiga sabab bo'ldi.

Eramizning I-IV asrlariga kelib Avesto tili va yozuvi iste'moldan chiqib, o'lik til yozuviga aylanadi. So'ngra bu yozuv ibodat tili vazifasini bajargan. Avesto tili elementlari, Eron tillari jumladan, xorazm tilida o'z izlarini qoldirgan. Bunga misol tariqasida: bratar (birodar, aka), hafta, band (bog'lab qo'yish), zar (oltin), nau (yangi), ap (ob, suv), framan (farmon) kabi so'zlarni keltirish mumkin. Band so'zi Xorazm shevalarida bandirgoh (chorraha), ap so'zi (yop) shaklida uchraydi.

Zardushtiylarning muqaddas kitobi hisoblangan Avestoning saqlanib qolgan qismlari orqali bizgacha yetib kelgan harf–tovush yozuvi. Sosoniylar davrida Avesto matnining tarkibiga kiruvchi madhiyalar, qo'shiqlar va duolarning tili o'lik tilga aylangan edi. Bu til faqat diniy marosimlarni o'tkazishdagina saqlangan bo'lib, ko'pchilikka tushunarsiz edi. O'lik tildagi matnlarning an'anaviy talaffuzini to'liq saqlash, bu matnlarni avlodlarga mukammal yozma shaklda yetkazish maqsadida zardo'shtiy kohinlar eramizning III asrida pahlaviy yozuviga asoslangan holda maxsus avesto yozuvini ishlab chiqdilar. Pahlaviy yozuviga qo'shimcha ravishda, grek yozuvi namunasiga ergashib, cho'ziq va qisqa unlilar ifodasi uchun yangi belgilar kiritildi. Undosh tovushlar talaffuzidagi ayrim ottenkalarni ifodalovchi qo'shimcha belgilar qabul qilindi. Shu tariqa unli harflar (15 ga yaqin) va undosh harflar (35 ga yaqin) soni ko'paydi.

Avesto yozuvi hammasi bo'lib 48 ta harfdan tashkil topib, muqaddas Avesto matnining an'anaviy talaffuzini aniq va to'liq aks ettira olgan. Qo'shimcha ravishda bu yozuvda 3 ta ligatura ham qo'llangan. Avesto yozuvi tashqi shakliga ko'ra oromiy yozuvini va ichki xususiyatiga ko'ra grek yozuvini o'zida birlashtirdi.

Avesto yozuvi pahlaviy yozuvi bilan bir paytda iste'molda bo'lavergan, ya'ni asosan, pahlaviy yozuvi diniy mavzu bilan bog'liq holatlarda albatta, avesto yozuvi amalda bo'lgan. VIII asrga kelib Eronning arablar tomonidan istilo qilinishi natijasida zardo'shtiylik o'rnini islom egallagach arab yozuvi avesto yozuvini ham, pahlaviy yozuvini ham siqib chiqardi.

REFERENCES

¹² Z. Dusimov, O. Botirov, R. Yo'ldoshev. «Yozuvlar tarixidan» Urganch 2000-yil, bet -10-11 .

¹³ N. Maxmudov. Yozuv tarixidan qisqacha lug'at ma'lumotnoma, Toshkent–1990 yil., bet-4

1. Yusupov K. “O‘zbek adabiy tilining taraqqiyoti va yozuv masalasi”, “O‘zbekiston”, Toshkent – 1979 yil.
2. Ishoqov M, Rahimov N, Sodiqov K, To‘xliiev B. “O‘lmas Obidalar:” (O‘zbekiston xalqlarining qadimgi yozma yodgorliklari bo‘yicha tadqiqotlar). “Fan” Toshkent – 1990 yil.
3. N. Maxmudov, Yozuv tarixidan qisqacha lug‘at ma’lumotnoma, Toshkent – 1990-yil
4. R. Yo‘ldoshev “Avesto” yozuvi va tili “Avesto” yaratilganligining 2700 yilligiga bag‘ishlangan xalqaro ilmiy – Amaliy konferentsiya tezislari, Xiva – 2000-yil.
5. Z. Do‘simov, O. Botirov, R. Yo‘ldoshev “Yozuvlar tarixidan” Urganch –2000 yil.
6. Z. Choriev, Sh. Shaydullaev “O‘zbekiston hududida yozuvning paydo bo‘lishi” haqida ayrim mulohazalar “Jayhun” Termiz davlat universiteti xabarnomasi Termiz – 2005 yil № - 2.
7. Sh. Bazarov “Blogger va jurnalist nutq madaniyati va so‘z san’ati”, “EUROPEAN JOURNAL OF LIFE SAFETY AND STABILITY” jurnali, Ispaniya – 2022
8. Sh. Bazarov “Blogger va jurnalistlarning nutq texnikasi va madaniyati”, “EUROPEAN JOURNAL OF LIFE SAFETY AND STABILITY” jurnali, Ispaniya – 2022
9. Sh. Bazarov “Yozuv va uning kelib chiqish tarixi”, “Ta’lim va rivojlanish tahlili” onlayn ilmiy jurnali, Sherobod - 2022

**“YOSHLARNI MA’NAVİY AXLOQIY JIHATDAN TARBİYALASHNING ILMIY
PEDAGOGIK ASOSLARI”**

Ziyoyeva Mavluda

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7672494>

Annotatsiya. Ushbu maqolada bolalarni axloqiy jihatdan tarbiyalashning ilmiy pedagogik asoslari haqida muhokama qilinadi.

Kalit soʻzlar: pedagogik tizim, ma’naviyat, axloqiy, ta’lim-tarbiya, vatan, madaniyat.

**"НАУЧНО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ДУХОВНО-ЭТИЧЕСКОГО
ВОСПИТАНИЯ МОЛОДЕЖИ"**

Аннотация. В данной статье рассматриваются научно-педагогические основы нравственного воспитания детей.

Ключевые слова: педагогическая система, духовность, нравственность, воспитание, Родина, культура.

**"SCIENTIFIC PEDAGOGICAL PRINCIPLES OF SPIRITUAL AND ETHICAL
EDUCATION OF YOUTH"**

Abstract. This article discusses the scientific and pedagogical foundations of moral education of children.

Key words: pedagogical system, spirituality, moral, education, homeland, culture.

Hozirgi kunda respublikamizda ta’lim tizimini mustahkamlash, uni zamon talablari bilan uyg’unlashtirishga kata ahamiyat berilmoqda. Ta’lim tizimida faoliyat yuritayotgan pedagoglardan bugungi murakkab zamonda yoshlarga zamon ruhida ta’lim – tarbiya berish bilan bir qatorda bashariyatning, Vatanimiz va xalqimizning ertangi kunini o’ylab yoshlarni ezgulikka, insofdiyonatga, mehr-oqibat va bag’rikenglikka da’vat etishga qaratilgan tarbiyaviy ishlarni ham amalga oshirishi talab etiladi. Yoshlarning ma’naviy axloqiy tarbiyasini rivojlantirish va axloqiy jihatdan yetuk shaxs sifatida shakllantirish bizning oldimizdagi dolzarb vazifa hisoblanadi. Axloqiy tarbiya shaxsning jamiyat axloqiy tajribalarini egallashi va bu tajribalardan boshqa odamlar bilan bo’lgan munosabatlarida foydalanishi, o’z-o’zini muntazam takomillashtirib borishi singari jihatlarni o’z ichiga oladi. Demak, axloqiy tarbiya masalasiga e’tibor berishimiz va uning elementlarini aniqlab olishimiz muhimdir. Axloqiy jihatdan yetuk tarbiyalangan shaxs axloqiy madaniyatga ham ega bo’ladi. Axloqiy madaniyat axloqiy hayotning ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish va yoshlarni tarbiyalash maqsadidagi ishlov berib yaratilgan qismi bo’lib, u axloqiy hayotning substansiyasi, ya’ni asosi hisoblanadi. Axloqiy tarbiyaning natijasi axloqiy tarbiyadir. U shaxsning ijtimoiy qimmatli xususiyatlari va fazilatlarida moddiylashadi, munosabatlarda, faoliyatda, muloqotda, namoyon bo’ladi. Axloqiy tarbiya, agar u axloqiy o’zini o’zi tarbiyalash va o’zini o’zi takomillashtirish bilan samarali bo’ladi. Bola shaxsini axloqiy tarbiyalash maktab tashkilotlarining eng muhim vazifalaridan biridir. Bu esa tabiiy chunki jamiyatimiz hayotida axloqiy tamoyillarning o’rni tobora ortib bormoqda, axloqiy omil ko’lami kengaymoqda.

Axloqiy tarbiya – bu bola shaxsni har tomonlama shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan jarayon bo’lib, uning Vatanga, jamiyatga, xalqqa, mehnatga, burchlariga va o’ziga bo’lgan

munosabatini shakllantirishni o'z ichiga oladi. Axloqiy tarbiya jarayonida maktab o'quvchilarini vatanparvarlik, do'stlik, ma'naviyat va madaniyatga hurmat tuyg'ularini shakllantiradi.

Yoshlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash masalasi har bir ota-ona, jamiyat, va butun davlat oldida turgan asosiy muammolardan biridir. Jamiyatda yosh avlodni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash masalasida maktab va boshqa ta'lim tashkilotlarida bir qator ijobiy ishlar amalga oshirilmoqda.

Yoshlarning shaxsiyatini axloqiy shakllantirish bo'yicha ishning pedagogik ma'nosi unga elementar xulq-atvor ko'nikmalaridan qaror qabul qilish va axloqiy tanlashda mustaqillik talab qilinadigan yuqori darajaga o'tishga yordam berishdir.

Muhokama va natijalar

Insoniyat tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, yosh avlodni axloqiy tarbiyalash masalalari azaldan sharq xalqlari, xususan, Markaziy Osiyo xalqlari tajribasida yaqqol ko'zga tashlanadi. Ayniqsa, ko'plab mutafakkirlarimiz asarlarida xalqimizning murakkab tarixiy-madaniy tajribasi mobaynida yuz bergan voqea-hodisalar mohiyatini jamiyatning ilk bo'g'ini bo'lgan oiladan izlash an'anasini uchratamiz. Xususan, oila va oilaviy tarbiyaga oid fikrlar Abu Nasr Farobiyning "Fozil odamlar shahri", Abu Ali ibn Sinoning "Axloq", "Axloq fani", "Oila xo'jaligi" asarlarida o'z ifodasini topgan.

Milliy g'oyani yoshlar ongiga singdirishdan asosiy maqsad, ularning ona Vatan oldidagi burchi, o'z taqdiri uchun ma'sul ekanligi, mahalla, mehnat jamoasi, oila va yaqin kishilar hayoti uchun javobgarlik hissini tarbiyalashdan iborat. Oila ta'lim-tarbiya maskani bo'lib, milliy g'oya va ma'naviyatni yoshlar ongi va qalbiga singdirish aynan oiladan boshlanadi.

Ta'limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta'limdan ajratib bo'lmaydi va bu jarayon yuksak ma'naviyatlilikni talab etadi. Axloqiy hayot, jumladan, axloqiy madaniyat va axloqiy tarbiyaning ajralmas va bo'linmas qismi hisoblanar ekan hozirgi mustaqillik zamonida yoshlarni har tomonlama barkamol shaxs va yetuk inson qilib tarbiyalash har birimizning oldimizdagi muqaddas burchimiz hisoblanadi. Yoshlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda, eng avvalo, millatimiz tarixi va ma'naviyati ildizlariga e'tibor qaratishimiz zarur. Yurtimizda azal-azaldan inson ma'naviy kamoloti, axloqiy tarbiyasi ajdodlarimiz diqqat markazida bo'lib kelganligini yoshlar ongiga va tafakkuriga singdirish zarur.

Yosh avlod tarbiyasi, avvalo pedagogning kasbiy mahoratiga bog'liq. Shu o'rinda yurt kelajagi va istiqboli ko'p jihatdan o'qituvchiga uning saviyasiga, tayyorgarligiga, fidoyiligiga, o'qitish va tarbiyalash ishiga bo'lgan munosabatiga bog'liqligini qayd etish mumkin.

Xulosa. Demak, yoshlarda aynan ijtimoiy munosabatlarga kirishish uchun lozim bo'lgan ma'naviy-axloqiy kategoriyalar, normalar, qadriyatlar tizimi haqida bilim hosil qilish hamda ulardan amaliy faoliyatda foydalanish ko'nikmalarini takomillashtirish muhim o'rin tutadi.

REFERENCES

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz (1-jild) Toshkent: O'zbekiston, 2017. -592-bet.
2. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogic mahorat. -TDPU, 2003.
3. Quronov M., Rahimov J. Oila milliy tarbiya o'chog'I Xalq ta'limi j. -T: 1998.3-son. -4b.
4. Farsaxonova D.R. Pedagogika oliy ta'lim muassasalari talabalarini ma'naviy-axloqiy tarbiyalash metodikasi. Ta'limfan va innovatsiya. 2019. -N-1-B. 77-81.
4. Ziyonet www.uz.

**BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA MULOQOTCHANLIK O'RNI
MUAMMOSINI ILMIY METODOLOGIK ASOSLARI**

Samarova Shohista Rabidjanovna

Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti
Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent

Xudayqulova Laylo Choriyevna

Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti
Pedagogika va psixologiya
yo'nalishi magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7672844>

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida muloqotchanlik o'rni muammosini ilmiy metodologik asoslar haqida ilmiy ma'lumotlar bayon etiladi.

Kalit so'zlar: muloqot, metod, munosabat, xarakter, suhbat, xulq.

**НАУЧНО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ПРОБЛЕМЫ РОЛИ
КОММУНИКАТИВНОСТИ У МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ**

Аннотация. В данной статье изложены научные данные о научно-методических основах решения проблемы роли коммуникативности у младших школьников.

Ключевые слова: общение, метод, отношение, характер, беседа, поведение.

**SCIENTIFIC METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF THE PROBLEM OF
THE ROLE OF COMMUNICATION IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS**

Abstract. This article describes the scientific information on the scientific methodological foundations of the problem of the role of communication in primary school students.

Keywords: communication, method, attitude, character, conversation, behavior.

O'qituvchining o'quvchilar bilan muloqoti samarali bo'lishi uchun suhbatdoshni o'ziga moyil qilib olish zarur. O'zaro moyillikka erishish uchun amalda qo'llanilib kelinadigan bir qator murakkab bo'lmagan pedagogik ta'sir etuvchi usullardan foydalaniladi. Ularning eng muhimlari o'quvchi ishonchini qozonish hamda ta'sir etish va ma'qullash usullaridir.

–**ishonchini qozonish usuli** o'quvchilar bilan muloqot asosida ta'sir ko'rsatishning yuqori samara beradigan usulidir. U o'quvchi ongiga qaratilgan bo'lib, idrok qilish orqali o'quvchilar ishonchini qozonishni va ularning roziligini nazarda tutadi. Ishonchini qozonish dalillash, isbotlash orqali olib boriladi. Ishonchini qozonish usuli muloqot dasturi sifatida darsdan tashqari jarayonlarda, o'quvchi bilan yakka holda suhbatlarda, ma'naviy-tarbiyaviy soatlarda qo'llaniladi. Ishonchini qozonish usuli yordamida o'qituvchi o'quvchilarning dunyoqarashini shakllantiradi, ularda o'z-o'zini tarbiyalashga nisbatan javobgarlik hissini oshiradi.

Ishonchini qozonish usuli nafaqat o'qituvchi bilan muloqot jarayonida, balki ta'lim-tarbiyaviy faoliyatdan tashqari holatlarda ham o'quvchiga ta'sir qiladi. O'quvchi ishonchini qozonish ijobiy yoki salbiy natijalar paydo qilishi ham mumkin. O'qituvchi ishontirish bilan o'quvchida ijobiy hislatlarni uyg'otishi uchun tarbiyaviy metodlarni o'z o'rnida qo'llashi shart. Tarbiya jarayonida har bir o'quvchining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olishi zarur. Chunki bir xil yoshdagi o'quvchilar psixik jihatdan turli xarakterga ega bo'lishi mumkin. O'quvchilarning qobiliyat va iqtidorlari, qiziqishlari, irodaviy hislatlari har xil bo'lgani uchun bir o'quvchiga nisbatan foydali bo'lgan ishonchini qozonish usuli, boshqasiga zararli bo'lishi mumkin. Shuning

uchun har bir o'quvchining ruhiyatini, psixologiyasini, ichki dunyosini o'qituvchi muntazam o'rganib borishi, o'quvchilarning o'ziga xos xususiyatlarini, tarbiyalanuvchi temperamentining umumiy tiplarini o'rganish metodikasini bilish lozim. Masalan, ko'rish va eshitish qobiliyati, faolligi, tez anglashi, sust fikr ioritishi, hovliqma yoki vazminligi, sergap yoki kamgapligi, serg'ayrat yoki g'ayratsizligi, yalqov yoki tirishqoqligi,

pala-partish va chala ishlaydigan, yoki ishga tez kirishib ketishi kabilar nerv faoliyati tizimiga bog'liq bo'lib, o'qituvchi o'quvchilar ishonchini qozonishi uchun ularni bilishi va zarur bo'lgan xulosalarni ishlab chiqishi shart.

O'quvchilar ishonchini qozonishning yana bir muhim xususiyati o'quvchilarni shaxs sifatida rivojlanishida o'z-o'zini tarbiyalashidir. O'z-o'zini tarbiyalash o'quvchining o'zini o'zi idora qilishi, o'zida erkinlikni, ijtimoiy mavqeini, tashabbuskorlik va mustaqillikni shakllantirishdir. O'quvchining yashirin qobiliyatlari o'z-o'ziga ishonch orqali yuzaga chiqadi. O'quvchi uchun o'z o'zini baholash qiyin jarayon. O'quvchi ta'lim-tarbiya berayotgan o'qituvchilarga ishonch bilan ergashib, o'ziga nisbatan ishonch ruhida tarbiyalanar ekan, unda avvalo, mustahkam iroda shakllanadi, o'z burchini to'g'ri tushunadi, bilish va o'rganishga qiziqishi kuchayadi, o'z-o'zini har tomonlama takomillashtirishga intiladi, o'ziga atrof muhitdagi o'rtoqlari ko'zi bilan xolisona baho beradi, o'ziga ishonadi va unda qoniqish hissi paydo bo'ladi. Xarakteridagi salbiy odatlarni, zararli sifatlarini tez anglab, ularni yo'qotish va bartaraf etishga intiladi.

– **ta'sir etish va ma'qullash usuli** muloqotning umumiy jarayonidir. Ikki suhbatdoshning bir-birlariga ta'sir ko'rsatishlari, tarbiyaviy maqsadni ma'qullatirish vositasi sifatida o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, ushbu usul vositasida o'qituvchi o'quvchi ruhiyatiga va xulq-atvoriga tarbiyaviy maqsadni ko'zlab sezilarsiz ravishda psixologik ta'sir ko'rsatadi. O'quvchi psixikasida nazoratsiz kiradi. Ushbu usul, muloqot jarayonida o'qituvchi o'quvchilarda axloqiy-irodaviy hislatlarni faol takomillashtiradi. O'qituvchi xushmuomalaligi, muosharat odobining cheksiz qudrati bilan o'quvchilar psixikasining anglanmagan qirralariga pedagogik ta'sir etadi, o'qituvchi va o'quvchining yaqindan muloqotda bo'lishini, bir-birlariga ishonchini, topshiriqlarni ma'qullab vaqtida bajarish uchun javobgarlik hissini shakllantiradi.

O'qituvchi o'quvchilar jamoasi bilan pedagogik muloqotni har tomonlama mukammal tashkil etish va ko'zlangan maqsadga erishishi uchun tarbiyaviy jarayonning jamiyat talablariga mos keluvchi etakchi tamoyillaridan o'rinli foydalanishi lozim:

1. Tarbiyaviy maqsadni amalga oshirishda demokratik yondashuv. Muloqot jarayonida o'qituvchi o'quvchini ijtimoiy qadriyat deb tan olishi, har bir bola, o'smir va o'spirinning betakror va o'ziga xos xususiyatlarini hurmat qilishi, uning ijtimoiy xulqi va erkinligini e'zozlashi lozim. Zero, ta'limni isloh qilishdan asosiy maqsad, tarbiyada demokratiyaning ustunligi, tarbiyani ma'muriy ehtiyoj va qiziqishlardan yuqori qo'yish, tarbiyachi va tarbiyalanuvchining bir-birlariga o'zaro ishonchi, hamkorlik asosida pedagogik munosabat mohiyatini ijobiy tomonga yo'naltirish demakdir. Muloqotni demokratik uslubda tashkil etishdan maqsad, ta'lim-tarbiyani insonparvarlashtirish, pedagogik faoliyat markazida inson shaxsi turganini unutmaslik, insonga nisbatan bebaho boylik sifatida munosabat tuyg'ularini o'quvchilarda ham shakllantirish vazifasi bajariladi.

2. O'quvchilar bilan do'stona munosabat. Aslida muloqotdan maqsad o'quvchilar bilan do'stona munosabatni ro'yobga chiqarishdir. O'quvchi shaxsini hurmat qilish o'qituvchining insonparvarlik tuyg'ularidan kelib chiqadi. O'quvchi shaxsini hurmat qilish, ularga cheksiz mehr-

muxabbat ko'rsatish va ularga ishonish shart. Bolalarga nisbatan hurmat tuyg'usi ularning kuchiga kuch qo'shadi, o'z imkoniyatlariga ishonch tuyg'usini shakllantiradi, tarbiyaning samaradorligini oshiradi. O'quvchi shaxsini hurmat qilish va munosabatni adolatli talabchanlik mezonlari asosida qurishdir. Do'stona muloqot o'qituvchi bilan o'quvchi o'rtasidagi bilimlarni puxta o'zlashtirilishini ta'minlaydi va mukammal shaxsiy fazilatlarini tarkib toptirishga xizmat qiladi. Pedagogik jarayonda sodir bo'ladigan muomala odobi o'qituvchilarning axloqiy madaniyati, tarbiyalanganlik darajasida aks etadi. O'qituvchining o'ziga va o'z kasbiga, o'quvchilarga bo'lgan munosabati uning muloqotida yaqqol namoyon bo'lishi mumkin.

O'z faoliyatini endigina boshlagan o'qituvchilar ayniqsa, har bir o'quvchining kelajagiga umid bilan karashlari, unga individual yondashishga harakat qilishlari, tarbiyaviy jazolash usullarini tartibsiz qo'llamasliklari, o'quvchilar jamoasi oldiga istiqbolli tarbiyaviy maqsadlarni qo'yishga intilishlari lozim. YOsh o'qituvchilar ma'lum bir pedagogik mahorat sirlarini egallashga intilmasalar, o'z fanidan bilimlari sayoz bo'lsa, shaxslararo munosabatlarga ijodiy yondashmasalar, kommunikativ qobiliyatini takomillashtirib bormasalar, o'quvchilar uni asta - sekin tan olmay qo'yishadi. Natijada o'qituvchi va o'quvchilar muloqotida tuzatib bo'lmas xatoliklar paydo bo'lishi mumkin.

3.Muloqotni ijtimoiy hayot qonuniyatlari bilan bog'lab olib borish. Yosh avlodning o'sib ulg'ayishi va shakllanishiga hayot, ijtimoiy muhit qonuniyatlari ham muntazam ta'sir etadi. Muhit ijtimoiy omillarning eng muhim xususiyati bo'lib, u shaxsga ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Muhit deganda, shaxsning tarbiyalanib, shakllanishiga ta'sir etuvchi tashqi olam voqealari, hodisalar majmui tushuniladi. Muhit tushunchasi o'zida geografik- hududiy, ijtimoiy va mikromuhit xususiyatlarini ifodalaydi. Ayniqsa, oila, maktab, do'stlar davrasi, tengqurlar kabilarni o'z ichiga oladigan mikromuhit shaxsni tarbiyalash jarayoniga muhim ta'sir etishi pedagog va psixolog olimlar tomonidan e'tirof etilgan. Oila muhiti o'quvchining tarbiyasi va barkamol inson sifatida shakllanishida o'ziga xos muhim tarbiyaviy ta'sirga ega. SHuning uchun o'qituvchi muloqotni tashkil etishda ota-onalar, mahalla faollari, o'quvchilar jamoasi faollari, uchastka nozirlari bilan doimiy aloqada bo'lib, ular bilan birgalikda faoliyat olib borishi kerak. Muloqotda ijtimoiy hayot qonuniyatlarini hisobga olish, o'quvchilarni maqsadli tarbiyalashda muvaffaqiyatlarga erishish uchun zamin yaratadi.

4.Muloqotni tashkil etishda mehnat faoliyatining o'rni. Ta'lim muassasalarida o'quvchi mehnat faoliyati bilan o'z qobiliyati va iste'dodini namoyon qiladi. Mehnat – yosh avlodni roksak ongli, mustaqil fikrlay oladigan, xulq-atvorini namoyon qiluvchi, kasbiy qobiliyatlarini uyg'otuvchi, tarbiyaviy jarayonning eng qadimiy va sinalgan vositasidir. O'quv mehnati va ijtimoiy foydali mehnat o'quvchi shaxsiga ijobiy ta'sir etadi, bu ikki faoliyat birligi bolani jismonan chiniqtiradi va faollashtiradi, xulq mukammalligini ta'minlaydi, tashabbuskor va izlanuvchan qilib shakllantiradi. Shunday ekan, o'qituvchi o'quvchilar bilan muloqotni ularning mehnatsevarligiga yoki dangasaligiga qarab belgilasa ham bo'ladi. Ta'lim muassasalarida bolalarni ilk yoshidan boshlab mehnatsevarlik ruhida, mehnatga muxabbat va mehnat qiluvchilarga hurmat ruhida

tarbiyalashda o'zaro muloqotning o'rni cheksiz. Ta'lim muassasalarida o'qishning o'zi ham mehnatdir. Muloqotdan maqsad, ta'lim-tarbiyaviy faoliyatda muvaffaqiyatlarga erishish uchun u mehnat tarbiyasi bilan aloqadorlikda olib borilishi lozim.

5.Qo'rquv va hayajonga asoslangan muloqot uslubi. Bunday muloqot uslubiga odatda yosh, tajribasiz o'qituvchilar tushib qolishi mumkin. Ushbu uslub asosida boshlangan muloqot ko'pincha o'quvchilarni tez-tez ogohlantirish, ularni qattiqqo'llik bilan tarbiyalashga harakat qilish, o'qituvchi yoqtirmagan o'quvchilar hatti-harakatini ta'qiqlash vaziyatida olib boriladi. O'quvchilar faolligi, tashabbuskorligi inkor etiladi. Natijada o'qituvchi bilan o'quvchilar orasida ko'z ilg'amas qarama-qarshiliklar paydo bo'ladi.

Muloqot jarayonidagi ushbu qarama - qarshiliklar o'quvchilarda o'z tushunchalariga muvofiq paydo bo'lgan dastlabki sifatlar bilan o'qituvchining o'quvchilarga qo'yadigan talablari va ularni bajarish imkoniyatlari o'rtasida ziddiyatlarning kelib chiqishidan paydo bo'ladi. Ba'zan o'quvchining ongi bilan xulqi bir-biriga muvofiq kelmasligidan, yoki o'qituvchining o'quvchilar yosh xususiyatlarini, fe'l - atvori, xarakteri, qiziqishlari, jismoniy, ruhiy hamda fiziologik jihatdan sog'lomligini bilmasliklari oqibatida ziddiyatlar kelib chiqadi. Muloqot jarayonidagi ushbu ziddiyatlarni bartaraf etishda asosan o'qituvchining o'zi qizg'in faoliyat olib borishi, ustoz o'qituvchilar tajribalaridan foydalanishi, lozim bo'lganda, tortinmasdan ulardan yordam so'rashi maqsadga muvofiqdir.

REFERENCES

1. Suvonov O.va boshqalar. "Pedagogik texnologiyalarni qo'llash davr taqozosi". "Xalq ta'limi", 2004 yil, № 5.
2. Pedagog.uz
3. library.ziyonet.uz
4. ru.wikipedia.org

**O'QITUVCHILAR, TALABALAR VA DARS DAN TASHQARI
BOSHLANG'ICH TA'LIM D A G I FAOLIYAT**

Avazxonov Shohnazar Gulnazarzoda

ChDPU "Boshlang'ich ta'lim" yo'nalishi 3 - kurs talabasi.

Qahhorov Behzod Akromovich

ChDPU "Boshlang'ich ta'lim" yo'nalishi 3 - kurs talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7674211>

Annotatsiya. Sizga taqdim etilyotgan maqolada o'qituvchilar, talabalar va darsdan tashqari boshlang'ich ta'limdagi faoliyati, sinf dan tashqari ishlash metodikasi haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: Bolalar, boshlang'ich, ota, ona, maktab, yosh, oila, muammolar, sinf.

**УЧИТЕЛЯ, УЧАЩИЕСЯ И ВНЕКЛАССНАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ В
НАЧАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ**

Аннотация. В представленной вам статье рассматривается деятельность учителей, учащихся и внеклассников в начальном образовании, методика внеклассной работы..

Ключевые слова: дети, начало, отец, мать, школа, возраст, семья, проблемы, класс.

**ACTIVITIES IN TEACHERS, STUDENTS AND EXTRACURRICULAR
PRIMARY EDUCATION**

Abstract. The article presented to you reflects on the activities of teachers, students and extracurricular primary education, the methodology of work outside the classroom.

Keywords: Children, primary, father, mother, school, age, family, problems, class.

Ilmiy ehtiyojga muhtoj bo'lgan bo'sh vaqtni tekshirish uchun asos. Birinchidan, ilmiy asoslash aks etadi bo'sh vaqt masalasi yo'qligi hali ham doimiy va tizimli pedagogik tadqiqotlar mavzusi bo'lgan. Ikkinchidan, dam olish vaqt zamonaviy pedagogika fanining sohasi sifatida barcha tomondan etarlicha muomala qilinmaydi texnik, texnologik va moddiy sharoitlar. Bundan tashqari, harakatlar qilish kerak talabalar uchun ta'lim va tarbiya orqali bo'sh vaqt (darsdan tashqari) faoliyati.

Muammoni tekshirish zarurati umuman bo'sh vaqt va tergov uchun xususan talabalarning bo'sh vaqti, maxsus oladi agar u tomondan qaralsa, ahamiyati jamiyatimizning dolzarb muammolari o'tish davridagi jamiyat.

Shuning uchun bu tergov mavzusi niyat va maqsadga erishish maqsadi bor bolalar-yoshlar va shu yo'l bilan foydali bo'lgani kabi maqsadli harakat qiling, ijobiy oqibatlarga olib kelish uchun – aniqrog'i, kundalik qismida har doim hayotning bajarilishi. Iroda erkinligi bo'sh vaqtni yoki bo'sh vaqtni bajarish uchun. Bu zarurat, shuningdek, yoshlarning unac - ceptable harakatlari va xatti-harakatlari bilan ham ko'rsatiladi kundalik hayotda, ya'ni yoshlar bu hodisaning qattiq toifasi ijtimoiy patologiya va shuning uchun ular giyohvand moddalar, spirtli ichimliklar, siyosiy partiyalarning ta'siri va shunga o'xshash zamonaviy illatlarga qaram bo'lishadi va bu jarayonda ular aylanishi mumkin deviant va huquqbuzar shaxslar. Ko'p sonli yoshlar o'zlari bilan muloqot qilishadi, ya'ni o'xshash tizimlarga ega bo'lganlar bilan qadriyatlar, yo'nalishlar, iqtisodiy holat va manfaatlar

Huquqbuzarlik qaerda tez-tez uchraydi oilaviy hayotda muammolar mavjud, bu erda bolalar kamroq bog'langan ularning oilasi bilan, chunki ota-onalar "chiqindi" o'zlarini har kuni oilaning

moddiy ehtiyojlarini qondirish uchun, shu bilan topa olmaydilar ular bilan to'g'ri muloqot qilish uchun etarli vaqt o'z bolalar. Ota-onalar uchun ularning hissini yo'qotadi farzandlarining rivojlanish ehtiyojlari ko'proq va ko'proq himoyasiz bo'ling, chunki ular provokatsion kitschga duchor bo'lishadi, axloqiy shilliq, vurgunculuk musobaqalar, ishga qabul qilish diniy mazhablar tomonidan Zamonaviyning bu tavsifi dunyodagi vaziyat tomonidan tasdiqlanadi yangi rim klubi a'zolari zamonaviy jamiyatning dilemmalari haqida hisobot, shuningdek, "muammolar majmuasi"ni ko'rsatadi barcha xalqlardan kelgan odamlar: ishsizlik, yoshlarni begonalashtirish ularning oilalari, an'anaviy qadriyatlar rad, va boshqa moliyaviy va iqtisodiy anomaliyalar.

Nemis sotsiologi Ralf Dahrendorf, bo'sh vaqtni juda qiziqarli tahlilida, bo'sh vaqt degan xulosaga keladi insonning erkinligi va o'zini o'zi rivojlantirish sharti. Unga ko'ra, bo'sh vaqt shaxs uchun muhim omil bo'lib qoladi, chunki u ishlab chiqarish jarayonida mavjud bo'lgan majburlashni yo'q qiladi ish vaqti va rivojlanishiga imkon beradi shaxsiy. Shundan kelib chiqadiki, insonning qobiliyatlarini rivojlantirish va takomillashtirish o'z fazilatlaridan asosiy vazifadir hayot. "Yaxshilangan" bo'lish-bu maqsad ustidan mustaqil ish orqali erishish uchun o'z-o'zidan. Ushbu vazifani bajarish uchun odam birinchi navbatda tanishishi kerak o'zi bilan, va faqat keyin boshlash uchun o'z-o'zini yaratish. Aristotel dedi: "Eng qiyin qo'lga kiritadigan g'alaba o'zingizni mag'lub qilish uchun". Buni aytganimda, xohlayman bu erda masala ta'lim emasligini ta'kidlang, lekin self-ta'lim o'rninga.

U uchta asosiy funktsiyani ta'kidlaydi bo'sh vaqt: dam olish, o'yin-kulgi va shaxsiy rivojlanish, ammo bu erda muammo paydo bo'ladi ushbu uchta asosiy funktsiyani tasniflash to'g'risida, xususan shaxsiy rivojlanish. Uchinchi funktsiya tetiklashi mumkin shaxsda erkin intizom tufayli shaxsning dividend va ijtimoiy xulq-atvorida erkin rivojlanishi. Misol uchun, buyuk yunon filoso-Phers Platon va Aristotel

Bu yerga, platon zarurligini ta'kidlashni istaydi yoshlar o'ynash va mamnuniyat his ularning o'ziga xos yo'l izhor. Uning qismida, Aristotel ishni o'yin bilan bog'lashni talab qiladi, va ish va o'yin-kulgi o'rtasidagi qarama-qarshiliklarni tushunish zarurligini ta'kidlaydi, erkin fuqarolar uchun o'yin-kulgi qaerda hamma narsaning poydevori va kerak olijanob ta'lim faoliyatini rivojlantirish.

Sinfdan tashqari mashg'ulotlarning katta hajmi va ularning mazmuni yoshlarga quyidagilarga imkon beradi bo'lishi mumkin bo'lgan qiymatlar va xususiyatlarni oling hayotlarida foydalanish. Zamonaviy texnologiyalar davrida ishlarni to'g'ri bajarish uchun ta'lim va tadqiqotlar zarur bo'lib qolmoqda. Inson narsalarni bilmasdan qodir emas yaratish, ishlab chiqarish va daromad olish. Bu nima uchun ronald burt avlodlar deb hisoblaydi 1960-yillardan boshlab fikrlaydigan avlodlar sifatida.

Maktabda sinfdan tashqari ishlarni ta'minlash uzoq an'anaga ega bo'lsa-da ba'zi mamlakatlar, bu faqat boshida edi ming yillikning ta'lim sifati va darsdan tashqari mashg'ulotlar ta'lim siyosatida katta e'tibor bera boshladi va evropada amaliyot. Masalan, 2003 yilda, "kun bo'yi maktab" targ'ib qilina boshladi germaniya va ushbu maktablarning soni butun mamlakat bo'ylab kengaytirildi.

Bir vaqtning o'zida, tashkil etilgan "integratsiyalashgan maktab kuni" maktabning bir qismi sifatida darsdan tashqari mashg'ulotlar faqat bilan finlyandiya joriy etildi bolalarning nazoratsiz o'tkazadigan vaqtini kamaytirish maqsadi. Shunga o'xshash rivojlanishni shu vaqt ichida aniqlash mumkin "kengaytirilgan xizmatlar" taqdim etilgan, shu jumladan darsdan tashqari tadbirlar

maktablarda hamkorlikni rivojlantirish maqsadida maktablar va oilalar o'rtasida. Shveysariyada maktabda shunga o'xshash o'zgarishlar yuz berdi so'nggi o'n yil ichida tizim amerika qo'hma shtatlari ushbu rivojlanish 1990-yillarda boshlangan. Aksariyat mamlakatlarda jurnalning ushbu maxsus sonida namoyish etilgan onlayn ta'lim tadqiqotlari uchun maktablarda ekstrakur-rikulyar boyitish mavjud maktabdan keyingi faoliyat shakli. Darsdan tashqari faoliyat muntazam ravishda amalga oshiriladi va quyidagilar kattalar tomonidan nazorat qilinadi. Ularga akademik kiradi tuzatish kurslari va sport kabi akademik bo'lmagan tadbirlar, teatr va bog'dorchilik. Bundan tashqari, jamoat dasturlari yoshlar tashkilotlari tomonidan maktablarda topilgan

Materiallar va usullar

Ushbu tadqiqotda tavsiflovchi va an-alitik usul qo'llaniladi, bu erda tahlil hozirgi holat, taqqoslash va umumlashtirish ish bilan ta'minlangan. Amalga oshirilgan texnika tadqiqot baholash shkalasi yordamida tekshiriladi. Ushbu texnikaga ko'ra, anketa talabalar uchun ham, sinfdan tashqari ishlarni baholash uchun o'lchovdan foydalanadigan yaratilgan o'qituvchilar. Asosiy gipoteza-bu taxmin buning uchun turli xil qiziqishlar mavjud talabalar va o'qituvchilar darsdan tashqari mashg'ulotlar jarayonida. Ushbu tadqiqotda bitta asosiy va o'nta yordamchi gipoteza, bu degani emas ikkinchisining ahamiyati kamroq, lekin bu ular asosiy gipotezani to'ldiradilar. Ushbu tadqiqot tetovo va brvenica munitsipalitetlari hududida to'rtta boshlang'ich maktab (uchta shahar va bitta qishloq) En-quiry talabalarni qamrab oldi 12 yosh orasida va 15 yil va o'qituvchilar. Umumiy soni imtihonchilarning 248 nafari (184 talaba va 64 kishi) edi o'qituvchilar). Tadqiqot ikkita savoldan iborat edi - naires, biri talabalar uchun, ikkinchisi o'qituvchilar uchun.

Muhokama

Ilmiy jamoatchilik orasida, uzoq vaqtdan beri ilgari bepul o'qishga qiziqish paydo bo'ldi umuman olganda, va ayniqsa bepul o'qish pedagogik jihatdan vaqt.

Tergov mavzusining dolzarbligi ushbu mavzuning birinchi darajali asosidir uning asosiy kaliti har doim talabalar va o'qituvchilarning sobiq o'quv mashg'ulotlaridan foydali foydalanishdir

Boshlang'ich ta'lim jarayonida; buning uchun sabab, qarama-qarshilik sifatida har doim mavjud sinfdan tashqari noo'rin foydalanish natijasida yuzaga kelgan muammolarni taqdim eting faoliyati. Deviant holatlarining ko'pligi va qonunbuzar xulq chunki sodir zerikish, shaxslarning qobiliyatsizligi bo'sh vaqtlarini ijodiy ravishda bajaring va keyin bu shaxslar bir buzilish bilan bog'liq paydo ularning ijodiy salohiyati, qaysi yo'l shaxslar zararli shaxslar bo'lib.

Yoshlar katta soni o'xshash bilan do'stlashish, ya'ni. Borlar bilan qadriyatlar, yo'nalishlar, iqtisodiy holat va manfaatlarning o'xshash tizimlari. Bino o'rniga o'zlarini muvaffaqiyatli shaxslar sifatida ko'rsatdilar. Ning ta'siri funktsional ta'lim deb ataladigan narsa dominant hisoblanadi yoshlar haqida gap ketganda ahamiyati bo'sh vaqtlari haqida ma'lumot. Bu bizning bepul ko'proq va ko'proq mavjud reality biz bolalarni tayyorlashimiz, ularni chidamli va qobiliyatli qilishimiz kerak bo'lgan vaqt salbiy ta'sirlarga nisbatan o'z-o'zidan tanlov qilish, bu baribir etarli va bunga qarshi biz faqat "axloq" yordamida kurasha olmaymiz.

Talabalarning darsdan tashqari faoliyati tajribali o'qituvchilar tomonidan boshqariladigan maktab yoshlarga o'z nuqtai nazari va xatti-harakatlarini shakllantirishga yordam bering, ularga ijobiy yordam bering rivojlanish va ijtimoiy maqbul xulq-atvor. Bo'sh vaqtning paydo bo'lishi zamonaviy jamiyatning productidir va juda yaqin texnik va teknologi - ijro etish rivojlantirish sur'atlar bilan bog'liq, va bu yo'l u masala bu hali ham nazariy sohaga tegishli tadqiqot. Shuning

uchun har bir jamiyat, har birida vaqt davri, ixtiyoriy homilador bo'ldi yoshlarning ijtimoiy patologik xatti-harakatlarini bostirish uchun faoliyat dasturlari. Muayyan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, o'qituvchilar darsdan tashqari mashg'ulotlar jarayonida ishlashlari orqali muhim rol o'ynashi mumkin talabalarning iste'dodlarini shakllantirish va takomillashtirishda.

Xulosa

Ta'lim va darsdan tashqari mashg'ulotlar ularning bir-birini to'ldirishida tushunilganda va ularning o'ziga xos munosabatlari qabul qilinadi, keyin ularning ikkalasi ham variantlar uchun istiqbollarni yaratadilar. Ikkalasi ham ulardan, ularning harakatlari orqali, odamni qamrab oladi uning hayoti davomida butun o'sish va ular ikkalasiga ham inson potentsialini ro'yobga chiqarish uchun o'rganish va yashash tajribasi kiradi. Bu maktab hali ham eng yaxshi pozitsiya va umidga ega.

Talabalarda keng ko'nikmalarni rivojlantirish uchun sinfdan tashqari ishlar dunyosi. Bu nima uchun biz o'z takliflarimizni qayta ishlashga yo'naltirishimiz mumkin maktab dasturlarining tuzilishi va biz talabalarning tashabbusi va hamkorligini ta'minlash kerak. Shuning uchun o'qituvchilar kerak ta'lim sohasida ko'proq erkinlikni qo'llab-quvvatlang jarayon, shuningdek, qoniqish hissi bu. Shundagina maktab to'liq bepul faoliyat uchun oldindan operatsion qadam bo'lishi mumkin so'zning ma'nosi. Pedagogika fani bo'sh vaqtni davolaydi amalga oshirishning muhim omili sifatida ta'lim maqsadlari, lekin ayni paytda shaxsni madaniy jihatdan tarbiyalash omili va bo'sh vaqtni qimmatli sarflash. Bilan talabalarni ekstrakur-rikulyar faoliyatga jalb qilish ularning qiziqishlarini qondirish yoqilgan, shu bilan bir vaqtda ijobiy ularning boshiga - sonality to'liq rivojlanishini influ - encing. Shuningdek, ijtimoiy jihatdan maqbul qadriyatlar shakllangan, bu yanada hissa qo'shadi har bir zamonaviy jamiyatning rivojlanishidir.

REFERENCES

1. Barkamol avlod O`zbekiston taraqqiyotining poydevori. Toshkent. 1998
2. Bepal`ko "Slagaemoe pedagogichskoy texnologii" 1990.M.
3. Farberman B. L. Ilg`or pedagogik texnologiyalar.T.1999.

ONA TILI DARSLARINI TASHKIL ETISHNING INNOVATSION USULLARI VA ULARNING AHAMIYATI

Toshova Gulbarno Juraboyevna

Toshkent viloyati Yuqori Chirchiq tumani 9 - umumiy o'rta ta'lim maktabining ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7676101>

Annotatsiya. Ushbu maqolada ona tili darslarida foydalanishga tavsiya etiladigan interfaol metodlar va ularning mazmuni xususidagi fikrlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Innovatsion texnologiya, metod, texnologiya, interfaol, bayon qilish, suhbat, muammoli vaziyat.

ИННОВАЦИОННЫЕ МЕТОДЫ ОРГАНИЗАЦИИ УРОКОВ РОДНОГО ЯЗЫКА И ИХ ЗНАЧЕНИЕ

Аннотация. В данной статье представлены интерактивные методы, рекомендуемые для использования на занятиях по родному языку, и их содержание.

Ключевые слова: Инновационная технология, метод, технология, интерактив, презентация, беседа, проблемная ситуация.

INNOVATIVE METHODS OF ORGANIZING MOTHER TONGUE LESSONS AND THEIR IMPORTANCE

Abstract. This article presents the interactive methods recommended for use in mother tongue classes and their content.

Key words: Innovative technology, method, technology, interactive, presentation, conversation, problem situation.

Mustaqillik sharofati bilan respublikamizda yangilanish, rivojlanish davri boshlanib, ijtimoiy hayotimiz umumjahon andozalariga mos taraqqiyot yo'nalishlariga jadal sur'atlar bilan kirib bormoqda. "XXI asr yoshlarini har tomonlama rivojlangan, yetuk dunyoviy fikr yuritadigan, bilimli barkamol shaxslarni jahon ta'lim standartlariga mos ravishda tarbiyalash dolzarb vazifalardan biridir" [1]. Yangi asr o'qituvchisini tayyorlashda uning pedagogik - psixologik jihatdan chuqur bilimga egaligi, intellektual salohiyatning yuksak darajadaliigi, innovatsion ta'lim texnologiyalari, ta'limning interfaol usullari va ilg'or samarali metodlariga oid ijodiy faollikni oshirishning samarali usullaridan xabardor bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi kunda barcha ta'lim muassasalarida o'qitish jarayonida interfaol usullardan foydalanishga erishilmoqda. Bu esa interfaol ta'lim asosida tashkil etilayotgan pedagogik jarayonlarning mazmun-mohiyatini to'liq tushunib yetishga va ularni samarali, qiziqarli, sifatli bo'lishini ta'minlashga ko'maklashadi. Interfaol usullaridagi darslar o'quvchini ijodiy fikrlashga, olingan axborotlarni faollikda hal etishga, fikrni erkin bayon etishga, tashabbuskorlikka, guruhlarda masalalar yechimini topishga, hamkorlikda ish yuritishga, fikrni yozma ravishda bayon etishga chorlaydi. Interfaollik – bu o'zaro ikki kishi faolligi, ya'ni bunda o'quv-biluv jarayoni o'zaro suhbat tariqasida dialog shaklida (kompyuter yordamida) yoki o'quvchining o'zaro muloqotiga asosan kichadi. [2]. Interfaol ta'lim asosini interfaol metodlar tashkil etadi. Talim jarayonida o'quvchilar hamda o'qituvchi o'rtasida hamkorlikni qaror toptirish, faollikni oshirish, ta'lim oluvchilar tomonidan bilimlarni samarali o'zlashtirish, ularda shaxsiy sifatlarni rivojlantirishga xizmat qiladigan metodlar interfaol metodlar sanaladi. Ona tili darslarida

zamonaviy usullardan foydalanish o'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirish hamda mavzuni o'zlashtirishda yaxshi samara beradi.

Ona tilini o'qitishda o'qituvchi bilan o'quvchining birgalikdagi faoliyatini tashkil etish shakllari, metodlari va usullari ta'lim tizimining takomillashuvi bilan bog'liq holda rivojlanib, yangilanib bormoqda. XX asrning oxirgi yillariga qadar o'qitish metodlari sifatida tushuntirish bayon metodi, suhbat metodi, analiz - sintez metodi, mustaqil ish metodi, induktiv va deduktiv metodlar ona tili ta'limi darslarini tashkil etishda ko'proq qo'llanilib kelinmoqda.

Bayon qilish metodi ona tili darslarida qo'llangan asosiy metodlardan biri bo'lgan. Bunda o'qituvchi bayon qilishdan oldin o'quvchilarning o'rganilayotgan mavzu yuzasidan bilimlarini aniqlab olgan. Bu o'quvchilarni o'qituvchi bayonini kuzatib, tinglab borishga, faol bo'lishga undagan. O'qituvchining bayoni, ya'ni bayon qilish metodida grammatik mavzuning xususiyatidan kelib chiqib, o'qituvchi ma'lumotlarni o'z so'zlari bilan bayon qilib bergan. Bunda o'qituvchi zimmasiga o'rganilayotgan grammatik mavzuning muhim o'rinlarini aniq, lo'nda, misollar tahlili bilan izchil bayon qilib berish vazifasi yuklangan. Boshlang'ich sinflarda bayon qilish metodi o'quvchilarning yoshi va eslab qolish holatidan keib chiqqan holda 3—5 daqiqaga mo'ljallangan.

Suhbat metodi boshlang'ich sinflarda ona tilini o'qitishda keng qo'llaniladigan va shu bosqich o'quvchilari tabiatiga mos metod sanaladi. Suhbat metodi *savo - ljavob metodi* deb ham yuritiladi. Suhbat metodi o'qituvchidan mavzuning xususiyatini o'zida aks ettirgan o'quv materialini topishni, grammatik mavzuning muhim belgilarini aniqlash, ularning o'xshash va farqli jihatlarini ajratish, o'xshash va farqli jihatlariga qarab guruhlash, umumlashtirishga, xulosa chiqarishga yo'naltirilgan savollar tuzishni, ularni o'quvchilarga izchil berib borishni talab etadi.

Boshlang'ich sinflarda suhbat metodining **muammoli o'qitish metodi** sifatida qo'llanilishi ta'limda o'quvchilarni faollashtirishga katta ta'sir ko'rsatadi. **Muammoli o'qitish metodiga** amerikalik pedagog va psixolog Dyun 1894 - yilda asos solgan. Bu metodning maqsadi ilmiy tushunchalarni o'zlashtirishga yordam berishgina emas, balki o'quvchilarning bilish qobiliyatini ham rivojlantirish, ijodiy qobiliyatlarini o'stirish hamdir. Bunda suhbat davomida o'qituvchining topshirig'i bilan o'quvchining oldiga biror muammo qo'yiladi va darsda muammoli vaziyat yaratiladi. Bu muammoni o'quvchi oldin egallagan bilimlari asosida hal etadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining hayotiy tajribalari kamligi sababli o'qituvchi muammoni hal qilishga yordamlashuvchi savollar beradi. Muammoni o'quvchi hal qila olmasa, uni o'qituvchining hal qilishiga to'g'ri keladi. Shuning uchun boshlang'ich sinfda muammoli o'qitish metodi **yarim izlanishli muammoli metod** deb ham yuritiladi. Masalan, muammoli o'qitish metodini leksik - semantik va grammatik mashqlarni tashkil etishda ham qo'llash mumkin. Bu metoddan 1sinfdan boshlab foydalanish mumkin

Boshlang'ich sinf ona tili darslarida **mustaqil ish metodi** asosan o'rganilgan mavzuni mustahkamlash qismida mashqlar ishlash jarayonida qo'llaniladi. O'quvchilar o'qituvchining topshirig'i bilan mustaqil ishlarni og'zaki yoki yozma shaklda bajaradilar. Topshiriq qiyin va ko'p vaqtni olmasligi, o'quvchilar kuchi yetadigan qilib, muayyan vaqt ichida bajarishga mo'ljallangan bo'lishi kerak. Mustaqil ishlash uchun topshiriq 1sinfdan boshlab beriladi va u asta - sekin murakkablashtirilib boriladi. 1 sinfdan „Yozgan so'zlaringizni lug'atdan tekshiring“, „Rasmga qarab sabzavot nomlarini alifbo tartibida yozing“, „Rasmni kuzating. Unda tasvirlangan narsalarni aniqlang va ularning nomini yozing“ kabi topshiriqlar beriladi.

Analiz-sintez metodi savod o'rgatish darslariga rustuzem maktablari va tatar o'qituvchilarining faoliyati orqali kirib kelgan. Ona tili ta'limi jarayoniga analiz — tahlil grammatik hodisaning muhim belgilarini aniqlash maqsadida, o'rganilgan grammatik tushunchaning yangi qirralarini ochish va mustahkamlash maqsadida tatbiq etiladi. Fonetik, leksik, morfologik va sintaktik tahlil shu metodning amalda namoyon bo'lishidir. Sintez qismlarga bo'lib o'rganilgan grammatik materialni yaxshilashdir. Masalan, ot, sifat, fe'l, son kabi so'z turkumlari o'rganilayotganda ularga oid so'zlar berilib, ular ishtirokida gap tuzish, aralash berilgan so'zlardan gap tuzish, aralash berilgan gaplarni voqealar rivoji asosida tartiblashtirib matn tuzish, mazmunan tahlil qilingan rasm asosida hikoyacha tuzish kabi ishlarda sintez metodi namoyon bo'ladi. Analiz - sintez metodida ham o'quvchilarni faollashtirish o'qituvchining o'quvchilarga beradigan savol va topshiriqlariga, ishni tashkil etish shakllariga bog'liq bo'ladi.

Induksiya metodida o'quvchilar o'qituvchi tavsiya etgan til dalillarini kuzatadi, tahlil qiladi va shu asosda xulosa va ta'riflar keltirib chiqaradi.

Deduksiya metodida o'quvchi tayyor qoida — ta'rif bilan tanishadi va uning mohiyatini til dalillari asosida ochadi.

Bu metodlarning samarasi o'qituvchining savol - topshiriqlari mazmuni grammatik hodisaning muhim tomonlariga yo'naltirilganligiga, izchilligiga, faoliyatni tashkil etish shakllariga, o'quv vositalari (darslik, turli xarakterdagi lug'atlar, rasm, jadvallar, texnik vositalar)ga bog'liq bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda yuqoridagi barcha metodlarning muvaffaqiyati o'qituvchining beradigan savol - topshiriqlariga bog'liq. Yo'l - yo'lakay duch kelgan savollar bilan kichik yoshdagi o'quvchining anglash faoliyatini ishga solish kutilgan natijani bermaydi. So'nggi yillar davomida ta'lim tizimiga an'anaviy metodlar bilan birga zamonaviy pedagogik texnologiya usullari kirib keldi. Ulardan ona tili ta'limi jarayonida foydalanish bo'yicha yutuqlar qo'lga kiritilib kelinmoqda.

REFERENCES

1. Mirziyoyev Sh. Niyati ulug` xalqning ishi ham ulug` va kelajagi farovon bo'ladi. T.: "O'zbekiston", 2019.
2. Yo'ldoshev J., Yo'ldosheva F., Yo'ldosheva G. Interfaol ta'lim - sifat kafolati. - Toshkent, 2008.
3. Rafiyev A., G'ulomova N. Ona tili va adabiyot (kasb-hunar kollejlari uchun darslik). T., "Sharq", 2013.
4. Erkaboyeva N. Q. Adabiyot fanidan savol-javoblar to'plami. T. "Navro'z", 2018.
5. Golish L. V., Fayzullayeva D. M. Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish. T., "Iqtisodiyot", 2012.
6. "Umumta'lim fanlari metodikasi" jurnali, 1-, 2-, 3-, 4-sonlar, 2018.
7. "Til va adabiyot ta'limi" jurnali, 1-12 sonlar, 2018.

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИДА СУД ҲОКИМИЯТИНИНГ КОНСТИТУЦИЯВИЙ-ҲУҚУҚИЙ МАҚОМИНИ МУСТАҲКАМЛАНИШИ

Исмоилов Адҳам Баходирович

Жиззах вилояти юридик техникуми ўқитувчиси

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7680000>

Аннотация. Мақолада Ўзбекистон Республикасида суд ҳокимиятининг конституциявий - ҳуқуқий мақомини мустаҳкамланиши ҳақида маълумот берилган.

Калим сўзлар: норматив-ҳуқуқий ҳужжат, Суд, Конституция, демократик-ҳуқуқий давлат, Жиноят-процессуал Кодекси, Фуқаролик-процессуал Кодекси, Хўжалик-процессуал Кодекси.

УКРЕПЛЕНИЕ КОНСТИТУЦИОННО-ПРАВОВОГО РЕЖИМА СУДЕБНОЙ ВЛАСТИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН

Аннотация. В статье представлена информация об укреплении конституционно-правового режима судебной власти в Республике Узбекистан.

Ключевые слова: нормативный правовой акт, Суд, Конституция, демократическо-правовое государство, Уголовно-процессуальный кодекс, Гражданско-процессуальный кодекс, хозяйственно-процессуальный кодекс.

STRENGTHENING THE CONSTITUTIONAL AND LEGAL REGIME OF JUDICIAL POWER IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Abstract. The article provides information about the consolidation of the constitutional and legal regime of judicial power in the Republic of Uzbekistan.

Keywords: normative legal act, Court, Constitution, democratic-legal State, Criminal-Procedural Code, civil-Procedural Code, economic-procedural code.

Жамиятдаги ижтимоий муносабатларни тартибга солиш йўлида ҳар бир давлат органи ташкил этилиши учун унинг ҳуқуқий мақомини мустаҳкамловчи муайян миқдордаги норматив-ҳуқуқий ҳужжатларни қабул қилиш лозимдир. Фаолияти инсон тақдири билан боғлиқ бўлган суднинг статусини белгилайдиган конституциявий-ҳуқуқий ҳужжатларнинг етарли даражада қабул қилиниши айниқса, зарурдир. Чунки судьялар ўз фаолиятида фақат конституция ва қонунларга мувофиқ иш кўрадилар. Судга оид Конституция ва қонун ҳужжатларининг нечоғик мукамаллиги биринчи навбатда уларнинг демократиклигида намоён бўлади. Ҳар бир қонун ҳужжатида умумтан олинган халқаро ҳужжатлардаги қоидаларнинг акс этиши, Ўзбекистон халқига хос қадриятларнинг ифодаланиши билан у янада демократик нуфуз касб этади. Одатда умум тан олинган халқаро ҳуқуқий ҳужжатларни давлат тан олиши ва қонунчилигига имплементация қилиши учун уни ратификация қилиши лозим.

Суд ҳокимиятининг конституциявий-ҳуқуқий асослари деганда мазкур органнинг давлат ҳокимиятининг таркибий қисми сифатидаги ўрнини, конституциявий-ҳуқуқий мақомини белгилаб берадиган амалдаги норматив-ҳуқуқий ҳужжатларнинг йиғиндиси тушинилади. Суд ҳокимиятининг конституциявий-ҳуқуқий асосларини теран талқин этиш судга оид норматив-ҳуқуқий ҳужжатларни демократик-ҳуқуқий давлат куриш тамойилларига мослаштириш, суд фаолиятини такомиллаштиришни ижтимоий тараққиёт

талабларидан келиб чиқиб белгилаш каби бир қатор назарий-амалий масалаларни тадқиқ этишга ҳам имкон яратади.

Умумий олганда суд ҳокимиятининг конституциявий-ҳуқуқий асосларини қуйидагича тизимга солиш ўринлидир:

- Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг суд ҳокимиятига бағишланган XXII боби (106-116);

- “Судлар тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикасининг янги таҳрирдаги қонуни 2000 йил, «Ўзбекистон Республикасининг Конституциявий суди тўғрисида»ги қонуни; «Фуқароларнинг муқофалари тўғрисида»ги;

- Одил судловни амалга оширишга ҳуқуқий асос сифатида хизмат қилувчи Ўзбекистон Республикасининг Жиноят, Жиноят-процессуал, Фуқаролик, Фуқаролик-процессуал, Хўжалик-процессуал кодекслари;

Суд ҳокимиятининг конституциявий-ҳуқуқий асослари тизимида Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси олий ўринни эгаллайди. Конституцияда суд ҳокимияти учун алоҳида боб ажратилган. Ушбу бобда суд ҳокимиятининг моҳиятини очиқ беришга қаратилган меъёрлар ҳамда суд фаолиятини ташкил қилиш, судлов тизимини белгилашга оид демократик қоидалар мустаҳкамланган.

Ўзбекистон Республикаси Президенти И.А.Каримов 1996 йил 29 август куни биринчи чақириқ Олий Мажлиснинг VI сессиясида сўзлаган нутқида таъкидлаганидек, «Ўзбекистондаги ҳуқуқий ислохотларнинг асосий мақсади – суднинг алоҳида ва мустақил ҳокимият тармоғи сифатидаги мавқеини қайта тиклаш ғояси бўлди. Суд ҳокимиятининг янги тармоқлари яратилди, суднинг ваколатлари сезиларли даражада кенгайтирилди. Фуқароларнинг қонуний ҳуқуқлари ва эркинликларини ҳимоя қилиш судлар ҳамда ҳуқуқ-тартиботни муҳофаза қилиш органларининг фаолиятида асосий мазмунга айланмоғи керак»¹⁴.

Суд ҳокимияти давлат органлари тизимида алоҳида аҳамият касб этади. Мазкур ҳокимиятнинг фаолияти инсон ҳуқуқлари ва эркинликларига бевосита алоқадор бўлиб, унинг одил судловни демократик қонунлар асосида амалга ошириши натижасида шахсларнинг конституциявий ҳуқуқ ва эркинликлари кафолатланади. Суд ҳокимияти ҳуқуқий мақомининг конституциявий асослари мазмун-моҳиятига кўра қуйидагиларда ифодаланади:

- фуқароларга нисбатан судловни амалга оширишда ўзбошимчаликка йўл қўймаслик;
- одил судловни амалга ошириш;
- субъектив ҳуқуқ ва эркинликлар кафолатини мустаҳкамлаш;
- фуқароларга нисбатан чиқарилган ҳукм ва қарорлар юзасидан шикоят қилишлари учун тегишли имконият ҳамда шароитлар яратиш;

- судьяларнинг мустақиллигини таъминлаш ҳамда уларнинг ҳуқуқий ҳолатини мустаҳкамлаш ва ҳ.к.

Суд ишлари конституциявий, фуқаролик, жиноий ва маъмурий турларга бўлинади. Конституциявий суд ишлари «Ўзбекистон Республикасининг Конституциявий суди тўғрисида»ги Қонун асосида, фуқаролик суд ишлари Фуқаролик-процессуал Кодекси,

¹⁴ Қаранг.: И.А.Каримов. «Янгича фикрлаш ва ишлаш давр талаби». Т., «Ўзбекистон», 1997 йил, 127-бет.

жиноий суд ишлари Жиноят-процессуал Кодекси, маъмурий суд ишлари эса Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги Кодекс асосида олиб борилади. Бундан ташқари, хўжалик соҳасидаги суд ишлари Ўзбекистон Республикасининг Хўжалик-процессуал Кодекси асосида юритилади.

Аввал таъкидлаганимиздек, суд ишлари ичида энг асосий вазифа одил судловни амалга ошириш ҳисобланади. Бундан ташқари суд ҳокимиятининг ижтимоий аҳамиятга эга бўлган куйидаги ваколатлари ҳам мавжуд:

- давлат ҳокимияти органлари ва уларда хизмат қилувчи мансабдор шахсларнинг фаолиятлари ҳамда улар томонидан қабул қилинган қарорларнинг қонунийлигини мунтазам текшириб бориш;

- конституциявий контрол ва назорат;

- судьялар таркибининг шаклланишида иштирок этиш ва унинг органларига ёрдам бериш.

- суд ҳукми ва қарорларининг ижросини таъминлаш;

- суд амалиётидан келиб чиқиб, амалдаги қонунчилик масалалари бўйича тушунтириш;

Юқоридаги ваколатларнинг амалда бажарилиши одил судлов билан узвий боғлиқ бўлиб, суд ҳокимиятининг мазмунини ташкил этади ва у қабул қилган ҳукм ҳамда қарорларнинг мажбурий ижросини таъминлашга қаратилади. Суд ҳокимияти қарорларининг ҳаётга татбиқ қилиниши мажбурий бўлиб, бу ҳолат қонун билан белгиланган. Қонун давлат органлари, жамоат бирлашмалари, ташкилотлар, мансабдор шахслар ҳамда фуқароларнинг суд ҳукмига бевосита бўйсунушларини талаб қилади. Ҳамма давлат органлари, ташкилотлар, мансабдор шахслар ва фуқаролар суд ҳокимияти қарорларининг амалга оширишида судга ёрдамлашишлари шарт ва мажбурдирлар.

Демак, одил судлов фаолиятининг амалга оширилиши, қонунчилик ва ижро ҳокимияти тармоқлари сингари, суд ҳокимиятининг ҳам нақадар муҳим ва масъул вазифалари мавжудлигини кўрсатади. Бу эса давлат ҳокимияти тармоқларининг тенг ҳуқуқлилигини, мақсадларининг бирлигини ҳамда давлатни бошқаришда бирдек масъулият билан фаолият кўрсатишини англатади.

Одил судловнинг конституциявий тамойиллари – умумий, раҳбарий, бирламчи қоидалар бўлиб, давлат фаолиятининг муайян соҳасига хос асосий хусусиятларини ёритиб беради. Ушбу тамойилларнинг одил судловга доир қонунларни яратишда, суд ҳокимияти давлат органлари механизмида, жамият сиёсий тизимида тутган ўрни ва ролини белгилаб беришда алоҳида хизмати бор. Одил судлов тамойилларининг йиғиндиси одил судловни ҳуқуқий тартибга солишда ва амалга оширишда муҳим қалқон ва пойдевор ҳисобланади. Бу ҳолат Ўзбекистон Республикасининг Конституциясида мустаҳкамланган.

Одил судлов тамойилларининг хусусияти шундан иборатки, унда белгиланган қоидалар нафақат фуқаролар, мансабдор шахслар ҳамда давлат органлари учун, балки қонун чиқарувчи ҳокимият учун ҳам тааллуқлидир. Қонун чиқарувчи ҳокимият ўз фаолияти давомида демократик талаблар ҳамда анъаналар қатори ушбу тамойилларга ҳам амал қилади. Ўзбекистон Республикасининг одил судловга оид конституциявий тамойилларни белгилашда бошқа мамлакатларнинг, шунингдек, халқаро ҳуқуқнинг ижобий тажрибалари ҳисобга олинган.

Одил судловни амалга ошириш ва унинг фаолиятини ташкил қилишда «Инсон ҳуқуқлари умумжаҳон Декларацияси», «Фуқаролик ва сиёсий ҳуқуқлар тўғрисидаги Халқаро Пакт» каби халқаро ҳужжатларнинг илғор ғояларидан унумли фойдаланилганлиги учун ғоят катта аҳамият касб этади. Ушбу ҳужжатлар дунёнинг кўпчилиги давлатлари қаторида Ўзбекистон Республикаси томонидан ҳам имплементация қилинган бўлиб, ундаги қоидаларга амал қилиш мажбурийдир.

Судлар томонидан кўриб чиқиладиган ишларга баҳо беришда, судьялар ҳар қандай ҳолатда ҳам Конституцияни бевосита бирламчи манба сифатида тан олишлари шарт. Конституциянинг 16-моддасида белгиланганидек, «бирорта ҳам қонун ёки бошқа норматив-ҳуқуқий ҳужжат Конституция нормалари ва қоидаларига зид келиши мумкин эмас»¹⁵.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг фармонлари агар Конституцияга, қонунга хилоф бўлмаса, давлат бошлиғининг фармонлари сифатида суд ишларини юритишда қўлланилиши мумкин. Шу каби юқори даражадаги ҳуқуқий ҳужжатларни қўллашдан олдин, судлар бундай ҳуқуқий ҳужжатларнинг Ўзбекистон Конституциясига қанчалик мос келишини текширишлари лозим.

Бундан ташқари, Ўзбекистон Республикасида халқаро шартномалар талабларидан келиб чиққан ҳолда, халқаро ҳуқуқ нормаларига амал қилиш назарда тутилган. Халқаро шартнома нормаларига зид бўлган қонунлар амалда судьялар томонидан қўлланилмайди. Ушбу конституциявий қоида ҳаётга узлуксиз татбиқ этилмоқда. Қонунийлик ҳуқуқнинг ҳамма соҳалари учун муҳим аҳамиятга эга бўлган, кенг қўламда қўлланиладиган ҳуқуқий тамойиллардан бири бўлиб ҳисобланади. Қонунийлик тамойилининг узлуксиз равишда ҳаётга татбиқ қилиниши давлат бошқарув механизмининг бир меъёردа ишлашини таъминлайди. Бу тамойил одил судловни амалга оширишда катта аҳамият касб этиб, жиноий ва фуқаролик ишларининг муҳокамаси қонун талабларига мос ва белгиланган тартибда амалга оширилишини белгилайди.

Қонунга риоя қилинмаган жойда қонунийлик тўғрисида сўз юритиш мумкин эмас. Бу ҳол ўзбошимчалик ҳисобланади. Демак, бу ҳолатларда қонунийлик ўзининг ижтимоий вазифасини бажара олмайди. Том маънодаги қонунийлик жиноий ва фуқаролик ишлари бўйича суд томонидан асосли, адолатли ҳукм ва қарорлар чиқарилишини таъминлайди.

REFERENCES

1. О.Т.Нусанов. Конституциявий ҳуқуқ. Toshkent-2022.
2. О'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. Т.: 2014-yil.
3. О'zbekiston Respublikasining oila kodeksi. Т.: 2022-yil. 4. www.lex.uz.

¹⁵ Қаранг: Кўрсатилган асар.

BOSHLANG'ICH TA'LIMDA XALQARO BAHOLASH DASTURLARI

Azizova Gulmira Azamovna

Qashqadaryo viloyati Qarshi tuman 28 - maktab boshlang'ich sinf
o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7684455>

Annotatsiya. Ushbu maqolada xalq ta'limi tizimiga kirib kelgan xalqaro baholash dasturlari, o'quvchilarning hayotiy ko'nikmalari to'g'risida ma'lumotlar berilgan. Shuningdek, halqaro baholash dasturlarining o'quvchilarni bilimlarni egallashdagi o'rni va ahamiyati haqida fikrlar bayon etilgan.

Tayanch so'zlar: o'qituvchi, maktab, xalqaro baholash, dastur.

МЕЖДУНАРОДНЫЕ ОЦЕНОЧНЫЕ ПРОГРАММЫ В НАЧАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ

Аннотация. В этой статье представлена информация о программах международной оценки, которые вошли в систему государственного образования, о жизненных навыках учащихся. В нем также излагаются мнения о роли и важности международных оценочных программ в обучении учащихся знаниям.

Базовые слова: учитель, школа, международная оценка, программа.

INTERNATIONAL ASSESSMENT PROGRAMS IN PRIMARY EDUCATION

Abstract. This article provides information on international assessment programs, students' life skills that have entered the public education system. Opinions are also expressed about the role and importance of international assessment programs in the acquisition of knowledge by students.

Base words: teacher, School, International Assessment, Program.

So'nggi yillarda xalq ta'limi sohasiga kirib kelgan xalqaro miqyosda o'quvchilarni baholash dasturi PISA o'quvchining o'qish, matematika va tabiiy fanlardagi bilim va ko'nikmalarini baholaydi. Shuningdek, PISA o'quvchining muammolarni hamkorlikda echish kabi ko'nikmalarini ham baholaydi. Bu dastur dunyo bo'ylab o'quv dasturlarining mazmunini o'rganadi va o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini amalda qo'llay olish, muloqot qilish ko'nikmalarini o'rganadi. Bolaning kelgusidagi hayotining muvaffaqiyati uchun muhim deb hisoblangan bilim va ko'nikmalarini baholaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoniga muvofiq umumiy o'rta va maktabdan tashqari ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, o'sib kelayotgan yosh avlodni ma'naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishni sifat jihatidan yangi darajaga ko'tarish, o'quv-tarbiyajarayoniga ta'limning innovasion shakllari va usullarini joriy etish maqsadida, O'zbekiston Respublikasining 2030-yilga kelib PISA xalqaro dasturi reytingida jahonning birinchi 30 ta ilg'or mamlakatlari qatoriga kirishiga erishish hamda xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish asosida o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholashga yo'naltirilgan ta'lim sifatini baholashning milliy tizimini yaratish vazifalari belgilangan.(2, 7 b)

Kontsepsiya doirasida, o'quvchilarning tanqidiy fikrlash, axborotni mustaqil izlash, tahlil qilish malakalari va Kompetentsiyalarning rivojlanishiga alohida urg'u berishni hisobga olgan holda zamoanviy innovasion iqtisodiyot talablariga javob beradigan umumta'lim dasturlari va

yangi davlat ta'lim standartlarini joriy etish, o'quvchilarning bilim darajasini baholashda ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro PISA, TIMSS, PIRLS va boshqa dasturlarda doimiy ishtirok etish nazarda tutilgan. Shuningdek, xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish, xalqaro aloqalarni o'rnatish, o'quvchi yoshlarning ilmiy-tadqiqot va innovasion faoliyatini, eng avvvlo, yosh avlodning ijodiy g'oyalari va ijodkorligini har tomonilama qo'llab-quvvatlash hamda rag'batlantirish maqsadida hukumat qaroriga muvofiq.(2, 8 b)

Risaniing asosiy maqsadi – mamlakatlar ichida ta'lim siyosatidagi qarorni qabul qilish masalasida ko'maklashish va qo'llab-quvvatlashdir. Uch yillik tsikl mamlakatlarga ta'lim tizimida qabul qilingan dastur va strategik qarorlar ta'sirini o'rganish va tahlil qilish uchun yig'ilgan ma'lumotlarni taqdim etadi.

Ta'lim tizimida umumiy o'rta ta'limning oxirgi bosqichlarida ta'lim olish yosh bosqichlari 15 yoshga teng keladi. PISA – 15yoshli o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini aniqlashga qaratilgan yagona xalqaro baholash dasturidir. PISA o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy fanlardan bilim sifatini baholaydi xamda o'quvchilardan o'zlariga ishonch hissini tarbiyalaydi .

TIMSS – umumta'lim maktablarida matematika va aniq fanlar sifatini baholovchi xalqaro monitoring. Xo'sh matematik savodxonlik nima? bu insonning u yashayotgan dunyoda matematikaning o'rnini aniqlash va tushunish, asoslangan matematik mulohazalar yuritish hamda fikrlaydigan, qiziquvchan va ijodkor fuqaroga mansub hozirgi va kelajakdagi ehtiyojlarni qondirish maqsadida matematikadan foydalanish qobiliyatidir. TIMSS va PISA tadqiqotlari bir biridan nimasi bilan farq qiladi? PISA 15-yoshlilarni bilim samaradorligini baholasa, TIMSS 4-, 8-sinflarni nazorat qiladi va turli yo'nalishlarni tekshiradi. TIMSS o'quv dasturiga asoslangan bo'lsa, PISA ko'nikmalarni Real xayot muammolariga qo'llanilishini tekshiradi.

PIRLS – matnni o'qish va tushunish darajasini aniqlovchi xalqaro tadqiqot. O'quvchilarning o'qish savodxonligi nima bilan o'lchanadi? bunda insonning yozma matnlarni tushunish va qo'llay olish, ular haqida fikrlash va o'z bilimi hamda imkoniyatlarini kengaytirish, ijtimoiy hayotda ishtirok etish, maqsadlariga erishish uchun o'qish bilan shug'ullanish qobiliyatidir.

Baholash nima?

Baholash ta'lim jarayonining ajralmas bo'lagi bo'lib, ular turli shakllarda bo'ladi. O'quvchida ta'limga bo'lgan motivasiyani shakllantiradi. O'zlashtirish samaradorligi baholashda o'lchanadi. O'qishda erishilgan natijalar baholash orqali o'z tasdig'ini topadi. Kamchilik va bo'shliqlar aniqlanadi. O'qituvchi o'quv fanlardan erishilgan ko'nikmalarning har birini egallaganliklari to'g'risidagi ma'lumotlarni o'zz vaqtida o'quvchii va ularning ota onalariga taqdim etadi.. Ushbu baholash o'quvchilarning o'qishda erishgan yutuqlari haqidagi ma'lumotlarni ham taqdim eta oladi. Hamkorlikda tashkil etilgan darslarda ta'limning o'quvchi shaxsiga qaratilgani uning o'z shaxsiga nisbatan ishonch hissini oshishi, tabiyalashi bilan xarakterlanadi. O'quvchilar dars jarayonida o'z-o'zini baholashda ishtirok etarkan, ular bilimlarni nima uchun o'rganayotganligini tushunadi, avval o'rgangan bilimlarini kelgusidagilari bilan o'zaro bog'liqliklarini ham anglab etadi. O'qituvchi va tengqurlari tomonidan baholanganda hamda o'z-o'zini baholaganida o'zida sodir bo'layotgan o'zgarishlarni his etadi va yana qaysi sifat va ko'nikmalarini rivojlantirishi lozimligi haqida o'ylaydi.

Boshlang'ich ta'limga joriy etilishi ko'zda tutilayotgan xalqaro baholash tadqiqotlaridan egma va egra baholash modellarining mazmun mohiyati ham boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish va matematika fanidan ularning savodxonlik darajalarini nazorat etadi, baholaydi, egra

o'qish predmetidan savodxonlik, o'qish ko'nikmalarini aniqlab bersa, egma matematik savodxonligini nazorat etadi, tahlil etadi, matematik savodxonligi darajasini belgilab beradi.

Xulosa qilib aytganda ta'lim tizimiga kirib kelayotgan innovasiyalar ta'limning sifat va samaradorligiga xizmat qilishi bilan birga uning takomillashuviga, innovasiyalar bilan boyishiga, kelajak avlodni barkamol bo'lib tarbiyalanishiga, ta'lim ishtirokchilarining zamon bilan hamnafas yetuk kadrlar bo'lib etishishiga imkon beradi.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" 2019 yil 29-apreldagi PF-5712-sonli farmoni
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Xalq ta'limida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish Sora-tadbirlari to'g'risida" 2018-yil 8-dekabrda 997-sonli qarori.
3. Xalqaro tadqiqotlarda o'quvchilarning o'qish savodxonligini baholash. (Ona tili va adabiyoti fani o'qituvchilari, metodistlari va soha mutaxassislari uchun metodik qo'llanma) Sharq nashriyoti Toshkent -2109 y

NOTIQLIK SAN'ATI VA UNING KELIB CHIQISH TARIXI

Usmonaliyeva Shaxnoza Turg'unaliyevna

Toshkent viloyati Yuqori Chirchiq tumani 9 - sonli umumiy o'rta ta'lim maktabining
O'zbek tili fani o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7684509>

Annotatsiya. Mazkur maqolada notiqlik san'ati va uning kelib chiqish tarixi haqida so'z boradi. Maqola davomida turli notiqlik fikrlari va ular haqidagi mulohazalar keltirilgan bo'lib mavzu asosli dalillar bilan ochib berilgan. Maqola so'nggida xulosa va takliflar keltirilgan.

Kalit so'zlar: notiqlik, notiqlik tarixi, san'at, madaniyat, adabiyot.

ОРАТОРСКОЕ ИСКУССТВО И ИСТОРИЯ ЕГО ВОЗНИКНОВЕНИЯ

Аннотация. В данной статье рассказывается об ораторском искусстве и истории его возникновения. На протяжении всей статьи представлены мнения различных спикеров и их комментарии, а тема раскрыта с аргументированной аргументацией. Выводы и предложения даны в конце статьи.

Ключевые слова: ораторское искусство, история ораторского искусства, искусство, культура, литература.

THE ART OF ORATORY AND THE HISTORY OF ITS ORIGIN

Abstract. This article talks about the art of oratory and the history of its origin. Throughout the article, the opinions of various speakers and their comments are presented, and the topic is revealed with reasonable arguments. Conclusions and suggestions are given at the end of the article.

Key words: oratory, history of oratory, art, culture, literature.

Notiqlik - o'tmish so'z san'atining eng va ommaviy barkamol natijalaridan bo'lib, bu san'atni musulmon Sharqida voizlik deb atalgan. Shunga ko'ra nutq-va'z, notiq-voiz deb yuritilgan. O'rta Osiyo xalqlari, jumladan o'zbek xalqi IX-XV asrlarda dunyo madaniyati taraqqiyotida oldingi saflardan biriga ko'tarila olgan edi. Umuman, o'rta asrlarda fan va madaniyatning rivojida Xorazmiy, Farog'iy, Ibn Sino, Beruniy, Qoshg'ariy, Navoiy kabi ulug' siymolar katta hissa qo'shganlar. Bular yashagan davrni Sharq tarixida uyg'onish davri ham deb atalardi.

Bu davrda ilm-fan, adabiyot, san'at madaniyatimizning ravnaq topgan yillari bo'ldi. Adabiyot-san'at, fan va umuman, madaniyatimizning targ'ibotchilari bo'lgan bu allomalar ayni vaqtda voiz (notiq)lik san'atini ham yaratdilar. IX-X asrlar orasida yashab ijod etgan Abu Nasr Forobiy (837-950), Abu Ali ibn Sino (980-1037) kabi yirik olimlarimiz faqat zamonlarining ilm-fani bilan chegaralanib qolmay, ayni vaqtda notiqdan bo'lganlar hamda notiqlikning tug'ilishi, shakllanishi va rivojiga ham katta e'tibor berganlar.

Bulardan tashqari, XI asrda Kaykovus tomonidan yaratilgan "Qobusnoma"da ham notiqlik san'ati haqida batafsil to'xtalib o'tilgan. Hatto muallifning ta'kidlashiga qaraganda, barcha hunarlar ichida o'z hunarini-notiqlikni ulug'laydi. Notiqlik juda uzoq tarixga ega, yana shu davr ichida u shakllanadi, o'zgardi va kamol topdi. Albatta, bu tarixiy jarayonda nasldan-naslga meros qolishga arzigulik an'analar ham yetib keldi. Sharq va xususan o'rta Osiyoda juda ko'plab notiqlik yetishib chiqdilar, faqat yetishib chiqdilarigina emas, balki ular notiqlik asoslarini yaratib butun sharqqa, hatto, bu Jumladan: Voiz Muhammad Rafi'- "Abvobul jinon", Voiz Kazviniy "Zilolu maqol", Voiz Shirvoni "Aksanul axoddis", Muhammad Bobur binni Muhammad Voiz

"Hidoyatul-taqvim", Kuraysh Sindiy "Anisul-voizin", Mulla Kalon voiz, Samarqandiy "Ravzatul-voizin", Qozi Ushiy " Miftoxon-najjoh" ("So'zning kaliti") va boshqa bir qator mohir so'z ustalari o'zlarining risolalarini yaratib, notiqlik nazariyasi sohasida ham katta yutuqlarni qo'lga kiritganlar. Bularning har bir o'z tarixi, taqdiriga ega bo'lgan siymolardir. Voizlikning kelib chiqishi tarixi ham ancha qiziq nuqta Shveysar olimi Adam Metsning ma'lumotlariga ko'ra ilgari podshohlar el oldiga chiqib, davlat tuzumi, itoatkorlik, xalqaro ahvoldan diniy qoidalardan, o'z siyosatlarini va boshqa mavzularda nutq so'zlab turganlar. Ularning nutq matnlarini esa, saroy xodimlari, yani devonul insho xodimlari yozib bergan.

Ayniqsa, juma namozi kunlari ularning chiqib, nutq so'zlashlari shart bo'lgan. Vaqtlar o'tishi bilan bunday ishlarni maxsus so'z ustalariga topshira boshlaganlar. Jumladan, Mavlono Faxriddin Ali Safiyning "Latoyifut-tavoyif" asarida aytilishicha, Sulton Husayn Boyqaro bir kuni Sherozga, Shoh Shijo' oldiga rasmiy davlat ishi bilan muzokara olib boorish uchun bir , vakil yubormoqchi bo'lgan. Arkoni davlat bilan maslahatlashib, Mavlona Irshoddan boshqa munosib kishi topa olmaydilar. Xullas Irshod borib, rasmiy ishlarni oz muddatda ijobiy hal etadi. Ammo, uning notiqlik mahoratiga qo'il qolgan shoh Shijo' Irshodga javob bermay, bir majlis qurib keyin ketishi mumkinligini aytib iltimos qiladi. Notiq majlisni juma kunga tayinlaydi. Boshqa odamlar qatori shoh va uning ayonlari masjidi Jomega yig'iladilar. o'sha kuni mavlono Irshod shunday ehtirosli nutq -so'zlaydiki yig'ilgan xaloyiq ho'ng-ho'ng yig'lay boshlaydi. Notiq hamma nutqqa berilib ketib yig'layotganini ko'radi. Shunda mavlono Irshod o'z notiqligining yana bir bunyodkor kuchini namoyish qiladi: u to'satdan shunday kutilmagan burilish yasaydiki, hamma birdaniga ko'z yoshi aralash qah-qah soladi. Shoh Shijo' ham, yig'ilgan xaloyiq ham buyuk notiq Mavlono Irshodni hurmat-ehtirom bilan kuzatib qo'ydilar, o'zbek xalqi orasida Mavlono Irshodga ham o'xshagan notiqlar juda ko'p bo'lgan. Ulardan biri Farg'onalik mashhur notiq Qozi Ushiy bo'lgan. U o'sh shahrida qozilik lavozimida ishlagani uchun qozi Ushiy taxallusiga ega bo'ladi. U xalq o'rtasida juda katta obro'ga ega bo'ladi.

Yuqoridagi asarda yozilishicha, Erondagi Siiston viloyatining xalqi qattiq qo'lligi bilan dong chiqargan, hatto gadoyga ham non bermas ekanlar. Qozi Ushiy esa bu xalqning ko'ngil qulfini so'z kaliti bilan ochib yumshataman deydi. U Siistonga borib, bir ikki hafta shu xalq ichida yuradi, ularning ruhiy holatini o'rgandi. Shahar qozisidan ruxsat olib, juma kuni masjidi Jomeda katta, nutq so'zlaydi notiq bilan baravar xalqning fig'oni falakka ko'tariladi. Siiston xalqi topgan-tutganini minbar ostiga tashlaydi. Lekin Qozi Ushiy nutqi uchun hech kimdan haq olmasligini aytadi, buni eshitgan xalq notiqni yanada e'zozlaydi. Notiq, u xalqning xasis emasligini, aksincha oilyjanob ekanligini xalqning mehr xazinasini ochish uchun munosib kalit topa olish kerak ekanligini isbot etadi. Mutaxassis notiqnlarni voizlar deb ataganlar. Ularning va'z matnlari odatda chiroyli va badiiy yuksak saviyada bo'lgan.

Nutq matnlarining aksariyati nasriy she'r hatto she'riy shakllarda yozilgan. O'tmish sharq notiqnlari orasida o'z zamonasining Demosfen va Sitseronlari juda ko'p bo'lgan. o'zbek va yunon san'atkor-mutafakkirlarining nutq talqinlari, ta'sirchanligi va notiqlik sanlati asoslari bo'yicha, olg'a surgan flkrlari jahon taraqqiyparvar notiqligining shu masalalaridagi talqinlar bilan hamohangdir.

Biz Alisher Navoiy tomonidan tilga olingan va ularning ijodi haqida fikr yuritgan notiqlardan faqat uch voiz haqida qisqa-qisqa ma'lumot beramiz. Xoja Muayyad Mehnagiy. U o'z zamonasining yetuk notiqlaridan bo'lish bilan birga, oddiy mozor shayxlaridan bo'lgan. Alisher

Navoiyning yozishicha, u "zohir ulumin takmil qilib erdi", ya'ni yuzadagi ilmlardan, o'ziga ayon bo'lgan fanlarning hammasini o'zlashtirganga emas, balki uni to'ldirgan. Shuning bilan birga u o'z tinglovchilari qalbiga qo'l sola olgan, ularni faqatgina tinglovchilikdan, har birini faol fikr yurituvchi, va'z mazmuniga nisbatan faol munosabatda bo'luvchi ijodkor tinglovchilar darajasiga ko'tara olgan. o'z majlislarining qizg'in o'tishiga erisha olgan. o'sha davrlarda Xoja Muayyad kabi otash nafas notiq soni juda kam bo'lgan.

Shuning uchun ham ular nomi ulkan adiblar nomi qatorida tarix sahifasidan sharaflari o'rin olgan. Uning ijodiy mahorati boshqa notiq uchun namuna bo'la oladi. Chunki, u o'sha davrdagi mavjud fanlarning barchasini to'la o'zlashtirgan donishmand olimdir. Muayyad kabi, mahorat va bilimga ega bo'lgan har bir notiq o'z tinglovchilari qalbini larzaga keltirishi, ularni hayajonga sola olishi turgan gap. Ana shunday qudrat-zakovati tufayligina sultonlar, podshohlar ham uning mahorati, is'tedodi oldida bosh ekkanlar. Mavlono Riyoziy Zova deb atalgan viloyatda o'sdi ulg'aydi. O'zining aql-zakovati ila shu viloyatning qozilik lavozimigacha ko'tarildi.

Biroq Alisher Navoiy "Majolisun-nafois" asarida yozishicha u ayrim o'rinsiz hatti harakatlari uchun qozilik lavozimidan chetlashtirilgan kishanga solib badarg'a qilingan. Natijada bir umr taqib o'tida yuradi, g'ariblikda kun kechiradi. Maviono Riyoziyning yetuk notiq darajasiga erishadi, mamlakat hukmronlari mafkurasi bilan uning qarashlari o'rtasidagi kelishmovchilik, turli ziddiyatlar asosiy omillaridan biri bo'lgan. Riyoziy notiqning tabiiy tomonlaridan biri hamdardlik tuyg'ularini birinchi o'ringa qo'yabilishdir.

Alisher Navoiyning yozishicha: "...va'z aytib, minbarda o'z ash'orin o'qib, yig'lab vajdihol qilur erdi",-deydi. Shoirning bu so'zlari ancha diqqat E'tiborga loyiq, chunki el oldida rasmiy nutq bilan chiqib yig'lash darajasiga borib yetish va bu ko'z yoshiga nisbatan kinochilarda kulgi emas, balki hamdardlik kayfiyatini uyg'ota olish uchun katta san'atkorlik mahorati kerak. Mavlono Riyoziy nutq paytida ko'z yoshi darajasiga yetib borar ekan, qalbidagina yig'lab bayon etar va kishilarni shunga ishontira olar ekan, demak shubhasiz, u juda iste'dodli notiq, chinakam so'z san'atkori bo'lgan. Mavlono Riyoziy ajoyib so'z san'atkori bo'lish bilan bir qatorda, o'z davrining ko'zga ko'ringan pedagoglaridan biri bo'lgan. U o'z ishlarini dunyoviy fanlar: tabiatshunoslik, geografiya, tarix, adabiyot, nazariyasi va boshqa fanlarni chuqur o'rganib, uni yoshlar o'rtasida targ'ib qilgan. Alisher Navoiy yozishiga qaraganda Mavlono Riyoziy o'z fikrida qattiq turuvchi va shu fikr uchun kurashuvchi shaxs sadoqatli ya mohir pedagog va butun hayotini sevimli kasbiga bag'ishlagan ulug'vor inson ekanligini ta'kidlaydi.

O'z kasbining mohir ustasi bo'lgan Mavlono Riyoziy nutqlarida boshqa notiq qatori xalq og'zaki ijodi va ayniqsa badiiy adabiyotdan juda ustalik bilan foydalangan. U o'z zamonasining zabardast notig'i, olimi, pedagog va shoirlardan bo'lgan. Husayin Voiz Koshifiy. Husayn Voiz asli tug'ilgan joyi Eronning shimoliy sharqidagi sabzavor shahri bo'lib qachon tug'ilgani hozircha bizga noma'lum, sharqshunos olimlarning fikriga qaraganda vafot etgan yili 1504-1505 yillarga to'g'ri keladi. Xullas, Husayn Voiz Alisher Navoiyning zamondoshi, ubilan bir davrda yashagan, ijod qilgan hatto, Alisher Navoiydan 3-4 yil keyin olamdan o'tgan.

Husayn Voiz eng asosiy fazilati, uning ilm egasi ekanligidir. U juda ko'p fanlarni egallagan va ularning har birida chuqur ilmiy tadqiqotlar olib brogan mashhur olimlardan biridir. Uning: "Javohirut tafsir" yoki "Tafsiri Husayn", "Mavohibud dunyo", "Lubbi-lubob", "Anvori Suxayli", "Ravzatush Shuxado", "Dah majlis", "Axloqi Muhsiniy", "Mahzanul Insho", "Sabo", "Koshifiya", "Asrori Qosimiy", "Hotamnoma", "Matlaul avvor", "Ehtiyorat" va boshqa bir qator asarlari

shundan dalolat beradi.

Husayn Koshifiy notiq sifatida o'z zamonasining mashhur notiqalaridan bo'lgan. Uning nutqini eshitish uchun shaharning turli tomonlaridan yig'ilishlar, tinglovchilar soni shuqadar ko'payib ketishi natijasida orqada turganlarga notiqning ovoziyetib kelolmasa ham, uning ichki ruhiy holatini turli holatlar orqali ifodalanihini kuzatar ekanlar. Bu haqda Voizning o'g'li Faxriddin Ali Safiy o'zining "Latoyifut-Tovoif nomli asarida takidlanishicha otasi masjidi Jomeda nutq so'zlayotgan ekan, odam shunchalik ko'p ekan majlisga kelayotgan o'sha davrning mashhur so'z ustalaridan Mavlono Sayid G'iyosiddin tasodifan o'sha yerdan o'tib qolib majlis ahliga mahliyo bo'lib, o'zi qatnashish uchun ketayotgan majlisdan kech qoladi. Ittifoqo shu majlisda Abdurahmon Jomiy ishtirok etayotgan bo'ladi. Sayid G'iyosiddin kirib kelishi bilan undan so'raydi. Nechun kechikdingiz, Mavlono G'iyosiddin? Meni ma'zur tuting, ustod, -dedi G'iyosiddin, kelayotgan edim, masjidi Jomeda Husayin Voiz nutq so'zlayotgan ekan, shunga mahliyo bo'lib qolibman. Xo'sh, qanday yangilik eshitdingiz?

Hech qanday, -deydi G'iyosiddin. Sabab? Sababi shuki, -dedi gunohkor, -odam juda ko'p ekan. Olomon meni turtib bir nechta chiqarib yubordi. Men shunchalik uzoq masofada edimki, uning ba'zi-ba'zi so'zlari zo'rg'a qulog'imga chalindi. Unday bo'lsa nima qilib o'tirdingiz? Qarab o'tirdim, -dedi G'iyosiddin, -Husayn Voiz shunday nutq so'zlayotgan ediki gaplarini eshitmasam ham uning mahoratiga mahliyo bo'lib, nutqining oxirigacha qarab o'tirdim. o'z zamonasining ulkan so'z san'atkori Husayn Voiz Koshifiyning yuksak mahoratiga hatto Alisher Navoiy va Sulton Husayn Boyqarolar ham qoyil qolib tan berganlar, hatto o'z asarlarini rasmiy ijro etish lozim bo'lganda bunday ishga Husayn Voizni munosib ko'rganlar. Jumladan, 898 (1492) yil 8 noyabr kuni, Abdurahmon Jomiyning Dafn etish marosimida Husayn Voiz nutq so'zlaydi va ana shu marosimda Alisher Navoiy o'zining quyidagi tarkibband-tarixini va 7 band, 140 misradan iborat marsiyasini o'qib eshittirish uchun unga topshiradi.

"Gavharog koni haqiqat, durri bahri ma'rifat, Ku ba xak vosil shuda dar diya nabudali mosivoh. Koshifi sirri ilohi bud beshak on sabab Gasht tarixi vafotosh asrori iloh".

Y'ANI:

Haqiqat konining gavhari ma'rifat dengizining durikim, Haqiqatga erisha oldi va qalbida undan boshqa narsa yo'q edi. Shubhasiz ilohiy sirning ochuvchisi edi, shu sababdan, Vafotining tarixi "Kashfiy asrori ilox" bo'ldi.

Alisher Navoiy tomonidan Husayn Voizga bildirgan Ana shu ishonchning o'ziyoq, mamlakatda, ayniqsa Voizlar o'rtasida katta ishonch va hurmatga sazovor ekanligidan dalolat beradi. Husayn Voiz notiq sifatida shuqadar hurmatga sazovor bo'lganki, buning asosiy sabablaridan biri, uning ovozining shiraligiga, ohangi, ichki ruhi holatini turli harakatlar bilan ifoda qila bilishi bo'lgan. Shuning uchun bo'lsa kerak, doimo har yerga taklif etishavergan shuning natijasida bu aniqjadval bilan ishlashga majbur bo'lgan.

Xondamirning aytishiga qaraganda, u juma kuni ertalab Hirotning markaziy chorsusida joylashgendi shoh nomozgohida va'z aytgan shu kun peshindan keyin Alisher Navoiyning masjidida, seshanba kuni Sulton Husaynning madrasasi, chorshanba kunf pir Mujarrat Xoja Abdul Valid Ahmad mozori boshida payshanba kuni Sulton Ahmad Mirzo mozori boshida nutq so'zlagan.

Bularning barchasi, notiqning har tomonlama bilimdonligidan va jahonning baland pastini yaxshi bilganligi uning nutqining sermazzmun bo'lishini ta'minlagan omillardan biridir.

REFERENCES

1. Alisher Navoiy. Majolisun-nafois. Asarlar. O'n beshlik tomlik, 12 tom, 42-bet.
2. Alisher Navoiy. Majolisun-nafois, Asarlar, o'n besh tomlik, 12tom 101-bet.
3. S.Inomxo'jayev, A. Zunnunov. Ifodali o'qish asoslari. T. o'qituvchi. 1978 yil.
4. K. Oripov, M. Oripova. Ifodali o'qish. o'qituvchi. T. 1994 y.
5. S.Jnomxo'jayev, Badiiy o'qish asoslari T. 1973 y.

TA'LIM TIZIMIDA PEDAGOGIK DAVRLAR VA TEXNOLOGIYALAR RIVOJLANISHI TARIXI

N.Adizov

BuxDPI magisrtanti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7689180>

Annatatsiya. Hozirgi vaqtda butun dunyo bo'yicha iqtisodiyot tarmoqlari bilan birgalikda ta'lim tizimiga ham texnologiyalar, aniqrog'i pedagogik texnologiyalar kirib kelmoqda.

Pedagogik texnologiyalar ta'lim tizimi yangicha yondashuvlar asosida o'qitishni maqsad qiladi. Maqolada pedagogik davrlar va texnologiyalarni rivojlanish tarixiga odi ma'lumotlar keltirilgan.

Tayanch so'zlar: Texnika, gumanitar soha, texnologiya, YUNESKO, pedagogik texnologiya, didaktika, standart.

ИСТОРИЯ РАЗВИТИЯ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ЦИКЛОВ И ТЕХНОЛОГИЙ В СИСТЕМЕ ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация. В настоящее время наряду с отраслями экономики в систему образования входят технологии, а точнее педагогические технологии. Образовательная система педагогических технологий направлена на обучение на основе новых подходов. В статье даны общие сведения об истории педагогического времени и развития техники.

Основные слова: Техника, гуманитарное направление, технология, ЮНЕСКО, педагогическая технология, дидактика, стандарт.

HISTORY OF THE DEVELOPMENT OF PEDAGOGICAL PERIODS AND TECHNOLOGIES IN THE EDUCATIONAL SYSTEM

Abstract. At present, along with the branches of the economy, the education system includes technologies, or rather pedagogical technologies. The educational system of pedagogical technologies is aimed at teaching based on new approaches. The article provides general information about the history of pedagogical time and the development of technology.

Basic words: Technique, humanitarian direction, technology, UNESCO, pedagogical technology, didactics, standard.

Ilmiy texnik taraqqiyot XX asr oxiriga kelib faqatgina ko'plab ishlab chiqarish sohaslarini texnologiyalashtirishga sabab bo'lib qolmay, balki madaniyat sohasiga, bilimlar gumanitar sohaslariga ham kirib keldi. Bugungi kunda biz endi axborot, tibbiyot texnologiyalari haqida gapiramiz, shu jumladan ta'lim sohasida ham.

Pedagogik texnologiya deb odatda maqsadi ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish, ta'limda ko'zlangan natijalarga erishishga bo'lgan pedagogikaning yo'nalishiga aytiladi (M. Klarin, 1989).

“Pedagogik texnologiya” so'z birligi – bu inglizcha “an educational technology” – “ta'lim texnologiyasi” iborasining aniq bo'lmagan tarjimasidir.

“Pedagogik texnologiya” tushunchasi oxirgi paytlarda o'qitish nazariyasida yanada kengroq qo'llanilmoqda. Aynan “texnologiya” termini va uning “o'qitish texnologiyasi”, “ta'lim texnologiyasi”, “ta'limda texnologiya” kabi shakllariga pedagogik adabiyotlarda 100 dan ortiq ta'riflar berilgan.

Pedagogik adabiyotda pedagogik texnologiyaga berilgan boshqa ta'riflar (V.Bespal'ko, V.Guzeev, V.Slastenin, B.Lixachev, I.Volkov, M.Choshanov, M.Klarin, I.Lerner, Ch.Yudin va

boshqalar) ham keltiriladi, ammo ularning birortasi YuNeSKO taʼrifi darajasiga koʻtarila olmaganlar. Aytib oʻtilgan olimlar orasida pedagogik texnologiya toʻgʻrisidagi axborotni MDH mamlakatlari, jumladan, Oʻzbekistonda tarqalishida V.P.Bespalʼko va M.V.Klarinlarning taʼsiri kuchliroq. M.V.Klarin pedagogikadagi texnologik yondashuvning tarkibiy toʻzilishi va mazmuni toʻgʻrisida birmuncha toʻlaroq maʼlumotlarni eʼlon qilgan.

Pedagoglarning ish amaliyotida baʼzida texnologik kurilgan oʻqitish metodlari emas, balki foydali boʻlsada allaqachon oʻzlashtirilganlar “pedagogik texnologiya” tushunchasi bilan belgilanadi. Aslini olganda, pedagogik texnologiya – bu oʻqitishga oʻziga xos boʻlgan yangicha (innovatsiya) yondashuvidir. U pedagogikadagi ijtimoiy-muhandislik tafakkurining ifodalanishi, texnokratik ilmiy ongning pedagogika sohasiga koʻchirilgan tasviri, taʼlim jarayonining muayyan standartlashuvi hisoblanadi.

Pedagogik texnologiya koʻp jihatdan oʻtmish mashhur pedagoglarining orzulariga mos keladi. Didaktikaning asoschisi Yan Amos Komenskiy oʻn ettinchi asrdayoq taʼlimning “vaqt, fanlar va metodlarni mohirona taqsimlashdan” boshqa narsani talab qilmaydigan umumiy tartibini topishga harakat qilgandi.

Komenskiy fikricha, idealda oʻqitishning yagona mukammal metodi topilsa, “hamma narsa ogʻirliklari toʻgʻri muvozanatlangan soatga nisbatan aniqroq, faqat ana shunday mahorat bilan yaratilgan asbobda erishish mumkin boʻlgan bexatolik bilan ilgarilaydi”.

Jahon pedagogika fani ilmiy-texnika taraqqiyoti taʼsirini boshidan kechirib, psixologiya, kibernetika, tizimlar (sistema) nazariyasi, boshqaruv nazariyasi, boshqa fanlar muvaffaqiyatlarini birlashtirib, hozirda faol yangilanish (innovatsiya) jarayonlari bosqichida turar ekan, inson imkoniyatlarini samarali rivojlantirish amaliyotiga boy mahsul bermokda.

Aytib oʻtamiz, pedagogik texnologiya metodlari (oʻzining boshlangʻich maʼnosida) dastlab oʻqitishning harakatni tipik vaziyatdagi namuna (belgilangan qoida) boʻyicha oʻzlashtirish talab etiladigan reproduktiv darajasi uchun ishlab chiqilgandi. Reproaktiv taʼlim har qanday taʼlimning zarur tarkibiy qismi hisoblanadi, u insoniyat jamgʻargan tajribani aniq oʻquv fani doirasida oʻzlashtirish bilan bogʻliq. Taʼlim uchun xuddi oʻzlari singari mashgʻulotni yuqori darajada oʻtkazishlariga imkon beradigan pedagogik yoʻnalishni (tsiklni) ishlab chiqmagan. Sababi, balkim, oʻtmishdagi mashhur pedagoglarning metodlari pedagog shaxsini koʻproq oʻz ichiga olgan boʻlsa kerak. Izdoshlarda nimadir yaxshiroq chiqqan, ammo umuman olganda, asoschilarnikidek boʻlmagan.

“Bizning pedagogik ishlab chiqarishimiz - yozgan edi A.S.Makarenko, - hech qachon texnologik mantiq asosida qurilmagan, u doimo axloqiy targʻibga asoslangan. Aynan mana shuning uchun ham bizda ishlab chiqarishning barcha muhim boʻlimlari: texnologiya jarayonini, ish bajarilishini hisobga olish, yaratuvchilik (konstruktorlik) ishi, moslamalarni qoʻllash, nazorat, ishga tushirish, yaroksizga chiqarish deganlar yoʻq”. (Koʻchirma V.Slastenin ishidan olindi, 1997 yil).

Sanoatda ijrochilar, agar ular texnik hujjatlar talablariga aniq rioya qilishsa, shakliga bogʻliq boʻlmagan, natijasi kafolatli minglab texnologik jarayonlar ishlab chiqilgan. Sanoat texnologik jarayonining asosini detalning ishchi chizmasi va yigʻuv birliklari chizmasi tashkil qiladi. Ular talablariga aniq rioya qilish detallarning oʻzaro almashinuvchanligini taʼminlaydi, texnologik jarayonning takrorlanadigan operatsiyalari esa qayta tiklanadigan texnologik tuzilmani tashkil

qiladi. Mana shuning uchun ham O‘zbekistonda chet el texnologiyasi asosida ishlab chiqariladigan avtomobilning sifati Janubiy Koreyada ishlab chiqarilgan avtomobil sifatidan farq qilmaydi.

Texnologiya - tushunchasi yunoncha “mahorat”, “san‘at”, “tushuncha”, “o‘rganish” demakdir. Texnologiya tushunchasi ishlab chiqarish jarayonidagi texnologiya operatsiyalar va mahsulotni tayyorlash mazmuni (sirlari) bilan bog‘langan. Texnologiya so‘zi zamirida jarayonlarni amalga oshirish usullari va vositalar haqida bilimlar yig‘indisi, shuningdek ob‘ektda sodir bo‘ladigan sifat o‘zgarishlari tushuniladi.

Ta‘lim texnologiyasi ta‘lim metodikasi tushunchasiga qaraganda kengroqdir.

O‘qituvchilar, talaba va o‘quvchilar jamoasida o‘zaro yordam, hamkorlik va ijodiy muhitni yaratishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning o‘rni beqiyos hisoblanadi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar ta‘lim jarayonini har tomonlama mukammal loyihalashtirish, aniq maqsadlar qo‘yish va ularga kafolatlangan holda erishish, rejalashtirilgan natijalarni amalga oshirish imkonini beruvchi uzviy bog‘langan komponentlar yig‘indisi deb hisoblandi. Ushbu qoidadan kelib chiqqan holda har bir o‘qitiladigan mavzuga keng qamrovli loyiha ishlab chiqish bilan bir qatorda, o‘quv-metodik majmua tayyorlash yo‘lga qo‘yildi. Majmuaning tarkibiga loyihaga qo‘shimcha mavzuga daxldor bo‘lgan barcha axborotlar, tarqatma materiallar, ma‘lumotnomalar, manbalar, ulardan foydalanish metodikasi kiritildi.

Pedagogik texnologiya deganda, texnologik (ishlab chiqarishdagi) yondashuvlarga aynan o‘xshash bo‘lgan ta‘limda qo‘yilgan maqsadlarga erishish kafolatlangan (yakuniy natijani olish) ta‘lim jarayoni tushuniladi. Bunday ta‘lim jarayoni texnologiyalashtirilgan deyiladi. Texnologiyalashtirilgan ta‘lim jarayonida o‘qituvchi shaxsiga bog‘liq bo‘lmagan faqat o‘quvchi (talaba) ning shaxsi ehtiyojlari, talablari va xislatlariga asoslangan ta‘lim jarayonidir. O‘quvchi (talaba) ta‘lim jarayoni markazida turadi. Bunda darsni kim olib borayapti (tajribali o‘qituvchimi yoki yosh o‘qituvchimi) qat‘iy nazar ko‘zlangan yakuniy natija (maqsadga ko‘ra) ga erishish kafolatlanishi lozim. Ta‘limda o‘qituvchi faqat ijrochi vazifasini bajaradi.

Pedagogik texnologiyaga turli ta‘riflar mavjud.

YUNESKO ta‘rifi: Pedagogik texnologiya – ta‘lim berish va o‘zlashtirish usullarini yaratish, qo‘llash ularni yagona tizimga keltirish, yo‘li bilan inson salohiyati va texnik vositalarining barcha imkoniyatlaridan muvofiq foydalanib, bilimlar o‘zlashtirilishining eng maqbul jarayonidir.

Pedagogik texnologiyalardagi g‘oya maktab faoliyati yoki har qanday ta‘lim muassasi va ta‘limning asosiy zvenosi bo‘lgan ta‘lim jarayonini boshqariluvchanligidir.

T.Sakamoto (yapon mutaxasisi) ning fikricha pedagogik texnologiya bu pedagogikadagi fikrlashning tizimlash usulini qo‘llash bo‘lib, buni boshqacha qilib aytsak, ta‘limni tizimlashtirish (sistemalashtirish) yoki “sinf ta‘limini tizimlashtirish” dir.

Ba‘zida pedagogik ish tajribasida (avvalgi mavzularda keltirilgan) pedagogik texnologiyalarni allaqachon o‘zlashtirilgan (ma‘lum bo‘lgan) hatto foydali bo‘lgan ammo ta‘lim metodikasi texnologik yaratilmagan (tuzilmagan) deb tushunishadi. Lekin pedagogik texnologiya o‘ziga xos innovatsion yondashuvdir.

“Yangi pedagogik texnologiyalar” - psixologik va pedagogik bilimlar tarmog‘ida mustaqil fan sifatida shakllanishi va bu fanning o‘rni, mohiyati, fanning tarkibi, maqsadi hamda vazifalari respublikamizdagi “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” qonuni asosida yuqori malakali oliy ma‘lumotli kadrlarni tayyorlashga muvofiq belgilangan.

Xulosa. Ta'lim-tarbiya mazmuni, maqsad va vazifalari davrlar o'tishi bilan kengayib borishi natijasida uning shakl va usullari ham takomillashib bormokda. Xozirgi inson faoliyatining asosiy yunalishlari shu faoliyatdan kuzda tutilgan maqsadlarni tulik amalga oshirish imkoniyatini beruvchi yaxlit tizimga, yangi texnologiyalarga aylanib bormokda. Xuddi shu kabi ta'lim-tarbiya soxasida ham sungi yillarda pedagogik texnologiyaga amal kilina boshladi.

Pedagogik texnologiya tushunchasini ikki xil izoxlash mumkin: birinchidan, uning o'quv jaroyonida texnika vositalaridan foydalanishning kengayib borishini ifodalashi nazarda tutilib, ta'limdagi ukitishdagi texnologiya deb nomlash mumkin bo'lsa, ikkinchidan bu tushuncha o'quv jaroyonining o'zini ko'rish texnologiyasini bildiradi deb xulosa chiqarish mumkin.

REFERENCES

1. Yo'ldoshev J.G`., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari: -T.: «O`qituvchi», 2004 y.
2. Kolechenko A.e. Entsiklopediya pedagogicheskix texnologiy: Posobie dlya prepodavateley. – SPb.: KARO, 2002 g.
3. Tolipov O`.Q., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari (o`quv qo`llanma).-T.: «Fan» nashriyoti, 2006 y.
5. ХАКИМОВ Х. Н. ЖИСМОНИЙ ВА МАЪНАВИЙ-АХЛОҚИЙ ТАРБИЯ ИНТЕГРАЦИЯЛАШУВИНИНГ НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ //Academic research in educational sciences. – 2021. – Т. 2. – №. 4. – С. 479-483.
6. Arslonov Q. P., Hakimov X. N. Peculiar especially sport holidays in the life of the young generations //Europaische Fachhochschule. – 2014. – №. 3. – С. 50-51.
7. Farmonova, M. A. (2021). TA'LIM UMUNDORLIGINI OSHIRISHDA MOBIL ILOVALARNING O'RNI. Academic research in educational sciences, 2(3), 695-699.
8. Фармонова, М. А. (2022). OLIY TA'LIM MUASSASASI TALABALARI UCHUN BOTANIKA FANIDAN YARATILGAN MOBIL ILOVANING DASTURIY IMKONIYATLARI: Farmonova Madina A'zamovna, tayanch doktorant. Buxoro davlat universiteti. Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал, (7), 122-130.
9. Azamovna, F. M. (2021). Possibilities of Mobile Applications to Improve the Quality of Education. International Journal on Orange Technologies, 3(10), 19-21.
10. Nozimovich, X. X., & A'zamovna, F. M. (2022). THE IMPORTANCE OF PHYSICAL EDUCATION AND SPORTS IN THE FORMATION OF PROFESSIONAL SKILLS OF STUDENTS OF THE NON-SPECIALIST EDUCATION OF THE PEDAGOGICAL UNIVERSITY. Science and Innovation, 1(4), 206-212.
11. Hakimov, X., & Farmonova, M. (2022). PEDAGOGIKA UNIVERSITETINING NOMUTAXASSISLIK TA'LIM YO'NALISHI TALABALARIDA KASBIY MAHORATNI SHAKLLANISHIDA JISMONIY TARBIYA VA SPORTNING AHAMIYATI. Science and innovation, 1(B4), 206-212.
12. A'zamovna, F. M. (2021, October). Zamonaviy Ta'limda Mobil Ilovalar Orqali O'qitish Nazaryasi. In " ONLINE-CONFERENCES" PLATFORM (pp. 95-96).

JISMONIY MADANIYAT DARSINING TASHKILIY VA USLUBIY ASOSLARI

Turayev Jo'rabek Ixtiyor o'g'li

BuxDPI magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7689206>

Annotatsiya. Maqolada jismoniy mashqlarning asosiy shakli hisoblangan jismoniy tarbiya darsining tashkiliy va uslubiy asoslari, ta'lim tizimining asosiy bo'g'inlaridan biri hisoblangan umumiy o'rta ta'lim maktablarida jismoniy tarbiya darsining maqsad va vazifalari, jismoniy tarbiya darsining tarkibiy tuzulishlari haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: operativ boshqarish, dislokatsiya, component, funktsional ko'rsatkich, funktsional zahira, jismoniy qobiliyatlar.

ОРГАНИЗАЦИОННО-МЕТОДИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ УРОКА ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ

Аннотация. В статье содержится информация об организационно-методических основах урока физической культуры, который считается основной формой занятий физическими упражнениями, целях и задачах урока физической культуры в общеобразовательных школах, который считается одним из основных звеньев воспитательная система, а также структурная структура класса физического воспитания.

Ключевые слова: оперативное управление, дислокация, компонент, функциональный показатель, функциональный резерв, физические возможности.

ORGANIZATIONAL AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF THE LESSON OF PHYSICAL CULTURE

Abstract. The article contains information about the organizational and methodological foundations of a physical education lesson, which is considered the main form of physical exercise, the goals and objectives of a physical education lesson in secondary schools, which is considered one of the main links in the educational system, as well as the structural structure of a physical education class.

Keywords: operational management, deployment, component, functional indicator, functional reserve, physical capabilities.

Jismoniy madaniyat darsining (jismoniy mashqlarning asosiy shakli sifatida) ustun tomoni shundan iboratki, unda jismoniy madaniyatning barcha muammolarini hal qilish - o'quvchilarni har tomonlama, barkamol rivojlantirish, ularni maqsadli va samarali tayyorlash imkoniyatlari mavjudligi bilan alohida ahamiyatga ega.

Jismoniy tarbiya darsining talablari. Jismoniy madaniyat darsi turli sinf o'quvchilarining yosh imkoniyatlari, o'quv rejalarining mazmuni, pedagogik muammolarni hal qilishning murakkabligi, har bir darsning bir qator boshqa umumiy ta'lim darslarida va maktab rejimida tutgan o'rni bilan bog'liq. Bularning barchasi uni tashkil etish va o'tkazish uchun bir qator talablarga rioya qilish zarurligini ko'rsatadi.

Jismoniy tarbiya darsini tashkil etish va o'tkazishga qo'yiladigan asosiy talablar quyidagilardan iborat:

1. Maqsad va vazifalarni belgilashning aniqligi. Dars sog'lomlashtirish, ta'limiy va tarbiyaviy vazifalarni hal qiladi. Sinfdan o'quv faoliyatini tashkil etishda o'qituvchi nafaqat

ko'nikmalarini egallashni, asosiy maqsad qobiliyatlarini rivojlantirishni, jismoniy madaniyat bo'yicha majburiy minimal bilimlarni o'zlashtirishni ta'minlaydi, balki o'quvchilarni tarbiyalashga ham hissa qo'shadi. Dars maqsadlarini ifodalash, qoida tariqasida, o'ta aniq, ixcham bo'lib, o'quvchilarning tarkibi, yoshi, jismoniy rivojlanishi va tayyorgarligini hisobga oladi, oldingi darslarning keyingi darslar bilan uzviylikini ta'minlaydi va rejalashtirilgan darslarni aks ettiradi. Bitta darsda hal qilinadigan vazifalarning optimal soni 2-3 tadan ko'p emas.

2. O'quv materiali tarkibining o'quv rejasiga va topshiriqlar xarakteriga muvofiqligi. Sinfdan tashqari materialdan faqat o'rganishni individuallashtirish maqsadida foydalanish mumkin.

3. Darsning didaktik maqsadi va vazifasini hisobga olgan holda o'qitish vositalari va usullarini maqsadga muvofiq tanlash maqsadga muvofiqdir. Darsni tashkil etishda hech bir didaktik maqsad yoki vazifani, mavzuning o'ziga xos xususiyatlarini va erishilgan tayyorgarlik darajasini, o'quvchilarning yoshi va jinsi xususiyatlarini hisobga olgan holda o'quv materialini oldindan tanlamasdan muvaffaqiyatli hal qilib bo'lmaydi.

4. Darslarni oldingi va keyingi darslar bilan chambarchas bog'lash. Har bir dars pedagogik vazifalarning yo'nalishi, o'quv materialining mazmuni, keyingi va oldingi darslar bilan yuklamalar hajmi va intensivligi bo'yicha ketma-ket bog'liqlikka ega.

5. Frontal, guruh va individual ishlarning kombinatsiyasi. O'quvchilarning individual xususiyatlari va o'quv materiali hisobga olingan taqdirdagina ta'lim jarayoni samarali bo'ladi.

6. Dars mazmunini, uni tashkil etish va o'kazish usullarini doimiy ravishda o'zgartirish. Darsning turli mazmuni, usullari va protsessual ta'minoti o'quvchilarda jismoniy mashqlarga qiziqishni shakllantirishga yordam beradi va ularni faollikka undaydi.

7. Dars xavfsizligini ta'minlash. Jismoniy madaniyat darsining shikastlanish xavfining ortishi, uning o'ziga xos mazmuni gimnastika asbob-uskunalar bilan jihozlar bilan va jihozlarsiz turli xil motorli harakatlar ekanligi bilan bog'liq. O'quv jarayonini noto'g'ri tashkil etish o'quvchilarning turli jarohatlariga (ko'karishlar, dislokatsiyalar, miya chayqalishi, sinishlar va boshqalar) olib kelishi mumkin. Darsni puxta o'ylab tashkil etish, shikastlanish xavfi yuqori bo'lgan mashqlarga (gimnastika moslamasidan tushish, arqonga ko'tarilish, granata uloqtirish va h.k.) alohida e'tibor berilishi jarohatlarning oldini olishga imkon beradi.

8. O'quvchilarning o'quv faoliyatining borishi va natijalarini doimiy nazorat qilib borish. Har bir darsda o'quvchilar faoliyatini operativ boshqarish ta'minlanadi. U ta'lim vazifalarining bajarilishini va organizmning yuklarga reaksiyasini tahlil qilish va baholash asosida, ishtirokchilarning sub'ektiv his-tuyg'ularini hisobga olgan holda amalga oshiriladi.

Darsning tuzilishi va uning qismlari xususiyatlari. Jismoniy madaniyatning har bir darsi uchta funktsional bog'liq komponentdan iborat: tayyorgarlik, asosiy, yakuniy. Bu qismlarning ketma-ketligi jismoniy faoliyat ta'sirida tananing ishlashidagi o'zgarishlarning qonuniyatlarini aks ettiradi. Yuklamaning boshida tana o'z organlari va tizimlarining funktsional ko'rsatkichlarini bosqichma-bosqich oshirish tufayli dam olishning inertsiyasini yengib chiqadi. Bu darsning tayyorgarlik qismiga mos keladigan amaliyot bosqichi deb ataladi. Keyin funktsional ko'rsatkichlarning erishilgan darajasi uning o'sishi va kamayishi yo'nalishi bo'yicha ozgina tebranishlar bilan ma'lum vaqt davomida saqlanadi. Bu darsning asosiy qismiga mos keladigan mustahkam ishlash bosqichi deb ataladi. Organizmning ish organlari va tizimlarining (yurak-qon tomir, nafas olish, mushak va boshqalar) funktsional zahiralari tugashi bilan shug'ullanuvchining

ish qobiliyati asta-sekin pasayadi. Bu darsning yakuniy qismiga to'g'ri keladigan charchoq yoki charchoq bosqichi deb ataladi.

1. Darsning tayyorgarlik qismi. Uning asosiy maqsadi o'quvchilarni darsning asosiy qismidagi mashqlarni bajarishga tayyorlashdir. Shunga asosan, tayyorgarlik qismida quyidagi uslubiy vazifalar hal etiladi:

- jalb etilganlarning boshlang'ich tashkilotchiligini va ularning darsga ruhiy munosabatini ta'minlash;

- diqqatni faollashtirish va ishtirokchilarning hissiy holatini oshirish;

- tananing faol mushak faoliyatiga umumiy funktsional tayyorligini ta'minlash (oddiy jismoniy mashqlarni bajarish);

- darsning asosiy qismining birinchi turdagi mashqlariga alohida tayyorgarlikni ta'minlash (yetakchi va tayyorgarlik mashqlarini bajarish).

Tayyorgarlik qismining umumiy davomiyligi umumiy dars vaqtining 10-12%ni tashkil qiladi va darsning davomiyligi, o'quv materialining turi, atrof-muhit harorati va boshqalarga bog'liq.

2. Darsning asosiy qismi. Asosiy qismning maqsadi ushbu darsning o'quv rejasida va rejasida nazarda tutilgan eng muhim sog'lomlashtirish, ta'limiy va tarbiyaviy vazifalarni hal qilishdir.

Asosiy qismda birinchi navbatda yangi motor harakatlari yoki ularning elementlari o'rganiladi. Ilgari o'rganilgan ko'nikmalarni mustahkamlash va takomillashtirish darsning asosiy qismining o'rtasida yoki oxirida amalga oshiriladi. Darsning asosiy qismi boshida tezlik, tezlik-kuch qobiliyatlarining namoyon bo'lishini, harakatlarni nozik muvofiqlashtirishni talab qiluvchi mashqlar, oxirida esa kuch va chidamlilikka bog'liq mashqlar bajariladi. Bundan tashqari, maxsus chidamlilikni rivojlantirish, agar u rejalashtirilgan bo'lsa, umumiy chidamlilikni rivojlantirishdan oldin amalga oshiriladi. Darsning asosiy qismidagi barcha mashqlarning tarkibi ko'p qirrali ta'sirga ega bo'lishi uchun tanlanishi tavsiya etiladi.

Hissiy ohangni saqlab qolish va darsda o'tilgan materialni mustahkamlash uchun o'qituvchi asosiy qismni ochiq o'yinlar va darsda o'rganilgan harakatlarni o'z ichiga olgan o'yin vazifalari va mashqlari bilan yakunlashi kerak.

Darsning asosiy qismining davomiyligi darsning davomiyligi, yukning hajmi va intensivligi, o'quvchilarning jinsi va yoshi va boshqalarga bog'liq. Maktabdagi jismoniy tarbiya darsining bir qismi sifatida odatda 25-28 daqiqa davom etadi.

3. Darsning yakuniy qismi. Darsning yakuniy qismining maqsadi - ishtirok etganlar organizmining funktsional faolligini bosqichma-bosqich pasaytirish va uni nisbatan tinch holatga keltirishdir.

Ushbu maqsadga muvofiq bir qator uslubiy vazifalar hal etiladi:

- fiziologik qo'zg'alish va individual mushak guruhlarining haddan tashqari kuchlanishini kamaytirish (sekin yugurish, xotirjam yurish, chuqur nafas olish va bo'shshish mashqlari, o'z-o'zini massaj qilish);

- hissiy holatni tartibga solish (tinchlantiruvchi ochiq o'yinlar, o'yin vazifalari, diqqat mashqlari);

- dars natijalarini o'qituvchi tomonidan o'quvchilar faoliyati natijalarini baholash bilan yakunlash (bu yerda keyingi darslarda talabalarning ongli faoliyatini yanada rag'batlantirishni ta'minlash kerak);

- Mustaqil jismoniy mashqlar, “zaif nuqtalarni” tortib olish uchun uy vazifalarini yetkazish. Darsning yakuniy qismining davomiyligi 3-5 minut.

Maqsadlarni belgilash.

Har bir darsdan oldin, albatta, aniq vazifalar qo‘yiladi. Jismoniy tarbiya metodologiyasida barcha vazifalar odatda yo‘nalishiga qarab uch guruhga bo‘linadi: tarbiyaviy, sog‘lomlashtiruvchi va tarbiyaviy. Pedagogik vazifalarni, ehtimol, aniqlik, shakllantirish kerak, ta‘lim vazifalari esa harakat texnikasini o‘zlashtirish darajasini ko‘rsatishi kerak.

O‘quv topshiriqlari o‘quvchilarning jismoniy madaniyat haqidagi bilimlarini, jismoniy mashqlarni bajarish ko‘nikma va malakalarini shakllantiradi.

Dars nazariyasi va amaliyotida vazifalarni belgilash va shakllantirishning quyidagi qoidalari qabul qilinadi.

Harakat harakatlarini o‘rgatishda darsning vazifalari quyidagicha shakllantiriladi:

1) harakat bilan tanishishda: “Texnikaga kirish...” (keyin o‘zlashtirilayotgan mashq yoki uning alohida elementi ko‘rsatiladi);

2) vosita harakatini o‘rganishda: “Bajarish texnikasini o‘rganish ...”;

3) vosita harakatini takomillashtirishda: “Bajarish texnikasini takomillashtirish ...”.

Birinchi darsda ma‘lum bir vosita harakati texnikasi bilan tanishish muammosi hal qilinadi, ikkinchisi - o‘rganish, uchinchisi – takomillashtirishdan iborat.

Sog‘lomlashtirish vazifalari jismoniy rivojlanish va ma‘lum bir yoshda mumkin bo‘lgan jismoniy tayyorgarlikni ta‘minlashni, jismoniy holatni shakllantirishni va mashg‘ulotlar ishtirokchilarning tanasiga sog‘lomlashtiruvchi ta‘sir ko‘rsatishi uchun sinfda eng yaxshi sharoitlarni ta‘minlashni nazarda tutadi.

Sog‘lomlashtirish vazifalari quyidagicha tuzilgan: “to‘g‘ri holatni shakllantirish, yurish va yugurish paytida tananing erkin tutish holatiga erishish”, “kross yugurish yordamida umumiy chidamlilikni rivojlantirish” va boshqalar.

Xulosa qilib aytganda, umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida tashkil etiladigan jismoniy tarbiya darslarida maqsadni aniq belgilash alohida hamiyatga egadir. Chunki, o‘quv mashg‘ulotlari shug‘ullanuvchilarda nafaqat jismoniy qobiliyatlar balki, aqliy, axloqiy va estetik sifatlarni rivojlantirish lozim. Ushbu vazifalarni hal etishda darsning asosiy qismi alohida ahamiyatga egadir.

REFERENCES

1. Асланов К. П., Хакимов Х. Н., Акрамова Г. М. МЕСТО ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ В ОБУЧЕНИИ СТУДЕНТОВ //Журнал научных публикаций аспирантов и докторантов. – 2015. – №. 9. – С. 38-39.
2. Арслонов К. П., Шукуров Р. С., Хакимов Х. Н. Изучение предмета «Виды национальной борьбы и методика её обучения» с помощью инновационных технологий //Вестник по педагогике и психологии Южной Сибири. – 2013. – №. 4.
3. Arslonov Q. P., Hakimov X. N. Peculiar especially sport holidays in the life of the young generations //Europaische Fachhochschule. – 2014. – №. 3. – С. 50-51.
4. Lazizbek Olimovich Daminov and Jamoliddin Pardaboyugli Turdiev Zebo Sharipovna Tukhtaeva, Nigora Zakiraliyeva Sayfullaeva, Khurshid Nozimovich

- Khakimov The Importance of Game Technologies in the Training of Future Vocational Teachers on the Basis of Competent Approach// International Journal of Psychosocial Rehabilitation. – 2020. – №. 4. – С. 6669-6674
5. ХАКИМОВ Х. Н. ЖИСМОНИЙ ВА МАЪНАВИЙ-АХЛОҚИЙ ТАРБИЯ ИНТЕГРАЦИЯЛАШУВИНИНГ НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ //Academic research in educational sciences. – 2021. – Т. 2. – №. 4. – С. 479-483.
 6. Farmonova, M. A. (2021). TA'LIM UMUNDORLIGINI OSHIRISHDA MOBIL ILOVALARNING O'RNI. Academic research in educational sciences, 2(3), 695-699.
 7. Фармонова, М. А. (2022). OLIY TA'LIM MUASSASASI TALABALARI UCHUN BOTANIKA FANIDAN YARATILGAN MOBIL ILOVANING DASTURIY IMKONIYATLARI: Farmonova Madina A'zamovna, tayanch doktorant. Buxoro davlat universiteti. Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал, (7), 122-130.
 8. Azamovna, F. M. (2021). Possibilities of Mobile Applications to Improve the Quality of Education. International Journal on Orange Technologies, 3(10), 19-21.
 9. Nozimovich, X. X., & A'zamovna, F. M. (2022). THE IMPORTANCE OF PHYSICAL EDUCATION AND SPORTS IN THE FORMATION OF PROFESSIONAL SKILLS OF STUDENTS OF THE NON-SPECIALIST EDUCATION OF THE PEDAGOGICAL UNIVERSITY. Science and Innovation, 1(4), 206-212.
 10. Xakimov, X., & Farmonova, M. (2022). PEDAGOGIKA UNIVERSITETINING NOMUTAXASSISLIK TA'LIM YO'NALISHI TALABALARIDA KASBIY MAHORATNI SHAKLLANISHIDA JISMONIY TARBIYA VA SPORTNING AHAMIYATI. Science and innovation, 1(B4), 206-212.
 11. A'zamovna, F. M. (2021, October). Zamonaviy Ta'limda Mobil Ilovalar Orqali O'qitish Nazaryasi. In " ONLINE-CONFERENCES" PLATFORM (pp. 95-96).

SHUKUR XOLMIRZAYEV ASARLARIDA JONIVORLAR OBRAZI

Osomiddinova Gulxayo

Termiz davlat universiteti 2 - bosqich magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7689249>

Annotatsiya. Ushbu maqolada Shukur Xolmirzayev asarlarida jonivorlar obrazi haqida kerakli ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Shukur Xolmirzayev, Yozuvchi, o'zbek adabiyoti, hikoya, asar.

ОБРАЗЫ ЖИВОТНЫХ В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ ШУКУРА ХОЛМИРЗАЕВА

Аннотация. В этой статье представлена необходимая информация об образе животных в произведениях Шукура Холмирзаева.

Ключевые слова: Шукур Холмирзаев, писатель, узбекская литература, рассказ, произведение.

IMAGE OF ANIMALS IN THE WORKS OF SHUKUR KholmIRZAYEV

Abstract. This article provides the necessary information about the image of animals in the works of Shukur KholmIRZAYEV.

Keywords: Shukur KholmIRZAYEV, writer, Uzbek literature, story, work.

O'zbekiston xalq yozuvchisi, Hamza nomidagi Respublika Davlat mukofoti sovrindori, "Mehnat shuhrati" ordeni sohibi Shukur Xolmirzayev o'zining rang-barang va sermazmun ijodi bilan hozirgi o'zbek adabiyoti taraqqiyotining gullab-yashnashiga, yangi rivojlanish bosqichiga ko'tarilishiga samarali hissa qo'shgan zabardast adibdir. XX asr o'zbek nasrining 60-70 yillardan keyingi taraqqiyotini bu o'ziga xos yozuvchi ijodisiz tasavvur qilish qiyin. Yozuvchi ijodida tasvir prinsiplarining paydo bo'lishi, shakllanishi, o'ziga xos tarzda namoyon bo'lishi avvalo adabiyotga olib kirilgan hayot materialining mazmundorligi, rang-barangligi, takrorlanmasligi bilan bog'liqdir.

Shukur Xolmirzayev «adabiyotga Surxon koloritini - o'zi tug'ilib o'sgan Boysun tog'larining manzaralarini, surxondaryoliklar hayotini, udumlarini, betakror so'zlash tarzini - dialektini olib kirdi»¹⁶. Bu xususiyat ko'proq yozuvchining milliy- mahalliy koloritga boy bo'lgan hikoyalarida ko'zga tashlanadi. Adib ijodining, xususan, hikoyalarining o'ziga xosligi, betakrorligi ham mana shu sabablardan kelib chiqqan. Sh.Xolmirzayev hikoyachiligining endigina shakllanib kelayotgan davrida – 60-yillarda ko'proq asarlar mavzui uchun tabiat, jonivorlar va inson masalasi tanlab olingan. Bu bejiz emas, chunki bolaligi aynan tabiat qo'ynida o'tgan yozuvchi qalbiga bu mavzu juda yaqin edi. Bu yillarda yaratilgan hikoyalarida adib inson va hayvonot dunyosining, inson va o'simliklar olamining bir-biriga uzviy bog'liqligini, ularning ayro yashay olmasligini, birining ikkinchisiga ta'sirini, tabiatning insonni tarbiyalashdagi ahamiyatini ko'rsatadi va bu bilan yozuvchi o'z maqsadiga erishadi.

Shukur Xolmirzayev ijodi yuzasidan ko'plab maqolalar va tadqiqotlar, jumladan, H.Karimovning «Shukur Xolmirzayev ijodiy portreti» risolasi, akademik B.Nazarovning «Shukur Xolmirzayev» nomli ijodiy portreti yaratilgan. Bundan tashqari yozuvchi hikoyalari haqida U.Normatov, S.Mamajonov, Q.Yo'ldoshev, H.Boltaboev, O.Otaxonov, R.Qo'chqorovlarning, adibning qissalari to'g'risida to'g'risida M.Qo'shjonov, A.Rasulov, M.Olimov; romanlari haqida

¹⁶ Normatov U. (1982). Problems of style, artistic form. Maturity 356.

U.Normatov, O.Togʻaev, I.Gʻafurov, S.Sodiqov va boshqa adabiyotshunos olimlarning maqolalari eʼlon qilingan. Biroq bu tadqiqot va maqolalarda Sh. Xolmirzayev ijodining ayrim qirralari yoritilgan edi. Shukur Xolmirzayevning hikoyachilikdagi mahorati, badiiy soʻz sanʼati, tasvir uslubi haqida ilmiy tadqiqot ishlari ham olib borilgan. Jumladan, G.N.Tavaldieva (2001), Sh.Doniyorova (2001) kabi adabiyotshunoslar yozuvchining hikoyachilikdagi oʻziga xos tasvir uslubi, voqelikni badiiy idrok etish tamoyillari haqida ilmiy xulosalar berganlar. Bundan tashqari, “Shukur Xolmirzayev zamondoshlari xotirasida” (2010) kitobida Shukur Xolmirzayevga zamondosh koʻplab adabiyotshunoslar tomonidan adib mahoratining, yetuklik darajasining oʻziga xos tomonlari haqidagi noyob xotiralari jamlangan. Olim Toshboevning “Abadiy zamondosh” (2018) kitobida yozuvchi asarlarining yozilish tarixi, sababi, yozuvchi shaxsiyati haqida fikr yuritiladi. Shukur Xolmirzayev ijodining maʼlum bir qismi jonivorlar va inson munosabatlarini badiiy tadqiq etishga bagʻishladi. Bu munosabatlar haqida adibning oʻzi iqrar tarzida yozgan ushbu soʻzlaridan ham anglash mumkin: «Men Boysun rayonida tugʻilganman. Boysun - togʻlik joy. Oʻn ikki yoshimda oʻzim yolgʻiz miltiq koʻtarib ovga chiqib ketardim. Soʻngra, bu yerda yashirishning hojati yoʻq: qaysarroq edim... Lekin bitta narsani yaxshi koʻrardim: masalaning mohiyatini tushunishni» Bu soʻzlardan anglashiladiki, 70-yillarning boshlarida, yaʼni ijodiy prinsiplari hali toʻla shakllanib ulgurmagan paytda yosh yozuvchi voqeʻlikni badiiy idrok etish yoʻllarini oʻrgana boshladi. U inson hayotini, yashash tarzini, abadiy tiriklik manbaini tabiat va jonzotlar bilan uygʻunlikda, bogʻliqlikda, birlikda deb biladi. Bu xulosaga u hozirgi Surxon elining olis avlod-ajdodi boʻlmish qadimgi baqtriyaliklar hayoti tarzini kuzatish asnosida keladi, bu oʻlkaning koʻhna ibtidoiy xalqlari dastlab tabiatga sigʻinishganini, uni ulugʻ bir neʼmat sifatida qadrlashganini anglaydi.

Yozuvchi bolaligida eshitgan qadimgi afsonalar mazmunida ham inson va tabiat oʻrtasidagi uygʻunlikda katta maʼno yashiringanini anglaydi :«Momomning Tiniqoy kampir haqida aytgan ertagining mazmunini keyinchalik chaqishga urinib koʻrdim... Shundan keyin mening tabiatga - jonivorlar, parrandalar, hatto yirtqich hayvonlarga ham munosabatim oʻzgarib ketib, ularni oʻzimga qandaydir qarindosh deb biladigan boʻldim. Gap shunda ekanki, ibtidoiy odamlar oʻzlarini tabiatdan ajratmagan, balki uning bir boʻlagi, uzluksiz bir boʻlagi, deb bilganlar. Shuning uchun ular tabiatdagi har bir giyoh, har bir jonli jonivorda ham til bor, ular ham odamzodga oʻxshaydi, deb oʻylaganlar. Shuning uchun hayvonlarning odamlarga yordami yoxud odamlarning hayvonlar bilan doʻstligi haqida afsonalar toʻqishgan». Sh.Xolmirzayev «Tiniqoyning «ayiq eri» hasratida aytadigan qoʻshigʻi mazmunida ham insonning hayvonlarga yaqinligi ifodalanganini koʻradi. Sh.Xolmirzayev jahonning mashhur yozuvchilari qatorida, ularga boʻylasha oladigan darajada tabiat va jonivorlar mavzusida takrorlanmas asarlar yaratdiki, bu yozuvchi ijodining alohida boʻrtib koʻrinib turuvchi bir qirrasidir. Mana shu sababdan ham katta imkoniyati tufayli tabiat qonunlari, hayvonlarning yashash tarzlari, har bir giyohning oʻziga xos xususiyatlari haqida puxta bilimga ega. Bu jihatdan J.London, E.Xeminguey, S.Tompson asarlarining yozuvchi ijodiga taʼsiri ham alohidadir.

Tanqidchi U.Normatov «Zaminda yashaymiz, zaminni oʻylaymiz» maqolasida Sh.Xolmirzayev hikoyalariga xos mazkur xususiyat haqida shunday deydi: «Inson va tabiat munosabati Sh.Xolmirzayev hikoyalarining yetakchi leytmotiviga aylanib qoldi. Shunisi xarakterliki, yozuvchining soʻnggi yillarda yaratgan deyarli barcha hikoyalari shu mavzu atrofida aylansa-da, ular bir-birini takrorlamaydi, har gal avtor masalaning yangi qirrasini kashf etadi,

yangi xarakter yaratadi, xarakter qalbining yangi tomonini ochadi...». Shu nuqtai nazardan yozuvchining inson va tabiat, jovonorlar hayoti mavzuidagi hikoyalarini ko‘zdan kechirsak, inson xarakterining qanchalar murakkab ekanligi, bu murakkabliklar, uning hatto, jovonorlarga munosabatlarida ham namoyon bo‘lishini kuzatamiz.

Sh.Xolmirzayevning qator asarlarida inson va jonzotlarning o‘zaro munosabatlarini uchratamiz. Ularning ba’zilarida inson ma’lum bir jonzotga cheksiz mehr ko‘rsatgan yoki hayvon unga to‘g‘ri yo‘l tutishi uchun ba’zi ishoralar bilan yordam qilgan bo‘lsa: „Oq otli“, „Ko‘kboy“, „Ot egasi“, „Podachi“ kabi asarlari shular jumlasidan ; boshqa hikoyalarida esa insonning jonzotlarga bo‘lgan noto‘g‘ri munosabatlari tufayli ma’lum ma’noda hayvonlar yoki tabiat qarshisida jazolanadilar: „Bandi burgut“, „Jarga uchgan odam“, „Omon ovchining o‘limi“ hikoyalari... Yozuvchi hayvonlar ongidagi o‘y-xayollarni ularni so‘zlatib yo g‘ayri tabiiy bo‘rttirishlar bilan ko‘rsatmaydi, balki ularning ichki va hayvoniy yashab qolish, nasl qoldirish, ozuqa toppish kabi intuitsiyalardan mohirlik bilan foydalanadi: „Cho‘loq turna“ hikoyasidagi kabi.

Yozuvchining aksar hikoyalarida ayni mavzuga murojaat etilib, tabiatga aloqador gaplar katta ijtimoiy-axloqiy, ma’naviy-ma’rifiy muammolar, inson va uning taqdiri, tarbiyasi haqidagi falsafiy fikrlar bilan tutashib ketganligi ko‘ramiz. Inson tabiatdan tirqishsiz devor orqali ajralib turmaydi, barcha borliq, mavjudot biri ikkinchisidan oladi yoki beradi. Ushbu prinsip nafaqat inson va tabiat o‘rtasidagi munosabatda amal qilinadi, balki bu tuyg‘u inson va hayvonot dunyosida, ularning o‘zaro munosabatida ham ko‘rinadi. Bunday uzviy bog‘liqlikni aks ettirgan hikoyalarda bir dunyo bilan ikkinchi dunyoni, bir olam bilan ikkinchi olamni vafo, sadoqat, mehr-muhabbat tushunchalari bog‘lab turadi.

Hayvonot dunyosi haqida jahon xalqlari adabiyotida yaratilgan Redyard Kipling, Jek London, Seton-Tompson, Orosio Kiroga, Lev Brandt, Yuriy Kazakovlarning turli ma’naviy va ijtimoiy muammolarni o‘rtaga tashlagan ko‘pgina asarlari o‘quvchilarga ma’lum va manzur. Ana shunday muammo, ma’no Sh.Xolmirzayevning inson va hayvonlar munosabatiga bag‘ishlangan hikoyalarida ham o‘ziga xos tarzda yozuvchi tug‘ilib o‘sgan Boysun tabiati va kishilari xarakteridan kelib chiqib badiiy talqin qilingan. Adabiyotshunos Y.Solijonov tabiat tasvirida yozuvchining detallarga alohida ahamiyat berishi haqida quyidagicha ifodalaydi: “Shukur Xolmirzaevning asarlarida eng ko‘p qo‘llaniladigan detallar bu — tabiat unsurlari: turli daraxtlar, o‘t-o‘lanlar, gullar, qushlar, hasharotlar va hayvonlardir. Ularni inson obraziga nisbat berish bilan adib tabiat va odamning yaqinligini, biri ikkinchisiz yashay olmasligini uqdirmoqchi bo‘ladi. Ayni chog‘da tabiat hodisalaridagi o‘zgarishlarga, ularning o‘ziga xosligi (masalan, yarmi qurigan do‘lananing hamon gullab, meva tugishi, gap tomirning chuqur ketganligi, ya’ni mohiyatda ekani)ga urg‘u berish orqali odamni o‘z hayotiga e’tiborliroq bo‘lishga undaydi. Ha, Shukurning asarlarida tabiat gapiradi, harakat qiladi, ko‘rkini namoyish etish uchun quturib gullab, bizni maftun etadi. Ruhiyatimizga osoyishtalik bag‘ishlab, umrimizni uzaytiradi”¹⁷

Adibning „Ot egasi“ hikoyasida Inod chavandozning otiga bo‘lgan sof hamda samimiy munosabati ko‘rinadi, bu hikoyada yozuvchi qorabayir otni qahramonning borlig‘i, hayotining asosida uch narsa yotgan bo‘lsa o‘sha „uchinchi boyligi- qorabayir oti edi“, -deya urg‘u beradi.

¹⁷ Solijonov Y. (2007). When the details come to mind.
<https://ziyouz.uz/matbuot/hozirgi-davr-matbuoti/2007-sp-71133409/>

Inod uchun otga mehr ota-bobolardan qolgan meros, qorabayirning ajdodlari ham uning bobolari sadoqat bilan xizmat qilgani aytiladi. O'quvchi yozuvchi tomonidan hikoya so'nggiga asosli dadillar va asosan psixologik kechinmalar ko'rinishida tayyorlab boriladi. Xususan, qorabayir asl ot, u egasini ikki bora sel xavfidan asrab qolgan, necha yillardirki egasiga ko'pkarida shuhrat keltirgan. Inodning oilasi bilan yuz bergan mash'um voqea Qorabayirni Inodga yanada yaqinlashtirgan, bor-u yo'g'iga, hayotining birdan bir mazmuniga aylantirgan edi. Egamberdi melisaning qorabayirga egalik qilish istagi, Inodning otini xarob holatga tushishidan cho'chib o'z qo'li bilan oilasiga aylangan otni o'ldirish oldida juda pastkash ish edi. Bu hikoyada Qorabayir obrazi keng va ochiq tasvirlanmagan bo'lsada, uning o'limi oldidan egasining tuyg'ularini his qilgani va nima bo'lishini bilgandek u kirgan eshikdan ko'zini uchmasdan qimir etmay turar edi. Bunda qorabayirning aqlli, egasining ko'ngliga naqadar yaqinligi, uning xayollarini ko'zidan o'qib, sadoqat bilan hatto o'lim qaroriga bo'ysungani ot va chavandozning bir-butunligi ko'rsatuvchi yozuvchi tomonidan yoritilgan eng asosiy nuqtadir. Inod qorabayirni o'z do'sti sifatida oila a'zolari yonida qabristonga olib borib ko'madi. O'z yaqinlari ruhiga tilovat qiladi, balkim qalban safdoshidan uzr so'raydi, o'z or-nomusi va chavandozlarga xos g'ururi tufayli otning birdan bir va so'nggi egasi bo'lib qoladi. Bu hikoyada qorabayir ot obrazi chavandoz otlarga xos sadoqatlilik, birodarlik xususiyatlarining yuksak namunasi sifatida ko'rinadi.

Adibning „Omon ovchining o'limi“ hikoyasida muallif ko'pgina hikoyalaridagi kabi roviy tilidan hikoya qiladi. Hikoya xulosasiga turli o'rinlarda asosli ishoralar qilib, turli hayvonlar: kiyiklar, kakliklar, burgut va shu kabi jonzorlar hamda ularning taqdirini asar qahramoni taqdiri bilan bog'laydi. Asarda yozuvchi jonzorlarga muhabbat va ularni asrab-avaylash haqida uqtirish barobarida, taqdiri azal, qaytar dunyo kabi tushunchalarning haqiqat ekanligini ko'rsatadi. Omon ovchi insonlar orasidagi hayvonlar haqidagi turli gaplarni o'zi uchun inkor qiladi: ovchi bir kiyiknigina ovlashi kerak, har kim o'z kasb-koridan topadi. Hikoyada jonivorlar ovchidan omon chiqmagan, ayovsiz ovlangan jonzorlar sifatida tasvirlanadi. Xususan, Omon ovchi burgutni otganida, u yovvoyi qush emas, balki panjaralari yosh go'dak qo'llariga o'xshatilgan, bu burgutning ovchi qarshisida xuddi yosh boladek chorasiz va himoyasizligiga ishoradir. Bunda hattoki, sigir ham ovchining ovi baroridan kelmagani tufayli alamzada holatida jonivorning beli sindirilib o'lim topishiga sabab bo'ladi. Uning mehrsizligi hatto o'z oilasidan : xotini va o'g'lidan ayrilishiga, ovchini tashlab ketilishiga sabab bo'ladi. U qaysiga jonzorlarni ko'rsa unga shavqatsizlarcha munosabatda bo'ladi, bunga javoban tabiat ham ochko'zligi tufayli avval to'shakka mixlab, keyin esa „tarki odat amri mahol“ , - deganlaridek shu holida ham o'ldirishga ixlosmand bo'lgan Omonni o'ziga mos holatda dunyodan ko'z yumishiga sabab bo'ladi. Hikoyada mergan o'z taqdiriga yozilganini bilgandek, „qo'rqqaning oldinga keladi“ , deyilgani rostdek bir ovda u do'sti Hamdamga nasihat qiladi: „Rost aytding...Bo'riga tashlansayam ko'zini o'yadi oldin...Biron joyda shikastlanib yotib qolsang, hech chalqancha yotma“ , -deb uqtirgan edi. Ovchi o'limidan so'ng aynan o'sha g'ajirlarga yem bo'ldi va juda ayanchli tarzda tabiat tomonidan jazolandi.

„Zov ostida adashuv“ hikoyasi ham qahramon bola tilidan hikoya qilinib, insonning yolg'izligida hayvonot olami ichra naqadar ojizligi ko'rsatiladi. Bunda bola boshqalardan eshitgan va o'zi juda cho'chiydigan zov ostida adashib borib qoladi. Hikoyada tulki va mushuk avlodi bo'lgan yirik mushuk obrazi keltirilgan. Olamda qancha hayvonlar bo'lsa jamiki hayvonot, jonzorlar o'ziga notanish bo'lgan va yomonlik hamda yaxshiliklar qiluvchi Olloh yaratgan

yaratiqlarning eng mukammaligi bo'lgan inson zotidan hayiqadi, bu holatda ham yovvoyi mushuk insonga yaqinlashmasdan, lekin o'rgangan oshyonidan ham uzoqlashmaydi. Asarda turli o'rinlarda hayvonlar haqida o'ziga xos va tog' odamlarigagina ma'lum bo'lgan ma'lumotlar keltirib o'tiladi. Masalan: „Bir kuni otam: „Zov ostiga ikki polvon tushib ketdi“, - deganini ham eshitganman. Polvon degani ayiq degani. Bitta cho'pon: „Arg'amchiyam bor ekan, ko'p chirilladi“, degandi. Arg'amchi- ilon degani. Nima uchundir tog'da ko'p hayvonlarni, jonivorlarni o'z nomlari bilan atashmaydi. Masalan, bo'rini ham jondor deyishadi“, „...hakkani bizda ayg'oqchi qush deyilar. U boshqa jondorlarni xavf kelayotganidan xabardor qilib turadi“, „...Chil degani kaklikdan kichikroq bo'ladi. Lekin go'shti kaklikning go'shtidan mazali deyishadi. U hammavaqt shunaqa buzuq joylarda yashaydi. „Sela“ deb kaklik va chillar galasiga aytishadi“ kabilar... Hikoyada bolakayning tabiat va hayvonot olamidani anchayin xabardor ekanligi uni xavfli hududda omon qolishiga sabab bo'ladi.

„Bandi burgut“ hikoyasi yovvoyi tabiatning bir a'zosi erklik va hurlikdagina yashay oladigan qush-burgutning ozodlik yo'lida, bandilik arqonlarini uzib, hatto o'z zotidan deb o'ylagan, qushning xayolida „bandilikka ko'ngan sotqinni“ o'zining joni evaziga bo'lsada „qutqarish“, jazolash bilan yakun topadi. Asarda burgut tabiatning o'yini, kuchli jala tufayli bolalar qo'lga tushib qoladi, ammo o'sha yerdagi go'yo hukmdor maqomidagi, alohida Respublika vakillari sifatida ko'riluvchi raisning o'gli tomonidan muqarrar o'limdan omon qoladi. Kichik rais-Yo'ldosh aqlli va jonivorlarga jonkuyar, lekin nasliga egalik qilish hissi mavjudligi uchun dastlab burgutni tutqun sifatida saqlaydi. Yozuvchi qush taqdiri bilan birga o'sha davrdagi ijtimoiy hayotdagi holatlar, boshliq hisoblangan raisning alohida qatlam zodagon sifatida ariqning keying tarafida eng yaxshi o'tloq yerlarga egalik qilishi, barcha uchun ovlanishi ta'qiqlangan hayvonlarning somon tiqib qotirilgan tanasi yoki boshlari bir xonani to'ldirib ko'rk berib turishi, bolalar tomonidan bu uyning saroy deb atalishi kabilar bunga misoldir. Burgut obraziga keladigan bo'lsak adib yirtqich yovvoyi qushni erk va ozodlik kurashchisi sifatida tasvirlaydi. U „saroy“ da nuqul rais tomonidan chet eldan olib kelingan fosforli, ko'zlari yonib turuvchi burgut haykaliga tikilib turardi. U ko'ringudek bo'lsa suv ham ichmas, taomlanmas ham edi. Nega shunday, chunki u o'z safdoshining turqinlikda bo'lmay turib, uchib qutulib ketmayotganligidan hayratda harakatsiz dong qotar edi. Faqat eshik yopilsagina ovqatlanar edi: „...u katta qafas ichida qanotlarini halpillatib urib, burchakka suyab qo'yilgan quruq o'rik shoxiga uchib chiqar, o'sha yerda mag'rur o'tirib patlarini cho'qir, sarg'ish gajak, tumshug'ini butoqqa rosa surkab artar edi. Umuman, bu- o'limtikxo'r yirtqich qushlar turkumidan bo'lsa ham, juda ozoda edi: tumshug'ini deng butoqning goh u, goh bu tomoniga rosa suykab artar, gohida shox ostidagi katta tog'oraga solib qo'yilgan suvga tushib olib, qanotlarini pat-patlatib urib cho'milar, so'ngra shumshukkina bo'lib chetga chiqar va soyni kechib o'tgan moldek silkinib, patlarini quruta boshlar edi.

Uni bu mashg'ulotdan faqat bir narsa chalg'ita olar edi: mehmonxona eshigining ochilishi-yu jonsiz burgutning ko'zga tashlanishi edi. Shunda u yana xo'mrayib olar, ko'zlarida yovuzona bir yovqurlik chaqnar edi“.¹⁸

Burgut o'z safdoshlari bilan uy ustida uchganida erk sog'inchi yanada qiynar, qafasga qaytgach har tomonga o'zini urar edi. Yo'ldoshboy unga ozodlik berish uchun arqonni atay bo'sh bog'lab qo'yadi. Lekin burgut ozod bo'lishni emas, o'z erkidan voz kechib tutqunlikda qimir

¹⁸ Xolmirzayev Sh. Saylanma. II jild. Sharq: Toshkent.2006, 15-16-betlar

etmay turgan go‘yo jonli burgutni jazolashni unga dars berishni tanlaydi, xuddi chuqur uyqudagi safdoshini uyg‘otmoqchi bo‘lgandek unga yordam bermoqchidek bor kuchi bilan unga uriladi. Aslida esa fosfordan yasalgan burgut haykali chil-chil sinadi, burgut esa nobud bo‘ladi. Shunda ham kattalar nobud bo‘lgan jonli qushga emas singan qimmatbaho haykalga achinadilar. Yozuvchi har bir hikoyasida jonivorlar va qushlar obrazi orqali odamzot naslidan bo‘lgan mehrsiz, shavqatsiz insonlarning asl qiyofasini ko‘rsatadi va adabiyotdagi jonivorlar obrazi kiritilishining to‘liq mohiyati va vazifasini ochib beradi.

Ijodkorning „Cho‘loq turna“ hikoyasida sof insoniy va ijtimoiy hayot tarzi nogiron turna obrazi orqali ko‘rsatiladi. Hikoya har bir jonzotda mavjud bo‘lgan yashash uchun kurash, tirik qolish istagi va instinkti haqida bo‘lib, bunda turna obrazi doim tabiiy harakatlar bilan hayotiy tarzda o‘zidek turnalar bilan yashab qolishga harakat qiladi. Ona turna uni tuxumdalgidayoq nobud bo‘lgan degan taxminda edi, chunki barcah tuxumlardan turnalar yorib chiqqanida ham birgina so‘nggi tuxum qoladi. Shu ondan boshlab cho‘loq turnaning haqiqiy hayot uchun kurashi boshlanadi: avvalo, tuxumdan kech bo‘lsada yorib chiqadi, bir oyog‘i kaltaroq ancha oqsab yurishiga qaramasdan chuqur uyadan juda qiynalib bo‘lsada taslim bo‘lmay chiqib oladi, buni ko‘rgan ota turna boshqa farzandlari kabi uni ham qanotlari ostiga qabul qiladi. Ona turna ham boshqa turnachalar kabi uni yeguliklar bilan ulg‘aytirib, ov qilishni o‘rgatadi. Lekin turna harakatlanishi qiyinligi uchun kamharakat va semizroq bo‘lib ulg‘ayadi. Eng og‘ir sinov qishlash uchun issiq o‘lkaga uchish va bundagi tenghuquqli va teng majburiyatli safar uni holdan toydirib, oxir oqibat bir kimsasiz o‘rmonda qolishga majbur bo‘ladi. Bu hikoyada insonlarning ham imkoniyatlari boricha o‘z maqsadlari yo‘lida harakatga undash, taslim bo‘lmaslik va balkim, taqdiri azal tushunchalari ustuvordir. Hayotning asl qiyofasi ham shu: insonlar o‘z qobiqlari ichida, kamchiliklardan fojea yasab qolaverishsa, hech kim u uchun, o‘rniga harakat qila olmaydi, qilmaydi ham .

„Ko‘kboy“ hikoyasida Qalandar aka „Omon ovchining o‘limi“ hikoyasi qahramoni kabi ovga o‘ch insonlardan biri bo‘lsada jonivorlarga, ayniqsa noodatij ko‘rinishga ega hamda sadoqatli iti Ko‘kboyga mehribon edi. Uning xalokati esa nafsining to‘ymasligi va haddan oshiq kakliklarni ovlab, charchab yuztuban yiqilgani tufayli ro‘y beradi. Ko‘kboy o‘z egasining notabiiy holatidan nimadir bo‘lganini tushunib, dastlab uni turg‘azishga, keyin esa yaqinlariga xabar qilish uchun ovulga yo‘l oladi. It insoniyatning rivojlanish tarixi davomida eng birinchi qo‘lga o‘rgatilgan hayvon va adabiyotlarda sadoqat razmi sifatida ko‘rsatiladi. U egasining o‘lganligini sezsa, hatto uning jasadini bo‘rilar talashini istamaydi, ularga tashlanib egasini loshini qo‘riqlaydi. Uni o‘z oila a‘zolari va qishloqdoshlari olib ketguniga qadar asrab avaylaydi. Hikoya sodda hamda tushunarli til va uslubda yozilgan bo‘lib, unda asosan ovchilar hayoti, inson va jonivorning hayotiy tutash o‘rinlari tasvirlangan.

«Jarga uchgan odam»da esa o‘zi tabiat va uni asrash xususida film yaratmoqchi bo‘lgan kinorejissyor butun boshli ayiqni o‘ldirib ikki bolasini yetim qilgani uchun tegishli tashkilotlar tomonidan emas, oddiy bir tabiat jonkuyari qo‘lida ayovsiz jazolanadi.

Yozuvchining barcha hikoyalari realizm va romantizm uslubi uyg‘unlashgan holatda yaratilgan. Qaysidir hikoyada realism elementlari ustuvor bo‘lsa : „Omon ovchining o‘limi“, „Cho‘loq turna“, „Bandi burgut“ kabilar; boshqalarida romantizm yaqqolroq aks etadi: „Ot egasi“, „Ko‘kboy“ kabi hikoyalar. Adib asarlarida tog‘ odamlari qiyofasini, ularga xos xarakterni ko‘rsatadi. Qaysi hikoyasi yoki qissa va romanlarini o‘qimaylik, unda samimiy, mehnatkash,

soddadil va haqiqatparvar obrazlarni uchratamiz. Jonivorlar obrazini ham insonlarga yaqin, ularning eng yaqin, so‘zlashmasdan ko‘zlaridan tushunadigan, sadoqatli va aqlli qilib tasvirlaydi. Asarlarida o‘zi tug‘ilib, o‘sgan Boysun tog‘larini, qir, adirlar va qishloq sharotini ko‘rsatgan. Yozuvchining qissalarida ham jonivorlar obrazi yaqqol va mahurat bilan ochib berilgan. Xususan, uning „Oq otli“, „Yur tog‘larga ketamiz“, „Ot yili“ kabi qissalari shular jumlasidan.

„Oq otli“ qissasi muallif tilidan hikoya qilinib, unda bolalarning o‘smirlik davridagi ruhiyati tabiat, jonivorlar bilan birgalikda do‘stlik, jasurlik va rostgo‘ylik kabi xarakterlar ustuvorligi, yaxshilikka undash barobarida jonivorlarga xos xususiyatlar ochib beriladi. Hikoyaning nomlanishi ham ramziy ma‘noga ega. Oq rang azaldan turkiy xalqlar orasida ozodlik, hurlik, soflik ramzi. Hikoyada oq ot mingan raisning o‘g‘li Qosim voqealar boshlanishida o‘jar, erka, beqaror, onasining erkasi sifatida tasvirlangan bo‘lsa, do‘stlari bilan boshidan o‘tkazgan sinovlari hamda o‘z aybining birovga ag‘darilib, hamma aybsizni aybdorga chiqarishi uni qat‘iyatli, rostgo‘y va mard yigitga aylantiradi. Qorovul chol ham dastlab o‘zi avrab va‘dasini olgan bola bilan qarshisidagi yigit o‘zga insonlar ekanligini, u tubdan o‘zgarganligini ko‘z qarashlari orqali tezda anglaydi. Yozuvchi asarda ot obraziga ko‘p ham to‘xtalmaydi, ammo Qoravoy it hikoyasiga va uning o‘limiga alohida urg‘u beradi, insoniyat azaldan o‘ziga xavf tug‘dirmaydigan jonzotlarga mehr ko‘rsatib, yirtqichlardan o‘zini ehtiyot qilgan, kerak o‘rinlarda ularga qarshi ayoqsiz kurashgan. Qoravoy obrazi ham kichikligida urg‘ochi bo‘ri tomonidan olib qochilgan, keyin esa yirtqichlashib ketgan yovvoyi it edi. Yozuvchi bo‘rilarga xos xususiyatni: qishda bo‘rilar qo‘ylarga tegmasligini sinchkovlik bilan asarga kiritib, bo‘rilashgan it obrazi ularni boshlab kelgan va qo‘ylar podasi qayerdaligini topib yo‘lboshlovchilik qilganini ham keltiradi: „U itni o‘ldirib ma‘qul ish qilibsizlar,-dedi Chinoq polvon,- bo‘rilarni ham shu kasofat boshlab kelgan, qo‘ylarni ham shu kasofat quvib ketgan. Bo‘lmasam bu kunlarda bo‘rilar qo‘ydan qochadi. U itning tarixini bilasizlarmi? Boshda u orlon itning bolasi bo‘lgan. o‘ngra urg‘ochi bo‘ri uni kuchukligida obqochib ketgan. Ortidan ergashtirib yurib, bo‘rilarning butun odatlarini o‘rgatgan. So‘ngra u dupdurust bo‘ri bo‘lib qolgan-da. Yomon bir odati shuki, bir kunlik yerdan ham qo‘ylarning hidini ololadi. Bo‘rilar hidni bilmaydilar. Qarabsanki, uch-to‘rt bo‘rini boshlab ro‘parangdan chiqib qolibdi. U kasofat ko‘p mollarning boshiga yetgan edi. O‘ldirib ma‘qul ish qilibsizlar“¹⁹.

Adib har bir asarida tabiat va hayvonlar xususidagi bilimlarini, naqadar ona zaminga yaqin ekanligini, o‘zi tug‘ilib o‘sgan diyor shabadasini yuragida doimo esib turganligini asarlarining har bir satrida aks ettiradi. O‘zining ona tabiatga bo‘lgan mehrini, hayvonot olamiga bo‘lgan samimiy ijobiy fikrlarini jonzotlar obrazi orqali yanada yorqin namoyish etadi. Uning keying qissasi- „Yur, tog‘larga ketamiz“ qissasi ham aynan shu haqida. Bu qissa bola tilidan hikoya qilinib, yuqorida tahlil etilgan qissadagi kabi Qoraboy it obrazi berilgan. Ammo bu obraz yuqoridagi Qoraboy obrazidan tubdan farq qilgan holatda, egasining sodiq hamrohiga aylanadi. Qoraboy bo‘ri va itning bolasi bo‘lib, unda bo‘rinikidek tishlar, dikkaaygan quloqlari va chaqnab turuvchi ko‘zlari bilan oddiy it emasligi ko‘rinib turar edi. Uni tarbiya qilib haqiqiy qo‘riqchi itga aylantirish, qahramon bola-Nuralining asosiy vazifasi edi. It chindan ham eng yaxshi qo‘riqchi itga aylandi. Bu kabi voqealar silsilasida o‘zini itning haqiqiy egasi deb hisoblovchi – Qodir podachi qariganidan so‘ng voz kechib, keraksiz buyumdek tashlab ketgan. Och nahor kimsasiz uyga ortidan ergashmasligi

¹⁹ Xolmirzayev Sh. Saylanma.V jild. Qissalar .-Toshkent: Sharq . 2016, 35 -bet

uchun bog‘lab ketgan itining nasli bo‘lgani uchun uni doim o‘zini qilishga uringan, uning kichik kuchukchaligidayoq evaziga bolaning otasidan zo‘ravonlik va pastkashlik bilan bir uloqni undirib olgan bo‘lsada, „egalik qila olmas ekanman, yo‘q qilaman, meniki emasmi, demak hech kimniki bo‘lmaydi“ qabilida ish tutib, uni yo‘q qilishga necha bor urinadi. Oqsoq bobo ham o‘zicha karomat qilib, odamlarga: -Axiri birortaga shikast yetkazib ketadi, -deydi. Faqat odamlargina emas, hatto o‘z qavmidan bo‘lgan boshqa jonivorlar-itlar ham unga o‘zgacha ko‘z bilan qarashar edi : „Uy orqasiga o‘tsam, ne ko‘z bilan ko‘rayki, Qoraboy bechora qo‘raning devori tagida, burchakka tiqilib turibdi. Ko‘ktoy uning ro‘parasida: chala kesilgan dumini gajak qilib, bo‘yin junlari hurpayib, uni tomosha qilayotganga o‘xshaydi. Qoraboy meni ko‘rdi-yu, -hayron qoldim,- Ko‘ktoyning bo‘yniga chovut soldi-ku! Gangib qolganimdan ovozim chiqmadi. Ko‘ktoy sarosimaga tushib, nariga sapchidi. Burila solib, Qoraboyning ustiga otildi, tappa bosib talay ketdi“.²⁰

U bo‘rilar bilan ayovsiz jang qilib, o‘z kuchi va irodasini ko‘rsatadi. Itlar to‘dasini mag‘lub etib, ovulda boshliq it bo‘lib, boshqa itlarni ortidan ergashtiradi. Ammo Qodir podachining nayrangi tufayli uni quturgan bo‘ribosar deya o‘ldirish uchun olib ketishadi. Bola uni uzoq kutadi, esidan chiqa olmaydi. Nihoyat taqdirning mo‘jizasi bilan shahardagi hayvonot bog‘ining itini bo‘rilar orasida uchratib qoladi, yillar o‘tgan bo‘lsada, it ham, bola ham bir-birini ko‘zlaridan bir qarashdayoq taniydilar: „U tumshug‘ini panjara orasidan chiqardi. Men uni siladim. U mening qo‘llarimni yaladi. Shunda yig‘layotganimni, betlarimdan yosh tomchilari oqib tushayotganini sezdim... Ishonasizmi, do‘stim, Qoraboyning ham menga tikilgan ko‘zlaridan miltirab yosh oqmoqda edi“.²¹

Sodiq do‘stlar hikoya nihoyasida yana birga qishloqqa qaytishadi, bo‘ri it o‘z do‘sti egasini ko‘rib u bilan qaytish uchun hech narsadan taptortmasdan qafasdan qochib chiqqan edi.

REFERENCES

1. Дониёрова Ш. Ш.Холмирзаев ҳикояларининг бадиий-услубий ўзига
2. хослиги. –Тошкент: 2000 йил.
3. Каримов Н ва бошқалар. XX аср ўзбек адабиёти тарихи. –Тошкент:
4. Ўзбекистон, 1998 йил.
5. Каримов Н. XX аср ўзбек адабиёти манзаралари. –Тошкент: Ўзбекистон,
6. 2009 йил.
7. Мирзаев С, Шермухаммедов С. Ҳозирги замон ўзбек адабиёти тарихи. –
8. Тошкент: Ўзбекистон, 1993 йил.
9. Мирвалиев С, Шокирова Р, Ўзбек адиблари. –Тошкент: Фан, 2007-йил.
10. Солижонов Й. Деталлар тилга кирганда. 2007. <https://ziyouz.uz/matbuot/hozirgi-davr-matbuoti/2007-sp-71133409/>
11. Холмирзаев Ш. Танланган асарлар. I том. –Тошкент: Шарқ, 2003 йил.
12. Холмирзаев Ш. Танланган асарлар. II том. –Тошкент: Шарқ, 2005 йил.
13. Холмирзаев Ш. Танланган асарлар. III том. –Тошкент: Шарқ, 2006 йил.

²⁰ Xolmirzayev Sh. Saylanma.V jild. Qissalar .-Toshkent: Sharq . 2016, 216-bet

²¹ O‘sha asar, 238-bet

TURKIY QAVMLARNING MUSHTARAK ORZUSI, BUGUNGI AMALIY TASHABBUSLAR.

Muhriddin Rahmatulla o'g'li Toshpo'latov

Termiz davlat universiteti magistranti

m_toshpulatov2023@mail.ru

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7689292>

Annotasiya. Ushbu maqolada turkiy dunyo, xususan o'zbek adiblarining mushtarak orzu - istaklari, turkiy xalqlar yozma manbalarida aks etgan umumruh mohiyati va adabiy ehtiyojning bugungi kundagi ahamiyati xususida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: "Kultegin", tarixiy ehtiyoj, badiiy qiymat, jadidlar, turkiy birlik g'oyasi.

ОБЩАЯ МЕЧТА ТЮРКСКИХ ПЛЕМЕН, СЕГОДНЯШНИЕ ПРАКТИЧЕСКИЕ НАЧИНАНИЯ.

Аннотация. В этой статье рассматриваются общие пожелания тюркского мира, в частности узбекских писателей, общая сущность, отраженная в письменных источниках тюркских народов, и значение литературной потребности в наши дни.

Ключевые слова: "Култегин", историческая необходимость, художественная ценность, джадиды, идея тюркского единства.

THE COMMON DREAM OF TURKIC PEOPLES, TODAY'S PRACTICAL INITIATIVES.

Abstract. This article discusses the common aspirations of the Turkic world, especially the Uzbek writers, the essence of the common spirit reflected in the written sources of the Turkic peoples, and the significance of the literary need today.

Key words: "Kultegin", historical necessity, artistic value, modernity, the idea of Turkish unity.

KIRISH

Dunyo tamadduni, ilm-fani, xususan, badiiy tafakkurining so'nggi yetti ming yillik tarixi rivojini turkiy qavmlar, elatlar va xalqlarning so'z san'ati, og'zaki va yozma ijodi namunalarisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Insoniyat tarixi taraqqiyotida qadimgi turkiylarning muhim o'rin tutganliklari, jahon tsivilizatsiyasiga munosib hissa qo'shganliklari tarixshunoslar tomonidan e'tirof etilgan.

Eramizdan avvalgi asrlarda sak, massaget qabilalari Turon zaminda yashagan bo'lsalar, VI asr oxirlarida turk hoqonligi chegaralari Vizantiya, Eron, Hindiston va Xitoygacha borib yetgan. Bu hududlarda yashagan turkiy xalqlar qadimdan o'zining tarixi, madaniyati, tili, yozuvi, san'ati va adabiyotiga ega bo'lganlar. Turkiy qavmga mansub xalqlarning tarixiy ildizlari bir, tili, dini, urf-odat va an'analari, qadriyatlarini mushtarak bo'lib, davrlar o'tishi bilan ayrim o'ziga xosliklar paydo bo'lgan. Qadimdan yonma-yon yashagan turkiy xalqlarning adabiyoti ham o'zaro ta'sir va adabiy aloqalar natijasida taraqqiy etgan.

Turkiy qavmga mansub ayrim xalqlar milliy o'ziga xos xususiyatlar bilan rivojlanishi asnosida boshqa turkiy xalqlar bilan ham o'zaro aloqa va munosabatda bo'lgan hamda adabiyotlarining rivojida bir-birini boyitgan. Ta'bir joiz bo'lsa, dunyo adabiyoti turkiy xalqlar adabiyotisiz bir qadar qashshoq bo'lib qoladi. "Kultegin", "Tunyuyuq", "Bilga xoqon" tarixiy bitiklari, Qoshg'ariyning "Devoni lug'atit-turk" (asarda turkiy xalqlarga mansub eng qadimgi

to'rtliklar berilgan), Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig", Ahmad Yugnakiyning "Hibat ul haqoyiq" asarlarida aks etgan turkcha tafakkurning muhtasham badiiy namunalari fikrimizni dalillaydi. *Kishiga to'sulg'u kerak bu tirig, // Tirik tutsa otin, ko'pursa erig*²² [1:338] (*Tirik (jon) odamlarga foyda keltirishi kerak, (Toki) otini tirik tutsinlar, kishilar ulug'lasinlar*) – misralarida she'riy san'at taomillari, she'r texnikasidan tashqari, ma'noning falsafiy-didaktik qimmatini yaqqol ko'zga tashlanadi. Bunday xulosalarning bari, albatta, mustaqillik tufayli. Mustaqilligimiz sharofati bilan xalq va vatan tarixi, adabiy, ilmiy va madaniy merosning qadim-qadim zamonlarga borib taqaladigan ildizlarini chuqur va xolisona o'rganish imkoniyatlari maydonga keldi. Shuning natijasida turkiy xalqlarning qadimgi davrlarda yaratgan adabiy-badiiy yodgorliklarini izlash, ularning namunalari aniqlash, tahlil va talqin qilish yanada oldinga siljimoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Ma'lumki, turkiy xalqlarning qadimgi tarixi va madaniyati jahon turkiyshunos olimlarini anchadan beri qiziqtirib kelgan. Bu sohada turli tillarda qator tadqiqotlar amalga oshirilgan, mavjud bo'lgan, aniqlangan yodgorliklar nashr ettirilgan, tarjima ham qilingan. Va shu orqali keng jamoatchilikka yoyilgan. Shuning bilan bir qatorda turkiy xalqlar og'zaki ijodining go'zal namunalari bo'lgan rivoyat, afsona, doston va boshqa janrlardagi asarlari ham umumlashtirishni taqozo etadi.

Turkiy zamindagi adabiyot — xalqning orzu-umidlari, intilishlari – badiiy-estetik ideallarini ifodalovchi vosita sifatida maydonga kelgan. Bu adabiyot har xil adabiy tur va janrlarda taraqqiy topib bordi. She'riy va nasriy asarlar adabiyotning asosiy ko'rinishini tashkil etadi.

Shunisi ham borki, turkiy xalqlarning qadimiy tarixiy va adabiy yodnomalarining ko'p qismi saqlanib qolmagan bo'lsa-da, ularning ayrimlari yunon, xitoy, arab, fors, german, rus, slavyan xalqlari tillarida bitilgan tarixiy-adabiy yodgorliklarda o'ziga xos tarzda ifodalangan holda saqlangan. Bularning hammasini o'rganish, tartibga solish, ma'lum bir xulosalarga kelish esa nihoyatda ko'p mehnat va uzluksiz izlanishlarni talab etadi. Sababi turkiy dunyoda noyob va durdona asarlar, manbalar shu qadar ko'p yaratilgan-ki, bu oldimizda turgan vazifani yanada murakkablashtiradi.

Jaloliddin Rumiydan Nasimiygacha, Ahmad Yassaviydan Tavfiq Fikratgacha, Navoiydan Musa Jalilgacha, Nizomiy Ganjaviydan O'ljas Sulaymonovgacha, Yunus Emrodan Chingiz Aytmatovgacha, Fuzuliydan Maxtumquligacha, Mulla Panoh Voqifdan O'rxan Pamuqgacha, Abaydan Abrurahim O'tkirgacha, Ogahiydan Nozim Hikmatgacha, Cho'lpondan Rauf Parfigacha bo'lgan qamrovdagi turli davrlarda yaratilgan bemisl adabiy meros har qanday zamon-u makon badiiy mezonlariga dosh bera oladigan durdona asarlar hisoblanadi.

O'rta asrlar turkiy dunyo adabiyoti mumtoz so'z san'ati o'laroq zamonaviy adabiyotning poydevori sanaladikim, XIX-XX asrlarda yashab ijod qilgan turkiy qavmlar adiblari zehniyatida ham tarixiy, ham yangi birlik, erk g'oyalari mushtarakligiga intilish mavjud. Xususan, Samad Vurg'un, Nozim Hikmat, Abdulhamid Cho'lpon, Abdurauf Fitrat, Abdulla Oripov, Shukur Xolmirzayev, Rauf Parfi, Shavkat Rahmon, Usmon Azim, Xurshid Davron, Yofas Alpin kabi adiblar ijodining bosh g'oyalari ma'rifat, umuminsoniy sha'n, birdamlik, milliy ozodlik harakati barobarida qadimiy Turon hududlarida joylashgan Turkiston xalqlarini birlashtirish,

²² Юсуф Хос Ҳожиб. Қутадғу билиг (Саодатга йўлловчи билим), транскрипция ва ҳозирги ўзбек тилига тавсиф. Нашрга тайёрловчи К.Каримов. Тошкент, Фан, 1971

mustamlakalikdan ozod qilish mavzuidagi yuksak badiiy bo'yoqlar ila yaratilgan asarlarida namoyon bo'ladi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

E'tibor qaratish joizki, XX asrning birinchi choragida ona Turkiston yerlarida jadidchilik harkatining (bu harakat ikki bosqichda: 1) millatni ma'rifatga chorlash; 2) "1-bosqich" "fon"ida milliy mustaqillik harakatiga o'tish) keng yoyilishi, faqatgina nazariya bilan emas, balki umumharakat, ijtimoiy-siyosiy tashabbuslar, yangilanishlar, amaliy ta'sir o'tkazish instrumentlari bilan sodir bo'ldi. Shu asnoda yangi milliy tafakkur, ma'rifatparvar millat g'oyasi shakllantirildi. Bu yo'lda jadidlar badiiy ta'sir vositalaridan keng foydalandi.

Jadidchilik harakati va uning negizidagi adabiy faoliyat haqida turkshunos, jadidshunos olim, professor Begali Qosimovning quyidagi fikrlari muhim: "Jadidlarimiz siyosiy ishlar – haq-huquq, milliy davlat, hokimiyat masalalari bilan muntazam shug'ullandilar. Ayni paytda, maktab-maorif isloh qilina boshladi. Milliy matbuot yo'lga qo'yildi. Teatr paydo bo'ldi. Yangi adabiyot shakllandi, bir so'z bilan aytganda, yangi tafakkur maydonga keldi. Bu millatning o'zligini anglash va mustaqillik mafkurasi edi²³". Ayni shu davrga kelib, milliy ozodlik yo'lidagi yalpi harakatni, kurashni ko'rishimiz mumkin. Bu kurash ruhi, ayniqsa, she'riyat orqali sizdirildi.

Xususan, Fitrat "O'g'ut" she'rida millatdoshlariga qarata: *Turma – yugur, tinma – tirish, bukilma – yuksal, // Hurkma – kurash, qo'rqma – yopish, yo'rilma (o'tirma) – qo'zg'al*²⁴ – deya da'vat etsa, Cho'lpon "Ko'ngil" she'rida istibdod va bosmachilarga qarshi: *Kishan kiyma, // Bo'yin egma, // Ki sen ham hur tug'ilg'onsen!*²⁵ – deb hayqiradi.

Cho'lpon milliy ozodlik yo'lida yalpi harakat qilish lozimligini, bunda barcha turkiylar yakdil bo'lishi kerakligini uqdirishga harakat qilgan. Cho'lponning matbuotda ilk chop etilgan asari – "Sadoi Turkiston" gazetasining 1914-yil 18-aprel 3-sonida bosilgan "Turkistonli qardoshlarimizga" she'ri mana bu band bilan boshlanadi: *Ilmu ma'rifat ham hunardan qoldi mahrum bizni xalq, // Ma'rifatsizlik balosiga yo'liqqan bizni xalq.*²⁶ Millat tushunchasini ifodalovchi "bizni xalq" – Turkiston xalqidir. She'r sarlavhasida murojaat "Turkistonli qardoshlar"ga qaratilganligi ham bunga aniq ishora qiladi.

Cho'lpon muxtoriyatchilik harakatida faol qatnashgan, hammaslamlari bilan Turkistonning turli shaharlariga borib targ'ibot ishlari bilan shug'ullangan. 1917-yil avgustida Qofqoziya turklari bilan aloqa bog'lash uchun yuborilgan delegatsiya tarkibida ham bo'lgan.²⁷ Bu haqida "Hurriyat" gazetasining 1917-yil 15-avgust 30-sonida e'lon qilingan "Qofqoziyaga ketgan Farg'ona hay'atindan" nomli ochiq xatda safar yo'nalishi va maqsadi borasidagi fikrlarda aytib o'tiladi. Cho'lponning inqilobgacha yozgan asarlarida turkchilik g'oyasi ochiq-oshkor ifodalanmagan bo'lsa, endi bu g'oya maqsadga yetishishning birlamchi shartlaridan biri sifatida talqin etiladi: "Bunday bir zamonda so'ngisidan qutulish uchun har tarafda tarqalg'on turklarning, Turon bolalarining birlashmamlari lozim". Albatta, turkchilik g'oyalarining bu qadar aktuallashuvi zamon talabi bilan yuzaga keladi: jadidchilar Rossiya imperiyasi tarkibidagi turkiy xalqlarning birlikda

²³ Begali Qosimov. Milliy uifonish: jasorat, ma'rifat, fidoyilik. – Toshkent: Ma'naviyat, 2022. 4-5-b.

²⁴ Abdurauf Fitrat. Tanlangan asarlar. 5 jildlik. 1-jild. (Nashrga tayyorlovchi: prof. X.Boltaбоев.) – Toshkent: Ma'naviyat, 2000.

²⁵ Чўлпон. Яна олдим созимни. – Toshkent: Adabiyot va san'at, 1991.

²⁶ Cho'lpon. Asarlar: Uch jildlik. J.1. She'rlar. Dramalar. Tarjima. – Toshkent.: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1994. – 448 b.

²⁷ Quronov D. Jadidlar. Abdulhamid Cho'lpon. – Toshkent.: Yoshlar nashriyot uyi, 2022. – 160 b.

mustaqillik uchun harakat boshlashi qarshi tomon shashtini susaytirishini yaxshi bilganlar. Shuning in'ikosi o'laroq Cho'lpon 1917-yil 29-avgustda "Hurriyat" gazetasi 34-sonida "Qofqosyo turklarina" atalgan "Turk salomi" she'rini e'lon qiladi. Shoir unda turkiylikka urg'u berib, "turk avlodi"ning o'tmishi va bugungi holini bayon etadi: *Bir zamonlar turk avlodi hokim edi dunyoga, // Endi mahkum bo'ldi boshqalarga, bu nega?* Cho'lponning birgina mazkur she'rida emas, aksincha, butun ijodida erk va ozodlik nafasi ufurib turar edi.

Turk adibi Tavfiq Fikrat "Anato'lu" she'rida: *Anato'lu asil eski vatandir, // Onamizning quchog'idir u ellar*, yoki "Millat qo'shig'i" manzumasida: *Birlikda topaylik dardga biror chora, // Joni bir, qoni bir, shoni bir birodarlar – biz²⁸* – deya ozodlik va erk g'oyasini tarannum etadi.

Turk dunyosi mamlakatlari, xalqlari, elatlari turli davrlar bo'hronlari silsilasida, ijtimoiy-siyosiy, fikriy-g'oyaviy, iqtisodiy-madaniy, geosiyosiy-hududiy bo'linishlar, parokandaliklar tufayli tanazzulga yuz tutdi. Buning sabablari, birlashish orzusi, hurriyat tarannumi, kuch-qudrat ehtiyoji qalamga olinarkan, turkiy millatlar ongu shuurida isloh qilinishi zarur bo'lgan kurashchanlik ruhi, keyingi davr she'ryaitida go'zal she'riy ramzlar, tashbihlar, timsollar (simvolizm janrida) millat ongiga sizdirib borildi. Cho'lpon Ergash, Rauf Parfi, Shavkat Rahmon kabi shoirlar she'rlarida, Chingiz Aytmatov, Shukur Xolmirzayev, O'ljas Sulaymonov kabi adiblarning nasriy asarlarida bu ramzlar bo'rtib chiqadi.

XULOSA

Bugungi kunda turkiy dunyo oydinlarining asriy mushtarak orzulari ushalmoqda. Turkiy davlatlar hamkorlik kengashining sammiti har yili o'tkazilmoqda. 2019 yil 15 oktyabr kuni mazkur kengashning Bokuda bo'lib o'tgan yettinchi sammitida O'zbekiston Prezidenti Sh.Mirziyoyev tashkilotga a'zo davlatlar adabiyotining eng sara namunalaridan iborat "Turkiy adabiyot durdonalari" nomli 100 jildlik kitoblar to'plamini har bir mamlakatning ona tilida chop etish tashabbusini ilgari surgan edi. Ushbu muhtasham kitoblar jamlanmasi 2022 yilning noyabr oyida Samarqand shahri mezbonlik qilgan navbatdagi sammit rafasida nashrdan chiqdi va mehmon qardosh davlatlar vakillariga taqdim etildi (Bu haqida qarang²⁹).

Jamlanmaga umumturkiy adabiyotning eng sara namunalari, o'zbek, qoraqalpoq, turk, ozarbayjon, qozoq, qirg'iz, turkman va venger adabiyotining XI-XXI asrlarga mansub 629 nafar atoqli shoir, adib va mutafakkirlarining asarlari kiritilgan. Ushbu tashabbus turkiy dunyo adabiy aloqalarini yanada mustahkamlash yo'lidagi muhim qadamlardan biri.

REFERENCES

1. Юсуф Хос Ҳожиб. Кутадғу билиг (Саодатга йўлловчи билим), транскрипция ва ҳозирги ўзбек тилига тавсиф. Нашрга тайёрловчи К.Каримов. Тошкент, Фан, 1971
2. Бегали Қосимов. Миллий уйғониш: жасорат, маърифат, фидойилик. – Тошкент: Маънавият, 2022. 4-5-б.
3. Абдурауф Фитрат. Танланган асарлар. 5 жилдлик. 1-жилд. (Нашрга тайёрловчи: проф. Ҳ.Болтабоев.) – Тошкент: Маънавият, 2000

²⁸ <https://ziyouz.uz/jahon-sheriyati/turk-sheriyati/rizo-tavfiq/>

²⁹ https://uza.uz/uz/posts/turkiy-adabiyot-durdonalari_425404

4. Чўлпон. Яна олдим созимни. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1991
5. Cho‘lpon. Asarlar: Uch jildlik. J.1. She’rlar. Dramalar. Tarjima. – Toshkent.: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1994
6. Quronov D. Jadidlar. Abdulhamid Cho‘lpon. – Toshkent.: Yoshlar nashriyot uyi, 2022
7. <https://ziyouz.uz/jahon-sheriyati/turk-sheriyati/rizo-tavfiq/>
8. https://uza.uz/uz/posts/turkiy-adabiyot-durdonalari_425404

MUNDARIJA/ TABLE OF CONTENTS/ СОДЕРЖАНИЕ

1.	THE POSITION AND ROLE OF FAIRY TALES IN TEACHING ENGLISH GRAMMAR THROUGH INDIVIDUAL AND GROUP WORK AND ITS PRACTICAL APPLICATION <i>Tolipova Ozoda Zokir qizi</i>	5
2.	SPEED ENDURANCE (MIDDLE DISTANCE) <i>Jasur Akhmatov Dilyara Kabilova</i>	9
3.	EHTIMOLLAR NAZARIYASINING MATEMATIK ASOSLARI <i>Jo'rayev Farrux Bakirovich</i>	13
4.	SONLARNING BO'LINISH ALOMATLARI <i>Mamatova Nodira Dadamirzayevna</i>	19
5.	BOSHLANG'ICH SINFLARDA ONA TILI DARSLARIDA SO'Z USTIDA ISHLASH ORQALI O'QUVCHILAR NUTQINI RIVOJLANTIRISHDA TAQQOSLASH, KUZATISH, GURUHLASH METODLARINING O'RNI <i>X.S.Bakiyeva D.R.Malikova</i>	23
6.	O'ZBEK XALQ CHOLG'USI DUTOR VA UNING TURLARI <i>Abruyeva Marxabo Abdunazarovna</i>	27
7.	BOSHLANG'ICH SINFLARDA FANLARNI O'QITISHDA QO'LLANILADIGAN USULLAR <i>Mo'minova Diloram Abdumanofovna</i>	31
8.	ИГРОВЫЕ ТЕХНОЛОГИИ НА УРОКАХ РУССКОГО ЯЗЫКА <i>Ташпулатова Мафтуна Зафарбековна</i>	35
9.	ШАХС ШАКЛЛАНИШИДА МУЛОҚОТ МАДАНИЯТИНИНГ ЎРНИ <i>Азамов Умархон Яхёхонович Нуриллаев Хайрулло Олимжон угли</i>	38
10.	ПОНЯТИЯ О ЯЗЫКЕ И ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИИ <i>Исчанова Дилбар Курбанбаевна</i>	42
11.	BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATEMATIKA FANINI O'QITISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH <i>O'sarova Sevaraxon Muhtorovna</i>	50
12.	COMPARATIVE LINGUISTICS IN THE STUDY OF UZBEK AND ENGLISH <i>Jalalova Sevara Janabay kizi</i>	52
13.	O'ZBEKISTONDA MUSTAQILIKDAN KEYINGI TA'LIM ISLOHOTLARI <i>Ramazonov Islom Abrayqul o'g'li</i>	55
14.	O'ZBEKISTONDA MUSTAQILIKDAN KEYINGI TA'LIM ISLOHOTLARI <i>Ramazonov Islom Abrayqul o'g'li</i> БРУЦЕЛЛЕЗ КАСАЛЛИГИ ВА УНГА ҚАРШИ КУРАШ ЧОРА-ТАДБИРЛАРИ	60

	<p><i>Менглиев Али Сайканович</i> <i>Сиддиқов Илхом Насритдинович</i> <i>Рахмонов Муродбек Амиркул ўғли</i> <i>Абдусатторова Мафтуна Шарофиддин қизи</i> <i>Холтўраев Анвар Ғайратович</i></p>	
15.	<p>ЁПИШҚОҚ ЭЛАСТИК МАТЕРИАЛДАН ҚИЛИНГАН ТЎҒРИ БУРЧАКЛИ ШАРНИРЛИ БОҒЛАНГАН ПЛАСТИНКА ЭГИЛИШНИ ҲИСОБЛАШ МАТЕМАТИК МОДЕЛИ <i>Халимов Камолiddин Комилжон ўғли</i> <i>Амридинов С.</i></p>	66
16.	<p>RISK OF COMPLICATIONS AFTER CORONAVIRUS INFECTION IN PREGNANT WOMEN IN THE THIRD TRIMESTER <i>Muminova Ziyoda Abrarovna</i> <i>Sayitkhonova Malika Zokirkhoja qizi</i></p>	71
17.	<p>BOLA HUQUQLARINI HIMOYA QILISHGA OID O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MILLIY QONUNCHILIGI VA XALQARO HAMKORLIGI <i>Urazaliyev Bekzad Abdirashidovich</i></p>	74
18.	<p>ТАНОСИЛ ЁКИ ОИВ КАСАЛЛИГИ/ОИТСНИ ТАРҚАТИШ ЖИНОЯТИНИНГ ТУШУНЧАСИ ВА АҲАМИЯТИ. <i>Курамбаев Тохир Хосинбаевич</i></p>	78
19.	<p>ТАНОСИЛ ЁКИ ОИВ КАСАЛЛИГИ/ОИТСНИ ТАРҚАТИШ БИЛАН БОҒЛИҚ ЖИНОЯТЛАРНИ ТЕРГОВ ҚИЛИШДА УЧРАЙДИГАН АЙРИМ МУАММОЛАР <i>Курамбаев Тохир Хосинбаевич</i></p>	83
20.	<p>BOSHLANG'ICH SINFLARDA МАТЕМАТИКА FANINI O'QITISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH <i>Malikova Lobarxon Xasanboy qizi</i></p>	94
21.	<p>BOSHLANG'ICH SINFLARDA PIRLSNING AFZALLIKLARI АНАМИЯТИ <i>Xolbutayeva Soxiba Ruzimirodovna</i> <i>Husanova Oliya Abdullayevna</i></p>	98
22.	<p>O'ZBEKISTONNING XALQARO TASHKIOTLAR BILAN BOLA HUQUQLARI BO'YICHA HAMKORLIGINI RIVOJLANTIRISHNING SAMARADORLIGI <i>Urazaliyev Bekzad Abdirashidovich</i></p>	101
23.	<p>КОРРУПЦИОН ХУҚУҚБУЗАРЛИКЛАРНИНГ ВИКТИМОЛОГИК ПРОФИЛАТИКАСИ МУАММОЛАРИ ТАҲЛИЛИ <i>Очилов Қобилбек Мамашукур ўғли</i></p>	104
24.	<p>CURRENT PROBLEMS OF DRUG ADDICTION PREVENTION AMONG YOUNG PEOPLE <i>Ochilov Qobilbek</i></p>	109
25.	<p>ЧАНГ ЧОЛҒУСИ МОХИР ИЖРОЧИСИ – ПЕДОГОГ.</p>	112

	<i>Қодиров Тождиддин Назарович</i>	
26.	<i>BIOLOGIYA DARSLARIDA GRAFIK ORGANAYZERLARDAN SAMARALI FOYDALANISH To'liboyeva Dilnoza Jumaboy qizi</i>	118
27.	<i>KIMYO FANINI O'QITISHDA PISA XALQARO BAHOLASH DASTURIDAN FOYDALANISH Begmuradov Gulmirza Raximbayevich</i>	122
28.	<i>КАПИТАЛИЗАЦИЯ КАК ОСНОВА РАЗВИТИЯ БАНКОВСКОЙ СИСТЕМЫ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН Кодиров Э</i>	125
29.	<i>PARRANDALARDA NAFAS TIZIMI KASALLIKLARI DIAGNOSTIKASI Nurmatov Sardor Tuxtamish o'g'li Xolto'rayev Anvar G'ayratovich Hasanov Elshod Abduqahhor o'g'li Daliyev Dilshod Anvar o'g'li</i>	128
30.	<i>VOYAGA YETMAGANLAR TOMONIDAN HUQUQBUZARLIKLAR SODIR ETILISHINING AYRIM TOMONLARI VA ULARNI BARTARAF ETISH MASALALARI Qandimov Ilyos Qalandar o'g'li</i>	132
31.	<i>INSON HUQUQLARI VA ERKINLIK LARI SOHASIDA TA'LIM Aslonov Navro'zbek Rustamovich</i>	137
32.	<i>ИНТЕРЛЕЙКИН - 23, ПЕРСПЕКТИВЫ ПРИМЕНЕНИЯ (ОБЗОР ЛИТЕРАТУРЫ) Набиева Дилдора Абдумаликовна Махаматходжаева Хулкар Бахтёровна Каххорова Шахло Бахтиёровна Ахмаджонова Мухайё Акрамжон кизи</i>	141
33.	<i>COĞRAFI, TARIHSEL VE ETNIK OLARAK TÜRKÇE KONUŞAN HALKLAR VE TÜRK DEVLETLERININ MEVCUT TEŞKILATI HAKKINDA Astonakulov Muhridin</i>	154
34.	<i>MILLIY HARAKATLI O'YINLARNING BOLALAR TARBIYASIDAGI IJTIMOYIY - PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI. Ikromova Sitara Akbarovna</i>	159
35.	<i>LEGISLATIVE ACTIVITY OF THE STATE IN PREPARING YOUNG PEOPLE FOR FAMILY RELATIONS Ergashev Yuldash Danabaevich</i>	163
36.	<i>THE MIXED METHODS IN TEACHING: ROLE OF BELIEFS Abdukodirova Damira Damirovna</i>	167
37.	<i>O'QITUVCHINING INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH VA BOSHLANG'ICH SINIF</i>	170

	<i>O'QUVCHILARINING INTELLEKTUAL SALOHIYATINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI</i> <i>G'aynazarova Saidaxon Gulomovna</i>	
38.	<i>KASBIY TA'LIMDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH</i> <i>Abdumo'minov Burxonjon Sunnatillo o'g'li</i> <i>Qambarov Bahriddin Panji o'g'li</i>	174
39.	<i>EVTANAZIYA NIMA, U JINOYATMI?</i> <i>Ergasheva Zebiniso Berkinovna</i>	178
40.	<i>MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA DAUN SENDROMI</i> <i>Bahriddinova Nargiza Jaloliddinovna</i> <i>Qo'ysinboyeva Iroda G'ulomjon qizi</i>	181
41.	<i>BOSHLANG'ICH SINFLARDA SAVODXONLIKNI RIVOJLANTIRISHNING INNOVATSION METODLARI</i> <i>Shodiyeva Bahora Axmadjonovna</i>	185
42.	<i>BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'QUVCHILARNING UZUNLIKKA SAKRASH TEXNIKASINI INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA RIVOJLANTIRISH SAMARADORLIGI</i> <i>Xolbekova D.N.</i>	189
43.	<i>"DAUN SINDROMI"</i> <i>Yusupova Dono Gafurovna</i>	194
44.	<i>ADABIYOT DARSLARIDA INOVATSION TA'LIM METODI</i> <i>Qulmurodova Fotima Mirzayevna</i>	201
45.	<i>17-19 YOSHLI QISQA MASOFAGA YUGURUVCHILAR ORGANIZMIGA JISMONIY TAYYORGARLIKNING TA'SIRI</i> <i>F.Ch.Ziyayev</i> <i>E.X.Raximov</i>	204
46.	<i>17-19 YOSHLI QISQA MASOFAGA YUGURUVCHI SPORTCHILARDA TEZKOR-KUCH SIFATLARINI RIVOJLANTIRISH USLUBIYATI</i> <i>N.B.Normuradov</i> <i>E.X.Raximov</i>	210
47.	<i>RESEARCH AND DEVELOPMENT OF ADDITIVES TO IMPROVE THE OPERATIONAL PROPERTIES OF MOTOR OILS USED IN MILITARY EQUIPMENT</i> <i>Shamansurov Bakhtiyor Rakhimberdievich</i> <i>Khasanov Farrukh Davronovich</i>	216
48.	<i>ИГРОВЫЕ МЕТОДЫ И ПРИЁМЫ ОБУЧЕНИЯ РУССКОМУ ЯЗЫКУ В ИНОЯЗЫЧНЫХ ГРУППАХ</i> <i>Оринбаева Сайёра Юсуповна</i>	221

49.	<i>14-15 YOSHDAGI QISQA MASOFAGA YUGURUVCHILARNI MAXSUS KUCH SIFATINI OSHIRISHGA QARATILGAN MASHG'ULOTLARINING SAMARADORLIGI</i> <i>K.T.Shakirjanova</i> <i>I.A.Yusupov</i> <i>F.R.Toirov</i>	224
50.	<i>KO'CHISH VA TUTUQ BELGISINING FARQI</i> <i>Hayitova Aziza Baxtiyor qizi</i> <i>Tog'aymurodova Mutabar G'anijon qizi</i>	229
51.	<i>BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING INTELLEKTUAL QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH – PEDAGOGIK ZARURIYAT</i> <i>Ibragimova Yulduzxon Baxodirovna</i>	234
52.	<i>ONA TILI O'QITISH METODIKASINING ILMIY ASOSLARI VA TAMOYILLARI</i> <i>Xaydarova Dilnoza Xikmatovna</i>	237
53.	<i>BUGUNGI KUNDAGI IMLO MUAMMOLARI</i> <i>Ro'ziyeva Marjona Ixtiyor qizi</i>	240
54.	<i>ОБРАЗ МАТЕРИ В ПРОЗЕ Ч.Т.АЙТМАТОВА</i> <i>Муродова Дилдора Арабовна</i>	244
55.	<i>QORAMOLLAR EKSTERERI, INTERERI VA KONSTITUTSIYASI.</i> <i>Murodov Botir Yoqubovich</i>	247
56.	<i>QORAMOLLAR MAHSULDORLIGI</i> <i>Murodov Botir Yoqubovich</i>	252
57.	<i>ҲАЙВОНЛАР ВА ОДАМЛАР УЧУН УМУМИЙ БЎЛГАН КАСАЛЛИКЛАР</i> <i>Бобоёрова М.А</i> <i>Хамрақулов Ғ.Х</i>	256
58.	<i>A'ZAM O'KTAM IJODINING G'OYAVIY-BADIIY MANZARASI</i> <i>Raimova Sayyora Zoitovna</i> <i>Jo'rayeva Gavhar</i>	260
59.	<i>ADABIYOT DARSLARIDA JAHON ADABIYOTI NAMUNALARI TAHLILIGA KOMPRAVISTIK YONDASHUVI</i> <i>Feruza Turoпова Bexzodovna</i>	264
60.	<i>BOSHLANG'ICH SINFLARDA CHET TILINI NOAN'ANAVIY USULLARDA O'RGATISH</i> <i>Melixolova Muxabbat Boltayevna</i>	270
61.	<i>AVESTO YOZUVI</i> <i>Bazarov Sherali Abdinazarovich</i>	273
62.	<i>“YOSHLARNI MA'NAVIY AXLOQIY JIHATDAN TARBIYALASHNING ILMIY PEDAGOGIK ASOSLARI”</i> <i>Ziyoyeva Mavluda</i>	276

63.	BOSHLANG'ICH SINFI O'QUVCHILARIDA MULOQOTCHANLIK O'RNI MUAMMOSINI ILMIY METODOLOGIK ASOSLARI <i>Samarova Shohista Rabidjanovna Xudayqulova Laylo Choriyevna</i>	278
64.	O'QITUVCHILAR, TALABALAR VA DARS DAN TASHQARI BOSHLANG'ICH TA'LIMDAGI FAOLIYAT <i>Avazxonov Shohnazar Gulnazarzoda Qahhorov Behzod Akromovich</i>	282
65.	ONA TILI DARSLARINI TASHKIL ETISHNING INNOVATSION USULLARI VA ULARNING AHAMIYATI <i>Toshova Gulbarno Juraboyevna</i>	286
66.	ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИДА СУД ҲОКИМИЯТИНИНГ КОНСТИТУЦИЯВИЙ-ҲУҚУҚИЙ МАКОМИНИ МУСТАХКАМЛАНИШИ <i>Исмоилов Адҳам Баходирович</i>	289
67.	BOSHLANG'ICH TA'LIMDA XALQARO VAHOLASH DASTURLARI <i>Azizova Gulmira Azamovna</i>	293
68.	NOTIQLIK SAN'ATI VA UNING KELIB CHIQISH TARIXI <i>Usmonaliyeva Shaxnoza Turg'unaliyevna</i>	296
69.	TA'LIM TIZIMIDA PEDAGOGIK DAVRLAR VA TEXNOLOGIYALAR RIVOJLANISHI TARIXI <i>N.Adizov</i>	301
70.	JISMONIY MADANIYAT DARSINING TASHKILY VA USLUBIY ASOSLARI <i>Turayev Jo'rabek Ixtiyor o'g'li</i>	305
71.	SHUKUR XOLMIRZAYEV ASARLARIDA JONIVORLAR OBRAZI <i>Osomiddinova Gulxayo</i>	310
72.	TURKIY QAVMLARNING MUSHTARAK ORZUSI, BUGUNGI AMALIY TASHABBUSLAR. <i>Muhriddin Rahmatulla o'g'li Toshpo'latov</i>	318

Eslatma!!! “Modern science and Research” jurnaliga kiritilgan maqolalardagi raqamlar, ma’lumotlar to’g’ri ekanligiga va maqola mazmuniga mualliflar shaxsan javobgardirlar.

«MODERN SCIENCE AND RESEARCH»

INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL

VOLUME 2/ISSUE 2

Issn: 2181-3906

“Modern Science and Research” MCHJ

Litsenziya № 042359/10.10.2022

Manzil: 100115, Toshkent shahri “Yangi hayot” tumani, “Humo” MFY 7a, 8/41

Tel: +99891-982-31-31